

MADANIYATSHUNOSLIK FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: t.f.n. A.G‘afurov

Buxoro - 2014

«Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. «Madaniyat» tushunchasi talqini»

Reja:

- 1.Madaniyatshunoslik fani predmeti, uni o‘rganishning metodologik asoslari.
 - 2.Madaniyatning tarkibiy kismlari va vazifalari. Madaniyat va sivilizatsiya.
 - 3.Madaniyatshunoslikda kadriyatlar kategoriyasi. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar.
 - 4.O‘zbekistonning milliy tiklanish jarayonida madaniyatshunoslikning dolzarbliyi.
1. Madaniyatshunoslik fani predmeti, uni o‘rganishning metodologik asoslari.

Madaniyatshunoslik eng yosh fan xisoblanadi. U asosan XX asr ikkinchi yarmida Mustakil fan sifatida shakllandi va Garb mamlakatlari Oliy o‘kuv yurtlarida o‘kitila boshlandi. Sobik Sovet Ittifoki davrida madaniyatshunoslikka soxta fan deb karaldi, unga etarli e’tibor berilmadi, ta’lim muassasalarida o‘kitilmadi. O‘zbekiston o‘zining davlat Mustakilligini ko‘lga kiritgandan keyin madaniyatshunoslik fanini respublika Oliy o‘kuv yurtlarida aloxida fan sifatida o‘kitish yo‘lga ko‘yildi.

Xo‘sish, madaniyatshunoslik kanday fan?

Madaniyatshunoslik madaniyat to‘grisidagi fan bo‘lib, madaniyat tarixi va madaniyat nazariyasidan iborat. Madaniyatshunoslik fani insoniyatga xos madaniy jarayonni, uning mazmun-moxiyati va axamiyatini taxlil kiladigan, madaniyat tarakkiyotining umumiy konunlarini o‘rganadigan gumanitar fandir. Madaniyatshunoslik fani, birinchidan, ibtidoiy turmush tarzidan to xozirgi kungacha bo‘lgan davrdagi madaniy jarayonni butunligicha, yaxlit idrok etishga, madaniyat tarakkiyoti xakida barcha fanlar tomonidan to‘plangan bilim va tushunchalarni integratsiyalashga ko‘maklashuvchi fandir.

Ikkinchidan, madaniyatshunoslik madaniyatni murakkab va dinamik xodisa, o‘ziga xos fenomen, sistema sifatida o‘rganuvchi fandir. Uchinchidan, insoniyat tarakkiyotining barcha boskichlariga xos madaniy jarayonni, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy-madaniy yutuklarni takkoslash, solishtirish orkali eng umumiy madaniyatshunoslik konunlarini aniklovchi fandir.

Madaniyatshunoslik fani boshka gumanitar fanlar bilan bevosita boglik xolda o‘rganiladi.

Madaniyatshunoslik gumanitar fan sifatida falsafa fani bilan yakin alokadordir. Falsafa fanining asosiy masalasi rux yoki materiya birlamchimi degan masala emas, balki insoniyat xayotining ma’no-mazmuni masalasıdir. Aynan bu masala bilan madaniyatshunoslik fani xam shugullanadi. Falsafa fani olamda insonning o‘rni, jamiyat tarakkiyoti xakida muloxaza yuritadi, jamiyat

tarakkiyotining umumiy konunlarini tadkik kiladi. Bu masalalarni tadkik kilish u yoki bu darajada madaniyatshunoslikka xam xosdir. Falsafa fanining vujudga kelishi va rivojlanishining o‘zi madaniyat tarakkiyotining maxsulidir.

Madaniyatshunoslik sotsiologiya fani bilan xam yakin alokadordir. Negaki, sotsiologiyaning jamiyat ijtimoiy-siyosiy xayoti, jamiyatda kishilarning mavkei xakida to‘plagan ma’lumotlaridan madaniyatshunoslik fanida foydalaniladi. Umumnazariy xulosalar chikarishda sotsiologik materiallar dalil sifatida xizmat kiladi.

Madaniyatshunoslik fani Politologiya (siyosatshunoslik) fanining davlat kurilishi va tuzilishi, siyosiy rejimning turlari va xususiyatlari, jamiyatni siyosiy boshkarish usullari xakidagi ma’lumotlariga asoslanadi, ularga tayanib umumiy nazariy xulosalar chikaradi.

Madaniyatshunoslik fani insonning ichki dunyosi xakida fikr yuritishda psixologiya fani yutuklaridan, jamiyat tarakkiyotining turli boskichlaridagi turmush tarzi, urf-odatlarni, milliy madaniy mentalitetlarni tasvirlashda etnografiya fani ma’lumotlariga asoslanadi.

Madaniyatshunoslik fani tarix fani bilan bevosita boglikdir. Madaniyatshunos jaxon xalklari tarixini yaxshi bilmogi zarur. Busiz insoniyat tarakkiyotining turli boskichlarida shakllangan tarixiy madaniyat turlarini, ularning xususiyatlarini, u yoki bu davrga xos madaniy mentalitetni tasvirlay olmaydi. Insoniyatning shakllanishi va tarakkiyoti xakidagi tarixiy faktlar, vokea-xodisalarni bilish madaniyatning kelib chikishi va rivojlanishi jarayoni to‘grisida nazariy xulosalar kilishga, madaniy tarakkiyotga xos konunlar chikarishga ko‘maklashadi. SHu nuktai nazardan karaganda madaniyat tarixi madaniyatshunoslik fanining tarkibiy kismidir. SHuningdek, madaniyatshunoslik fani boshka ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan xam yakindan alokadadir.

Madaniyatshunoslik fani boshka gumanitar fanlardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan fark kiladi. Madaniyatshunoslik fani ko‘p asrlik madaniyat tarixini aslida kanday bo‘lsa shunday tasvirlaydi, madaniyatning moxiyati, xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi, tadrijiy tarakkiyoti, muammolari, insoniyat xayotidagi roli to‘grisida yaxlit tasavvur beradi. Aynan shu fan barcha darajalardagi va turli mintakalar madaniyatiga, uning aloxida shaxslardan to butun insoniyatgacha bo‘lgan turli xil ob’ektlariga tadbikan ko‘llash mumkin bo‘lgan eng umumiy madaniyatshunoslik konuniyatlarini aniklash imkoniyatiga ega.

Xulosa kilib aytganda, madaniyatshunoslik fanining predmeti, uning tadkikot ob’ekti insoniyatning asrlar davomidagi madaniy faoliyati, madaniy tarakkiyot yutuklari, ularning ma’no-mazmunini o‘rganishdan iboratdir.

Madaniyatshunoslik fani tadkikot olib borishda bir kator metodologik tamoyillarga tayanadi. Dialektik metod madaniyatshunoslikning muxim metodi bo‘lib, insoniyatning madaniy xayotini, ming yillar davomida insonlar yaratgan moddiy va ma’naviy yutuklarni yaxlit, umumiy va o‘zaro boglik xolda o‘rganishga imkon beradi. Dialektik metod biron-bir mamlakat yoki mintakada kechgan madaniy jarayonni, jumladan O‘zbekiston xalkining asrlar

davomida shakllangan madaniyatini jaxon xalklari madaniyati rivoji bilan uzviy boglik xolda o'rganish, tadkik kilishga ko'maklashadi va madaniy tarakkiyotga xos umumiy madaniyatshunoslik konuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Madaniyatshunoslik fani ob'ektni o'rganishda ilmiy bilishning sistemali yondashuv metodiga tayanadi. Sistemali yondashuv bo'laklarni butun orkali, butunni uning bo'laklari orkali taxlil etish, o'rganishni takoza etadi. Bu metod madaniyat tarkibiga kiruvchi til, din, xukuk, axlok-odob, ta'lim-tarbiya, adabiyot, san'at va xokazo bo'laklar orkali butun jamiyat tarakkiyoti to'grisida umumlashtirilgan xulosalar chikarishga, jamiyat tarakkiyoti orkali esa madaniyat tarkibiga kiruvchi bo'laklarni taxlil kilishga imkon beradi.

Madaniyatshunoslik fani o'z tadkikotlarida tarixiylik metodiga asoslanadi. Tarixiylik metodi madaniyatga davriy nuktai nazardan o'zgarib, yangilanib, rivojlanib, boyib boruvchi jarayon sifatida karaydi. Tarixiylik metodi xar bir xalk madaniyatini, xar bir davr madaniyatini o'z davri nuktai nazardan baxolashni, xozirgi madaniy xayotni va erishilgan yutuklarni o'tgan zamon madaniyatiga takkoslab tasavvur kilish, tasvirlashni talab kiladi.

Madaniyatshunoslik fanida vorisiylik muxim tamoyil xisoblanadi. Vorisiylik negizida xayotiylik yotadi. Kishilar o'zidan oldingi avlodlar yaratgan madaniy boyliklarga tayanib yashaydilar, ularga tayanib yangiliklarni yaratadilar. Agar vorisiylik negizida xayotiylik bo'lmanida edi, "biz uchun o'tmish sovuk, befoyda, o'lik va kizikarsiz bo'lib kolaverardi", deb takidlaydi J.Neru. SHarkshunos olim Maks Myuller Xind sivilizatsiyasi xakida fikr yuritar ekan "eng zamonaviy va eng kadimiy Xind sivilizatsiyasi o'rtasida uzlusiz vorisiylik mavjud", deb yozadi. Vorisiylik barcha xalklar madaniyati tarakkiyotiga xos uzlusiz jarayondir.

Madaniyat bir tekisda rivojlanuvchi jarayon emas. Ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy munosabatlar ta'sirida madaniyat tarakkiyotida inkirozli yoki sakrash xolatlari xam yuz berib turadi. Bunday xolatlarni taxlil kilishda iktisodiy, sotsiologik, statistik va bilishning boshka ilmiy metodlardan xam foydalaniladi.

Madaniyatshunoslik fani o'z predmetini o'rganishda tadkikotchidan o'z idroki, ichki sezgilar bilan xis kilish orkali xakikatni anglashni xam talab kiladi. Bu tamoyil turli xil madaniyat soxalariga chukurrok kirishga, dalilu-ashyolar yordamida isbotlarsiz bevosita ichki sezgilar, mushoxada orkali xakikatni bilish imkoniyatini beradi. SHuningdek, madaniyatshunoslikda madaniyatning moddiy va ma'naviy unsurlarini talkin kilish, turli davrlarga xos yozuv matnlarini SHarklash, izoxlab berish, tushuntirish (Germenevtika) usulidan xam foydalanadi.

Xullas, madaniyatshunoslik boshka fanlar singari ilmiylik, xolislik, xakkoniylik talablariga javob beruvchi bilishning anik metodlariga tayangan xolda tadkikot yuritadi.

Madaniyatshunoslik fanini o'rganishning zaruriyati shundaki, insoniyat jamiyat tarakkiyotiga fakat siyosiy, iktisodiy, texnikaviy, xukukiyl tadbirlar bilan erishib bo'lmaydi, shular bilan bir katorda jamiyat ma'naviy-madaniy

xayotini xam yuksaltirishga erishmogi zarur bo‘ladi. "Ma’naviyat yo‘k joyda, - degan edi Prezident Islom Karimov, - xech kachon baxt-saodat bo‘lmaydi".

2. Madaniyatning tarkibiy kismlari va vazifalari. Madaniyat va sivilizatsiya.

Madaniyatshunoslik fanini o‘rganishda madaniyat so‘zining ma’no-mazmunini bilish, idrok kila olish muxim o‘ringa ega. Madaniyat so‘zi Madina shaxri nomi bilan boglik xolda kelib chikkan. Madina – to‘lik arabcha nomi Madinat-Rasulillox, ya’ni payxambar shaxri xisoblanib, obodonchiligi, ko‘rkamligi bilan Arabistonagi axoli yashaydigan boshka manzilgoxlardan ajralib turar edi. SHuningdek, Madina Makkadan keyin musulmonlar ibodat kiladigan eng yirik shaxardir. SHu tarika madaniyat so‘zi bizning o‘lkamizga Madina shaxri nomi bilan, islom dini bilan boglik tarzda kirib kelgan.

Fanda, odamlar o‘rtasidagi mulokatda madaniyat so‘zi bilan bir katorda kultura so‘zi xam ishlatiladi. Kultura so‘zi lotincha "culture" so‘zidan olingan bo‘lib, "ishlov berish", "ekib o‘sirish" ma’nosini bildiradi. Rus faylasuflari N.Berdyaev va V.Rozinovlar "kultura" so‘zining "kult" ya’ni diniy ibodat, signish so‘zidan kelib chikkanligini kayd etganlar.

Xozirgi paytda insoniyat faoliyatining ko‘pgina soxalarida madaniyat yoki kultura so‘zi ko‘llaniladi. Kadimgi Rimda madaniyat deganda shaxsning tarbiyalanganlik, ma’rifatlilik darajasi tushunilgan. Keyinrok madaniyat deganda shaxsning kadr-kimmati, takomilligi tushunilgan. Nemis faylasufi F.SHiller kishilardagi insoniylik fazilatlarini, uning ichki dunyosi, ma’naviylik darajasini madaniyat deb tushuntirgan. Amerikalik madaniyatshunos olim Eduard Teylor (1832-1917) madaniyat atamasini ilm-fanga kiritdi. Teylor o‘zining "Pervobyttnaya kultura" (1871) asarida: "madaniyat keng ma’noda kishining jamiyat a’zosi sifatida o‘zlashtirgan bilimi, e’tikodi, san’ati, axlokodobi, konun-koidalari va boshka bir kator kobiliyatları va odatlari yigindisidan tashkil topadi", deb ta’kidlaydi.

Faylasuf va madaniyatshunos V.M.Rozin iborasi bilan aytganda "Kancha yirik madaniyatshunos bo‘lsa shuncha nazariyalar, tushunchalar mavjud" (V.M. Rozin. Kulturologiya. Uchebnik. – M., 1998, 49-bet). Darxakikat, E.Teylor zamonida madaniyatning 7 ta ta’rifi bo‘lgan bo‘lsa, 1950 yillarda uning soni 150 taga, xozirgi kunda esa madaniyatga berilgan tushunchalar soni 400 taga etadi. Bu ta’riflar umumlashtirilsa madaniyat so‘zining ma’no-mazmunini kuyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat–uzok tarixiy tarakkiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar, asori-atikalar yigindisi.
2. Madaniyat – u yoki bu jamiyatga xos falsafiy xarashlar, ilm, fan, maorif, san’at, axlok, din, xukuk, siyosat, maishiy xizmat ko‘rsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy tarakkiyot darajasi.
3. Madaniyat – insonlar xayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy kadriyatlar majmui.
4. Madaniyat - xar bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazilatlari va ijodiy faoliyatining ifodasidir.

Madaniyatni ko'llanilishiga karab shaxsiy, oilaviy, kasbiy, tabakaviy, milliy madaniyat, jamiyat madaniyati, umuminsoniy madaniyat kabi shakllarga bo'lib o'rganish xam mumkin. Kundalik xayotda "muomala madaniyati", "mexnat madaniyati", "nutk madaniyati", "ishlab chikarish madaniyati", "xizmat ko'rsatish madaniyati", "dam olish madaniyati", "xukukiy madaniyat" kabi tushunchalar xam ko'llaniladi.

Madaniyat inson xayotida muxim vazifalarni bajaradi. Ular orasida kuyidagilarni aloxida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Madaniyat, avvalo, ijtimoiy vazifalarni, ya'ni shaxsni, odamni inson kilib shakllantirish va tarbiyalash vazifasini bajaradi. Madaniyat xar bir shaxsning insoniyat yaratgan bilimlarni, ma'naviy kadriyatlarni, tartib-koidalarni o'zlashtirib olish, tarbiyalash, jamiyatning to'la xukukli a'zosi sifatida faoliyat yuritish kobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi. Insonning tabiat xukmronligidan ajralib chikishi madaniyatga xos ayrim elementlarning shakllanishi bilan birga sodir bo'ladi. Aynan madaniyat orkali xar bir shaxs jamiyatda to'plangan tajribalarni, an'analar va urf-odatlarni turmush tarzini o'zlashtiradi, ular keyingi avlodlarga etkaziladi.

Madaniyat axborotlarni o'zlashtirish, bilish, tushunish vazifasini bajaradi. Madaniyat inson uchun dunyoni bilish, dunyo to'grisida turli ma'lumotlar, axborotlar olish, ularni avloddan avlodga o'tib borishini ta'minlaydi.

Madaniyat tartibga soluvchi vazifani xam bajaradi, ya'ni kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilangan tartib-koidalalar, axlokiy-xukukiy normalar asosida tartibga solishga xizmat kiladi.

Madaniyat kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashuv bilan boglik bo'lgan, aloka uchun xizmat kiladigan vazifani bajaradi. Bu borada til asosiy vosita rolini o'ynaydi. Gap shundaki, madaniyatning bir kator soxalari – fan, san'at, texnika va boshkalarning o'ziga xos tili bo'lib, ularni bilmasdan turib madaniyatni to'laligicha bilib bo'lmaydi.

Madaniyat aksiologik vazifani xam bajaradi, ya'ni kishilar tomonidan moddiy, ma'naviy, estetik, axlokiy kadriyatlarni egallashga, yomondan yaxshini, be'mani, xunuk narsalardan go'zallikni ajrata bilishga ko'maklashadi.

Madaniyat ijodkorlikni rivojlantirish vazifasini xam bajaradi. Insonni mavjud madaniyatga tankidiy-ijodiy karash, isloq kilish, takomillashtirish, yangi bilimlar, koidalalar, kadriyatlar, tartib-koidalalar yaratishga undaydi.

Madaniyat kishilardagi jismoniy va ruxiy tolkishni kaydash, xordik chikarish, tiklanish, kayfiyatini ko'tarish yo'lidagi tadbirlar, o'yinlar tashkil etuvchi vazifalarni xam bajaradi.

Madaniyat doimo tarakkiy etuvchi ko'p kirrali jarayon, uning tarkibiga kiruvchi elementlari o'zgarib turadi. SHu jixatdan tadkikotchilar madaniyatni o'ziga xos belgilari, sifatiga karab bir necha turlarga bo'ladilar. Madaniyatga sivilizatsion nuktai nazardan yondashuvchi mutaxassislar insoniyat bir necha sivilizatsiyalarni bosib o'tganligini ta'kidlaydilar.

Madaniyatni tili, dini, an'analari, kadriyatlari, iktisodiyoti yakinligini inobatga olib milliy, mintakaviy, davriy jixatdan bir necha turlarga bo'lish keng tarkalgan. Milliy madaniyatda til asosiy vosita sifatida olinsa, mintakaviy

madaniyatda diniy, axlokiy, badiiy, moddiy, geografik yakinlik, umumiylit nazarda tutiladi. Madaniyatni irkiy omilni nazarda tutgan xolda bo‘lish xolatlari xam uchraydi. Fransuz faylasufi J.Gobino jamiyat, madaniyat, din, til to‘laligicha irkiy jixatlar bilan boglik, madaniyat mavjud tabiiy sharoit bilan boglik deb tushuntiradi va Evropa madaniyatini negroid madaniyatdan eng yukori, ustun darajada deb xisoblaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida ayrim mutaxassislar jamiyat va madaniyat soxasida yuz bergen o‘zgarishlarni tushuntirish uchun kontkultura, subkultura tushunchalarini ko‘llay boshladilar. Kontkultura deganda xukmron madaniyatga xarshi nazariyalar, kadriyatlar, falsafiy, badiiy karashlar, ideallar tushuniladi. Subkultura deganda jamiyatdagi turli sinflar, tabakalar, guruxlarga xos madaniy jixatlar xisobga olinadi. SHuningdek kashshoklar, kambagallar, o‘rta tabakalar, yukori tabakalar, jamiyatdagi elita katlamlari madaniyati degan tushunchalar xam ishlatiladi. Masalan, ayrim tadkikotchilar kambagal tabakalar madaniyati shaxsiy gigienadan tortib bilim darajasigacha bo‘lgan soxalarda past saviyada namoyon bo‘ladi, deb tushuntiradilar. Jamiyatni umumiyl madaniyat asosida birlashtirishga intiluvchi ommaviy madaniyat mavjudligi xakida fikr bildiruvchilar xam bor.

YOshlar orasida modaga berilgan xotin-kizlar, ayrim muzikaga ("pop", "rok") berilgan yoki aloxida jargon bilan gaplashishni xush ko‘radigan subkulturalar xakida xam fikrlar mavjud. SHaxar madaniyati, kishlok madaniyati, kasb madaniyati, ular o‘rtasidagi farklar xakida xam gapiriladi. Bularning xammasi madaniyatning murakkab tarkibiy tizimdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Madaniyatshunoslik fanida shaxs kamolati muxim masaladir. SHaxsning barkamol inson bo‘lib etishishida tarixiy, ijtimoiy-madaniy muxitning ta’siri katta. Inson ma’lum ijtimoiy-madaniy muxitda dunyoga keladi, go‘daklik chogidayok shaxs ijtimoiy-madaniy muxitni tayyor xolda topadi. Mavjud ijtimoiy-madaniy muxit ta’sirida shaxs ijtimoiy shaxsga aylanadi. SHaxsning ijtimoiylashuvi madaniy-ijtimoiy muxit yaratgan va rioya kilinadigan kadriyatlarni, urf-odatlarni, axlok-odobni, moddiy va ma’naviy boyliklarni, goyaviy andozalarni o‘zlashtirish, kabul kilish orkali sodir bo‘ladi, shaxs inson sifatida shakllanadi. SHu bilan birga shaxsda o‘tkinchi extiyojlarni – yurist, iktisodchi, injener, vrach, pedagog, san’atkor bo‘lish, boy bo‘lish, amaldor bo‘lish, shon-shuxrat kozonish, turli unvonlar olish va boshka extiyojlarni kondirish kabi istaklar xam paydo bo‘ladi. Buning uchun ta’lim muassasalarida kunt bilan o‘kib, dunyo va jamiyat, ularning tarakkiyot konunlari to‘grisidagi umumiyl bilimlarni egallash, maxsus kasbiy fanlarni o‘rganish, izlanish, xayotiy tajriba orttirish, intellektual saloxiyatga ega bo‘lish zarur bo‘ladi.

Madaniyat kishining nafakat ijtimoiylashuvini, shuningdek jamiyat bilan integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Madaniyat insonga barkamollikka erishishga, ijodiy kuchlarini namoyon etishga ko‘maklashadi. SHaxsning madaniy darajasini baxolashda uning axli, tafakkuri, ongi, axloki, xulk-atvori xam muxim o‘rin tutadi. Madaniyat insonning yashirin, betakror individual xususiyatlari, kobiliyatlarini ro‘yobga chixarish, o‘stirish va rivojlantirishga yordam beradi.

SHaxsni barkamol kilib etishtirishda jamiyat madaniyatining bir kator tizimlari aloxida axamiyatga ega. Masalan:

Siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, maksadlarini ifodalovchi siyosiy-xukukiy goyalar majmuidir. Siyosiy madaniyat jamiyatning turli ijtimoiy tabakalari manfaatlari bilan boglik xolda vujudga keladi va siyosiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. xar bir ijtimoiy tabaka o‘zining siyosiy manfaatlaridan kelib chikib goyalar, dasturlar ishlab chikadi, siyosiy tashkilotlar tuzadi va siyosiy xokimiyat uchun turli usullar, vositalar bilan amaliy xarakat kiladi.

Siyosiy madaniyat **xukukiy madaniyat** bilan boglik. Xukukiy madaniyat konunlarni bilish, ularga amal kilish, xukukiy ong, xukukiy saviya, xukukiy munosabatlar, xukukiy faollik madaniyati demakdir.

Iktisodiy madaniyat deganda iktisodiy bilim, iktisodiy ong, iktisodiy faoliyat, iktisodiy-ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. SHaxs iktisodiy madaniyati jamiyat iktisodiy madaniyatining tarkibiy kismidir. SHaxs iktisodiy madaniyatining kamol topishi uchun iktisodiy kadriyatlarni, iktisodiy bilimlarni puxta egallashi lozim, shundagina u erkin iktisodiy faoliyat yurita oladi.

Axlokiy madaniyat tarkibiga axlokiy ong, axlokiy munosabat va axlokiy faoliyat kiradi. Jamiyat axlokiy madaniyati axlokiy kadriyatlar tizimini ifodalasa, shaxs axlokiy madaniyatida axlokiy kadriyatlarning individuallikda kanday darajada aks etishi ifodalanadi.

Barkamol insonni tarbiyalashda ekologik madaniyat, estetik madaniyat, din, fan va boshkalar xam muxim axamiyatga ega.

Ko‘pgina xollarda madaniyat va sivilizatsiya so‘zleri yonma-yon ishlataladi. Masalan, "kadimgi Misr sivilizatsiyasi", "kadimgi Misr madaniyati". Bu atamalar go‘yo bir xil ma’noni anglatganday ko‘rinadi. Aslda esa sivilizatsiya va madaniyat bir-biridan fark kiluvchi tushunchalardir. Faylasuflardan O.SHpengler va A.A.Berdyaev asarlarida sivilizatsiya – bu insoniyat borlikining moddiy-texnik tomoni, madaniyat esa uning ma’naviy tomonidir, deb tushuntiriladi.

Insoniyat xayotida sivilizatsiya va madaniyat o‘zaro boglik xolda rivojlanib kelmokda. Gap shundaki, odam paydo bo‘lgandan beri, ongli mavjudod sifatida yashash uchun kurashib kelmokda. Odam dastlab o‘zini o‘rab turgan olam oldida, tabiatning daxshatli xodisalari, kaxratonsovuk, jazirama issik oldida ojiz, ximoyasiz, yalongoch bir mavjudod edi. Birok odam barcha tirik mavjudodlardan o‘z ongliligi bilan ajralib turardi, xammasidan ustun edi. Inson ongliligi tufayli yashash uchun kurashdi, o‘zini o‘rab turgan tabiatga ishlov berib, asta-sekin o‘zi uchun zarur kulayliklar yaratib bordi. Bu kulayliklar yaratilish usuli, mazmun-moxiyatiga ko‘ra sivilizatsiya yoki madaniyat atamalari bilan tushuntiriladi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan ov va mexnat kurollari, olovdan foydalanishni o‘zlashtirish, chorvachilik, dexkonchilik, xunarmandchilik, kiyim-bosh, uyjoy, yirik suv inshootlari, binolar, mashinalar, texnika tarakkiyoti, transport, aloka, maishiy xizmat vositalari kabilar sivilizatsiya tushunchasiga kiradi.

Demak, sivilizatsiya deganda insonlar o‘zлari uchun yaratgan jismoniy kulayliklar, moddiy extiyojlarini kondiruvchi moddiy-texnik vositalar tushuniladi.

Madaniyat esa yashash uchun kurashning ruxiy, ma’naviy usullaridir. Masalan, odam yirtkich xayvonlardan ximoyalanish usulini, ya’ni sivilizatsiya yo‘lini topishi mumkin. Lekin inson o‘limdan o‘zini saklay olmaydi, o‘lim xak. Demak, odam o‘zini o‘zgartirishi, o‘lim vasvasi bilan doimo daxshat ostida bo‘lmasligi, unga ko‘nikishi zarur bo‘ladi. Bu soxada madaniyat xarakatga keladi. Madaniyat insonlarga ruxiy, ma’naviy kulayliklar yaratadi, shaxsni, uning tabiat xakidagi tafakkurini o‘zgartiradi, insonda ichki barxarorlikni shakllantiradi. Ma’naviyat orkali inson o‘lim daxshatini engadi, kezi kelganda Vatani, xalki uchun o‘limga xam tik boradi. Ibtidoiy jamiyatdagi sexgarlik, jodugarlik, afsungarlik, xozirgi zamon dinlari, xalk ko‘shiklari, adabiyot, san’at, axlok-odob va boshkalar – bularning xammasi madaniyat soxasiga kiradi. Agar sivilizatsiya insonning moddiy extiyojlarini kondirsa, madaniyat uning ma’naviy extiyojlarini kondiradi.

Sivilizatsiya so‘zi lotincha grajdanchilik, davlatchilik so‘zidan kelib chikkan. Sivilizatsiya so‘zi ma’rifatparvarlarning XVI asrdan boshlab urushlarsiz xamda mutaassib ruxoniylar ta’siridan ozod jamiyat uchun kurashishlari jarayonida fanga kirib keldi. Sivilizatsiya so‘zi jamiyat tarakkiyotining darajasini belgilovchi tushunchadir. Sivilizatsiya insoniyat tarakkiyotidagi uchta katta davrning (yovvoyilik, vaxshiylik va sivilizatsiya) oxirgisi bo‘lib, u yozuvning, davlatning, xukukiy tartib-koidalarning kelib chikishidan, ya’ni bundan 6 ming yillar mukaddam (Misrda) boshlangan. Sivilizatsiyaning boshlanishi bilan turli xil dinlar, gumanistik va axlokiy kadriyatlar keng tarkala boshlaydi. Sivilizatsiya barcha mintakalarda birdaniga boshlanmagan, turli mintakalarda birin-ketin vujudga kelgan, albatta.

Sivilizatsiya madaniyat tushunchasi kabi insoniyat tarakkiyotining maxsuli. Kadimgi davrlarda kadimgi Misr sivilizatsiyasi, O‘rta dengiz sivilizatsiyasi, Xind sivilizatsiyasi, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ayrim xududlarda, bir-biri bilan u kadar boglanmagan xolda shakllangan bo‘lsa, XVI-XX asrlarda umumjaxon sivilizatsiyasi shaklida mujassamlashdi. Dunyoda ilgor fan, texnika, texnologiya, axborot vositalari asosida ish yuritayotgan, ma’rifatparvar, demokratik jamiyat, xukukiy davlat kurgan mamlakatlar mavjud, ular xakikiy sivilizatsiya yo‘liga kirib bormokdalar. Jumladan, Mustakil O‘zbekiston xam yuksak sivilizatsiyali demokratik jamiyat kurish yo‘lidan bormokda.

Madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasida mantikiy birlik, umumiylilik mavjud, negaki ularning xar ikkalasi xam inson faoliyatining maxsulidir. xam moddiy, xam ma’naviy tarakkiyotning boshida insonlarning ma’naviy tafakkuri, niyatları, goyalari, o‘ylari, loyixalari, mo‘ljallari turadi, so‘ngra ular moddiy shaklda namoyon bo‘ladi. Bunga nafakat texnik inshootlarining, shuningdek badiiy asarlarning yaratilishi xam misol bo‘la oladi. Masalan, Amir Temur xaykalida, avvalo, yaratuvchining ma’naviy tafakkuri, loyixasi, mo‘ljali, so‘ngra ularning moddiy shaklga kirgan ajoyib moddiy monumentni ko‘ramiz.

3. Madanaiyatshunoslikda kadriyatlar kategoriysi. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar.

Kadriyat, xayotda kadriyatlarga moslashish, kadriyatlarni mo‘ljallab ish tutish madaniyatshunoslik fanining muxim kategoriyasidir.

Kishilar ongida kadriyat kategoriysi turli narsa va xodisalarni takkoslash orkali shakllanadi. Inson dunyoni anglab olgandagina, dunyoda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan xodisalar, vokealar, o‘zgarishlarni tushunib etgandagina, o‘zining xayoti uchun nimalar muxim yoki muxim emasligini, nimalarsiz yashash mumkin yoki mumkin emasligini ajrata oladi. Tabiiyki, xar bir inson o‘z kadriyatlar dunyosini o‘zicha aniklaydi. Demak, kadriyatlar bu narsalar emas, balki narsalarga, xodisalar va boshkalarga munosabatdir. SHunday kadriyatlar borki, ularsiz ma’lum davr madaniyati kemtik, nokulay bo‘lib koladi. SHaxs madaniyati misolida bu xolatni kuyidagicha tasvirlash mumkin bo‘ladi: kadriyat shunday narsaki, usiz biron shaxsning to‘la yoki kisman mavjudligi o‘z axamiyatini yo‘kotadi. Masalan, oshik bo‘lib kolgan odam uchun o‘z sevgilisi, ota-onasi uchun o‘z farzandi, olim uchun ilm-fan shunday kadriyatki, undan maxrum bo‘lsa xayotning kizigi kolmaydi. Xar bir davr madaniyatining shunday kadriyatlar tizimi borki, ularsiz mazkur madaniyatning mavjudligi mazmunsiz bo‘lib xoladi.

Kadriyatlar deganda nimani tushunmok kerak?

Kadriyatlar – borlik va jamiyat, narsalar, vokealar, xodisalar, inson xayoti, moddiy va ma’naviy boyliklarning axamiyatini ko‘rsatish uchun ko‘llaniladigan tushuncha. Ko‘pgina xollarda kishilar kimmatbaxo buyumlarni kadriyat deyishadi. Aslida esa kadriyat so‘zining ma’nosи boshkacharok. Masalan, ming yillar ilgarigi buyumning baxosi arzimas bo‘lishi mumkin, negaki, uni xozir ishlatib bo‘lmaydi. Ammo meros sifatida u buyum nigoyatda kadrli, axamiyatli bo‘lishi mumkin.

Kiska kilib aytganda, kadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun axamiyatli bo‘lgan barcha moddiy va ma’naviy madaniyat unsurlari tushuniladi. Kadriyat insoniyat yaratgan va yaratayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarning gultojidir. Kadriyatlarning axamiyati shundaki, ular kishilarning xulk-atvorini tartibga solish va to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat kiladi.

Kadriyatlarni madaniyat singari moddiy va ma’naviy kadriyatlarga ajratish mumkin. Moddiy kadriyatlarga insonlar uchun jismoniy kulayliklar yaratuvchi xo‘jalik, texnik, soglik, jinsiy juftlik, boylik, kulay maishiy shart-sharoitlar, toza suv, sifatli ozik-ovkat va boshkalarni kiritish mumkin.

Ma’naviy kadriyatlarga ilmiy, axlokiy, estetik, diniy, badiiy va boshka kadriyatlar kiradi. Ayrim kadriyatlar tarixiy, davriy xususiyat kasb etib, davr o‘zgarishi bilan o‘zgarib borishi mumkin. SHu bilan birga doimiy, universal axamiyatga ega bo‘lgan kadriyatlar xam mavjud. Masalan, odamni kaxramonlikka, Vatanga sodiklikka undovchi kadriyatlar. Badiiy, axlokiy kadriyatlar xam universal kadriyatlar xisoblanadi. Eng yuksak kadriyatlar ezgulik, mexr va muruvvat, mexnat, xayot, muxabbat,adolat, xakikat, baxt singari mezonlarda ifodalanadi. Bu ne’matlar shuning uchun kadriyatlar

deyiladiki, ularni kishilar o‘zlarini uchun axamiyatli bo‘lganligi uchun kadrlaydilar.

Kadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning asrlar davomidagi amaliy faoliyatida shakllanadi va rivojlanadi. Kadriyatlar orasida eng oliysi inson, uning xayotidir. Jamiyat tarakkiyotida, inson xayotida erkinlik, ozodlik, tenglik, barxarorlik, tinchlik, totuvlik aloxida axamiyatga ega bo‘lgan kadriyatlardir.

Kadriyatlar amal kilish doirasiga ko‘ra milliy, mintakaviy va umuminsoniy turlarga xam bo‘linadi.

Milliy kadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruxiy xodisa bo‘lib, u millatning genofondi, tili, turmush tarzi, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari, milliy ongi, moddiy va ma’naviy boyliklari, iktisodiy, ijtimoiy-siyosiy xayotining barcha jixatlarida namoyon bo‘ladi. O‘z milliy kadriyatiga ega bo‘Imagan millat yo‘k. Milliy kadriyatlarning soxibi muayyan millatdir. Millatning tanazzuli ayni xolda milliy kadriyatlarning tanazzuli xamdir. xar bir millat o‘z kadriyatlarini yaratuvchisi, asrab-avaylovchisi va kelajakka etkazuvchisi xamdir. Millat siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga xaram bo‘lib kolganda xam o‘z milliy kadriyatlarini saklash tuygusi yo‘kolib ketmaydi, milliy kadriyatlari ma’lum darajada saklanib koladi.

O‘zbek xalkining boy, o‘ziga xos betakror milliy kadriyatlari bor, ular bir necha ming yillar davomida shakllangan. Kadriyatlar dastlab maxalliy mazmunda, ya’ni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarkand, Toshkent, Farkona va xokazo xududlarda yashovchi axoliga xos urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va xokazo tarzda shakllanadi. So‘ngra ularning eng muximlari asrlar davomida saralanib umummilliyligini kadriyatlardan darajasiga ko‘tariladi. O‘zbek xalkiga xos kuyidagi jixatlar uning milliy kadriyatlari sifatida boshka xalklar tomonidan e’tirof etilgan:

1. tugilgan makon va ona yurtga extirom;
2. avlodlar xotirasiga sadokat;
3. kattalarga xurmat, kichiklarga izzat;
4. mexmondo’stlik;
5. bolajonlik;
6. ma’naviyat-axlok-odob-ma’rifat;
7. muomalada mulozamat, xayo, andishalik;
8. ogir kunlarda vazminlik, sabr-tokat va xokazo.

Mustakillik ko‘lga kiritilgach, milliy kadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Mustamlakachilik davrida toptalgan milliy kadriyatlarni tiklandi, yangi ma’no-mazmun bilan boyib bormokda.

Kadriyatlar xakida gap borganda mintakaviy kadriyatlarni inobatga olinadi. Mintakaviy kadriyatlarni xududi, tarixi, iktisodiyoti, madaniyati, dini, tili, urf-odatlari va an’analari mushtarak bo‘lgan xalklar manfaatiga xizmat kiladigan tabiiy va ijtimoiy xodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy kadriyatlar – odamzod uchun, kishilik jamiyati uchun eng kadrli bo‘lgan narsalar, xodisalar, faoliyat va boshkalarning umumijtimoiy kadrini, axamiyatini ifodalash maksadida ko‘llaniladigan tushunchadir. Umuminsoniy kadriyatlar kategoriyasining mazmunini to‘lik anglab etish uchun, avvalo, umuminsoniylik tushunchasining ma’nosini bilmok zarur. Umuminsoniylik deganda odamlar uchun umumiyligini bo‘lgan mezonlar, ob’ektiv va sub’ektiv xolatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshkalar tushuniladi.

Umuminsoniy kadriyatlar deganda umumjamiyat, butun insoniyat uchun muxim axamiyatga ega bo‘lgan, insoniyatning mavjudligi, o‘tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo‘nalishlari, konun-koidalari, talab va tartibotlarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va idealarini o‘zida aks ettiradigan kadriyatlar nazarda tutiladi. Butun insoniyat uchun umumiyligini foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chixarish, boshkarishni tashkil etish, kosmonavtika, kibernetika, axborot texnologiyalari umuminsoniy kadriyatlar jumlasiga kiradi. Umuminsoniy kadriyatlarga madaniyat, ma’naviyat, fan, din, san’at, xukuk, siyosat, ijtimoiy ong shakllari bilan boglik yutuklar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ma’naviy kamolotning yo‘nalishlari, vositalari kiradi. Inson, uning xayoti, yaxshilik, go‘zallik,adolat, xakikat, erkinlik, tenglik, do‘stlik, muxabbat, baxt-saodat, vatanparvarlik va xokazolar umuminsoniy kadriyatlarning eng oliysi, ideal kadriyatlardir.

4. O‘zbekistonning milliy tiklanish jarayonida madaniyatshunoslikning dolzarbliji.

Insoniyat tarakkiyotining xozirgi boskichida madaniyatning milliy o‘ziga xosligini saklash dolzarb muammolar jumlasiga kiradi. Negaki, ko‘p xollarda dunyoda sodir bo‘layotgan globallashuv, iktisodiy va siyosiy modernizatsiyalashuv jarayoni ta’siri ostida dunyo standartlashish va birxillashish tomon bormokda, milliy o‘ziga xoslik, milliy madaniyatga xos jixatlar yo‘kolib ketadi, degan fikr-muloxazalar ustunlik kilishga xarakat kilmokda. Amaliy xayot esa bunday karashlarning asossiz ekanligini ko‘rsatmokda, inkor etmokda. Aksincha, xayotiy tajribalar ko‘rsatmokdaki, xususan milliy belgilarning xilma-xilligi jaxon madaniyatining barxarorligini va rivojlanishini ta’minlamokda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1998 yil 6 noyabrda YUNESKO Ijroiya Kengashi sessiyasida so‘zlagan nutkida shunday ta’kidlaydi: "Men umuminsoniy kadriyatlar rivojini xar bir xalk madaniyati va o‘ziga xosligining o‘zaro uygunlashuvi deb bilaman. Madaniyatlarning shu tarzdagi uygunlashuvigina umuminsoniy madaniyat va butun sivilizatsiyaning go‘zalligi va kadr-kimmatini yaratadi. Zero, umumiyligini sivilizatsiya turli xalklarning madaniyatlaridan shakllanadi" (Asarlar, T. 7, 194-bet).

xozirgi tarakkiyotning tendensiyasi madaniy-ma’naviy merosning roli va axamiyatini kayta anglashdan, milliy an’analarni xozirgi xayotga faol ko‘llashdan iborat. Bu muammo ayniksa O‘zbekiston uchun nigoyatda dolzarb axamiyatga ega. Negaki, mustabid sovet xokimiyyati davrida o‘zbek xalkining milliy madaniyati, ma’naviy merosi poymol kilindi, ularni unutish, ona tilimiz

- o‘zbek tilini kadrsizlantirish yo‘li tutilgan edi. Bu davrda madaniyat mafkuralashtirildi, kommunistik mafkuraga mos kelmaydigan tomonlari yo‘k kilindi, turli fikr yuritishlar inkor etildi, ong ustidan xukmronlik kilindi, asrlar davomida shakllangan an’anaviy axlokiy va estetik kadriyatlarga eskilik koldiklari sifatida xaraldi.

SHu boisdan O‘zbekiston davlat mustakilligini ko‘lga kiritgan kundan boshlab, jaxon madaniyatining tarkibiy, ajralmas kismi xisoblangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy madaniy-ma’naviy merosimizni tiklash yo‘lidan bordi. Bu yo‘l O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Xo‘sh madaniy-ma’naviy meros nima?

Madaniy-ma’naviy meros kadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha etib kelgan madaniy-ma’naviy boyliklar - siyosiy, iktisodiy, falsafiy, xukukiy va diniy xarashlar, axlok-odob me’yorlari, ilm-fan yutuklari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari va boshka milliy kadriyatlar majmuidir. Bunday boyliklar, kadriyatlar bir yilda, bir asrda xosil ?ilinadigan xodisa emas, ular jamiyat tarakkiyotining barcha boskichlarida uning extiyoji tufayli yuzaga keladi. Ular jamiyat siyosiy jixatdan o‘zgarishi bilan yo‘kolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo‘lib xoladi. Madaniy-ma’naviy meros insonni yuksalishga da’vat etadigan, ichki olamini boyitadigan, irodasini, e’tikodini mustaxkamlaydigan kudratli kuchdir.

Istiklol yillarda O‘zbekistonda madaniy-ma’naviy merosni tiklash va yanada rivojlantirish borasida katta yutuklarga erishildi. Bu milliy ongning o‘sishida muxim axamiyatga egadir. Madaniy merosning tiklanishi kuyidagi muxim jixatlarda namoyon bo‘lmokda:

1. Xalkimizning kadimiy madaniy-ma’naviy merosiga, kadriyatlari va ideallariga kayta nazar solish, yangicha anglash, tiklashning zarurligi va muximligi e’tirof etildi;
2. Merosimizni tiklashga saralash nuktai nazardan yondashildi, milliy madaniyatning umuminsoniy kadriyatlarni boyitadigan, jamiyatimizni yangilash va insonparvarlashtirishga xizmat kiladigan eng muxim, axamiyatli yutuklari, jixatlari tiklanmokda;
3. Keng xalkaro alokalar rivojlanmokda, umuminsoniy kadriyatlarga uygunlashib borilmokda;
4. o‘z tafakkuri bilan Mustakillik ruxini belgilab beradigan ziyolilarning yangi avlodi shakllanmokda;
5. SHaxs va ijtimoiy ongda yangicha dunyoxarash, gumanistik tafakkur shakllanib bormokda.

Mustakillik tufayli mamlakatimizda umuminsoniy demokratik kadriyatlarga mos ochik fukarolik jamiyati shakllantirilmokda. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Baxovuddin Nakshband, Xoja Axmad YAssaviy, Axmad al-Fargoniy, Amir Temur, Burxoniddin Marginoniy, Moturudiy kabi ko‘plab, nafakat bizning milliy madaniyatimiz, balki butun jaxon sivilizatsiyasi xazinasiga salmokli xissa ko‘shgan buyuk ajdodlarimizning nomi, xayrli ishlari

o‘z o‘rnini topdi, ularning unutilgan asarlari nashr etildi, etilmokda. Xalk kaxramonlari, buyuk shaxslar nomlari oklandi, ular xotirasini namoyon etuvchi yodgorlik majmualari, xaykallar bunyod etildi.

Milliy madaniyatimizning tiklanishida madaniyatshunoslik muxim o‘ringa ega. Aynan shu fan madaniy-ma’naviy soxalardagi unutilgan xarashlarni, zo‘rovonlarcha paymol etilgan kadriyatlarni aniklash, kayta tiklash va yangi ma’no-mazmun bilan boyitish kabi faoliyatga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda gumanistik idealarni, madaniy-ma’rifiy kadriyatlarni tiklash umumbashariy axamiyatga ega. SHu ma’noda Prezident Islom Karimov: "Kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma’naviyat tutkaradi" degan so‘zlarini eslash o‘rinlidir (Asarlar t. 7, 194-bet).

Madaniyatning nazariy muammolari va tarixiga umuminsoniy kadriyatlar nuktai nazardan, xar bir davr va xar bir xalk madaniyatiga xurmat nuktai nazardan yondashuvchi madaniyatshunoslik fani "madaniyatlar mulokoti"ni amalga oshirishga, gumanistik goyalarning Uygonishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta’lim-tarbiya soxasi muxim rol o‘ynaydi.

Ta’limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashib borishi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim isloxitining muxim yutukidir. Negaki, amalga oshirilayotgan isloxitlarimizning pirovard natijasi iktisodiyotga, davlat boshkaruviga, jamoat tashkilotlari va boshka soxalarga kanday mutaxasislarning kelishiga boglik, albatta. SHu boisdan bugungi kunda talabalarimizning madaniy va ma’naviy-axlokiy saviyasi o‘ta dolzarb masala xisoblanadi. Xususan, Oliy ta’lim muassasalari oldidagi asosiy vazifa, bitiruvchilarni ijtimoiy xayotning Mustakil sub’ekti sifatida shakllantirishga erishishdir. Buning mazmuni shundan iboratki, xar bir bitiruvchi siyosiy, axlokiy, estetik, iktisodiy, dunyoviy va boshka soxalarda Mustakil, tushunib etgan xolda xarorlar kabul kilishga etilgan bo‘lishi zarur. Talabalarda bunday malakalarni shakllantirishda madaniyatshunoslik muxim o‘ringa egadir.

Xulosa kilib aytganda, madaniyatshunoslik yangicha fikrlashni, insonparvarlik va vatanparvarlik tuygularini shakllantiruvchi fan sifatida O‘zbekistonning milliy tiklanishida, ta’lim-tarbiya tizimida muxim rol o‘ynaydi.

Mustakil o‘rganish uchun tavsiya etiladi: Madaniyatning komil inson shakllanishidagi o‘rni.

Tayanch so‘z va iboralar:

Madaniyat. Mentalitet. Dialektik metod. Sistemali yondashuv metodi. Tarixiylik metodi. Vorisiylik. Moddiy madaniyat. Ma’naviy madaniyat. Madaniyatning vazifalari. Sivilizatsiya. Kadriyat. Milliy kadriyatlar. Umuminsoniy kadriyatlar. Madaniy-ma’naviy meros.

Savol va topshiriklar:

1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti, o‘rganish ob’ekti nimalardan iborat?
2. Madaniyatshunoslikning boshka gumanitar fanlar bilan boglik tomonlarini tushuntirib bering?

3. Madaniyatshunoslik fani kanday metodologik tamoyillarga tayanadi?
4. Madaniyat so‘zining kelib chikishi xakida nimalarni bilasiz?
5. Madaniyat so‘zi kanday ma’nolarni bildiradi?
6. Madaniyat insoniyat xayotida kanday vazifalarni bajaradi?
7. SHaxsning barkamol inson bo‘lib etishishida madaniyatshunoslik fanining axamiyati nimalardan iborat?
8. Siyosat, xukukiy, iktisodiy madaniyat deganda nimalarni tushunasiz?
9. Axlokiy, estetik va ekologik madaniyat so‘zlarining ma’nosini nima?
10. Sivilizatsiya deganda nimani tushunasiz?
11. Madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasidagi umumiylilik nimalarda namoyon bo‘ladi?
12. Kadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
13. Milliy kadriyatlar nima?
14. Umuminsoniy kadriyatlar deganda nimalarni tushunasiz?
15. Madaniy-ma’naviy meros nima?
16. "XXI asrda dunyoni ma’naviyat va ma’rifat kutkaradi" degan mavzuda referat yozing.
17. O‘zbekistonning milliy tiklanishida madaniyatshunoslikning o‘rnini tushuntirib bering

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O‘zbekiston, 1996, 76-85 betlar.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘k. T. 7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 132-154 betlar.
3. Karimov I.A YUNESKO Ijroya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so‘zlangan nutk. T. 7. – T.: O‘zbekiston 1999, 193-206-betlar.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmokda. T. 7. – T.: O‘zbekiston, 1999, 370-375, 381 betlar.
5. Karimov I.A. Milliy istiklol mafkurasi-xalk e’tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000, 489-508- betlar.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maksadimiz. T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000, 341-343 betlar.
7. Axmedova E., Gabidullin R. Kulturologiya. – T., 2001.
8. Esin A.B. Vvedenie v kulturologiyu: Osnovnye ponyatiya kulturologii v sistematiceskem izlojenii. – M., 1999, str. 5-61.

Ko‘shimcha adabiyotlar:

1. Boboev v. b. Madaniyatshunoslik. – T.: YAngi asr avlodi, 2001, 6-42, 109-116 betlar.
2. Gurevich P. Kulturologiya. – M., 2000.

«An'anaviy madaniyat»

Reja:

1. Kadimgi Misr madaniyati.
2. Kadimgi Mesopatamiya madaniyati.
3. Kadimgi Hindiston madaniyati.
4. Kadimgi Xitoy madaniyati.
5. Kadimgi O'rta Osiyo madaniyati.

Insoniyat tarixida ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lganiga 6 ming yildan oshdi. SHunday sivilizatsiyalarning eng Kadimgilari Misr va ikki daryo oralig'i Mesopatamiyada vujudga kelgan. Avvalo bular ibtidoiy jamoa tuzumida yaratilgan moddiy va madaniy madaniyat yutuklarini o'zida aks ettirgan tarzda tarakkiyotning davomi bo'lgan. Ikkinci tomondan, bu erlarda iklimi kulay, eri unumdon bo'lganligidan sug'orma dehkonchilik tez rivojlanib borgan.

Kadimgi Misr madaniyati er.avv. IV ming yillikdan er.avv. 332 yilgacha davrni o'z ichiga oladi. U o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni yozuvi, adabiyoti, san'ati, arxitektura kurilishi bilan ajralib turadi.

Tigr va Efrat daryolari oralig'idagi erlarning asosiy aholisi shumerlar, akkadlar, vavilonlar, xaldeylar, ossuriyalilar, xurritlar va arameylardan iborat bo'lgan. Bular orasida SHumer, Bobil, Ossuriya madaniyatlari anchayin yuksaklikka ko'tarilgan.

Kadimgi Hindiston va Xitoy madaniyatlarining ham o'ziga xos vujudga kelishi, rivojlanishi ham antik dunyo tarixida o'ziga xos jihatlari bilan ko'zga tashlanib turadi.

1. Kadimgi Misr madaniyati.

Kadimgi Misr ilk sivilizatsiya o'choklaridan biri sifatida o'ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi. U Afrikaning shimoli-sharkida joylashgan. Nil –dunyodagi eng katta daryolaridan biri bo'lib, u Markaziy Afrikadan boshlanib, Misrni kesib o'tib, O'rta er dengiziga ko'yiladi. Misrda ilk dehkonchilikning paydo bo'lishi ham eng avvalo shu daryo bilan bog'lik bo'lgan. Kadimdan Misrda tabiatи issik, hayvonot, o'simlik dunyosi va er osti boyliklari ko'p bo'lganligi bois bu erda moddiy va ma'naviy madaniyat juda erta vujudga kelib rivojlangan. Misrda davlatning paydo bo'lishi mil. avv. IV ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Nil daryosining shimolida va janubida 40 dan ortik shahar davlatlari – nomlar paydo bo'lgan. Nomlarni nomarxlar boshkarib, ular dehkonchilik, chorvachilik, sug'orish, harbiy va diniy ishlarni boshkarganlar. Bular ilk kuldorlik davlatlari edilar. Bu davlatchalarning shimoliy va janubiy birlashmalarini vujudga keladi. Mil. avv. III minginchi yil boshlarida Janub podshosi Minaning SHimoliy uyushma

ustidan g‘alaba kilishi natijasida yagona Misr davlatiga asos solinadi. Uning poytaxti Memfis shahri bo‘lgan.

O‘zining Vatani tarixini yozgan kohin Manefon Kadimgi Misr tarixini to‘rtga bo‘lib: Kadimgi (mil. avv. III minginchi yil), O‘rta (mil. avv. III minginchi yil oxiri – II minginchi yil boshlari), Yangi (mil. avv. II minginchi yil), Kuyi (mil. avv. I minginchi yil) podsholik davrlariga bo‘ladi. Bu davrlar jami 30 ta firavnlar sulolarini o‘z ichiga oladi.

Kadimgi Misr dunyo sivilizatsiyasining tom ma’nodagi klassik namunasi bo‘ldi. SHuning uchun ham Kadimgi yunon tarixchisi Gerodot bu mamlakatni "Nilning in’omi" deb bejiz aytmagan. Bahor oylarida Nil toshkini natijasida daryo bo‘ylaridagi erlarda hosil bo‘lgan kora mineralga boy koldiklar dehkonchilik uchun "tekin ozuka" bo‘lib xizmat kilgan. Daryo bo‘ylarida turli xil granit, marmar kabi toshlarning bo‘lishi esa kurilishga yaxshi material hisoblangan.

Misr tarixining barcha davrlarida hayvonlar, tabiat hodisalari va ota-bobolar ruhiga e’tikod kilish keng tarkalgan. SHu bilan birga Misrda yagona davlatning vujudga kelishi bilan firavn – podsholarga e’tikod kilish va ularni ilohiyashtirish paydo bo‘lgan. Birinchi o‘rinda karchig‘ay boshli Kuyosh xudosi – Ra yoki Amon-Ra bo‘lib, u har kuni oltin kayikchasida osmonni kezib chikadi va g‘arbgaga tushadi (misrliklar tasavvurida). Misrliklar Kuyosh xudosiga atab ibodatxonalar kurganlar.

Xudolar ichida Osiris alohida o‘rin tutadi. U avval dehkonchilik homiysi bo‘lib, eshak boshli, kizil ko‘zli yovuz xudo Set tomonidan o‘ldirilgan. Osiris narigi dunyodagi podshohlikda shoh va sudya bo‘lib oladi. Xudolar misrliklar uchun birgina dunyoni yaratuvchi bo‘libgina kolmay, hunarmandchilik, san’at, yozuv, hisob, sehrgarlik va ilm-fanning yaratuvchilari ham hisoblanganlar. Ular ieroglyph yozuvini "Xudoning so‘zi" deb tushunar edilar. Bunda so‘z va hisob hukmroni, yozuvni yaratuvchisi, adabiyot va yozuvchilarning, sehrgarlar va tabiblarning homiysi Totu hisoblangan.

Misrda xudolarga sig‘inish bilan birga podshoh - firavnlariga sig‘inish ham alohida o‘rin tutgan. Misrliklar Firavnni erdag‘i xudo deb hisoblashar, shuning uchun ularga atab Piramidalarni kurishgan, ularning nomlarini abadiylashtirganlar.

Kadimgi podsholik davrida papirus kog‘ozining tayyorlanishi yozma madaniyatni rivojlantirishga olib kelgan bo‘lsa, Misrda mis davrida birinchi bo‘lib asalarichilikning kashf kelinishi va yoyilishi ham dunyoviy ahamiyatga ega bo‘ldi. SHu bilan birga shu davrda dehkonchilik, bog‘dorchilik, polizchilik va uzumchilik rivojlangan.

Kadimgi Misr podsholigi davrida etakchi madaniyat yo‘nalishi - bu arxitektura bo‘lib, u boshka madaniyat turlari bilan uyg‘unlikda rivojlandi. Birinchi piramida arxitektor Imxotep loyihasi asosida Fiza va Joserga atab Sakkarada (mil. avv. III ming yillikda) kurilgan bo‘lib, u buyi 60 metr, pillapoya shaklida kurilgan. Imxotep birinchi arxitektor bo‘libgina kolmay, ayni chog‘da olim, yozuvchi, tabib ham edi. Vafotidan keyin unga atab ibodatxona kurilgan.

Ikkinchisi Dashurda kurligan Snofru piramidasi to‘rt burchakli shaklda bo‘lib, uning bo‘yi 100 metr edi. Gizadagi firavn Xufu makbarasi-piramidasi o‘zining ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Xufu (yunoncha Xeops) makbarasining bo‘yi 150 metr (hozir 146 metr), egallagan joyi 52,900 m² bo‘lib, uning kurilishiga og‘irligi 2-15 tonnalik 2 mln. 300 mingta tarashlangan tosh ishlatalgan. Piramida 30 yil ichida kurligan. Xufu piramidasi olamning etti mo‘jizasining biri hisoblanadi. Gizada kurligan ulkan sfinks (uzunligi 57 metr) Xafra sher surati tarzida bo‘lib, o‘zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Hammasi bo‘lib 80 ga yakin piramidalar kurligan. Piramidalar Kadimgi Misrning o‘ziga xos ramziga aylangan.

Piramidalar kurlishi Kadimgi Misr uchun juda kimmatga tushgan va Misr iktisodini izdan chikaraboshlagan. SHu sababli firavnlar mil.avv. XVII asrdan e’tiboran piramidalar kurishdan voz kechganlar.

Arxitektura bilan birgalikda haykaltaroshlik namunalari ham yaratilgan. Bular jumlasiga firavn Narmer (bo‘yi – 64 sm), "Kishlok oksokoli", "Mirzo Kan", "SHahzoda Raxotep va uning rafikasi Nofret" kabi toshdan yasalgan haykalchalarni nisbat berish mumkin.

O‘rta podsholik, yoki boshkacha kilib aytganda klassik davrda kurollar yasashda bronzadan keng foydalana boshlangan. Oyna ishlab chikarish yo‘lga ko‘yiladi. Kadimgi ayniksa o‘rta podsholik davrida matematika sohasida katta yutuklarga erishilgan. Jumladan, sanok tizimi kashf etilgan. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000, 100000, hatto millionni ham bildiruvchi alohida belgilar bo‘lgan. Misr astronomlari yulduzlar, sayyoralar harakatini o‘rganib, birinchi yulduzlar osmoni xaritasini tuzganlar. SHunday xaritalar Senmut makbarasi, Edfu va Dendir ibodatxonalarining shiplarida saklanib kolgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo‘lib alohida takvim tuzganlar. Unga ko‘ra, bir yil 365 kunni tashkil kilib, u 12 oyga bo‘linadi. Har oy 30 kundan iborat bo‘lgan Kolgan 5 kunni esa bayram kilihsigancha. Kum va suv soatlari ham dastlab Misrda kashf etilgan.

Misrda tibbiyat ham erta rivojlangan. Mil.avv. 3600 yilda Memfisda afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona kuripli, u erda bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Geliopolis va Sais shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus maktablar bo‘lgan. Tibbiyotga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan. Tabiblar mumiyolash jarayonida inson a’zolarining ichki tuzilishini yaxshi bilganlar. Ular, bemorlarni davolashda terapiya, jarroklik, ruhiy ta’sir etish usullarini ko‘llashgan. Misrda Georg, Zbers, Zdvin, Smit, Brugsha, Zrazistrat, Xerofil kabi mashhur hakimlar shuhrat topgan.

Kadimgi misrliklar geografiya fani sohasida ham dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lganlar. Kadimgi Misr geograflari o‘z o‘lkalari va Arabiston yarim orolining xaritasini chizganlar. Ularning Arabiston cho‘llaridagi oltin konlari joylashgan rayonning xaritasi hozirgacha saklanib kolgan.

O‘rta podsholik davrida adabiyot juda rivojlangan. Bu davrda juda ko‘p ko‘shik, ertak va makollar yaratilgan. O‘scha davrda "Ikki og‘a-ini hakida", "To‘g‘ri va egri hakida", "Izida va Osiris hakida" ertaklar, "Sor va Set janjali" nomli afsonalar juda mashhur bo‘lgan.

Dunyoda birinchi bo'lib Misrda teatr kashf kilingan. Ibodatxonalarda diniy dramalar ko'yilgan. Xususan, teatrlarda Osirisning o'limi va kayta tirlishi ko'rinishlari ijro etilgan.

Yangi podsholik davri Kadimgi Misr tarixida moddiy va ma'naviy rivojlanishning eng cho'kkisi hisoblanadi. Bu davrda misrliklar temirdan foydalanishga o'tganlar, to'kimachilik dastgohini kashf kilingan, yilkichilikni (otlar) o'zlashtirganlar. CHig'irikni va sharufni kashf etilishi polizchilik va bog'dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan. Xullas, bu davrda mamlakat iktisodi tez o'sadi. Bu esa jamiyatning boy tabakasining yanada boyishiga va san'atning rivojlanishiga olib keldi.

Yangi podsholik davrida Misrda firavn Tutmos I davridan boshlab "Podsholar vodiysida" firavnlar o'zlariga mahobatli va labirintli makbaralarni, haykallarni kurdiradilar. Bularga Amenxotep III va Abusimbedagi Ramzus II g'orli makbaralari haykallari misol bo'la oladi. Ayniksa, Fivada kurilgan Karnak va Luksor makbaralari arxitektor Ineni boshchiligidagi kurilgan bo'lib, bu yirik arxitektura majmui kurilishida baland ustunlar ishlatalig'an.

Bu davrda ko'p janrli adabiyot ham rivojlanadi. Diniy "Marhumlar kitobi", realizm ruhidagi "Ikki og'a-ini hakida ertak", sevgi hakida "YUrakni rohatlantiruvchi ko'shik" kabi asarlar yuzaga keldi.

Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda firavnlarning turmush tarzini aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Haykaltarosh Tutmos tomonidan yaratilgan firavn Exnaton va uning rafikasi Nefertiti asarlari o'zining betakrorligi, go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. 1922 yili topilgan Tutatxamon makbarasidagi (yagona to'la saklanib kolgan) Misr madaniyatiga taallukli ko'plab kimmatlari yodgorliklar ichida firavnning mashhur oltindan kilingan nikobi ham bor.

Kuyi Misr podsholigi davrida Misr inkiroz jarayoniniboshidan kechirdi. YAgona Misr avval ikkiga, so'ngra mayda nomlarga (davlatchalarga) bo'linib ketadi. Misr avval Numibiya, Ossuriya, Eron ta'siriga tushib koladi va nihoyat, mil.avv. 332 yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallanadi. SHu bilan Misrning Kadimgi davri tugaydi.

Kadimgi Misr madaniyatiga kelsak, u hozirgi kadar ham yashab kelmokda. Bu madaniyat jahon madaniyati rivojiga ham katta hissa ko'shdi. SHuning uchun ham YUnion faylasufi Aflatun Misr madaniyatini "Jami sivilizatsiyalarning onasi"¹ deb bejiz aytmagan.

2. Kadimgi Mesopotamiya madaniyati.

SHumerlar iktisodining asosini dehkonchilik tashkil kilgan bo'lib, u sug'orma dehkonchilik tizimi bilan bog'lik edi. SHu bilan birga chorvachilik ham muhim ahamiyatga ega edi. Unda metalsozlik ham yukori darajaga erishgan. Er.avv. III minginchi yil boshlariga kelib shumerliklar bronzadan mehnat kurollarini yasay boshlaydilar, er.avv. II minginchi yil oxirlariga kelib esa temir davri boshlanadi.

Mesopotamiyadagi katta yutulkardan biri bu yozuvning ixtiro kilinishi edi. Ilk yozuv mil. avv. IV ming yillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf kilingan. Bu erga ko'chib kelgan shumerlar ham ushbu yozuvni kabul kilganlar. U suratlari

yozuv bo‘lib, so‘z suratli rasm orkali ifoda etilgan. Bu fanda **ieroglyph** deb nomlangan. Masalan, kush so‘zi kushning tasviri bilan, suv so‘zi uch kator to‘lkinsimon chizik bilan ifoda etilgan. Ammo suratli yozuv bilan hamma so‘zlarni ham ifoda kilib bo‘lmagan. Uning cheklanganligi sababli bu yozuv takomillashtirib borilib, **mixxat** yozuvi kashf kilingan. Harflar kotmagan loy lavhalar sathiga uyib tushirilgan. Harflar 600ga yakin belgidan iborat bo‘lgan. Bu yozuv keyinchalik butun Janubi-G‘arbiy Osiyo xalklari orasida tarkalgan. Kadimdan Mesopatamiya mirzolari adabiy, tarixiy asarlarni sopol, teri, loy lavhalarga yozib, o‘ziga xos kitoblar yaratganlar va kutubxonalarini tashkil kilganlar. Bunday kutubxonalar Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur kabi shaharlarda mavjud bo‘lgan. Ularning ichida eng kattasi Ossuri podshosi Ashshurbanipalning Nineviyadagi kutubxonasi bo‘lib, unda 30 mingdan ortik xatli lavhalar saklangan.

Diniy-mifologiya bo‘yicha SHumer Misrdagidan fark kiluvchi tizimga ega edi. Garchi bu erda ham shahar hukmdorini Xudoning erdag'i avlodni deb karalsa-da, birok narigi dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlar Misrdagi singari katta ahamiyatga ega bo‘lolmadi. Kohinlar ham muhim ijtimoiy katlam sifatida shakllana olmadi.

SHumerlarda har bir shahar-davlat o‘zining homiysi - Xudosiga ega edi. SHu bilan birga butun Mesopatamiyada sig‘inuvchi umumiy xudolar ham mavjud bo‘lgan. SHulardan osmon xudosi – An, er xudosi – Enlil, suv xudosi – Enki. Moddiy madaniyat sohasida SHumerda arxitektura kurilishi sohasi muhim o‘rin tutgan. Bu erda xom g‘isht kashf kilingan bo‘lib, ulardan xramlar – olti, etti kavatli zikkuratlar kurilgan. Ularning ichida taniklisi Ur shahridagi "Xram-tog‘i" (er. avv. XXII-XXI asrlar) edi. Zikkuratlar observatoriylar o‘rnini ham o‘ynaganlar. Osmon jismlari harakatini kuzatish bilan astronom kohinlar shug‘ullanishgan. Kadimgi Mesopatamiya astronomlari kuyosh va oy tutilishini oldindan bilganlar. Ular kuyosh yili 365, oy yili 354 kunligini aniklab, shu asosda astronomiya takvimini tuzganlar.

Haykaltaroshlik sohasi garchand arxitektura kabi rivojlanmagan bo‘lsa-da, kichik hajmdagi haykalchalarini ibodatxonalar uchun yasalgan. Misol uchun Lagashdagi ayol haykalchasida (bo‘yi 26 sm.) etnik kiyofa belgilari ham namoyon kilingan. Bu davrga taallukli misdan yasalgan Sargonning boshi tasvirlangan haykalchada podshoning botirligi, kuchli irodasi va. kahrli xarakteri ifoda kilingan.

SHumerda badiiy adabiyot rivoji yukori darajaga ko‘tarilgan. Noyob asarlar jumlasiga "Dehkonchilik almanaxi", "Gilgamesh hakida doston" bo‘lib, unda Gilgamesh va Enkidularning do‘stligi, kahramonliklari va sarguzashtlari hakida hikoya kilinadi.

Mil. avv. III minginchi yil oxiriga kelib SHumerning inkirozga uchrashi tufayli uni Bobil bosib oladi. Bobil tarixi ikki davrga bo‘linib, Kadimgi davri mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmini va yangi davri mil. avv. I ming yillikning o‘rtalarini o‘z ichiga oladi.

Kadimgi davrning eng cho‘kkiga chikkan vakti podsho Xammurapi (1750-1732 yy) hukmronlik kilgan yillarga to‘g‘ri keladi. Xammurapi yirik davlat

tuzib, bu davlatni o‘zi tuzgan konunlar asosida boshkargan. Xammurapi to‘plami mixxat yozuvida bazalt tosh ustuni sathida bitilgan. Konunlar to‘plami 282 moddadан iborat bo‘lib, u kirish, konunlar va xulosadan iborat. Kirish kismida konunlarni chikarishdan asosiy maksad mamlakatda adolat o‘rnatishdan iborat, deb ko‘rsatilgan. Unda podsho ulug‘lanib, ko‘klarga ko‘tarilgan. Konunlarda xususiy mulk himoya kilingan. Jumladan: agar kimki ibodatxonaning yoki podshoning mulkini o‘g‘irlasa, u o‘ldirilishi lozim; o‘g‘irlik molni olgan kishi ham o‘ldirilishi kerak... Xammurapi konunlari o‘z davrining muhim tarixiy, yuridik hujjati hisoblanadi. Balandligi 2 m. bazalt ustunida Xammurapining tik turgan holida kursida o‘tirgan kuyosh va adolat xudosi Xamash ko‘lidan hokimiyat belgisi - tayokni olayotgan holati tasvirlangan. Bu jihatdan u tasviriymonumental asar hamdir.

Yangi Bobilning gullab-yashnashi podshoh Navuxodonosor (605-562 yy) davriga to‘g‘ri keladi. Uning davrida dunyoning etti mo‘jizasidan biri "Semiramidaning osma bog‘lari" kurilgan bo‘lib, uni sevgi ramzi deb ham atashadi.

SHu davrga mansub "Bobil minorasi" (balandligi 90m.) – zikkurati o‘z davrining eng ulkan arxitektura inshooti bo‘lgan. Bu minorani Gerodot ko‘rib hayron kolgan. Minora to‘g‘risida Bibliyada ham eslatib o‘tiladi.²

Kadimgi Bobilda matematika, geometriya astronomiya, tibbiyat, tarix va boshka fanlarga kizikish erta boshlangan. Erlarni o‘lchash, masofani aniklash, hosilni hisoblash va savdo-sotik ishlarini yuritish uchun matematika va geometriya kerak bo‘lgan. Bobillar son va sanashni bilganlar. 100 va 1000liklar alohida belgi bilan ifoda etganlar, hatto doiranining 360° ekanligini aniklaganlar.

Mesopatamiyada kadimdan boshlab maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularda o‘ziga to‘k kishilarining farzandlari ta’lim olgan. Maktablarning kuyi sinflarida adabiyot, til, grammatika fanlari o‘kitilgan. YUKORI sinflarida esa astronomiya, matematika, geometriya, tibbiyat va veterinariya hamda diniy darslar o‘tilgan. Maktablar davlatni boshkarish uchun xodimlar tayyorlagan.

Mesopatamiyadagi uchinchi kuchli davlat – Ossuriya edi. Ossuriya mil. avv. III ming yillikda tashkil topib, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida gullab yashnadi. Ossuriya yakin SHarkda savdo yo‘llarining kesishgan joyida joylashganligi sababli tez orada kuchli davlatga aylandi. Ossuriya madaniyatida etakchi o‘rinni arxitektura egallardi. Arxitektura obidalari ichida eng kattalari Dur-SHarrukinda kurilgan podsho Sargon II ning saroy majmui va Nineviyadagi Ashshurbanipalning saroyidir. Mazkur saroy devorlarida haykallar tasviri (hayvonlar) aks ettirilgan. Ossuriyada saroy devorlarida podsho hayotidan lavhalar va tabiat ko‘rinishlarini aks ettirish avj olgan. Masalan, podsho Ashshurbanipalning Nineviyadagi saroyining devorlarida "Katta sherlar ovi" tasvirida yaralangan, o‘layotgan va o‘lgan shersharning holatlari ustalik bilan aks ettirilgan.

YUKORIDA kayd kilinganidek, Mesopatamiyada ko‘p xudolik mavjud bo‘lib, oy xudosini shumerliklar – Nishar, akkadliklar esa Sin deb ataganlar. Kuyosh xudosini shumerliklar – Utu, akkadliklar esa SHamash deb nomlaganlar.

Venera sayyorasi xudosini shumerlar – Ianni, akkadliklar o‘z ma’budasi Ishtar bilan takkoslaganlar. Dastlab kurbonlikka odamlar so‘yilgan, keyinchalik ko‘y va ko‘zilar kurbon kilingan.

Xulosa kilib aytganda, bu o‘lkada tabiiy iklimning kulayligi, er osti boyliklarining mavjudligi, geostrategik joylashuvning mosligi - bular boshka o‘lkalarga nisbatan ertarok sun’iy sug‘orishga asoslangan dehkonchilik, hunarmandchilik va savdoning vujudga kelishiga hamda rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Moddiy madaniyatning rivojlanishi esa ma’naviy madaniyat rivojlanishiga olib keldi. Ilk davlatlarning vujudga kelishi bilan esa madaniy tarakkiyot darajasi yanada tezlashdi. Natijada Mesopotamiya ilk sivilizatsiya beshiklaridan biriga aylandi.

3. Kadimgi Hindiston madaniyati.

Hindiston hakli ravishda Kadimgi SHarkning yuksak madaniyatli mamlakatlaridan birdir. Hindiston yarim oroli kadimdan tabiiy rang-baranglik, boy o‘simplik, hayvanot va kimmatabo er osti boyliklariga ega bo‘lgan. YArim orolda ser suv Hind va Gang kabi daryolar mavjud.

Mil. avv. V ming yillikning oxiri IV ming yillikdan boshlab Hind daryosi vodiysida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehkonchilik vujudga kelgan. IV ming yillik o‘rtalariga kelib bu joyda o‘ziga xos eng Kadimgi hind madaniyati vujudga kelgan. Dehkonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotikning rivojlanishi natijasida kishloq va shaharlar paydo bo‘lgan. Nihoyat, Hind daryosi va uning Panjob viloyatida Kadimgi davlatlar yuzaga keladi. Bu davlatlarning Mohinjo-Daro, Xarappa kabi katta shaharlari bo‘lgan. Mohinjo-Daro hozirda Pokiston hududida joylashgan bo‘lib, shaharning maydoni 270 getkardan iborat. Bu erdan arxeologlar ko‘chalar, pishik va xom g‘ishtdan kurilgan turar joylar, saroylar, omborxonalar, ibodatxonalar va podsho karorgohining koldiklarini topishgan. SHaharda pishik g‘ishtdan kurilgan suv tarmog‘i va kanalizatsiya ham bo‘lgan. Badavlat kishilarning uylari, shuningdek ibodatxonalar 2-3 kavatli kilib pishik g‘ishtdan 4,5 ming yil avval kurilgan.

Xarappa shahridan arxeologlar 500 ga yakin yodgorliklar topishgan. SHahar kuriishi Mohinjo-Daro bilan deyarli bir xil. SHaharda me’morchilik, to‘kimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, zargarlik, kurolsozlik ancha rivoj topgan. Xarappaliklar o‘zlarining ieroglyph yozuvlariga ham ega bo‘lgan.³ Ikkala shaharda ham yirik g‘alla omborlari topilgan bo‘lib, bu davlatni markazlashganlik darajasini ko‘rsatadi. Hindlar dunyoda bиринчи bo‘lib paxtadan mato to‘kib, kiyimlar tikkanlar, chunki shahardan kiyim tikish, kurolsozlik ustaxona koldiklarni topilgan. Xarappa suv yo‘li va kuruklik orkali shumerlar bilan savdo alokalari olib borgan ilk kuldorlik davlati edi.

Mil. avv. II ming yillik o‘rtalaridan boshlab Eron va Turon orkali Hindistonga ko‘chmanchi, chorvador oriy kabilalari bostirib kiradi. Ular Gang va Panjob daryo vohalarining unumdar erlariga kelib o‘rnashganlar va keyinchalik mahalliy xalk bilan aralashib ketganlar. Oriylar bilan mahalliy xalk o‘rtasidagi

konli janglar hindlarning xalk og‘zaki ijodiyoti namunalari bo‘lgan "Mahobxarat" va "Ramayana" dostonlarida ham aks ettirilgan.

Hindlar o‘zlarining kadimiy yozuvlariga ega bo‘lganlar. Ularda astronomiya va matematika ham ancha rivoj topgan. Hindlar kuyosh va suv soatlaridan foydalanganlar, o‘zlarining takvimlarini tuzganlar. Xalk og‘zaki ijodining yuksak namunasi – Vedalar, gimnlar, ko‘shiklar, afsunkor va diniy duolardan iborat to‘plam tuzilgan. Vedalarda hayot va o‘lim masalalari bo‘yicha fikr yuritiladi. Bu ta’limotga ko‘ra jon doimo bo‘ladi va u kishi vafotidan keyin boshka tanaga o‘tadi. Hindlarning Veda ta’limoti inson mutlok jon bilan ko‘shilishi, o‘z jonini boshkaraolmasligi, bu juda kiyin bo‘lishiga karamay uning mumkinligi to‘g‘risida fikr-mushohada yuritiladi. Ana shu ta’limot asosida yoga harakati kelib chikkan.

Vedalarda Kadimgi Hindiston aholisining Varnalarga (kastalarga) bo‘linishi hakida ham ta’limot bor. SHu ta’limot asosida Kadimgi diniy e’tikod, Braxmanizm paydo bo‘lgan. Braxmanizm Kadimgi diniy e’tikodlardan biri bo‘lib, mil. avv. IX-VIIIasrlarda vujudga kelgan. Bu e’tikodga ko‘ra, Xudo Braxma olamni va odamni yaratgan deb hisoblagan. Hind ruhoniylari braxmanlar deb atalganlar. Braxmanlarning ta’kidlashicha, xudo odamlarni o‘z tanasining turli kismlaridan yaratgan. Xususan, xudo o‘z og‘zidan braxmanlarni; ko‘llaridan kshatrirlarni – jangchi, rojalarni; sonlaridan vayshoklar - hunarmandlar, savdogarlar, dehkonlarni; loyga belangan oyoklardan esa shudralar, ya’ni xizmatkorlarni yaratgan deb, ta’lim beriladi. SHulardan keyin esa eng past toifa - hazar kilinadiganlar yaralgan. SHunday kilib, braxmanlar ta’limotiga ko‘ra, xudo odamlarni turli toifalarga – kastalarga bo‘lib, bola kaysi kastadan tug‘ilgan bo‘lsa, u umri bo‘yi o‘sha toifada kolishi kerak bo‘lgan. Toifalarni aralashib ketishiga yo‘l ko‘yilmagan.

Mil. avv. VI asrda Hindistonda buddizm dini paydo bo‘ladi. Bu ta’limotning asoschisi Gautama SHakyamuni. U shimoliy Hindistonda mil. avv. 566-476 yoki 563-473 yillari yashagan. Buddha so‘zining sanskritcha (oliy bilimlarni egallagan, hakikatga erishgan) ma’nosini beradi. Buddizm braxmanizmdagi odamlarni kastalarga bo‘linishini koralab, jamiyatdagi barcha kishilar teng bo‘lishini e’tirof etadi.

Buddizm ta’limoti to‘rt hakikatda o‘z ifodasini topgan:

1. Turmush azob-ukubatlardan iborat;
2. Azob-ukubatlar sababi – kishilarning istaklari va nafslaridir;
3. Azob-ukubatdan kutilish uchun kishilar o‘zlarining istak va nafslarini tiyishlari kerak;
4. Azob-ukubatlardan halos bo‘lish uchun Buddha kashf etgan koidalarga amal kilishi kerak.

Buddizm ta’limoti asosida boshka odamlarga nisbatan yaxshi insoniy munosabatda bo‘lish, boshka tirik mavjudodga nisbatan zo‘ravonlik ishlatmaslik, ayniksa, o‘ldirishni ma’n etish g‘oyasi yotadi. Demak, inson axlokida gumanizm asosiy o‘rin tutadi.

Mil. avv. III asrda podsho Ashoka tomonidan Buddizmni kabul kilinishi bilan u davlat diniga aylandi. Buddizm dinining nodir bir tomoni bu, boshka dirlarga nisbatan murosasozlik kilishdir.

Eramizning I asrida Buddizm Markaziy Osiyo orkali Xitoya, Xitoydan Koreya, Yaponiya, Mo‘g‘iliston va Tibetga tarkaladi.

Mil. avv. III-II ming yilliklaridayok Hindistindonda hisobning o‘nli tizimi tarkib topgan edi. SHuningdek nolni bildiradigan belgi birinchi Hindistonda ishlatilgan. Bu yangilikni dunyoga ommalashtirgan siymo bu buyuk vatandoshimiz Al Xorazimiyyidir.

Tabobat olamida hind arboblari kasallikni aniklash va uni davolashda katta yutuklarga erishganlar. Davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar 1000ga yakin bo‘lib, silash, ukalash, vanna kilish, jarrohlik usullaridan keng foydalanganlar. Hind kimyogarlari bo‘yok va turli kimyoviy moddalarni kashf etganlar. Hindiston shaxmat o‘yinining vatani hisoblanadi.

Me’morchilikda ham katta yutuklarga erishilgan. Hind ustalari g‘isht va boshka buyumlardan ajoyib imoratlar, saroylar kurganlar. I-VII asrlarda Bombey yakinida tog‘ni o‘yib, 24 ta g‘or monastirlari va 5 ta ibodatxona kурilishi, ya’ni Ajanta majmuasi dunyo madaniyatida arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san’atning o‘ziga xos sintezi hisoblanadi. CHunki uning kурilishida yukorida ko‘rsatilgan san’at turlarining hammasidan foydalanilgan. Mil. avv. 950 va milodning 1050 yillari davomida CHandellas sulolasи davrida kurilgan Vxodjuraxo-ertaksifat sevgi bayrami ibodatxonasi o‘zining ajabtovur ko‘rinishi jihatidan kovunga o‘xshaydi. Hindlar o‘sha davrdayok haykaltaroshlik sohasida o‘zining nozik did, ulug‘vorlik va insonparvarlikni tarannum etuvchi, kishini hayratga soluvchi asarlarni yaratganlar. Bularga xudo Vishna (Krishna) va SHiva timsolidagi haykallarni nisbat berish mumkin.

Hind madaniyati O‘rtta Osiyo, Xitoy singari ko‘shni mamlakatlar halklari ma’naviy hayotiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘satgan.

SHunday kilib, Kadimgi Hindiston madaniyati jahon sivilizatsiyasining Kadimgi beshiklaridan biri sifatida shuhrat topib, u jahon madaniyati rivojiga o‘z samarali ta’sirini ko‘rsata olgan.

4. Kadimgi Xitoy madaniyati.

Xitoy Markaziy va SHarkiy Osiyodagi eng Kadimgi davlat. Tabiatи keskin o‘rgatuvchan va mutadil. Markaziy Xitoy tog‘laridan boshlanib Tinch okeani havzalariga kuyadigan Xuanxe (Sarik daryo) va YAnszi daryolari SHarkiy Xitoy pasttekisligi orkali okib o‘tadi. YOg‘ingarchilik vaktlarida Xuanxe daryosi toshib, ko‘plab tashvishlar keltirganligi uchun unga xitoyliklar "Tentak daryo", "Xitoyning sho‘ri", "Ming xil kulfat keltiruvchi daryo" deb nom berishgan. SHu daryolarning bo‘ylaridagi erlar unumdar bo‘lib, ilk dehkochilik

vujudga kelgan. Bu o'lka kadimdan o'simliklar va hayvonot olamiga boy, er osti kazilma boyliklari ham mashhur bo'lgan.

Xitoy sivilizatsiyasi mil.avv. 3 ming yillik oxirida shakllandı. Xitoy tarixini tarixchi Sima Syan o'z "Tarixiy xotiralar" asarida sulolaviy davrlarga bo'lgan. Kadimgi Xitoyda ko'hna Mesopotamiya va Misr singari kadimiy o'ziga xos madaniyat yaratilgan.

Xitoyliklar SHan sulolasi davrida (mil.avv. 2 minginchi yil o'rtalarida) ieroglyph yozuvini yaratganlar. Bu yozuv bir necha o'n ming belgi-ierogliflardan iborat. Milodning I asrigacha bu ierogliflar hozirgi yozuv ko'rinishiga ega bo'ldi. Kadimgi Xitoy yozuvi asosida keyinchalik Koreya, V'etnam va Yapon yozuvlari paydo bo'ldi.

CHjou davrida Xitoyda metall tangalarni (dunyoda birinchi marta) muomalaga chikarildi.⁴ Dengizlarda suzish uchun kompas ixtiro kilingan (uning strelkasi SHimolni emas, Janubni ko'rsatgan). Dunyoda birinchi bo'lib, Xitoyda porox ixtiro kilingan bo'lib, undan bayramlardagi mushakbozlilar foydalaniłgan. Artileriya, miltik, arbalet-miltiklar ham dastlab Xitoyda yaratilgan.

Mil. avv. I asr oxiri va yangi asr arafasida xitoyliklar latta, po'slok va bambuk aralashmasidan kog'oz tayyorlaganlar. Kog'oz yog'och, bambuk va shoyiga karaganda arzon bo'lib, u yozish va saklash uchun ko'lay hisoblangan. Kog'ozning ixtiro kilinishi maorif, fan, madaniyatning rivojlanishi va davlat ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyuk Xitoy devori kурilishi mil. avv. IV asrda boshlanib, shimoldagi Xunn kabilalarining hujumlaridan saklanish va savdo-sotik ishlarini ko'zlab kurilgan. Devor Leodun ko'ltig'i kirg'og'idagi SHayxayguan shahridan boshlanib, g'arbda Dunxuan kal'asigagacha davom etgan. Devorning umumiyligi 5.000-6.000 km., uning balandligi joyiga karab 6-10 metr, kalinligi 5,5-7 metr bo'lib, har 60-100 metrda mustahkam minoralar kurilgan.

Xitoy ajoyibotlaridan yana biri, bu ipakning kashf etilishi va Buyuk ipak yo'liga asos solinishidir. Imperator rafikasi Si-Lingchi tomonidan mil. avv. 2600 yili ipakning kashf etilishi va mil. avv. 128 yili Xitoy sayyohi-diplomati CHjan-Szyan tomonidan Buyuk ipak yo'liga asos solinishi katta tarixiy o'zgarish bo'lgan.

Buyuk ipak yo'li birgina savdo-sotik bilan cheklanibgina kolmay u ayni paytda diplomatiya, diniy va ma'naviy kadriyatlarni tarkalish yo'li ham edi. U SHark va G'arb sivilizatsiyasini bog'lovchi yo'l bo'lib, unda Markaziy Osiyo xalklari vositachilik rolini o'ynaganlar.

SHuningdek badiiy madaniyat Bobil, Misr, Hindistonda dinga tobelik xususiyatiga ega bo'lgan bo'lsa, Xitoyda badiiy asarlar ko'prok dunyoviy yo'nalishga ega bo'lgan. Masalan, Konfutsiy ta'limotiga ko'ra "SHi szin"ga ("Ko'shiklar kitobi"ga) madhiyalar, odalar, xulk va urf-odatlar masalalari kiritilgan. SHe'riyat lirikasida va tasviriy san'atda tabiat go'zalligi har bir kishiga tushunarli tarzda hayotiy, zavk beruvchi tarzda tasvirlangan. Haykaltaroshlar dimog'dor amaldor, laganbardor xizmatchi va holdan toygan kullarning og'ir mehnatini mahorat bilan aks ettirganlar.

Kadimgi Xitoy tabiblari kasallik va jarohatlarni davolashda ukalash, igna sanchib davolashdan, o'simlik va hayvonlardan hosil kilinadigan dorilardan, xususan jenshen, kiyik shohidan olinadigan panti, choy va boshka dori-darmonlardan keng foydalanganlar. O'sha davrdayok Xitoy tibbiyotida mingdan ortik dorilar bo'lgan. Kadimgi Xitoy tabiblari ichida Va SHu Xe, Ban Sio va Xua Tu lar mashhur bo'lgan. Van SHu tibbiyotga oid "Ney-Szin" ("Odam tabiati va hayoti"), Ban Sio esa "Kiyinchilik hakida kitob" kabi asarlar yozganlar.

Mil. avv. XII-VI asrlarda Xitoyda dunyoni miflar orkali tasavvur kilishdan falsafiy mushohada kilishga o'tiladi. Falsafa o'zining "oltin asr" deb nomlangan o'sha davrning cho'kkisiga chikadi. Falsafiy karashlar ichida ikkitasi muhim ahamiyatga ega.

Bulardan bittasi Konfutsiylik bo'lib, uning asoschisi Kun-szi edi. U mil. avv. 551 yilda zodagon oilada tug'ilgan bo'lib, 15 yoshidan o'zi mutoala kilib ma'lumot olgan. Uning ta'limotida Kadimgi urf-odatlar va ularga to'la riosa kilish muhim o'rinn tutadi. Hammaning ularga amal kilishi jamiyatni halokatdan kutkarib, uni gullab-yashnashiga olib keladi deb uktiriladi. Davlat to'g'risidagi ta'limotda "... agar podsho hakikiy podsho o'rnida bo'lsa, fukarolar-fukaro o'rnida, ota-ota, ona-onas o'rnida, bola-bola o'rnida bo'lsagina davlat gullab-yashnaydi" deyiladi. Agar davlat o'z nomiga munosib bo'lsa, unda etarlicha ozik-ovkat, etarlicha ko'shinlar bo'lishi va unga ishonch bo'lishi zarurligi ko'rsatiladi.

Konfutsiylik ta'limotida kuyidagi axlok normalari belgilanadi:

1. O'zing orzu kilgan yutuklarga erishish uchun, boshkalarning ham shunga etishi uchun ularga yordam ber;
2. O'zingga makbul bo'lmaganni, birovga ravo ko'rma.

Konfutsiy mil. avv. 479 yili 72 yoshida vafot etgan. Uning ta'limoti Xitoyda va uning tashkarisida hozirgacha ham mashhurdir.

Ikkinchisi, Daosizm ta'limoti, uning asoschisi – Lao Szi bo'lib, uning taxallusi "Dono kariya" bo'lgan. Daosizm ta'limotining markazida tabiat, kosmos, inson turadi. Dao – ko'rinishlarga ega bo'lmagan tanasiz, absolyut kuch. Dao hamma narsalarni, shu jumladan dunyoni yaratgan. Dao bo'yicha dunyo doim harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi.

Kadimgi Xitoyda adabiyot ham ancha rivoj topgan. Avvalo xalk og'zaki ijodi, keyinchalik yozuvning kelib chikishi bilan yozma adabiyot ham rivojlangan. Jumladan, xalk ko'shiklari asosida "SHi-szin" to'plami, tarixiy, falsafiy "CHun-syu" (Bahor va kuz) kitoblari dikkatga sazovor.

Kadimgi Xitoy tarixchilari ichida mil. avv. 145-90 yillarda yashagan Sim Syan mashhur bo'lib, yukorida kayd kilingan "Tarixiy xotiralar" asarini yozgan. Unda Xitoyning eng Kadimgi davridan II asrgacha bo'lgan davri yoritilgan. Milodning 32-92 yillarida yashagan Ban Gu o'zining "Xan podsholigi tarixi" asarini yozgan.

Kadimgi Xitoyning kulolchilik maxsulotlari, ayniksa chinni buyumlar hozirgacha o‘zining nafisligi, betakrorligi, pishikligi bilan ajralib turadi. Ularda ishlatilgan rang, tanlangan manzaraning go‘zalligi kishini lol koldiradi.

III asrga kelib yagona Xan podsholigining Vey, SHu va U kabi mayda uchta davlatlarga bo‘linib ketishi bilan Kadimgi Xitoy davri tugaydi va o‘rtalasrlar davri boshlanadi.

SHunday kilib, Kadimgi Xitoy o‘ziga xos betakror madaniyat bilan jahon madaniyatini rivojlanishiga o‘z hissasini ko‘shdi. Uning ta’siri ayniksa Janubi-Sharkiy Osiyo mamlakatlari madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida kuchlirok aks etdi.

5. Kadimgi O‘rtalasrlar Osiyo madaniyati.

O‘rtalasrlar ham ilk sivilizatsiya o‘choklaridan biri bo‘lib, uning moddiy va ma’naviy madaniyatining boshlanishi va rivojlanishi paleolit, eneolit, bronza davrlarida sodir bo‘lib borgan.

Kadimgi madaniyatning tasviriy-san’at namunalarini O‘zbekistonning janubida Zarautsoy yonidan topilgan toshga chizilgan rasmlar, chunonchi o‘sha davrdagi ov manzarasi misolida tasavvur etish mumkin.

Eneolit va bronza davrlarida (mil.avv. IV-II ming yillar) sopol buyumlar, bronzadan, suyakdan mayda murakkab kurollar yasaladi va bu jarayon astasekin moddiy madaniyatning yuksalishiga olib keladi.

Mil.avv. 2 minginchi yil oxiri 1 ming yilliklar boshlarida O‘rtalasrlar muhim tarixiy etnografik vokealar sodir bo‘ladi: Baktriya, So‘g‘d va Xorazm kabi tarixiy-madaniy hududlar, Kadimgi baktriyaliklar, xorazmliklar, so‘g‘dlar, saklar singari etnik kavmlar shakllanadi. SHu etnoslar asosida Kadimgi Xorazm va Kadimgi Baktriya, so‘ngra So‘g‘d, Kang‘a, Parkana davlatlari vujudga keldi. SHu davrda Midiya mixxat yozuvi asosida Xorazm, Baktriya, So‘g‘d, Urxon-Enasoy yozuvlari paydo bo‘ldi va mintakada xalk og‘zaki ijodi bilan birgalikda yozuv madaniyati rivojlandi.

Biz uzok ajdodlarimiz to‘g‘risida asosan "Avesto"da, ko‘prok yunon tarixchilari Gerodot, Polien, Kvint Kursiy Ruf, Rim adibi YUstinning, Pompey Trog, Plutarx, Arrian, Diodot asarlarida ma’lumotlarni uchratamiz.

Mil.avv. 529-329 yillar O‘rtalasrlar Eron Ahmoniyalari tobelligida bo‘lishiga karamay mintakaning moddiy rivojlanishi o‘ziga xos yo‘ldan bordi. SHu bilan Kadimgi davrdagi O‘rtalasrlar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga Eron, Ellin, Hind madaniyatlarining ta’siri va ularni o‘zaro bir-biri bilan boyib, rivojlanib borish jarayoni ham muhim krin tutdi. Buyuk ipak yo‘lining kuchli ta’siri o‘larok mintakaviy, kit’alararo madaniy alokalar kuchayib bordi.

SHahar madaniyatining (arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy san’at) gullabyashnashida Ellinizm madaniyatining ta’siri kuchli bo‘ldi. Masalan, to‘g‘ri chizikli, to‘rtburchakli uylar, Ark (ustunli), hammomlar kурilishi bizga YUnionistondan kirib kelgan. Numizmatika sohasida YUnion-Baktriya davlatida chikarilgan noyob metall tangalar bizgacha etib kelgan.

Haykaltaroshlik va tasviriy san’atda O‘rtalasrlar, YUnion va Hind uslublari kushilib, buning samarasida Kushonlar va Eftaliylar davlatlarida noyob asarlar

yaratilgan. Bularga "Musikachi ayollar", Varaxsha, Xolchayontepa kabi joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari misol bo'la oladi. Ko'p xudolikdan yakka xudolikka o'tish davrining birinchi dunyoviy dini-Zaroastrizm (Otashparastlik) va uning ilohiy kitobi (21 bobdan iborat) "Avesto" vatani Kadimiy Xorazm hisoblanadi. Kitobda tilga olingen hududlar orasida eng e'zozlangani – "Ayryanam Vaeju" o'trok kabilalar, chorvadorlar yashagan keng sayhonlar, daryo va ko'llar, tog'lar yon bag'rida joylashgan Xorazm o'lkasidir. Xorazmliklarning "Lazgi", "Norim-norim", "Orazibon" kabi jozibali rakslari ham zardo'shtiyalarning ming yillar davomida takrorlanib kelayotgan marosim (ritual) rakslarini eslatadi. Xorazm hofizlarining "Dugoh", "Segoh", "CHorgoh", "Panchgoh" kabi ko'shiklari ham ma'lum ma'noda Kadimgi ajdodlarimizning "Goh" va madhiyalariga o'xshab ketadi. Zardo'shtiylik dinining payg'ambari Zardo'sht ibn Sofit Tumon⁵ 628 yilda Midyaning Ragi shahrida yashagan kohin Purushasp (Sofid ibn Tumon) va uning xotini Dugdovadan dunyoga kelgan. Onasi xorazmlik sarbon Faroximning kizi bo'lgan. Zehni o'tkir ko'plab dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan Zardo'sht yangi dunyoviy ilmga asos soladi. Bu ta'limotning bosh xudosi – Axura-Mazdaga sig'inishni targ'ib kila boshlaydi. Axura-Mazda olamni yaratuvchi, yorug'lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik kabi yaxshi ezgu-niyatlar xudosi. Uning aksi o'larok Ahriman esa zulmat, urush, o'lim kabi kabiqliklar xudosidir. Zardo'shtiylik dinida olov nihoyatda mukaddas sanalgan. Kuyosh yorug'lik manbai bo'lib, olov uning bir kismi hisoblangan. Kuyosh nuri barcha birliklar manbaidir (hakikatdan ham shunday).

Zardo'shtiylikda Axuramazdadan tashkari Mitra, Farna, Nohid (Anaxita), Mirrix, Xutbi kabi xudolar ham tilga olingen. Mitra-Kuyosh va yorug'lik xudosi. U jangovar yigit siy whole side tasvirlanadi. Farna mahalliy aholi tilida Xumo ba'zan Anko nomi bilan yuritilgan. U baxt va tole ma'budasi. Nana yoki Nohid hosildorlik va farovonlik ma'budasi. U bir ko'lida anor yoki olma tutgan go'zal ayol kiyofasida tasvirlanadi. Mirrix-urush va g'alaba xudosi, harbiylar madadkori bo'lib, kurollangan jangchi kiyofasida aks etadi. Xubbi-suv xudosi, kayikchilar va miroblar homiysi, zabardast yigit siy whole side gavdalangan.

Bu dinda, olov, to'prok, suv va havo kabi to'rt unsurni iflos kilish yoki tahkirlash eng katta gunoh hisoblangan. "Avesto"da xalk tabobati odobi, estetikasi sog'lom turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Unda har bir inson ezgu fikr, odil so'z va halol mehnat bilan yashashi zarurligi ko'rsatilgan.

Zardo'shtiylik dinidagi kuyidagi tamoyillar boshka dunyoviy dinlarda ham o'z aksini topgan. Bular:

1. 5 vakt xudoga sig'inish;
2. Narigi dunyo to'g'risida;
3. Odamlarning ruhlarini jannat va duzohga ajratuvchi kil ko'priq hakida;

4. Oxirat hakida;
5. Sog‘lom turmush hakida;
6. Tabiatni e’zozlash va unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish hakida...

Zardo‘shtiylik dini o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hayot vaadolatni himoya kiluvchi din sifatida shakllangan. SHu sababli u Turon, Eron va Xurosanda keng tarkalgan. Jumladan, Eron Ahmoniyari hukmdori Doro I ibn Vistasp (mil.avv. 622-486 yy) davrida zardo‘shtiylik davlat dini sifatida tan olingan. Eronda sosoniyalar sulolasidavrida "Avesto" 21 ta kitob shaklida to‘la holda yozilgan va podshoning kutubxonasida saklangan. Kitoblar sankrit tilida, 48 harfdan iborat pehlaviy yozuvida bitilgan. Uning to‘la nashri Aleksandr Makedonskiy boskini davrida uning ko‘liga tushgan va ko‘p kismi yo‘k kilingan. CHunki bunday dini, ma’naviyati yukori bo‘lgan xalklarni tobe kilib oson bo‘imasligini bu jahongir fotik tushunib etgan edi.

"Avesto"ning bizgacha etib kelgan "YAsna", "Vidavdat", "Visparat", "YAsht" duoyu-tadbirlar, ko‘shiklar, madhiyalardan iborat kismlari milodning III-VII asrlarida kayta yozilgan. Jumladan "YAsht"ning kuyosh xudosi "Mitraga madhiya"sigabag‘ishlangan g‘ismida shunday jumlalar bor:

Kim	menga	kilar	sajda,
Kimdir	pisand		kilmas,
Kimdan	e’zoz topdim,	kimdan	aldovni,
Kimgadur	beraman baxt	va tani	sog‘lik,
Kimgadur	mashhur ajdodlar	etadurman	hadya,
Kimdandur	barchasin	tortib	olarman.

Kimga	dard	beraman	va	o‘lim,
Kimgadur	bebaxt			muhtojlik,
Kimgadur	mashhur			narsalar,
Bir	zumda barchasin	bunyod	etarman.	

(Avesta. Izbrannyye gimny, 80-81-betlar).

Kadimgi davrda O‘rta Osiyoda ko‘pdinlik mavjud bo‘lgan. CHunonchi bu hududda buddizm, moniylik, shamonlik, nasroniylik dinlari hukm surgan. Bu dinlarga sig‘inuvchilar o‘rtasida bir-birlarini hurmat kilish, diniy bag‘rikenglik tenglik amalda bo‘lgan. Bu esa kishilar ongida baynalminallik hislarini shakllantirishda muhim omillar bo‘lib xizmat kilgan.

Markaziy Osiyoning tub xalklari tabiatida boshka millatlarning vakillariga nisbatan kengfe’lllik azalda mavjud bo‘lib kelgan. Bu sof insoniy tuyg‘u, masalan, o‘zbeklarda shu kadar rivojlanganki, milliy-ma’naviy kengfe’lllik, tokatilik ularning umumiyl madaniyati va ruhiyatining ajralmas kismiga aylanib ketgan.

SHunday kilib, Bobol, Misr, Hindiston, Xitoy kabi O'rta Osiyo ham jahon ilk sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. CHunki, bu erda ham juda kadimdan boshlab jahon madaniyati va ma'naviyatining bebaho durdonalari yaratilib kelingan. Bu esa biz vorislarda birinchidan, buyuk o'tmishdoshlarimizga nisbatan chukur minnatdorchilik hislarini tug'dirsa, ikkinchidan, ular bilan chukur faxrlanish tuyg'usini hosil kiladi.

Mustakil o'rghanish uchun tavsiya etiladi: "Maxabxarat" va "Ramayana"ning insonlarni komillikka chorlovchi g'oyalari.

Tayanch so'z va iboralar:

Misr ehromlari. Kadimgi Old Osiyo sivilizatsiyasi. Xammurapi konunlari. Kadimgi Bobilda ilm-fan. Ossuriyada me'morchilik. Braxmanizm va Buddizm. Ajanta majmuasi. Konfutsiylik ta'limoti. Buyuk Xitoy devori. Zardushtiylik dini.

Savol va topshiriklar:

1. Kadimgi Misrning diniy va ma'naviyati tamoyillarida ilgari surilgan g'oyalarni gapirib bering.
2. Misr ehromlari dunyoning etti mo'jizasidan biri sifatida tan olinganligi sabablari nimada?
3. Kadimgi Old Osiyo madaniyatining yuksalishini ta'minlagan omillarni asoslang?
4. Kadimgi Bobilda ilm-fanning kaysi sohalariga asos solingan?
5. Ossuriya madaniyati ravnakida me'morchilik va tasviriy san'atning o'rni kanday bo'lgan?
6. Buddha dini Braxmanizm dinidan kaysi jihatlari bilan fark kiladi?
7. Ajanta majmuasida san'atning kaysi turlari sintezini ko'rsa bo'ladi?
8. Konfutsiylikda kanday g'oyalarni surilgan?
9. Buyuk Xitoy devori hakida fikr-mulohazalaringiz?
10. Kadimgi O'rta Osiyo xalklari hayotida muhim o'rin tutgan tarixiy-etnik jarayonlar hakida tushuncha bering.
11. Zardo'shiylik dini tamoyillarini izohlab bering?
12. Kadimgi SHark davri madaniyatiga doir chizmalar chizing.

13. "Semiramidaning osma bog‘lari" va "Misr ehromlari"ni aks ettiruvchi albom tayyorlang.
14. Kadimgi SHark davri madaniyatiga oid ma’lumotlar majmuini to‘plang.
15. Internet tarmog‘idan olingan ma’lumotlar asosida Kadimgi SHark davri, ilm-fani hakida slayd va tezislar tuzing.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida... - T.: O‘zbekiston, 1997.
2. N.M. Nikolskiy. Kultura Drevney Vavilonii. – M., 1959.
3. Kultura drevnego Egipta. – M., 1976.
4. D.A. Silichev. Kulturologiya. Uchebnye posobie dlya VUZov. – M.: Prior, 1998.
5. D. Kasambi. Kultura sivilizatsii drevney Indii. – M., 1986.
6. Kulturologiya. Kurs leksiy pod redaksiey A.A. Radugova. – M., 2000.
7. Gurevich P.S. Kulturologiya "Glardariki". – M., 2000.
8. E. Axmedova, R. Gabidulin. Kulturologiya. Mirovaya kultura. – T., Akademiya xudojestv Uzbekistana, 2001.
9. M. Mahmudov, B. Karimov. Xorazm "Avesto"ning Vatani. – T.: TMI, 2001.

Ko‘sishimcha adabiyotlar:

1. Drevney Vostok i mirovaya kultura. – M., 1981.
2. V. Erasov. Kultura, religiya i sivilizatsiya na Vostoke. – M., 1990.
3. Iskusstva stran Vostoka. – M., Prosveshenie. 1986.
4. Drevnie sivilizatsii. – M., 1987.

¹ Silichev D.A. Kulturologiya. Uchebnoe posobie dlya VUZov. 46-bet.

² "Bobil minorasi"ni mil. avv. VI asrda Eron Bobilni istilo etgach, istilochilar tomonidan buzib tashlangan.

³ Haligacha o'kib bo'limgan. Karalsin: Ahmedova E. Kulturologiya. Mirovaya kultura. 105 bet.

⁴ Milodning 700 yili Xitoyda birinchi marta kog'oz pul muomalaga chikarilgan.

⁵ Zardo'sht nomini osetin olimi professor V.I. Abaev "keksa tuyalar egasi", ingliz olimi Richard Fray "Tuyakash", rus eronshunos olimi I.M. D'yakanov "Tilla rang tuya sohibi" deb tarjima kilganlar.

«An'anaviy madaniyat»

1. Antik YUnioniston madaniyati.

2. Antik Rim madaniyati.

1. Antik YUnioniston madaniyati.

Antik davr madaniyati – jahon sivilizatsiyasining beshigi bo‘lib, u davrda filosofiya, madaniyat fan sifatida shakllandi. O’sha davr yunonlarining turmush tarzi, fikrlashi, ma’naviyati hozirgacha ham insonlarni hayajonga solib kelmoqda.

Antik Evropa madaniyatining shakllanishiga Mesopotamiya va Misr madaniyatining, ayniqsa, arifmetika, astronomiya, mifologiya va teologiya sohalarida erishilgan dastlabki muhim yutuqlarning ahamiyati katta bo‘ldi.

Qadimgi YUnion madaniyati er.avv. XXVIII asrdan er.avv. II asrgacha davom etdi. YUnionlar o‘zlarining vatanini **Ellada** deb ataganlar. Qadimgi YUnion madaniyatining eng yuqori darajaga ko‘tarilgan davri er.avv. V-IV asrlarga to‘g‘ri keladi. Qadimgi YUnion madaniyati jahon madaniyati tarixida favqulodda hodisa sifatida o‘zini namoyon etdi.

Ellada hozirgi zamon davlatlarining boshqaruv shakli – respublika va demokratianing vataniga aylandi. Uning namunaviy shakli Perikl (443- 429 yy) hisoblanadi. YUnionistonda jismoniy va aqliy mehnat ikkiga ajraladi. Jismoniy mehnat bu qullarga, aqliy mehnat qilish esa ozod kishilarga taalluqli edi. YUnionlar davlat va shaxsiy mult, jamoa va shaxsiy manfaatlarni o‘zaro juda mohirona bog‘lay olganlar. Aristokratiya odobi – musobaqa tamoyillari asosida birinchilardan bo‘lishga intilish qadriyati keng quloch yoydi. Bunday o‘yinlar sahnasi: Olimpiya o‘yinlari,¹ munozara, jang maydoni, teatr sahnalari edi.

YUnionlar uchun erkinlik eng yuqori qadriyat hisoblanib, uning uchun hatto o‘limga ham tik borganlar. Leonid jasorati yoki Prometey haqida afsona bunga misoldir.

YUnionlarning turmush tarzi haqiqat, go‘zallik, mehribonlik kabi kategoriyalar uyg‘unligi bilan belgilangan. Ular uchun me’yor tushunchasi muhim ahamiyatga ega edi. SHuning uchun yunonlarda mult erkin kishi uchun ajralmas atribut bo‘lsa, ikkinchi tomondan ochko‘zlik, molparastlikni qoralaganlar.

Insonni tarbiyalash uchun ikki yo‘nalish bo‘yicha ta’lim tizimi vujudga keltirilgan: a) "gimnastika"; va b) aqliy yo‘nalishdagi barcha madaniyat turlari, chunonchi, tabiiy fanlar, falsafa, notiqlikni o‘rganish. Ozod yunonlarning bolalari 7 yoshdan boshlab boshlang‘ich maktabga borganlar. Badavlat kishilarning bolalari esa 18 yoshgacha gimnaziyalarda o‘qishni davom ettirganlar. Bolalar maktablarda chiroyli yozishga, aniq va ravon so‘zlashga o‘rgatilgan. Ular Gomer, Gesiod va boshqa shoirlarning she’rlarini va dostonlarini yod olganlar. YUnionlar ashula aytish, raqsga tushish, lira sozini chalishni bilmaydiganlarni o‘qimishli deb hisoblamaganlar. Bolalar ulg‘aya

borgan sari yugurish, kurashga tushish, sakrash, disk, nayza otish va qilich chopish bilan shug‘ullanganlar. SHu tariqa, ular vatan himoyachilari sifatida tayyorlangan.

Ayniqsa, bu sohada Sparta maktabi ajralib turgan.

Har qanday erkin yunon polis (shahar) davlatini eng oliv ehson deb qabul qilgan va uning vatanparvari bo‘lgan.

Birinchi yunon faylasufi Fales bo‘lib, u suvni olamdagи barcha moddiy borliqning asosi deb hisoblagan. YUnion falsafasining eng yuksak namoyandalari sifatida Suqrot, Platon va Aristotel hisoblanganlar. YUnionistonda olamni falsafiy mushohada qilish–mantiq va tasdiqlashga tayangan ilmiy va ratsional fikrlash metodi orqali bilish mumkinligiga asos solingan.

Pifagor, Evklid va Arximedlar matematika va matematik fanlar – geometriya, optika, gidrostatika fanlarining asoschilari hisoblanadi. Astronomiya sohasida Aristarx birinchi bo‘lib geotsentrizm g‘oyasini ilgari surdi. Gippokrat – meditsina faniga asos soldi. Gerodot tarix fanining otasi hisoblanadi. Aristotel asarlari madaniyat nazariyasi bo‘yicha birinchi fundamental ilmiy ishlar qatoridan o‘rin olgan edi.

Deyarli hozirgi zamon madaniyatining janrlari qadimgi YUnionistonda paydo bo‘ldi. Ba’zilari o‘sha davrning o‘zida juda yuqori darajaga ko‘tarildi. Fidiy boshchiligida badiiy tasviriy san’at asarlari, Zevsning katta haykali bunga misol bo‘la oladi.

YUnionlar birligina yaratuvchilik bilan shug‘ullanib qolmay, shu bilan birga go‘zallik qonunlari bilan yashashni ham xohlar edilar.

SHuningdek, yunonlarda ibridoiy din shakllari – totemizm, animizm va fetishizm tasavvurlari kuchli bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o‘tish davomida yunonlarning diniy tasavvurlari ham o‘zgarib borgan. Ularda har bir yirik hodisa, kasbi-korning o‘z xudolari – xomiylari bo‘lgan.

Zevs – yunonlarning eng muqaddas bosh xudosi hisoblangan. U osmon, momaqaldiroq, chaqmoq va yomg‘ir xudosi bo‘lgan. Uni odamlar jingalak sochli, baquvvat, sersoqol, qudratli, qo‘lida chaqmoq ushlagan, basavlat kishi sifatida tasavvur qilganlar. Zevsning ukasi Paseydonni "erni tebratuvchi" dahshatli dengiz xudolaridan biri deb bilganlar. Gelios quyosh xudosi bo‘lib, oppoq otlar qo‘shilgan oltin aravasida osmonga chiqqanda kunduz boshlanadi deb fikr yuritganlar. Appolon esa yorug‘lik va san’at xudosi sanalgan. Demetriy ham ilohiy timsol sifatida o‘simgilarning unib chiqishi, o‘sishi, sarg‘ayishi go‘yoki unga bog‘liq bo‘lgan. Er osti hukmdori – homiysi Aid bo‘lgan. Dionis vinochilik, Afrodita avval hosildorlik, keyinchalik sevgi va go‘zallik hamda dengiz sayyoohlari homiysi bo‘lgan. Zevsning qizi Afina, yunon afsonalariga ko‘ra urush, g‘alaba, san’at, bilim va donolik ma’budasi bo‘lgan. U Afina shahrining homiysi bo‘lib, haykaltarosh Fidiy tomonidan shahardagi Parfenon ibodatxonasi oldida uning ajoyib haykali ishlangan. YUnion xudolaridan biri, Zevs va Geraning o‘g‘li Gefest temirchilik homiysi hisoblangan, Vulqon lavalarining otilishi ham uning er ostidagi temirchilik

ustaxonasining mahsuli deb hisoblashgan. Germes savdo-sotiq xudosi sifatida e'tirof etilgan.

YUnionlarning fikricha, ularning Zevs boshliq xudolari baland Olimp tog'larida yashaganlar va badavlat kishilarday hayot kechirganlar. Ular ham odamlar kabi shuhratparast, hokimiyatparast, shafqatsiz va qasoskor bo'lganlar. YUnion xudolarining odamlardan farqlari shundaki, **birinchidan** ular umrboqiy, **ikkinchidan**, ular Gefestdan tashqari² go'zal va qaddi qomati kelishgan bo'lishgan. YUnion xudolari ham sevishgan, xursand yoki g'amgin, g'azabli holatlarda namoyon bo'lganlar. Erdagi ayollar bilan xudolar qovushuvidan qahramonlar dunyoga kelganlar.

YUnionlar o'z xudolariga ishonishgan, sig'inishgan, ularga atab ibodatxonalar qurishgan va qurbanliklar qilishgan. Lekin yunonlarda xudolarga ko'r-ko'rona sajda qilish, mutaassiblik darajasida bo'lmanan.

Masalan, Prometey xudolar irodasiga qarshi odamlarga osmondan olovni o'g'irlab olib tushib bergen (Prometey afsonasidan).

YUnionlar mifologiyasida birgina xudolarni emas, erdag'i insonlarni ham ulug'laganlar. Bunga Sofoklning "Dunyoda buyuklar ko'p. Lekin, insondan boshqa tabiatda kuchlisi yo'q", yoki Arximedning "Menga tayanch nuqtasini topib beringlar, men dunyoni ostin-ustun qilib tashlayman" degan iboralarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Qadimgi YUnion madaniyati beshta davrga bo'linadi:

Egey madaniyati (er.avv. 2800-1100 yillar);

Gomer davri (er.avv. XI-IX asrlar);

Arxaik madaniyat davri (er.avv. VIII-VI asrlar);

Klassik (yuqori darajadagi)davri (er.avv. V-IV asrlar);

Ellinizm davri (er.avv. 323-146 yillar).

Egey madaniyatini ko'pincha Krit-Miken madaniyati deb ham atashadi. Buning sababi Krit oroli va Miken YUnion madaniyatining asosiy markazlari sanalgan. SHuningdek bu davrni afsonaviy podsho Minosning nomi bilan Minoy madaniyati deb ham atashadi.

Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarning oxiri, ikki minginchi yillarning boshlarida Krit orolida Knoss, Festa, Mali va Kato-Zakro shahar davlatlari vujudga keldi. SHaharlarning tutgan o'rnini hisobga olinib, ba'zida ularni "Saroy madaniyati" deb ham atashadi. Bu davrda asosiy mashg'ulot qishloq xo'jaligi bo'lib, bunda don, uzum, zaytun etishtirilgan. Xo'jalikda chorvachilik, xunarmandchilik va savdo ham muhim o'rin tutgan.

Krit madaniyatiga taalluqli Knos saroyi "Labirint" nomi bilan tarixga kirgan bo'lib, uning birinchi qavatigina saqlanib qolgan. U ko'p qavatli inshoot bo'lib, 300 xonadan iborat, bir gektardan ko'proq erni egallagan. Saroyda suv o'tkazuvchi moslama (vodoprovod), kanalizatsiya va vannalar, hunarmandchilik ustaxonalari bo'lgan. Saroyning mahfiy xonasidan ayol xudoning qo'lida ilonni ushlab turgan haykalchasi topilgan. Saroyning devorlarida hozirgacha "Gullar teruvchi", "Qushni tutishga shaylanayotgan mushuk", "Xo'kiz bilan o'yin" kabi rasm manzaralari saqlanib qolgan.

Krit o‘zining chiziqli harflaridan iborat o‘z yozuviga ega bo‘lgan. Lekin bu yozuvni hanuzgacha hech bir olim o‘qib chiqishga ega bo‘lmagan.

XI-IX asrlarning Gomer asri deb atalishi sababi shuki, bu davrni yoritib beruvchi asosiy manba Gomerning "Odisseya", "Illiada" dostonlari bo‘lgan. Bu davrda davlatchilik, shahar – saroy turmush madaniyati va yozuv yo‘q bo‘lib boradi, mehnat qurollarini temirdan yasashga o‘tilishi natijasida mehnat unumdarligi ancha o‘sadi, dehqonchilik va chorvachilik rivoj topadi. Savdosotiqla esa ayrboshlash vositasi qoramollar hisoblangan.

Arxaik davrga xos xususiyati shundaki, YUnionistonda uch asr davomida qishloqdan shaharga, urug‘-qabilachilik, patriarxat munosabatlaridan klassik qulchilik bosqichiga o‘tish uchun zamin etiladi.

SHahar – davlat ijtimoiy hayotining asosiy shakli bo‘lib qoladi. Davlat tuzumining shakllari – monarxiya, oligarxiya, aristokratik va demokratik respublika bo‘lgan. YUnionlar finikiyaliklarning yozuvi asosida 24 harfdan iborat o‘z alifbolarini yaratganlar. Bu alifboda ham undosh, ham unli tovushlarni ifodalovchi 24 xarf bo‘lgan. YUnionistonda ta’lim tizimining yutug‘i tufayli polisning erkin kishilari orasida savodsizlar yo‘q edi. Jamiyat qadriyatlari va ahloqiy normalar shakllana boradi. Bunda vatanparvarlik va fuqarolik muhim o‘rin tutgan. O‘z shahrini himoya qilish har bir fuqaroning sharaflı burchi hisoblangan. Xuddi shu davrda inson tanasi bilan ruh o‘rtasida uyg‘unlikni ifodalovchi ideal inson to‘g‘risidagi g‘oya shakllanadi.

Falsafa va boshqa fanlar vujudga keladi. Falsafa faniga Fales, Pifagor esa matematikaga asos soladi.

Avval yog‘ochdan, keyinchalik toshdan foydalanib yasaladigan monumental haykaltaroshlikka asos solinadi. SHulardan ko‘proq tarqalgani: 1) yalang‘och holdagi erkaklarning haykallari – "kuros"; 2) tikka turgan ayollar haykallari – "kora".

Poeziya sohasida Gomerning "Illiada" va "Odisseya" dostonlari yaratiladi. Keyinroq shoir Gesiod tomonidan "Teogoniya" va "Ayollar katalogi" poemalarida antik mifologiya o‘zining klassik darajasiga ko‘tariladi. Antik shoirlar orasida Arxilox (lirik poeziya asoschisi), hamda shoira S.O.Lesbos ijodlari alohida o‘rin tutadi. Go‘zallik, sevgi, huzur-halovatni kuylagan Anakreonta ijodi A.S.Pushkin ijodiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

"Gretsiya mo‘“jizasi” nomi bilan tarixga kirgan klassik davrda (er.avv. V-IV asrlar) qadimgi yunon sivilizatsiyasi va madaniyati yashnab eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Bu davrda yunonlar eronliklar ustidan g‘alabaga erishgach, iqtisodiyot, savdo keng rivojlanadi. Afina O‘rta Er dengizida eng katta savdo markaziga aylanadi. Afina, Misr, Karfagen, Krit, Suriya, Finikiyaliklar bilan savdo aloqalarini olib boradi.

YUnion falsafasi yuqori darajaga ko‘tariladi. SHu davrda antik davr aqlilik daholari Suqrot, Platon, Aristotel kabi buyuk faylasuflar yashab ijod qilganlar. Suqrot birinchi bo‘lib inson hayoti, yaxshilik, yomonlik,adolat kabi muammolarni mushohada qilishga asosiy o‘rin berdi. Suqrotning shogirdi Platon (er.avv. 429-347 yy) Afina aristokratiyasining vakili edi. U er.avv. 385 yili Akademiya nomi bilan faylasuflar maktabini tashkil qilgan. Platon

o‘zining ideal davlat to‘g‘risidagi g‘oyalarini munozara shaklida yozgan. Uningcha ideal shahar davlatni oilasi, xususiy mulki bo‘lmagan faylasuflar boshqarishi zarur edi. Ideal shaharning aholisi jangchilar va oddiy xalq (hunarmandlar va dehqonlar)ga bo‘linar edi. Kelib chiqishi chet ellik bo‘lgan qullar ham bor edi. Platon tizimini Aristotel (er.avv. 384-322 yy.) tanqid ostiga olgan edi. Uning "Siyosat" nomli mashhur asarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan bilimlarni alohida sohalarga – botanika, fizika, siyosat, tarix kabi nomlarga birinchi bor bo‘lingan edi. U "Metafizika" asarida falsafa fanining metafizik yo‘nalishiga asos solgan. U Makedoniya podshosi Aleksandr Makedonskiyning ustozи bo‘lib, "Birinchi muallim" nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Xuddi shu davrlarda "Tarix fanining otasi" Gerodot (er.avv. 490-430 yy), atom nazariyasining asoschisi Demokrit (er.avv. 460- 370 yy), mashhur tabib, 72 ta kitob muallifi Gippokrat (er.avv. 460-375 yy) kabi mashhur olimlar yashab ijod qilganlar.

Arxitektura va shahar qurilishi bo‘yicha Miletlik Gippodam tomonidan shaharlarning rejalashtirish konsepsiysi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra shahar jamoa markazi, yashash uchun uy-joy hamda ishlab chiqarish va port zonalaridan iborat bo‘lishi kerak edi. Monumental qurilishning asosiy turi ibodatxonalar bo‘lgan.

Arxitektorlar - Gektin va Kalikratlar tomonidan qurilgan Afina Akropoli jahon arxitekturasining noyob namunalaridan biri hisoblanib, unda 46 ta ustun va haykallar mavjud bo‘lgan.

Taniqli arxitektura inshootlari ichida dunyoning etti mo‘jizasidan biri Efesdagi Artemida ibodatxonasi bo‘lib, unga yovuzlik timsoli bo‘lmish Gerostrat tomonidan o‘t qo‘yilgan edi. Qayta tiklangan ibodatxona qurilishida haykaltaroshlar Praksitel va Skopaslar tomonidan ishlangan 127 ta ustun ajoyib haykallar va rasmlar aks ettirilgan edi.

Klassik davrda yunon haykaltaroshlik san’ati "Ellada" etakchi o‘rinni egallagan edi. Haykaltaroshlar ichida eng taniklisi Fidiy bo‘lib, uning Olimpiyada yaratgan Zevs haykali (bo‘yi 14 metr) olamning etti mo‘jizasidan biri hisoblangan.

Uning Afina haykali (bo‘yi 12 metr) Afina Akropolining markaziga qo‘yilgan. Promaxos (Afina jangchisi) haykali (bo‘yi 9 metr) jangchi kiyimini kiygan, nayza ushlab turgan ayol xudo qiyofasida tasvirlangan bo‘lib, u Afinaning harbiy qudratini ifodalagan. Fidiy Afina Akropoli qurilishida ham ishtirok etgan.

Pifagor Regiyskiy "Oyog‘idan tiklonni chiqarayotgan bola", Miron "Diskabol" va "Afina va Marsiy", Poliklet "Dorifora" va "YAralangan Amazonka" kabi haykallarni yaratganlar. Poliklet inson tanasining mutanosibligi haqida "Qanon" asarini yozgan.

Praksitel, Skopas, Lissil quyи klassika davr namoyandalaridir. Praksitel yunon haykaltaroshligida birinchi bo‘lib yalang‘och ayol obrazi - "Afrodita Knidskaya" haykalini yaratgan. Praksitel ijodi uchun did, nozik go‘zallik xos

bo‘lib, ular "Musallas quyayotgan satir", "Erot" haykallarida ayniqsa yorqin namoyon bo‘lgan.

Skopas Praksitel bilan birgalikda Efesdagi ibodatxona va Galikarnasdagি Artemida maqbarasini bunyod etishda ishtirot etganlar. Saroy rassomi Lissip Aleksandr Makedonskiyning haykalini yaratgan. U insonning ichki dunyosi, kechinmalarini o‘z asarlari orqali namoyon qilgan. Bunga "Orom olayotgan Germes", "SHippagini bog‘layotgan Germes", "Erot" asarlari misol bo‘la oladi. Poeziya sohasida Afina demokratiyasini qabul qila olmay, aristokratiya tabaqasini o‘z asarlarida ulug‘lab kuylagan shoir Pindar Olimpiya o‘yinlari g‘oliblariga atab qasidalar, qo‘shiqlar yozgan.

Qadimgi YUnion madaniyatidagi teatr³ sohasida tragediya, komediya janrlarining paydo bo‘lishi va ravnaqi muhim voqeа hisoblanadi. YUnion teatri qishloq xo‘jaligi xomisi bo‘lgan Dionis sharafiga o‘tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan xalq qo‘shiqlari va o‘yinlari asosida vujudga kelgan. Dionis bayramlari toklar, daraxtlar barg chiqargan bahorda va kuzda o‘tkazilgan.⁴ "Tragediyalar otasi" Esxil (525-458 yy) 90 dan ortiq tragediya⁵ yozgan. Esxil o‘z tragediyalarida afsonaviy voqealardan foydalangan bo‘lsada, ularda o‘z davrining muhim masalalari keng o‘rin tutgan. Masalan, halok bo‘lib borayotgan matriarxat bilan patriarxat o‘rtasidagi ziddiyatlar masalasiga bag‘ishlangan "Oresteya" trilogiyasi: "Agamemnon", "Xoeforlar" va "Avmenida" asarlaridan iborat. Uning eng mashhur tragediyalari bo‘lsa "Zanjirband Prometey" va "Forslar"dir. "Zanjirband Prometey" asari insonning kuch-qudrati, irodasi buyukligi timsolidir.

Jumladan, Zevs tomonidan yuborilgan Germesga Prometey qanday azob-uqubatlar bilan jazo berilishini eshitgach, shunday deydi:

Va na qatl, va na makr qilmas aslo kor,
Aytmasman Zevsga hech qanday sir-asror,
CHAqmoq chaqib, mayli o‘tda kuydirsin.
Osmonu falakni oppoq quyundek,
hammasini batamom-butkul quritsin:
Ammo irodamni bukolmas aslo,
Jahannam o‘tini qilsa ham paydo.
Kim uning hokimligini etishin bekor,
Xomtama bo‘lmasin, aytmasman zinhor.

Esxilning "Forslar" tragediyasida YUnioniston – Eron urushlarida⁶ yunonlarning qahramonona kurashi va g‘alabasi aks etgan.

YAna bir buyuk tragediya shoirlaridan biri Sofokl (496-406yy) bo‘lib, u 120 dan ortiq tragediyalar yozgan. Ulardan bizgacha ettitasi etib kelgan, xolos. Afina teatrda dastlab qo‘yilgan "Antigona", "SHoh Edip" asarlari unga shon-shuhrat keltirgan.

Tragediya janri bilan birgalikda komediya⁷ janri ham vujudga kelib, rivojlanadi. Komediya janrlining otasi Aristofan (450-388 yy) bo‘lib, uning asarlari sodda, tushunarli, xalq tilida yozilgan va hayotning muhim masalalari,

jumladan, tinchlik muammosi aks ettirilgan. Jumladan, uning "Tinchlik", "Ayollar xalq yig'inida", "Suvoriylar" asarları o'z davrida mashhur bo'lgan. Qadimgi YUnion madaniyatining sungi davri-bu Ellinizm (323-146yy.) dir. Bu davrda madaniyatning ba'zi sohalarida, jumladan, filsafada erishilgan yutuqlar darajasidan pasayish holatlari yuz beradi. Bu davrda yunon madaniyatining boshqa mamlakatlarga, jumladan, O'rta Osiyoga ta'siri kuchayadi. hatto bu jarayon YUnionistonning Rimga qaram bo'lidan keyin ham davom etadi. Rim YUnionistonni siyosiy jihatdan tobe etadi.

Fan sohasida bu davrda etakchi o'rinni matematika egallaydi. Uning asoschilari Evklid va Arximed kabi olimlarning ijodi tufayli matematikadan mexanika, optika, qurilish sohalarida foydalaniladigan bo'lindi. Astronomiya, meditsina va geografiya sohalarida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bu davrda arxitektura sohasida ko'plab hashamatli saroylar, kutubxonalar, gimnaziyalar, uy-joylar qurildi. Jumladan, Aleksandriyada 799 ming o'ramli kitoblar turadigan kutubxona qurilgan. Arxitektor Sostratning loyihasi asosida dunyoning etti mo'jizasidan biri, 120 metr balandlikdagi Aleksandr mayog'i barpo etilgan.

Haykaltaroshlik sohasida ellinizm davrida ba'zida yirik shakkardagi haykallar ham yaratilgan. Xususan, Xeros tomonidan yaratilgan quyosh xudosi Gelios haykali, yoxud dunyoning etti mo'jizasidan biri 36 metr balandlikda bo'lgan Rodos orolidagi Koloss Rodosskiy haykali bunga misoldir (mazkur haykal er silkinishlari natijasida qulab tushgan). O'sha davrda yaratilgan Afrodita (Venera), Milosskaya va Nika Samosskaya haykallari hozirgacha dunyo madaniyatining noyob durdonalari hisoblanadi.

Qadimgi YUnioniston madaniyati jahon madaniyatiga katta ta'sirini o'tkazdi va hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

YUnion madaniyatisiz hozirgi Evropa madaniyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. SHuningdek SHarq dunyosi ham ellinizm madaniyatisiz boshqacharoq ko'rinishga ega bo'lgan bo'lardi.

2. Antik Rim madaniyati.

Antik Rim madaniyati er.avv. VIII asrdan eramizning 476 yilgacha davom etgan. Qadimgi Rim madaniyatining o'rni va roli to'g'risida madaniyatshunos olimlar ichida ikki hil qarash mavjud:

1. Taniqli madaniyatshunoslар O.SHpengler va A.Toynbilarning fikricha, qadimgi Rimliklar mustaqil madaniyat va sivilizatsiyani yarata olmaganlar, ular davlat, huquq va texnika sohalarida yutuqlarni qo'lga kiritganlar xolos, boshqa sohalarda rimliklar ellinizm darajasiga eta olmaganlar.
2. Boshqa olimlar, jumladan, D.A.Silichev bunga qarama-qarshi ularoq boshqacha fikrni ilgari surib, Rim madaniyati va sivilizatsiyasi ham o'ziga xosligi, betakrorligi bilan ajralib turishini va jahon madaniyatida o'z o'rni bor ekanligini qayd qiladi.

Rimliklar ko‘p sohalarda ellinlarga o‘xshar edi. Bu shubhasiz, biroq, shu bilan birga ular o‘zlarining qadriyatlari va ideal tizimini yaratganlar. Bular sirasiga ayniqsa vatanparvarlik, fuqarolik burchiga sodiqlik, xudolarga e’tiqod, Rimda oliv qadriyat sifatiga ko‘tarilgan edi. Rimliklar qonunni alohida qadrlar, unga bo‘ysunishni sharaf deb bilar edilar. Ular uchun ijtimoiy manfaat shaxsiy manfaatdan ustun turardi. Kishining quyidagi muruvvatlilik sifatlari ulug‘langan:

1. Sodiqlik er.avv. V asrda ibodatxona qurilgan bulib, unda (fuqarolar o‘rtasidagi munosabat, askarlarning o‘z boshliqlariga sodiqligi-yorqin aks ettirilgandi);
2. Jasorat – o‘z ishini bajarishda botirlik, har xil aldov va va’dalarga berilmaslik, sotilmaslik;
3. SHon-shavkat – jasorat uchun taqdirlanish va ulug‘lanish;
4. Erkinlik – 238 yili unga atab ibodatxona qurilgan.

Bularga misollar:

1. YUniy Brut haydab yuborilgan podsho Tarkviniya tomonidan uyushtirilgan suiqasdda qatnashgani uchun o‘z o‘g‘illarini o‘limga hukm qilib o‘ldirtirgan.
2. Mutsiy Ssevola – Etrusk podshosi Parsenaning harbiy lageriga josuslik maqsadida borganida qo‘lga tushib, o‘z irodasining qat’iyligini ko‘rsatish uchun o‘z qo‘lini olovda kuydirgan edi.

Rimliklar erkin fuqaro bilan qul o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirdilar. Erkin kishi uchun siyosat, urush, huquq qonunlarini ishlab chiqish, tarixshunoslik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish faxrli hisoblangan. Hunarmandchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, aktyorlik va dramaturglik faxrli kasb sanalgan. Barcha qo‘l mehnati qullarga tegishli bo‘lgan. Jumladan, yolg‘onchilik, lagarbadorlik kabi illatlar ham qullarga taalluqli hisoblangan. Rim klassik qulchilik tuzumining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi.

Qadimgi Rimda birinchi bo‘lib Nibur tomonidan qayd qilingan urug‘doshlik asosidagi aholining tarkibiy tuzilishi muhim rol o‘ynagan. Rimning aholisi 300 ta urug‘dan iborat bo‘lib, ularning har o‘ntasi kuriyaga birlashar, 10 ta kuriya – tribuni tashkil qilardi. 3 ta tribu – bu 3 ta qabila lotin, sabin, etrussklardan iborat edi. SHu tribularning a’zolari teng huquqli fuqarolar – patritsiylar edi. Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko‘chib kelgan odamlar va ularning ajdodlarini plebeylar deb atagan. Plebeylar orasida ham boy – badavlat kishilar bo‘lgan, lekin ularning orasida kambag‘allar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Rim aholisi ichida qullar huquqsiz "gapirovchi hayvon" edilar.

Rimliklar nisbatan jangovor bo‘lganlar va harbiy jasorat ular uchun oliy qadriyat hisoblangan. Jangchilarning bosqinchilik yurishlari tufayli Rim imperianing poytaxtiga aylandi. Rim huquqi, ajoyib yo‘llar, turar joylar, jamoat uylari Rimning ulkan yutuqlari hisoblangan. Davlat qurilishi sohasida respublika va imperiya boshqaruvi shakllari yaratilib, bular takomillashtirib borilgan.

Ma’naviy madaniyat sohasida rimliklar yunon madaniyatining vorislari hisoblanadilar. Ko‘plab yunon xudolari nomlari o‘zgartirilgan. CHunonchi, Zevs - YUpiterga, Kronos – Saturnga, Paseydon – Neptunga, Afrodita – Veneraga, Artemida – Dianaga, Afina – Minervaga aylangan.

Rimliklarning dam olishi ham asosan bir xil bo‘lgan: hammomlarga borish va u erdag‘i mashqlar maydonchalarida bo‘lish, falsafiy sohada suhbatlar o‘tkazish, kutubxonalarda shug‘ulanish yoki basseynlarda hordiq chiqarish ular uchun odatiy hol bo‘lgan.

Milodning I asrida gladiatorlik janglari uchun qurilgan Kolizey amfiteatri o‘zining ulkanligi bilan ajralib turgan. Amfiteatrga bir vaqtning o‘zida 50 ming tomoshabin joylasha olgan. Amfiteatr arenalariga 11 ming yirtqich chiqarilgan, 10 ming gladiator bir- biri bilan jang qilgan va yirtqich hayvonlar bilan olishgan. Omma yaralangan gladiatorining tirik qolishi yoki o‘ldirilishi manzarasini tomosha qilgan.

Rimliklar orasida sirk o‘yinlari, ayniqsa 4 ta yoki 6 ta ot qo‘shilgan ikki g‘ildirakli aravalar poygasi mashhur bo‘lgan.

Rimliklarda quyidagi ommaviy yirik bayramlar bo‘lgan:

Saturnaliya – har yili dekabr oyida Saturn xudosiga atalib o‘tkaziladigan bayram bo‘lib, u karnaval bilan boshlangan, bayram vaqtida tabaqaviy farqlarga rioya qilingan. Kambag‘allarga sadaqalar berilgan, bir-birlariga o‘zaro tuhfalar ularshganlar.

Luperkaliya - xudo Favkaga atalib (chorva homiysi), qadimgi hosildorlik sehrgarligi bilan bog‘liq bayram bo‘lgan.

Bu bayramni har yili fevral oyida o‘tkazishgan. SHu kuni hammani qamchi bilan urib chiqqanlar (qamchini febritsa deyilgan, shundan fevral oyining nomi kelib chiqqan).

Mifologiya sohasida Rim bilan bog‘liq miflar, chunonchi, "Rim dunyo markazi", "Rim – doimiy shahar" singari dunyo ustidan Rimning hukmronlik qilishi g‘oyasi alohida o‘rin tutgan.

Filosofiya va boshqa fan sohalarida ham rimliklar yunonlar izidan borganlar.

Rim tasviriy san’at namoyandalari deyarlik yunonlarning asarlari nushalarini va ichki dunyosini tasvirlaganlar. Rim yozuvchilari romançilik janriga asos solganlar.

Afsonaga ko‘ra Rimga er.avv. 753 yili hasan-husan Romul va Remlar asos solganlar. SHu vaqt dan Rimning monarxiya boshqaruvi tarixi boshlanadi. U davrda jamiyatning muhim masalalarini xalq majlisi hal qilgan. Patritsiylarning (tub aholi) nufuzli oqsoqollaridan "Keksalar kengashi" tuzilib, uni lotinchada Senat deb atashgan. Dastlab Senat va podsho xalq majlisiga tayanib davlatni idora qilishgan.

Er.avv. 510 yili Senat bilan podshoning qarama-qarshiligi natijasida podsho Takviniy ag'darilib, Rimda aristokratik Respublika boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Puni urushlaridan keyin (264-146 yy.) Karfagen mag'lubiyatga uchragach Rim imperiyasining hududi ancha kengayadi va Rimning obro'si kuchayadi. Ba'zi olimlar Rimga ko'chib kelib ijod qiladilar. Masalan, tarixchi Polibiy ko'p tomlik Rim tarixiga doir o'zining "Tarix" asarini Rimda yozadi. Avgust (er.avv. 30-14yy) davri tarixchisi Tit Liviy 142 jilddan iborat "Rimning ta'sis qilinganidan keyingi tarixi"ni yozgan. Er.avv. 1 asrda yashagan Galikarnass Dionisiy "Qadimgi Rim yodgorliklari" degan kitob yozgan. U madaniyatshunoslik tarixi uchun muhim manba hisoblanadi. Korneliy Tatsitning "Tarix" kitobida 68-69 yillardagi fuqarolar urushi va Flaviy davri tarixi bayon qilingan. Uning "Yilnomalar" nomli asarida Avgust o'limi bilan Neron o'limi orasidagi voqealar yozilgan.

YULiy Sezar ham "Gall urushlari haqida yozmalar" va "Fuqarolar urushi haqidagi yozmalar" nomli kitoblarini yozdirib qoldirgan. Bu asarlar Rim tarixini, jumladan, uning madaniyatini o'rganishda muhim manbalardir.

YUNon adabiyoti ta'sirida bir qator shoirlar va dramaturglar paydo bo'ladi. Ular ichida Plavt va Terensiylarning komediyalari hozirga qadar etib kelgan. Liviy Andronik Gomerning "Odisseya"sin lotin tiliga tarjima qilgan. Bu davr shoirlaridan Lutsiliy turmush mavzulari bo'yicha she'rlar yozib, o'ta boylik orqasidan quvuvchi hasislar ustidan kulgan.

Er.avv. 27 yili Rim respublika nomi bilan atalsada amalda avtoritar boshqaruvidagi imperiyaga aylandi. Birinchi imperator, prinsipiat (shu sababli imperiyani prinsipiat deb atalgan) bo'lgan Oktavianga Senat Avgust unvonini – "Muqaddas kishi" degan faxriy nom bergen. Oktavian davridan boshlab butun Apenin yarim oroli Italiya deb atala boshlagan. Besh asr davom etgan Rim imperiyasida Avgust davri (er.avv. 20-14 yy) Rim madaniyatining oltin davri hisoblanadi.

Bu davrda Rim falsafasida Epikurizm, Stoitsizm va Neoplotonizm oqimlari keng yoyiladi.

Epikurizmning ko'zga ko'ringan vakillari Lukretsiy va Sitseronlar edilar. Lukretsiy Kar "Tutam narsalar haqida" poemasida yunon faylasuflari izidan borib, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz narsalarning atom zarrachalaridan tashkil topganligini ta'kidlagan. Epikurizm erdag'i hayotdan xursand bo'lish, huzur-halovatda yashashga undagan, kishining vafotidan keyin hechqanday hayot yo'qligini ta'kidlagan. U kishilikning eng qadimgi davri haqida shunday yozadi:

"Odamlar o't bilan muomalani bilmasdi hali,
vahshiy hayvonlarni quvishardi o'rmonga,
va og'ir to'qmoq bilan urib ularni
toshbo'ron qilishardi bermasdi omon."

Lukretsiy diniy e'tiqodlarni inson tafakkurini jilovlovchi yuganga o'xshatadi. U tabiat, jamiyat va kishilar hayotida sodir bo'ladigan voqealarning sabablarini ilmiy asosda tushuntirib berishga harakat qilgan.

Sitseron Rim madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U buyuk filosof, notiqlik nazariyotchisi va siyosatchi edi. U o'z asarlarida yunon falsafa mакtablarining barcha oqimlarini ommalashtirishga intiladi. Rim stoitsizmining vakillari Seneka, Epiktet va imperator Mark Avreliylar bo'lib, ularning uchalasi ham falsafani insonning dunyoviy lazzatlardan voz kechib, axloqiy etuklikka etishishi to'g'risidagi ta'limot deb tushunar edilar. Stoitsizmlik xristianlik ta'limotining shakllanshiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Imperiya davrida fanlar rivojlanishi kuzatiladi. Katta Pliniy, Ptolomey va Galen taniqli olimlar edi. Katta Pliniy tomonidan 37 tomlik "Tabiiy fanlar tarixi" asari yaratildi. Bu asar o'sha davrda tabiiy fanlar ensiklopediyasi rolini o'ynagan.

Ptolomey dunyoning geotsentrik tuzilishi to'g'risidagi ta'limotga asos soldi. Uning "Almagest" asari astronomik bilimlar bo'yicha qomus edi. U optika, matematika va geografiya sohalariga doir asarlar ham yozgan.

Qadimgi dunyoning mashhur tabiblaridan Asklepiad, Kornelyi Sels, Klavdiy Galen bo'lib, ularning ichida Klavdiy Galen (131-201 yy.) mashhur edi. Dastlab u gladiatorlik maktabida ishlab, so'ng Rim imperatori saroyida tabiblik qilgan. Klavdiy Galen 400 dan ortiq asarlar yozgan. Uning "Tabiblik san'ati", "Davo usullari", "Dorilarning tartibi haqida" asarlari alohida ahamiyatga egadir.

Uning asarlaridan, jumladan, bobokalonimiz Ibn Sino ham foydalangan.

YAratilgan yodgorliklar ichida Koliziy yoki Flaviy amfiteatri alohida ajralib turadi. U gladiatorlik jangi va boshqa ommaviy tomoshalar uchun qurilgan bo'lib, 50 mingdan ortiq kishini sig'dirar edi.

Imperiya davrida Vergiliy CHo'ponlar ashulalarining to'plami "Bukolikalar" asarini va "Georgiki" nomli poemasini yozib, unda dehqonlarga maslahatlar beradi va tabiat go'zalligini kuylaydi. Uning tugallanmagan taniqli poemasi "Eneyda" bo'lib, unda Rimning afsonaviy bosh fuqarosi Eneyaning sarguzashtlari kuylanadi.

Ovidiy o'zining "Ishq san'ati", "Dard-alamlar" va "Pontdan maktublar" nomli asarlarida Avgust davridagi aslzodalar turmushini tanqid ostiga olib, Avgust g'azabiga uchragan. Boshqa asarlarida esa o'z qayg'u-alamini va mehnatkashlarning og'ir turmushini aks ettirgan. SHu bois Qora dengiz bo'yidagi Toma shahriga surgun qilingan.

Eramizning I asridan boshlab Rimliklar ayniqsa ularning yuqori tabaqalari, zodagonlari hayotida ma'naviy qashshoqlik jarayoni kuchayib bordi. Rim imperatorlari Kaligula va Neron qahri qattiqlik va ma'naviy buzuqlik ramzlariga aylanadilar. Ma'naviy bo'shlik va inqiroz Rim jamiyatini halokatining bosh sabablaridan biriga aylandi.

Italiyadagi qashshoq va mazlumlar yaxshi yashash va ozodlikka erishish uchun o'z xudolariga iltijo qilib kelganlar. Lekin bu iltijolar ularning ahvolini yaxshilamagan. Bora-bora mazlumlar orasida eski ma'bud va ma'budalar va

xudolarga ishonchsizlik vujudga kelgan. Mazlumlar orasida o‘zlariga ozodlik keltiradigan, zolimlarni esa jazolaydigan qudratli xudoga ishonish tuyg‘usi vujudga kela boshlagan. Bu xudo va uning dastlabki payg‘ambari Iso Masix edi. Iso payg‘ambar nomi musulmonlarning ilohiy kitobi "Qur’on"da ham uchraydi.

SHarq yilnomalariga ko‘ra Iso payg‘ambar milodning 25 dekabrida Bibi Maryamdan tug‘ilgan bo‘lib, ulg‘aygach mo‘jizalar ko‘rsatish qobiliyatiga ega ekanligini "Evangelie" ("Xushxabar")da yozilgan.

Nasroniylik (xristianlik) dinining asosida yakka xudo Iysus Xristosga ishonch, sevish yotadi. Xristian dinida hamma odamlar xudo oldida teng deb e’lon qilinadi. Ular xudo dunyoni 6 kunda yaratgan degan rivoyatni qabul qilganlar. Xristian dini dastlab, mazlumlarning himoyachisi, aslzodalar va boylarni insof va adolatga chaqiruvchi, kelajakda mazlumlarni qullik va qashshoqlikdan ozod qilishga va’da beruvchi din sifatida e’tirof topgan.


Dastlabki xristian jamoalari tarkibiy tuzilishi jihatidan eng demokratik tarzda bo‘lgan. Unga mayda hunarmandlar, qullar va barcha mazlumlar kirar edi. Ular bir-birlarini o‘zaro aka-singil deb atashar edilar.

Platon g‘oyalari Xristianlik diniga asos qilib olingan edi. Ikki asr mobaynida xristian dini mazlumlar dinidan asta sekin hukmron sinflar mafkurasiga aylanadi va unga yangi talqinlar kiritiladi. Masalan:

- boylar ham mehribonlik qilishsa jannatga tushishlari mumkin;
- o‘zlarining xo‘jayinlariga itoatda bo‘lish va sabr qilish va hokazo.

313 yili imperator Konstantin xristianlarni erkin yig‘ilishlariga ruxsat beradi va cherkovlar qurilishiga mablag‘lar ajratadi. Xristianlik davlat diniga aylana boradi.

Xristian jamoalarining tarkibiy tuzilishi:



395 yili Rim imperiyasi ikki qismga, SHarqiy va G‘arbiy qismga ajralib ketadi. 476 yili esa rimliklarning german qabilalarining qo‘shinidan navbatdagi

mag‘lubiyati natijasida oxirgi imperator Romul Avgustinni taxtdan tushiriladi. Natijada G‘arbiy Rim imperiyasi barham topadi. Lekin Rim madaniyati o‘zining Rim huquqi, arxitektura, adabiyot fanlari bo‘yicha erishgan yutuqlari jahon madaniyatida o‘z o‘rnini egalladi va hozirgacha yashab kelmoqda, insonlarni hayratga solmoqda.

Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya etiladi: Antik Vizantiya madaniyati.

Tayanch so‘z va iboralar:

Qadimgi YUnion sivilizatsiyasining o‘ziga xosligi. Qadimgi YUnion sivilizatsiyasining davrlari, Krit – Miken madaniyati, Arxaik madaniyat, Klassik davr madaniyati, Rim sivilizatsiyasining boshlanishi, Qadimgi Rim madaniyati, Xristian dinining paydo bo‘lishi.

Savol va topshiriqlar:

1. YUnion madaniyati o‘zining noyobligini nimalarda namoyon qildi?
2. YUnionlarning turmush tarzi qanday bo‘lgan?
3. Qachondan boshlab Olimpiya o‘yinlari boshlangan va unda sportning qaysi turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilgan?
4. YUnionlarda ta’lim tizimi qanday tashkil qilingan edi?
5. Qadimgi YUnioniston fani va uning asoschilaridan kimlarni bilasiz?
6. Qadimgi YUnioniston dinidagi xudolari to‘g‘risida qanday tasavvurlar bo‘lgan?
7. Qadimgi YUnioniston madaniyatining eng yuqori darajaga chiqqan davri qaysi va nima uchun?
8. Qadimgi YUnioniston poeziyasiga doir qanday asarlarni bilasiz?
9. Qadimgi YUnionistonda arxitektura qurilishi qanday bo‘lgan?
10. Qadimgi YUnionistonda teatr san’ati sohasida qanday yutuqlarga erishilgan?
11. Antik YUnion madaniyati qadimgi Rim madaniyatining mantiqiy davomi ekanligi nimalarda namoyon bo‘ldi?
12. Qadimgi Rim madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda edi?
13. Qadimgi Rimliklarda vatanparvarlik tuyg‘usi qanday bo‘lgan?

14. Qadimgi Rim tarixchilari va ularning asarlarini bilasizmi?
15. Qadimgi Rimdagi falsafa, tabobat, adabiyot fanlari sohalaridagi yutuqlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
16. Qadimgi Rimda arxitektura qurilishi qanday bo‘lgan?
17. Xristian dinining paydo bo‘lishi to‘grisida nimalarni bilasiz?
18. Antik YUnion madaniyatiga doir albom tayyorlang.
19. Antik Rim madaniyatiga doir albom tayyorlang.
20. Internet tarmog‘idan foydalanilgan holda Antik Evropa (YUnioniston, Rim, Vizantiya) ilm – fani,san’atining atoqli namoyondalari hayoti va ijodini yorituvchi slayd va tezislар tuzing.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Istiqlol va ma’naviyat" T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Axmedova E., Gabidulin R., Kulturologiya. Mirovaya kultura. Akademiya Xudojestv Uzbekistana. T., 2001.
3. Bonnar A. Grecheskaya sivilizatsiya. V 3-x tt. M., 1992.
4. Gurevich P.S. Kulturologiya. "Glardariki". M., 2000.
5. Radugina A. "Kulturologiya". Uchebnoe posobie. M., 2000.
6. Lyubimov I. "Iskusstvo Drevnego Rima". M., Prosveshenie . 1971.
7. Silichev D.A. "Kulturologiya". Uchebnoe posobie dlya VUZov. M., 1998.
8. Svetoniy T.G. Jizn dvenadsati sezarey. M., 1990.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Vinnichuk L. "Lyudi, nравы и обычай древней Греции и Рима". M., 1999.
2. Vsemirnaya istoriya. T. 3. M., 1956.
3. Kropotkin P.A. Etika. M., 1991.
4. Drevniy mir. Kniga dlya chteniya. M., 1981.

5. Istorya zarubejnogo iskusstva. Izobrazitelnoe iskusstvo. M., 1983.
6. Udalsova N.V. Vizantiyskaya kultura. M., 1988.

¹ Olimpiya o'yinlari Piloponesning g'arbidagi qadimgi Olimpiya shahrida er.avv. 776 yildan boshlanib, har 4 yilda bir marta o'tkazilgan bo'lib, unda: chopish, sakrash, kurash tushish, disk otish, nayza otish, mushtlashish va to'rt ot qo'shilgan ikki gildirakli aravalar musobaqasi o'tkazilgan.

² Gefest cho'loq holatida bo'lган.

³ Teatr – yunoncha so'z bo'lib, tomoshalar joyi degan ma'noni bildiradi.

⁴ Kuzgi Dionis bayrami bizning Mehrjon bayramimizga to'g'ri keladi.

⁵ Tragediya - yunoncha "echkilar qo'shigi" ma'nosini anglatadi.

⁶ Muallifning o'zi bu urushlarda ishtirok etgan.

⁷ Komediya yunoncha "xushchaqchaq dehqonlar qo'shig'i" degan ma'noni anglatadi.

«Madaniyatshunoslik va diniy madaniyat.

Reja:

1. O‘rta asrlardagi dunyo kiyofasi. Evropa O‘rta asrlar madaniyati manbai.
 2. Xristianlik-Evropa madaniyatining o‘zagi.
 3. O‘rta asrlarda ta’lim tizimi, me’morchilik va san’at.
1. O‘rta asrlardagi dunyo kiyofasi. Evropa o‘rta asrlar madaniyati manbai.

O‘rta asrlar tushunchasi Evropada V-asrdan boshlab to XVII asrning birinchi yarmiga kadar bo‘lgan davrni xamrab oladi. Bu davr antik madaniyatning inkirozini belgilab bergen Rim davlatining kulashi bilan boshlandi va Evropa Uygonishi (Renessans) davriga kelib yakunlandi. Ana shu antik va Uygonish davrlari o‘rtasi zulmat davri (ikki yuksalish davri oraligi) deb nom olgan. U fanda o‘rta asrlar davri deb atala boshladi.

Evropada o‘rta asrlarni kuyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1. Ilk o‘rta asr – V-XI asrlar. Bu davr feudal munosabatlarga o‘tish, feodallar tabakasining shakllanishi, katolik cherkov ta’sirining kuchayishi, oliy ta’lim muassasalari-universitetlarning paydo bo‘lish davridir.
2. Mumtoz (klassik) o‘rta asr – XI asrdan-XV asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davr. Ushbu davrga xos xususiyatlar shundaki, kishlokdagi ishlab chixarish rivojlanibgina xolmasdan, shaxarlarda xam xunarmandchilik sexlari paydo bo‘ldi, shaxar infratuzilmasi yaratildi, markazlashgan yirik davlatlar tashkil topdi. Kirol xokimiyati kuchayib, uning jamiyat ravnakiga ta’siri ortib bordi. Kitob nashr etish yo‘lga ko‘yildi, fanning kator tarmoklariga asos solindi.
3. So‘nggi o‘rta asr – XVI asr-XVII asrning birinchi yarmi. Bu davrda ilm-fan va texnika rivojlandi. Inson turmush tarzida buyuk o‘zgarishlar yuz berdi, yangi kit’alar kashf etildi. Kapitalistik munosabatlarga asos solindi. Demokratik tamoyillar shakllandı.

V-VI-asrlarda Rim imperiyasi erlarida asosan dexkonchilik va chorvachilik bilan shukullanuvchi germanlarning dastlabki davlatlari tashkil topdi. Madaniyat ravnaki bo‘yicha o‘zidan yukori bo‘lgan xalklar ustidan xukmronlik kilish (xunnlar xujumlari natijasida 476 yilda Rim imperiyasi kulagan edi.) germanlarni boshkaruv tizimini yangi tartibga moslashtirishga majbur etdi.

Ijtimoiy-iktisodiy munosabatlar jixatidan bu davr feudalizm boskichiga to‘g‘ri keladi. Ammo o‘rta asrlar tushunchasining asosiy mazmuni muayyan davrning vakt chegaralarini aniklashtirish bilangina kifoyalanib xolmasdan, balki bu davrni madaniyat inkirozi pallasi sifatida kabul kilishidadir. SHu ma’noda o‘rta asrlar antik davrga nisbatan so‘zsiz yo‘kotishlar davri deb xaralar edi.

O'rta asrlar madaniyatiga past nazar bilan xarash ko'pincha antik davr madaniyatiga xayrioxlik bilan xarovchi tadkikotchilar orasida tarkalgan edi. Albatta, bu - sub'ektiv va bir yoklama yondashuvdan boshka narsa emas.

O'rta asrlarning "zulmat dunyosi" timsoliga aylanishida ushbu davr namoyandalari bo'lgan yozuvchilar, shoirlar, tarixchilar, diniy ulamolar va davlat arboblarining xam "xissasi" bor, albatta. CHunki ular o'z ijodida asosan zamonaviy xayotning murakkab jixatlarini aks ettirganlar. Bunday asarlarda kelajakka ishonchsizlik, xayotdan norozilik tuygusi sezilib turadi. SHu boisdan xam bu muammolardan xalos bo'lish imkonni sifatida ajal, o'lim mavzusi markaziy o'rinn tutgan. Ular nazarida o'rta asrlar bekorga sarflangan davr, bexuda ketgan yuzlab yillar sifatida gavdalangan. O'rta asrlarni fakat buzgunchilikdan iborat, antik davr madaniyati yutuklarini chippakka chikargan davr, deguvchilar xam ko'plab topilar edi.

Garbiy, "xristianlar dunyosi" "Rim dunyosi"ning tanazzuli okibatida emas, balki Rim va varvarlar dunyolarining o'zaro muvofiklashuvi, birikishi natijasida yuzaga keldi. Ammo u xakikatan xam emirilish, zo'ravonlik va shafkatsizlik, antik dunyo madaniyati va sivilizatsiyasining ko'plab yutuklaridan beanaxra kolish kabi jiddiy to'siklarni boshdan kechirdi. Ko'plab antik davr shaxarlari katta talofat ko'rdi: ayrimlari buzib tashlandi, boshkalari (savdo yo'llari o'z yo'nalishini o'zgartirishi munosabati bilan) tanazzulga yuz tutdi. SHunga xaramasdan, ilk o'rta asrlardayok ayrim soxalarda ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. O'ullikning bekor kilinishi ijtimoiy tarakkiyotda tub o'zgarishlar yasadi.

Antik davrda asosiy energiya manbai, bu kullarning jismoniy kuchi bo'lib, ushbu manba yo'kolgach, boshka imkoniyatlар kidirila boshlandi. Agar antik davrda nazariy bilimlar muvaffakiyatli rivojlangan bo'lsa, o'rta asrlar davri mashina va texnika vositalaridan keng foydalanish uchun keng, ravon yo'llar ochdi. Bu kullikning bekor kilinishining bevosita natijasidir. Antik davr ruxan va jismonan o'zaro muvozanatda bo'lgan inson timsolni ko'rsatishga intildi. Ammo, ayniksa Rim madaniyatida bu goyani amalga oshirishda ko'prok jismoniy kamolotni ta'minlash borasida muvaffakiyat kozonildi. SHuningdek Demokrit, Platon, Aristotel kabi antik davr mutafakkirlarini ijtimoiy-siyosiy va tabiiy-falsafiy xarashlarining Jordano Bruno, Galileo Galiley, Tomas Mor, Tommazo Kampanella kabi o'rta asr nazariyotchi-olimlari tomonidan ilgor ta'limotlar yaratilishiga ko'rsatgan bevosita ta'sirini rad etib bo'lmaydi. Masalan, Platon, Aristotellar tomonidan ilgari surilgan ideal davlat to'grisidagi goyalar Tomas Mor, Tommazo Kampanellalarining utopik xarashlarida ayniksa yakkol namoyon bo'ladi. Aynan shu xarashlar asosida keyinchalik gumanizm, demokratiya to'grisidagi yangidan-yangi ta'limotlar rivojlanib, bugungi kunda xam adolatli, farovon jamiyat kurishda jaxon xalklariga dasturilamal bo'lib xizmat kilmokda.

Birgina shu misoldan ko'rinish turibdiki, xalklar, avlodlar va davrlar o'rtasidagi vorisiylik nafakat ayrim xududlar, balki jaxon sivilizatsiyasi yuksalishida asosiy omil bo'lib xizmat kilgan. Demak, o'rta asrlar madaniyati bevosita antik davr madaniyati, ilm-fan va san'ati ta'sirida yuksalgan xamda o'sha davrda

namoyon bo‘la boshlangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy xodisalarni yanada boyitgan, keyingi Uygonish davri uchun mustaxkam zamin xozirlagan.

2. Xristianlik - Evropa madaniyatining o‘zagi.

O‘rta asr Evropa madaniyati cherkov-diniy goya bilan yakindan boglangan edi. CHerkov ta’siri o‘rta asr madaniyatining turli soxalarida, chunonchi, fanda, maktabda, adabiyotda, san’atda aks etdi. Ilm-fan u kadar rivojlanmagan ilk o‘rta asrlar davrida, taxminan XI asrning ikkinchi yarmigacha o‘rta asr jamiyatiga goyaviy raxbarlik asosan cherkov tasarrufida bo‘ldi: Kishilarning olam to‘grisidagi bilimlari maxalliy cherkov ta’limoti doirasi bilan cheklanardi. Boshka mamlakatlar to‘grisida ma’lumotlar juda oz bo‘lganligidan, evropaliklar ancha vaktlargacha olis yurtlar xakida xar kanday uydirmalarni to‘kishardi. Fan va texnika tarakkiyoti darajasi juda past bo‘lganligidan, odamlar kurgokchilik, toshkin va kasalliklar oldida ojiz edilar. Jismoniy extiyojlar va lazzatlar mutlaklashtirilgan Rim jamiyatining achchik saboklariga tayanib, xristianlik insondagi ruxiyatga, uning ichki dunyosiga asosiy e’tiborni xaratdi. U insonni xamma narsadan o‘zini tiyishga, ko‘ngilli ravishdagi juvonmardlikka, xissiy, jismoniy tuykularni so‘ndirishga chakiradi. Ruxiyatning jismoniy kamolotdan ustunligini e’lon kilib, xristianlik kishining chukur ma’naviyatini shakllantirishga, uni axlokan yuksaltirishga katta xissa ko‘shdi.

Bu davrda oliy diniy xokimiyatni oliy siyosiy xokimiyat bilan yagona ko‘lda birlashtirishga urinish goyasi kuzatiladi. Bunga Rim papalarining (SHarkda - Arab xalifaligi) Evropada xokimiyat jilovlarini o‘z ko‘llariga olishga intilishlari misol bo‘la oladi. CHerkovning kudratli ta’siri o‘larok, Rim papalari xudoning erdag‘i noiblari xisoblanganlar. XII asrga kelib esa, milliy, siyosiy va davlat manfaatlarni ximoya kilish diniy faoliyat bilan sigisha olmaydigan o‘ziga xos soxa ekanligi ayon bo‘la bordi.

Ma’lumki, tabiat unsurlari, atrof-muxitdagi jismlar o‘rta asrlarda tirik mavjudotlar sifatida idrok etilgan. SHu boisdan turli yovuz kuchlar kurshovida bo‘lgan inson ularga xarshi kurashish, o‘zini ximoya kilish vositalariga ega bo‘lmogi lozim edi. Natijada turli-tuman tumorlar, diniy marosimlarning xilma-xil shakllari rivojlanib boradi. Masalan, Mukaddas Suvni iste’mol kilish kishining gunoxlarini yuvib, sogligini yaxshilabgina xolmasdan, uni yovuz kuchlar va jodulardan xam ximoya kiladi, deb xisoblaganlar.

Dinning jamiyat xayotining barcha jabxalariga bo‘lgan ta’siri butun o‘rta asrlar davomida salmokli o‘rin tutdi. Bu ta’sir ayniksa badiiy madaniyat va fan soxasida juda kuchli namoyon bo‘ldi. SHu boisdan fanning vokelikka doimo shubxa bilan xarashi, moxiyatdan dalillar kidirishdan iborat bo‘lganligi, xech narsani xakikat sifatida kabul kila olmasligi uni ogir axvolga solib ko‘ydi. Fan soxasidagi turgunlik o‘rta asrlardagi ruxiy asosning tabiiy, moddiy asosdan ustunligining o‘rnatalishi xisobidan koplandi. Aynan shu davrda ijtimoiy mavkei va millatidan kat’iy nazar, xar bir inson xayoti kadr-kimmatga ega, degan akida tarkaldi. Gladiatorlar janglari va odamlarni kurbonlik kilishning

takiklanishini xam turli dinlarda insonparvarlik goyalarining ustuvorlikka erisha boshlaganiga misol bo‘la oladi.

O‘rta asr Evropasi - bu sivilizatsiya gullab yashnagan, natural xo‘jalik xukmronlik kilgan tarixiy davr edi. Bunday turmush tarzi inson tafakkurining tor manfaatlar doirasida golib ketishiga xam olib keldi. Keyinrok xristian cherkovi jamiyatning barcha tomonlarini siyosiy tashkilot shakliga keltirishning namunaviy asosini yaratdi. Tobelik munosabatlariga asoslangan xristian feodal tabakachiligi negizida cherkov ierarxiyasi yotadi (ruxoniylar-episkoplar-kardinallar-Rim papasi). Kirol – xudoning vassali, saroy ayonlari - kirolning vassali, dexkon – saroy ayonining, ayol – erkakning, uy xayvoni – ayolning, tosh va o‘simliklar – uy xayvonining vassali va b. Toshdan xudogacha keng tarkalgan umumiy vassallik xakidagi ushbu goya xam cherkov manfaatiga to‘gri kelar edi.

Xristian cherkovi feodal jamiyat talabiga javob beradigan kuchli tashkilot sifatida shakllandı. Uning eng kuyi pogonasida kishlok cherkovi ruxoniysi turardi. Tuman va viloyatlarda episkop va kardinallar cherkovni boshkarar edilar. Eng yukori pogonada katolik cherkovi raxnomasi - Rim papasi turardi. Din xayotni mukaddas shaklda tasvirlovchi goyalarni yaratdi: falsafada-teologiya, adabiyotda iloxiy, didaktik shakllar, musikada cherkov gimnlari – liturgiya va messa, tasviriy san’atda xristianlik syujetlari asosiy o‘rin tutadi. Asosiy fanlar iloxiyot va sxolastika (bu atama fikr sukish, dogmatizm, mazmunsiz, yuzaki bilimni anglatgan) edi. Iloxiyot olam va inson xakidagi o‘z "ilmiy" manzarasini yaratdi. Koinot xususidagi ilmda Er-Olamning, Ierusalim - dunyoning markazi, degan karash xukmronlik kildi. Inson majoziy tarzda mikrokosmos, tana-er, kon-suv, nafas -xavo, xarorat-olov, ya’ni u boshlangich ibtidodan iborat, deb karaldi.

Xristian cherkovi o‘z maksadi va mazmuni bilan xukmron tabaka manfaatiga xizmat kilsa-da, uning maorif, madaniyat va, ma’lum darajada, fanni rivojlanishiga ko‘shgan xissasini alovida kayd etish lozim. Dastlabki kutubxonalar monastirlarda bo‘lgan. Monax-xattotlar, ko‘pincha diniy mavzuda bo‘lsa-da, kitoblarining yangi nusxalarini yaratganlar. Evropada XI asrga kadar maktablar xam cherkovlar koshida tashkil etilgan bo‘lib, ularda o‘rta asrlarning barcha buyuk allomalari ta’lim olganlar. Xristian dinining xaloskorlik kuchiga ishongan xalk ko‘pincha o‘z xoxishi bilan, ba’zida majburan xosilining katta kismini cherkov va monastirlar xisobiga xadya kilar edi. Bu borada cherkovning nakadar katta imkoniyatlarga ega bo‘lganligini Parij yakinidagi Sen-Jermen monastiriga tegishli dexkonlar soni 80 mingdan ortik bo‘lganligidan xam bilsa bo‘ladi.

O‘rta asr Evropasida boy-badavlat, savodli-savodsiz, umuman jamiyatning barcha katamlari ishtirok etadigan ommaviy tadbirdan biri diniy mavzudagi ma’ruzalar edi. Voizlar insonning xayotida, uning turmush tarzida, kasbiy faoliyatida amal kilinishi lozim bo‘lgan tadbirlar to‘grisida nutk so‘zlab, ularni ezgulikka, o‘zaro xurmatga chakirganlar. Masalan, XIII asrda Germaniyada mashxur voiz Bertold Regensburgskiy (1210-1272 y.y.) shunday atogli arboblardan edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, uning nasixatlarini tinglash uchun 50

minglab xalk yigilgan. 1250-1272 yillar mobaynida ushbu voiz tomonidan tayyorlangan 60 taga kadar nutk ma'lumdir. B. Regenburgskiy inson xudo oldida kuyidagilar uchun javob berishini uktiradi:

1. o'zimiz (shaxslarimiz) uchun (barchamiz ezgulikka intilib yashashimiz lozim);
2. iste'dodimiz (lavozim, xizmat turi) uchun (kanday bo'lishidan kat'iy nazar, lavozimidan xech kim nolimasligi kerak).

Agar xamma ritsar, amaldor bo'lsa, kim ozik-ovkat, kiyim-kechak tayyorlaydi, binolar barpo etadi? O'grilik, kalloblik, sudxo'rlik xudo tomonidan yaratilgan kasblar emas. Demak ular bilan shukullanish - yaratganga shak keltirishdir.

O'rta asrlar davri diniy ta'limotlar tarakkiyotida aloxida o'rin tutgan siymo mashxur iloxiyotchi, faylasuf olim, muloyimligi tufayli "Farishta doktor" lakabini olgan, vafotidan so'ng (1321 yil), avliyo deb e'lon kilingan Foma Akvinskiy (1225-1274 yillar) edi. U xudo borligini tasdiklab, kuyidagi beshta isbotni keltiradi:

1. birinchisi - tabiatda xarakat mavjudligi. Birinchi xarakatga soluvchi kuch - xudodir.
2. ikkinchisi-o'zaro ta'sir kiluvchi sabablar mavjudligi, ya'ni biron narsa ta'sir ?iluvchi sababsiz yuz bermaydi. Bu sabab – xudodir.
3. uchinchisi - tasodif va zaruriyatning o'zaro munosabati. Tasodifiy narsa zaruriy narsaga boglik. Bu zaruriyat – xudodir.
4. to'rtinchisi - kamolot darajalarining mavjudligi. Eng oliy kamolot darjasasi – xudodir.
5. beshinchisi - xamma narsalarning maksadga muvofik yaratilganligidir. SHunday bir ongli moxiyat borki, tabiiy narsalarni maksadga yo'naltiradi. Bu – xudodir.¹

Foma Akvinskiy ta'limoti – tomizm asta-sekin cherkovning rasmiy doktrinasiga aylandi ("Thomas" – lot. Foma). Feodalizmning inkirozi bilan zaiflashib kolgan tomizm XIX asrda neotomizm shaklida namoyon bo'la boshladi va xukmron sinf vakillari tomonidan tobora kuchayib borayotgan ishchilar xarakatini susaytirish vositasi sifatida foydalanildi.

3. O'rta asarlarda ta'lim tizimi, me'morchilik va san'at.

O'rta asrlar Evropa madaniyatining eng yirik yutuki o'rta va oliy ta'lim tizimining yaratilishi xamda universitetlarning paydo bo'lishidir. Bu davrda feodal jamiyatning dexkonchilik mexnatidan ozod bo'lgan kismi boshka faoliyat turlari – san'at, adabiyot, Garbiy xizmat, ta'lim bilan shukullana boshladi. Ta'limning u yoki bu turi kadimgi sivilizatsiyada xam mavjud bo'lgan. Bu tizim ayrim xududlarda xatto bugungi oliy ta'lim muassasalarining ilk ko'rinishlari xolida bo'lgan. Masalan, kadimgi YUnionistonda Pifagor, Aristotel maktablari uzok vakt, Platon akademiyasi esa ulardan xam ko'prok faoliyat ko'rsatgan. Ammo, o'rta asr Evropasida axolining mutlak ko'pchiligi

savodsiz edi. Savodli kishilar nafakat dexkonlar, balki feodallar orasida xam oz sonli edi. Ritsarlarning ko‘pchiligi imzo chekish o‘rniga belgi ko‘yanlar. Garbiy Evropada uzok vaktlargacha ruxoniylargina savodxon bo‘lib keldi: ular diniy kitoblarni o‘kishlari, ibodat duolarini bilishlari, xudoning kudratini dindorlarga chiroyli kilib tasvirlab, kishilarni ishontirishlari lozim edi.

CHerkov va monastirlar xuzurida tashkil etilgan kuyi maktablar o‘z oldiga savodxon dindorlarni tayyorlashni maksad kilib ko‘yan. Bu maktablarda asosan lotin tilini, ibodat va duolar o‘kish tartiblarini o‘rgatishga e’tibor berilar edi. IX asrda cherkov - episkoplik maktablari rivojlanib, keyinchalik ular zaminida o‘rta asr universitetlari vujudga keladi.

Diniy maktablarda sakkiz yoshli bolalar xam, o‘smir yigitlar xam yoshiga xarab, sinflarga bo‘linmasdan, barobar o‘kitilgan.

CHerkov koshida ichki va tashki maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Ichki maktablarda tukilganidanok monaxlikka maxkum kilingan bolalar yashab, ta’lim olganlar. SHuningdek, bu davrdagi maktablarda iloxiyot bilan shugullanadigan yoki oddiy xayotga kaytadigan badavlat kishilarning farzandlari xam o‘kiganlar. Ikkala maktab xam deyarli bitta maksadga – lotin tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan edi. SHunga xaramasdan, VIII-IX asrlardagi savodxonlik xolati to‘grisida Buyuk Karl kalamiga mansub bo‘lgan kuyidagi misralar asosida xulosa kilish mumkin: "Imperator (Genrix IV) shu darajada o‘kimishli ediki, o‘ziga yuborilgan barcha xatlarni bemalol o‘kish va tushunish imkoniyatiga ega edi".²

Garbiy Evropa mamlakatlarining xammasidagi ta’lim muassasalarida o‘sha vaktida biron xalk gapirmaydigan lotin tilida o‘kitilgan. Ko‘pincha butun boshli maktabda bir dona kitob bo‘lib, muallim uni navbat bilan bolalarga berib, ularning savodini chixargan. Bolalarda o‘kishga xavas tugdirishga xarakat kilinmas, ammo itoatsiz talabalar kattik kaltaklanar edi.

Bugungi oliy ta’lim tizimining tarixiy ildizlari o‘rta asrlar madaniyatida buyuk burilish yasagan muxim xodisa – universitetlar tashkil etilishiga borib takaladi. Dastlab "universitet" so‘zi aynan ta’lim muassasi bilan boglik emas edi. Universitet deb ma’lum kasb egalari bo‘lgan kishilar birikmasiga, ya’ni xamkasblar, masalan, xunarmandlar uyushmalari, ittifoklariga ta’lim beruvchi o‘kituvchi va talabalarni biriktirgan birlashmalarga aytilgan.

Garbiy Evropadagi dastlabki universitetlar XI asrda paydo bo‘lgan. Universitet – lotincha "majmua" ma’nosini xam anglatadi. Atama umumiylit ma’nosini berib, unda turli soxalar birlashtirilganligi aks etadi. Bu vaktga kelib bilimlar xajmi shu darajada ediki, endi ularni o‘zlashtirish, ko‘paytirish va saklash uchun bu bilimlar majmuasining ayrim kismlarini yillar davomida o‘rganish zarur edi. Jamiyatda ma’lum soxalar uchun mutaxassislar, masalan, xukukshunoslar, shifokorlar, o‘kituvchilar tayyorlash uchun maxsus ta’lim tizimi tashkil kilish zaruriyati tugildi. Ilmiy darajalar (bakalavr, magistr, doktor) tizimi, umumiylit va maxsus fanlarni uzviylikda o‘kitish tartiblari xam o‘sha davrlarda yaratilib, to bugungi kungacha takomillashib borgan. Darajalarning taksimlanishi o‘z navbatida universitet boskichlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ko‘pchilik universitetlarda iloxiyot, xukukshunoslik va

tibbiyot fakultetlari ochilib, ularda ta’lim 10 yil va undan xam ko‘prok davom etardi. SHuningdek, Garbiy Evropa universitetlari o‘ziga xos madaniyat makoni bo‘lib xam xizmat kildi. Bunda barcha universitetlarda ta’lim umumiy (Garbiy Evropa uchun) - lotin tilida olib borilishi etakchi omil bo‘ldi. Universitet diplomlarini xalkaro mikyosda tan olish an’anasi xam o‘rtalarda paydo bo‘lgan. Bakalavr, magistr, doktor kabi darajalar tabakalanishi universitet ta’limining ko‘p boskichliligiga mos kelar edi. Ta’limning birinchi boskichi 7 ta fanni o‘z ichga olgan ikki davradan iborat edi:

1. I davra – trivium (grammatika, notiklik, mantik);
2. II davra - kvadrium (arifmetika, astronomiya, musika, geometriya).

Oliy maktablar XIII asrda Boloniya, Monpele, Palermo, Parij, Oksford, Salerno va boshka shaxarlarda tashkil topdi. Umuman, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, XV asrga kadar Evropa davlatlarida 60 ga yakin universitet ochilgan. Universitetlar erkin boshkaruv va moliyaviy Mustakillik xukuklariga ega bo‘lib, bu xakdagi yorlik kirol yoki Rim Papasidan olinardi. Universitetlar Mustakilligi uning ichki tartib-koidalalariga, intizomga kattik rioya kilish bilan mujassamlashtirilgan. O‘rtalarda eng yirik universitet Parijda bo‘lgan. Unga 1257 yili fransuz kiroli xonadoni ruxoniysi Rober de Sarbon asos solgan. xozirgi kunda dunyoga mashxur Sarbonna universiteti shu tarika tashkil topgan.

Universitetlar paydo bo‘lishida talabalarining bilim vaadolat izlab, ko‘chib yurishlari xam katta axamiyat kasb etgan. Masalan, XII asr o‘rtalarida Angliya va Fransiya o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarda ayrim ziddiyatlar yuzaga kelganda, angliyalik talabalar Parij universitetida o‘z xukuklari poymol kilinayotganligini ro‘kach kilib, 1168 yilda Angliyaning Oksford shaxriga ko‘chib ketganlar. SHu tarika Oksford Universiteti vujudga kelgan. 1209 yilda ushbu universitet talabalarining galayonlari esa ularning ko‘p kismining Kembridj shaxriga ketishlariga va Kembridj Universitetiga asos solinishiga sabab bo‘lgan.

Universitetda aloxida fan o‘kituvchilari yikilib, o‘z birlashmalari-fakultetlarini tuzib, unga dekan saylaganlar. Universitet raxbari-rektor o‘kituvchi va talabalarining umumiy yikilishida saylangan.

Germaniyada xam universitetlarning o‘ziga xos tizimi shakllandi. Bu universitetlar, birinchidan: ta’lim berish, izlanishlar olib borish va bakalavr, magistr, doktor darajalarini berish xukukiga edilar. Bu xukuk asosan diniy xokimiyat tomonidan berilgan. Ikkinchidan, ular Mustakillikka ega bo‘lib, o‘z Nizomi va ichki tartib-koidalari asosida faoliyat yuritganlar. Uchinchidan, ular o‘z a’zolarini o‘zlarini sud kilganlar, ya’ni xududiy va shaxar xokimiyati tomonidan berilgan imtiyozlarga muvofik ularni turli solik va to‘lovlardan ozod kilish xukukiga xam ega edilar.

O‘kuv ishlarini tartibga solish, ma’ruza va imtixonlarni talab darajasida tashkil etish maksadida universitetlarda diniy, yuridik, tibbiy va umumta’lim fakultetlari tashkil kilingan. xar bir fakultetga saylov asosida tayinlangan dekan raxbarlik kilgan. Fakultetning asosiy maksadi ma’ruzalarni tashkil kilish

va taksimlash, baxs-munozaralar, tajribalar o‘tkazish xamda ilmiy darajalar berishdan iborat bo‘lgan.

Universitetlar o‘z xodimlarining xak-xukuklarini ximoya kilishda xam katta imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Masalan, 1231 yilda Papa Grigoriy IX tomonidan imzolangan "Parij universitetining ish tashlash xukuki to‘grisida"gi Farmonida shunday deyilgan: "Agar sizlar kandaydir xukukdan, masalan, yashash joyingizdan foydalanish xukukidan, maxrum kilinsangiz, kimdir o‘lim yoki jaroxatlanish ko‘rinishida xakorat kilinsa, talab kilingan murojaatingizga 15 kun ichida javob olmasangiz, shunga erishguningizcha ma’ruzalar o‘kishni to‘xtatishingiz mumkin. Agar sizlardan kimdir nokonuniy ravishda kamokka olinsangiz va bu noxaklikka sizning murojaatingizdan keyin xam barxam berilmasa, lozim topsangiz, ma’ruzalar o‘kishni to‘xtatishingiz mumkin".³ XII asrda Evropa universitetlaridagi ta’lim-tarbiya dastlab diniy yo‘nalishda, cherkov raxbarligida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik, kam bo‘lsa xam, tabiiyot, matematika xam o‘rganila boshlandi.

SHunday kilib, o‘rta asrlarda universitetlar tizimining tashkil topishi va ularning faoliyati keyingi davrlardagi ilmiy, madaniy va ijtimoiy-iktisodiy tarakkiyot uchun katta axamiyat kasb etdi.

Maktab va universitetlarning ko‘payib borishi kitobga bo‘lgan extiyojni kuchaytirdi. Ilk o‘rta asrlarda kitob kimmataxo buyum bo‘lib, u pergamentga – buzok terisidan tayyorlangan maxsus varaklarga xattotlar tomonidan yozilgan. XII asrdan boshlab alovida kitob chop etish ustaxonalarining ochilishi ularning birmuncha arzonlashuviga olib keldi. XIV asrdan kogozning keng ko‘llanishi esa, uni yanada ko‘prok chikarish imkoniyatini tugdirdi. Kogoz Xitoydan SHark davlatlari, jumladan, Samarkand orkali Evropaga kirib keldi. Ispaniyada dastlabki kogoz ustaxonlari XII asrdan ishga tushgan. Keyinchalik, XIV asrdan esa bu soxa Italiyada xam rivojlana bordi. Evropadagi dastlabki ustaxonalarda kogoz eski lattalardan tayyorlangan.

Germaniyada 1445 yil Iogann Guttenbergning kitob bosish dastgoxini kashf etishi natijasida kitobning ommaviy tarkalishi Evropa madaniy xayotining yanada yuksalishiga olib keldi.

O‘rta asr san’ati evolyusiyasi xam chukur o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ilk o‘rta asrlarda (V–IX asrlarda) franklar san’ati etakchi o‘rin egallagan. CHunki bu davrda franklar davlati deyarli butun Evropa xududini egallagan. xokimiyat merovinglar sulolasiga bo‘lgani bois, V-VIII asrlar san’ati ko‘p xollarda merovinglar san’ati deb xam ataladi.

Moxiyat - mazmuniga ko‘ra bu san’at xristianlikkacha bo‘lgan davrga xos edi. Bu davrda kiyim - kechak, kurol – yarok, nakshlar bilan bezalgan ot - ulov anjomlarini tayyorlash bilan boglik xolda xunarmandchilik yuksaldi.

Miniatyura-kitoblarni rasmlar bilan bezash keng tarkaldi. Monastirlarda diniy kitoblarni yozish va bezashga moslashtirilgan maxsus ustaxonalar – "skriptoriylar" faoliyat ko‘rsatgan. Birok dunyoviy kitoblar xali juda kam bo‘lgan.

Bu davrga oid frank me’morchiligi namunalari juda kam saklanib kolgan bo‘lib, ular xozirgi Fransiya xududidagi bir nechta kichkina cherkovlardangina

iborat xolos. Varvarlar me'morchiligi (xristianlikkacha bo'lgan davr) namunasiga Ravenndagi ostgot kiroli Teodarix (520-530 yillar) kasri misol bo'la oladi.

Merovinglar sulolası merosxo'rları Karolinglar davrida, (VIII-IX asrlar) ayniksa "Roland xakida ko'shik" poemasining afsonaviy kaxramoni Buyuk Karl xukmronligi vaktida O'rta aslar san'ati yuksak tarakkiyotga erishdi. Buyuk Karl - franklar kirolligini boshkargan (768-814 yillar davomida) yirik xukmdorlardan biri edi. "Buyuk" lakabi Karlga 53 ta yirik Garbiy yurishlarga boshchilik kilganligi, konunchilik soxasida amalga oshirgan salmokli ishlari, ilm-ma'rifat soxasidagi xizmatlari uchun berilgan baxo edi.

Bu davrda san'at, asta-sekin varvarlik ta'siridan xolos bo'lib, antik davr merosiga faol murojaat kila boshlaydi. SHuning uchun bu davrni ma'lum ma'noda "karolinglar Uygonishi" deb xam aytishadi. Bunda, yukorida ta'kidlaganimizdek, Karl Buyuk xissasi aloxidadir. U o'z saroyi koshida madaniy-ma'rifiy markaz tashkil kilib, uni Akademiya deb ataydi. Karl Buyuk akademiyada buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va rassomlar ijodi uchun kulay sharoit yaratishga katta xomiylik ko'rsatdi. Natijada bu davrda fanlar va san'at sirlarini chukur o'rganish, tadkik kilish, ularni yanada rivojlantrishga bo'lgan intilish kuchayadi. Ayniksa antik davr madaniyati bilan mustaxkam aloka o'rnatilishi uchun ko'p sa'y-xarakatlar amalga oshiriladi.

Karolinglar davriga oid bir kancha me'moriy yodgorliklar saklanib kolgan bo'lib, ulardan biri-sakkiz kirrali gumbaz bilan koplangan, sakkiz burchakli inshootdan iborat Aaxendagi (800 yil) Karl Buyukning ajoyib cherkovidir.

Bu davrda xam miniatyura san'ati rivojlanishda davom etadi. Mazmuni asosan diniy mavzularda bo'lishiga xaramasdan, ilk o'rta asr oxiriga kelib, ularda ov, er xaydash kabi inson faoliyatiga doir boshka mavzular paydo bo'la boshlaydi. Karolinglar imperiyasi kulab, Mustakil Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari paydo bo'lgach, o'rta asr sanati yangi boskichga kadam ko'yadi.

Ilk o'rta asrlarda xristian Evropasida xaykaltaroshlik va tasviriy san'at takiklanmagan bo'lishiga karamasdan, ularda xam ancha vakt davomida asosan diniy mavzular ustunlik kilgan. Asosan bu Iso paygambar, Momo Xudo, apostollar (paygambarlar) timsollari edi. Dastlab Iso tasvirlari yunon va rim afsonalari timsollarini eslatgan. Xristianlarning ayrim tamoyillariga karamakarshi bo'lishiga karamasdan, antik dunyoning madaniy-tarixiy an'analari xristian dini tomonidan butunlay uloktirib tashlanishi mumkin emas edi. Xristian dinini kabul kilgan ko'plab odamlarda xali eski madaniyat an'analari bilan boglik bo'lgan turli estetik extiyojlar saklanib koladi.

Eng dastlabki xristianlarda Xudo tasvirini yaratish muammosi bo'limgan, chunki dastlabki xristianlar yaxudiylar bo'lib, ularning dinida tasviriy san'at umuman takiklangan edi. Xristian dinining Garbga tarkalib borishi bilan yangi xristianlar Xudo timsolini ko'rishni xoxlaydilar. Diniy markaz bo'limganligi bois bunday muammolarni xal kilish imkon yo'k edi. Isoni Orfey ko'rinishida, chiroyli yoki xunuk kilib tasvirlashga urinishlar bo'ldi. Ikonalarini yaratishning yo'nga ko'yilishi ma'lum ma'noda mazkur muammolarning echimini topish

imkonini berdi. Ikonografiya – bu Iso payxambar timsolini yaratishda rassom asoslanishi, kat’iy amal kilishi lozim bo‘lgan konun-koidalar majmuasidir. Ikona savodsiz omma uchun xudo bilan ruxiy - xissiy boglanish, aloka shakli sanalgan. Tasvirda xudoni bandalarning gunox kechmishlarini magfirat etishga karatilgan motamsaro ko‘rinishi ifodalangan. Ikonalar yaratishning turli milliy, xududiy maktablari paydo bo‘la boshladi (masalan, Vizantiya, rus maktablari). Ikona chizishda rassomlar yirik tasvirlarga turli kismlar, kiyim va umumiy rangning xakikatga yakin bo‘lishiga intilmaganlar. Tasvir keng xamrovli bo‘lib, real xayotiylikdan chetlash orkali tomoshabin e’tiborini to‘la badiiy asarning ruxiy mazmuniga xaratish imkonini bergen.

Etuk o‘rta asr boshlari - X asr vengerlar, saratsin (musulmon)lar, ayniksa normannlar yurishlari natijasida eng murakkab, ogir davr bo‘ldi. YAngi tiklanayotgan davlatlar chukur inkiroz va tanazzulni boshdan kechirar, san’at xam shunday xolatda edi. Ammo X asr oxiriga kelib axvol ancha yaxshilanadi: feodal munosabatlar o‘rnatilib, xayotning barcha jabxalaridagi kabi, san’atda xam jonlanish va yuksalish kuzatiladi.

O‘rta asrlardagi tasviriy san’at asarlarida insonlarning bo‘shlik mavjudligini ongli ravishda tan olmaslikka intilishi aks etib turadi. SHu boisdan bu davrda yaratilgan ko‘pchilik tasviriy san’at asarlarida osmon tasvirlanmagan. Osmon ramzi bo‘lgan xavo rang ayni chogda inson erki, ozodligi ramzi bo‘lgan. SHuning uchun rassomlar o‘z asarlarini turli tasvirlar, masalan, serbarg o‘simliklar, murakkab geometrik shakllar, to‘gri va kesishgan chiziklar, tillo rang muxit bilan bezatganlar. Rasmlardagi odamlar guruxi yaxlit bitta tanadan ko‘p boshli, ko‘p ko‘l-oyoklidek gavdalanadi. CHunki gavdalar orasida bo‘sh joy bo‘lmasdani, ular bir-biriga jipslashib turgandek idrok etiladi. O‘rta asr rasmlarida mazmunan va geografik jixatdan, vakt nuktai nazaridan o‘zaro boglik bo‘limgan vokea-xodisalarni xam birlashtirishga intilishni xis etamiz. Masalan, XV asrda yaratilgan va xozirgi kunda Florensiya muzeyida saklanayotgan nakshinkor idishdagi "Paris ustidan sud" asarida mashxur afsonaning birdaniga bir nechta ko‘rinishlari tasvirlangan: Parisning cho‘ponlik davri, Momo – Xudolar yigini, oltin olmaning takdim etilishi va xokazo. O‘rta asr rasmlaridagi umumiyligi vakt tasodif emas, balki konuniyatdir. O‘rta asrlar musikasida xam asosiy mavzu xudoni kuylash, injil asotirlarilarini, avliyolar xayoti, ruxiy-axlokiy poklanish, gunoxdan magfirat bo‘lish akidalari edi.

Musikaviy madaniyat negizini cherkov ko‘shik-kuyi (liturgiya), she’riyat va dramaturgiyani o‘zida uygunlashtirgan cherkov tantanalari tashkil etdi.

Me’morchilik xam iloxiyotning unsiz targiboti tarzida namoyon bo‘ldi.

Me’morlar V-VI asrdayok shaxarlarni rejorashtirishning yangi uslublarini yaratishdi. YAngi ko‘rinishdagi shaxar markazida bosh maydon va ibodatxonalar joylashhib, undan shaxarning turli tomonlariga ko‘chalar tarkalgan. Xuddi shu paytdan ko‘p kavatli, peshtogli uylar, boylarning mustaxkam koshonalari, saroylari paydo bo‘ldi. Vizantiyada cherkov va ibodatxonalar kurilishi xam yuksak san’at darajasiga ko‘tarildi. 532-537 yillarda imperator YUstinianning buyruxi bilan bunyod etilgan Mukaddas Sofiya ibodatxonasi bunga misol bo‘la

oladi. Bino gumbazi diametrining o‘zi 30 metrdan ortik bo‘lib, ibodatxona ichidagi ustunlar, uning devorlari turli rangdagi marmarlar va mozaikalar bilan koplangan.

Evropada kurilish-me’morchilik soxasi ayniksa XI asrdan boshlab tez rivojlandi. Dastlabki paytda binolar va xatto, feodal zadoganlari kal’alari xam yogochdan kurelgan. O‘rta er dengizi xavzasidagi shaxarlar kurilishida toshni ashyo sifatida ishlatish uchun bir necha asr kerak bo‘ldi.

Toshning yumshok turlari bo‘lmagan mamlakatlarda, jumladan, Angliya va Polshada binolar pishik gishtdan kurelgan. Ibodatxonalar va monastirlar toshdan kurelgan.

O‘rta asrda badiiy uslub xodisasi paydo bo‘ladi. O‘rta asr Garbiy Evropa me’morchiligidagi X – XIII asrlarda roman uslubi keng tarkaladi. Roman tushunchasi Rim, ya’ni kadimgi Rim madaniyatiga boglik degan ma’noni anglatadi. Bu san’at asarlarida kadimgi Rim san’atining so‘nggi davriga xos uslublarga murojaat kilinganiga muxim ishora edi. Ushbu uslubning me’morchilikdagi o‘ziga xos jixati, bu yirik binolarning kat’iy geometrik shakli, tuzilishining oddiyligidadir. Roman me’morchilik binosi ko‘rinishi sokinlik va magrurlik xissini uygotar edi. Fakat monastirlar, ibodatxonalariga emas, xukmdorlarning kasrlari xam roman uslubida kurelgan. Umuman, san’atning yangi yuksalish davri shartli ravishda roman davri nomini olgan. Bu ko‘prok XI- XII asrlarga to‘gri keladi.

Roman uslubi moxiyati-katta tekisliklar mavjud bo‘lgan xolda vertikal va gorizontal to‘gri chiziklar, eng oddiy geometrik shakllar ustunligidir. kurelgan ark, ravoklardan keng foydalanilgan xolda, eshik va derazalar tor kilinadi. Binoning tashki ko‘rinishi aniklik va oddiylik,sovuklik, ayrim xollarda koronkulik bilan yo‘grilgan, buyuklik va vazminlik bilan ajralib turadi.

Roman uslubi Fransiyada ayniksa keng tarkaldi. Bunga Klyunidagi (XI asr) cherkov, Klermon-Ferandagi Notr Dam dyu Por cherkovi (XII asr) misol bo‘la oladi.

Bu uslubdagi dunyoviy binolar shakli oddiy bo‘lib, ularda nakshinkor bezaklar deyarli yo‘k. Binoning asosiy turi feodal-ritsar uchun bir vaktning o‘zida xam uy, xam mudofaa inshooti bo‘lib xizmat kiladigan kal’a-kasrdir. Ko‘p xollarda bu-markazida minora mavjud bo‘lgan xovlidir. Bunga bizning davrimizgacha etib kelgan Senadagi SHato CHayar kasri xarobalari misol bo‘la oladi.

Germaniyadagi roman me’morchilik uslubida kurelgan inshootlarga O‘rta Reyndagi Voris, Mayns va SHpeyere shaxarlarida joylashgan cherkovlar (XIII asr) misol bo‘ladi.

O‘rta asrlar san’ati va me’morchiligidagi keyingi davr – gotika uslubini yaratilishi bilan mashxurdir. SHaxarlarda XII asr oxiridan e’tiboran savdo rastalari ratushalar, shifoxonalar va mexmonxonalar kurelishi keng avj oldi. O‘rta asr shaxri markazidagi eng chiroyli va xashamatli bino, bu ibodatxona edi. Uygonish davrida paydo bo‘lgan “gotika” atamasi shartli bo‘lib u german kabilalaridan xisoblangan gotlar nomidan olingan (Gotlarning asl vatani Skandinaviya bo‘lib, keyinchalik Boltikbo‘yida, kora dengizi kirgoklarida

istikomat kilganlar. Ularning xozirgi Moldova va Ruminiyaning SHarkiy xududlarida yashaydigan kismlari vestgotlar, SHimoliy kora dengiz bo‘yi, Dnestrning SHarkiy tomonlarida yashovchi – ostgotlarga bo‘lingan. IV asrning 70-yillarida xunnlargotlarning erlariga kujum kilib, 375 yilda vectgot, ostgot xamda ularga karashli dasht kabilalari ittifokini tor-mor etishadi).

YUksaklikka intilgan gotik tasvirlar, xristianlik diniy inshootlarining baland gumbazlari yuksaklikka, ma’naviyatga intilishi ramzi edi.

Mazkur uslubdagi binolarning mumkin kadar balandrok kilib kurishga intilishning yana bir sababi bor. Gap shundaki, axoli soni oshib borgan, baland va mustaxkam kal’a devorlari bilan o‘ralgan shaxar maydonini kengaytirish oson bo‘lmagan. Bu esa, eniga o‘sishga imkon topa olmagan binolarning bo‘yiga o‘sishiga olib keldi. YArim doirali kubbali peshtog o‘rniga endilikda uchi nayzasimon peshtog kilinadigan bo‘ldi. Bu uchli peshtog va gumbazlarni Evropaga dastlab dastlab musulmon ustalari olib kirdilar. Gumbazlar sinch ustiga o‘rnatilib, ibodatxonaning baland va ko‘rkam ishlangan ustunlariga tayanib turardi. SHu tarika, xozirgi zamon kurilishida ishlatiladigan temir-beton va po‘lat karkaslar (sinchli) kabi kurilmalar paydo bo‘ldi.

Ibodatxonalar shaxar kengashi buyurtmasi bilan kurilgan. Ular fakat cherkovning kudratini namoyish kilibgina xolmasdan, shu bilan birga shaxarlar erkinligi timsolini xam o‘zida mujassamlashtirgan edi. Tik goya tomlar, eng tepasiga ingichka nayza o‘rnatilgan baland minoralar – bularning barchasi binoni tobora yukoriga ko‘tarilayotganday ko‘rsatardi. Gotika uslubida kurilgan eng yirik ibodatxonalar minorasining uchi 150 metrga etadi. Fransiyadagi SHatr shaxridagi butxonaning balandligi-115, Strasburgdagisi – 142 metr, ya’ni 48 ?avatli binoning bo‘yiga tengdir. Ushbu yirik inshootlar ba’zan yuzlab yillar davomida kurilgan.

XIII asrda Italiya va Germaniyada, XII asrda Fransiyada gotika uslubi to‘la xukmronlik kildi. Bu davrda me’morchilik san’atning butunlay etakchi turiga aylanib, bunda diniy inshootlar-cherkov va ibodatxonalar kurilishi ustuvor yo‘nalishni tashkil kiladi. Gotik me’morchilik ikki kism - tuzilish (konstruksiya) va dekor (bezaklar)ning organik birligidir.

Gotik tuzilishning moxiyati bino mustaxkamligi va chidamligini ta’minlovchi o‘ziga xos asos-muskul yaratishdandir. Agar roman me’morchiligidagi inshoot mustaxkamligiga devorlar kattaligi bilan erishilsa, gotik uslubda esa u ogirlik kuchini teng taksimlash bilan ta’minlanagan. Gotik tuzilish uch asosiy kismdan tarkib topadi:

1. arkdagi uchli kubba;
2. arkbutan (yarim arka) tizimi;
3. kudratli kontrforslar (eshik tirgovuchlar).

Demak, gotik inshootlarning tashki ko‘rinishdagi o‘ziga xoslik bu o‘tkir uchli minoralardan keng foydalanishdir. Gotikada devorlar asosiy rolni o‘ynamaganligi uchun bino ichiga yoruxlikning erkin kirishini ta’minlovchi keng eshik va derazalardan foydalanilgan. Bu xristianlik uchun katta axamiyat kasb etgan. Negaki u yoruxlikka ilo?iy, sirli xodisa sifatida yondoshadi.

Gotika beshigi Fransiya edi. Parij Momo - Xudo cherkovi (XII - XIII asrlar) ilk gotikaning xakikiy mo‘jizasidir. Uning uzunligi 130 m., kengligi 50 m, balandligi 35 m. Bino bir vaktning o‘zida 9000 kishini si?dira oladi. XIII-XVI asrlar davomida kurilgan Kelndagi (Germaniya) balandligi 757 metrlik cherkov xam gotik uslubga misol bo‘la oladi. kadimgi Rusdagi katta gumbazli ibodatxonalaridan eng mashxurlari Kievdagi Sofiya (XI asr), Vladimirdagi Uspenskiy (XII asr), Nerldagi Pokrov cherkovlari(XII asr)dir. Uning yutuklari Amen va Reyms sobori (XIII asr), shuningdek fransuz kirollari uchun cherkov rolini o‘tagan ajoyib San SHapel YUkori CHerkovi (XIII asr) tomonidan yanada rivojlantirildi. Germaniyaga gotika Fransiya ta’sirida tarkaldi. Bu erdagи mashxur inshootlardan biri Kelndagi cherkovdir (XIII-XV, XIX asrlar). Angliya gotikasi xam ko‘p jixatdan fransuz modelini davom ettiradi. Angliya kirollari va buyuk insonlar makbarasi bo‘lgan Vestminster abbatligi (XIII - XVI asrlar) xam ushbu uslubga misoldir.

Xulosa kilib shuni kayd etish lozimki, o‘rtalarda kurilish-me’morchilik soxasida xam xam katta burilish yuz berdi. Binolar yanada go‘zallahib, kishilar uchun kulayliklar ortib bordi. Bu davrdagi Evropa me’morchiligidagi roman va gotika uslublaridan tashxari Italiyadagi Vizantiya uslubidan (Vinetsiyadagi Avliyo Mark cherkovi, kisman Dojlar saroyi va boshkalar) xamda Ispaniyadagi arab uslubidan (eng mashxur yodgorliklar: arablarning Granadagi Al-Xamro nomli sobik saroy-masjidi, xozirgi Seviliya sobori va Seviliyadagi Al-Xasar - kasri) xam foydalanilgan.

O‘rtalarda xaykaltaroshlik san’ati me’morchilik bilan uzviy boglik ravishda rivojlandi. Ibodatxona va cherkovlar xudo, payxambar, avliyolar, episkop va kirollarning yuzlab xaykallari bilan bezatilgan. xaykallarga asosiy buyurtmachi cherkov bo‘lganligi bois, ular diniy mavzuda yaratilgan. Xaykaltoroshlarni ayniksa onaning farzandga bo‘lgan mexr-muxabbatini uluglash kiziktirgan. Bu xol Bibi Mariyamning ko‘plab xaykallarida o‘z aksini topgan (Evropada uni “xonim”, “bekam”, deb uluglagan yoxud “madonna” deb atash rasm bo‘lgan).

Inson tanasining go‘zalligini uluglagan antik davr san’atkorlaridan farkli o‘larok, o‘rtalari odamlarning fikri, xis-tuygusi va kayfiyatlarini, ya’ni ko‘prok ichki dunyosini ifodalashga xarakat kilishgan. Roman uslubidagi xaykallarda odamlar aytarlik darajada jozibali tasvirlanmagan. Ustalar odamlarning kaygu-alamlarini yoki xursandchiliklarini, ichki xis-tuygu va kechinmalarini bo‘rttirib aks ettirish niyatida xaykallarning xolati xarakatlarini ko‘p xollarda gayritabiyy ko‘rinishda (nimjon, ozgin, xunuk) aks ettirganlar.

Gotika uslubidagi xaykallarda odamlar kiyofasi birmuncha to‘gri tasvirlangan. Ularning kaddi-komatlari, kiyimlari burmalaridan xam bilinib turadi. xaykallarda ko‘prok xarakat xolati ifodalangan.

Iste’dodli ustalar xayotda ko‘rgan narsalarini ko‘p xollarda ishonarli kilib tasvirlashga intilganlar. xaykaltaroshlarda asta-sekin inson tashki kiyofasining go‘zalligini tasvirlashga kizikish orta bor.

Roman uslubida kurilgan ibodatxonalarining ichki devorlariga, shiftiga ko‘p surat solinardi. Bu suratlarda aziz avliyolar, xudo siymolari tasvirlanardi. So‘nggi davrlarda kurila boshlagan gotika uslubidagi ibodatxonalar devorlarida

suratlar nisbatan kam bo‘lgan. Ularning o‘rniga katta derazalar, ko‘rgoshin gardish bilan bir-biriga ulangan, rangli oyna parchalaridan ishlangan vitrajlar, surat va manzaralar ibodatxona ichidagi ustunlarda, gumbaz va polda jilvalanib, unga benigoya chiroyli xamda tantanali tus bergan.

VIII-IX asrlar Evropa adabiyotida jangovar sheriyat shakllandi. Jangovar dostonlar asosan ikki yo‘nalishda, ya’ni tarixiy vokealarga va xayoliy tasavvurlarga, xalk ertaklari va afsonalariga mos ravishda yaratilgan.

Tarixiy jangomalarga fransuz xalk ogzaki ijodining "Roland xakida ko‘shik" yoki ispan adabiyotiga oid "Sid xakida ko‘shik" asarlarini misol sifatida keltirib o‘tish mumkin. Germaniyada yaratilgan "Nebelunglar xakida ko‘shik" dostoni esa tarixiy xakikat va afsonalarni o‘zida mujassamlashtirgan asardir.

O‘rta asrlar madaniyatining eng yorkin saxifalari keyinchalik romantik tus olgan ritsarlar adabiyoti bilan bevosita boglikdir.

Udumlarga binoan ritsar ko‘plab fazilatlarga ega bo‘lishi kerak edi. Dastlab ritsarlar jasurlik, saxiylik va olijanoblik kabi xususiyatlar xakida unchilik ko‘p o‘ylashmagan. Ularning xayotidagi ko‘p an’analari yuzaki bo‘lib, bular ko‘z-ko‘z kilish maksadida bajarilgan. Ritsarlar golib bo‘lish va shon-shuxratga erishish yo‘lida xech narsadan kaytmaganlar. Ularning kaxramonliklari va ishkiy sarguzashtlari xam go‘yoki odatiy xollardek tasvirlangan. Ritsarlar xayoti aks ettirilgan muxabbat fojiasi "Tristan va Izolda" xissasida o‘z ifodasini topgandir.

XI-XII asrlarda asosiy madaniyat markazlariga aylangan monastirlar axamiyati yanada oshadi. Aynan monastirlar koshida maktablar, kutubxona va kitob ustaxonlari ochiladi. Monastirlar san’at asarlarning asosiy buyurtmachilariga aylanadi. SHu boisdan xam bu asrlar madaniyati va san’atini monastir davri nomi bilan xam atashadi.

O‘rta asrlardagi Vizantiya Evropada eng ilgor o‘ziga xos madaniyatga ega bo‘lgan davlat edi. Kit’ani german kabilalari bosib olgan bir paytda, yunon-rim madaniyati davomchisi bo‘lgan Vizantiyada maorif, ilm-fan va san’at yuksak darajada rivojlandi. Vizantiyaliklar ta’limning xar kanday turiga, ilm-fanga katta e’tibor bilan karaganlar. Mamlakatda davlat tili yunon tili bo‘lib, kadimgi Rim maorifi tartibi to‘la saklab kolingga. Bolalar 6-7 yoshdan maktabga berilib, ularga 2-3 yil davomida o‘kish, yozish va xisob o‘rgatilardi. Diniy maktablar bilan birga davlat maktablari va xususiy maktablar xam faoliyat ko‘rsatgan. Umuman, axolining barcha toifalari uchun boshlangich ta’lim olish imkoniyati mavjud edi.

Konstantinopolda IX asrda Magnavr oliy maktabi ochildi. Poytaxtda 1045 yil tashkil kilingan universitetda xukukshunoslik va falsafa fakultetlari, oliy tibbiyot maktabi mavjud edi.

Vizantiyada matematika, ayniksa, algebra muvaffakiyatli rivojlandi. Matematika va astronomiyaning tarakkiyoti kundalik amaliy xayotga-xunarmandchilik, dengizchilik, savdo, Garbiy ish, kishloq xo‘jaligi rivojlanishiga bo‘ysundirilgan edi. Muvaffakiyat kozongan muxim soxalardan yana biri tibbiyot bo‘lgan. Tibbiyot va xunarmandchilik extiyojlari kimyoning rivojlanishini ragbatlantirdi. Vizantiyaliklar shisha, emal bo‘yok

tayyorlashning antik davrdan saklanib kolgan sirlaridan xabardor bo‘lishgan. Imperiyada VII asrda kashf kilingan "yunon olovi" (neft va smola korishmasidan tayyorlangan yonuvchi modda) dengiz floti va kuruklikdagi janglarda vizantiyaliklarga ko‘plab galabalar keltirgan.

Vizantiyada tarix va geografiya fanlari xam tarakkiy kilgan. Geograflar yaratgan xaritalar, shaxarlar loyixasi chizmalari o‘z davrida ushbu soxaning yuksak muvafakkiyati belgisi edi. Tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar xam o‘zining xakkoniyligi, anikligi va xolisligi bilan ajralib turardi.

Xulosa kilib shuni ta’kidlash joizki, O‘rtta asr Evropa madaniyati mazmun jixatidan xilma-xilligiga karamasdan, jaxon madaniyati tarixida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. YUKorida ta’kidlangandek, Uygonish davri O‘rtta asrlarga o‘ta tankidiy va kat’iy baxo bergen. Ammo so‘nggi davrlar bunga zarur tuzatishlar kiritib, tarakkiyotning bu boskichiga munosib baxo berdi. XVIII - XIX asrlardagi romantizm o‘rtta asr ritsarligida xakikiy insoniy timsollar va kadriyatlarni xis kilib, undan ilxom olgan edi. Keyingi davrlar ayollari bo‘lsa, xakikiy erkaklar - ritsarlarni xayotda ko‘rishga intik bo‘ladilar.

O‘rtta asrlar xilma-xil, xatto karama-karshi goya va akidalarning ajoyib uzviyiliği davri ediki, aynan shu uzviylik zamonaviy sivilizatsiya paydo bo‘lishiga zamin xozirladi.

Mustakil o‘rganish uchun tavsiya etiladi: Evropada universitet ta’limining vujudga kelishi va axamiyati.

Tayanch so‘z va iboralar:

O‘rtta asrlar. Ikonografiya. Skriptoriylar. Roman uslubi. Gotika uslubi. Vizantiya uslubi. Jangovor she’riyat. Buyuk Karl. Bartold Regenburgskiy. Foma Akvinskiy. Logann Guttenberg. Tomizm. Neotomizm. Kutubxonalar. Ta’lim tizimi. Episkoplik maktabi. O‘rtta asr Evropa oliy ta’lim muassasalari: Sarbonna, Oksford, Kembridj, Parij universitetlari. Ilmiy darajalar. Kitob chop etish. Ilm-fan. xaykaltaroshlik. Tasviriy san’at. xokimiyat organlari.

Savol va topshiriklar:

1. Sizningcha, o‘rtta asrlar davri madaniyatining antik davr madaniyatining manti?iy davomi ekanligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. O‘rtta asrlarda ilm-fan va ma’rifatdan din xamda cherkovning ustunligi sabablarini Siz kanday izoxlab bera olasiz?
3. O‘rtta asrlardagi san’at tarakkiyotining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘lgan edi?
4. Universitetlar paydo bo‘lishining asosiy omillarini tavsiflab bering.
5. Texnika soxasidagi tarakkiyot va yangiliklar inson turmush tarzida kanday aks etdi?
6. O‘rtta asrlar Evropa madaniyati tarakkiyotiga doir chizmalar tayyorlang.

7. O‘rta asrlar Evropa san’ati yutuklarini aks ettiruvchi albom tuzing.
8. Internet tarmogidan foydalanib, Evropa universitetlariga doir ma’lumotlar majmuini tayyorlang.
9. Internet tarmogidan olingan ma’lumotlar asosida O‘rta asr ilm-fani, texnika tarakkiyotining atogli namoyandalari xayoti va ijodini yorituvchi slayd va tezislar tuzing.

¹ Yo‘ldoshev S. va b. kadimgi va o‘rta asr Garbiy Evropa falsafasi. - T.: SHark, 2003, 159-bet.

² Xrestomatiya po istorii pedagogiki, - M.: Uchpedgiz, 1938, 66-67 betlar.

³ Xrestomatiya po istorii pedagogiki, - M.: Uchpedgiz, 1938, 86-bet.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘k. Asarlar, 7-tom. – T.: O‘zbekiston, 1999. 132-155 betlar.
2. Axmedova E., Gabidulin R. Kulturologiya. Mirovaya kultura. - T.: Akademiya xudojestv Uzbekistana, 2001.
3. Gurevich A. Problemy srednevekovoy narodnoy kultury. – M.: Isskustvo, 1990.
4. Le Goff J. Sivilizatsiya srednekovogo Zapada. – M., 1992.
5. Lyubimov M. Isskustvo Zapadnoy Evropy. Srednie veka i Vozrojdenie v Italii. – M., 1982.
6. Gulmetov E. va boshkalar. Madaniyatshunoslik. Ma’ruzalar matni. – T., 2000.
7. Silichev D.A. Kulturologiya. – M.: Prior, 1998.

Ko‘shimcha adabiyotlar:

1. Montgomeri U. Vliyanie Islama na srednevekovuyu Evropu. – M.: Nauka, 1972.
2. Petruxinsev N.N. XX leksiy po istorii kultury. – M.: Vlaris, 2001.
3. Riyajlov V.N. Isskustvo srednix vekov. – M., 1988.

«IX-XII asrlar SHark Uygonish davri madaniyati», «Temur va temuriylar davri madaniyati»

Reja:

1. IX-XII asrlardagi SHark Uygonish davri va uning asosiy omillari.
 2. Islom madaniyati.
 3. SHark Uygonish davri allomalari ijodining jaxon fani ravnakidagi o'rni.
 4. Me'morchilik va tasviriylar san'at yuksalishi.
 5. Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining jaxon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.
1. IX-XII asrlardagi SHark Uygonish davri va uning asosiy omillari.

IX-XII asrlardajaxon sivilizatsiyasi tarixiy tarakkiyoti davomida birinchi bo'lib SHark mo'jizasi ro'y berdi. Xuddi shu davrda kadimgi SHark mintakasiga mansub Misr, Mesopotamiya, Xindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo xududlari insoniyat sivilizatsiyasining ilk sarchashmalari sifatida shakllandi.

Bu jarayonda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan, SHarku Garbni tutashtirgan, o'zaro madaniyat, dinu e'tikod, urf-odat, udumu an'analaralmashinuvini ta'minlagan Buyuk ipak yo'lining o'rni katta bo'ldi. Ko'xna Xitoy yurtidan boshlangan bu yo'l avvalo SHark xalklarini bir-biri bilan boglagan, ularning iktisodiy, savdo-sotik, madaniy-ma'naviy alokalarini rivojlanishi, turmush tarzini boyishida sezilarli turtki bo'ldi. SHark xalklari, elatlarning tili, urf-odatlari, musikasi, to'yu ma'rakalari, diniy rasmlaridagi o'xshashlik jixatlarining mavjudligi xam buni yakkol isbot etadi. SHuningdek, VII asrdan boshlab arab dunyosida islom bayrogi ostida vujudga kelgan xalifalik davlati kiska tarixiy davr ichida ko'pgina xududlarni egallab ularda nisbatan yagona iktisodiy va madaniy-ma'naviy makon yaratishga muvaffak bo'ldi. Bunday xollar SHark Uygonish jarayoniga va ayniksa arab dunyosi bilan tutashgan Markaziy Osiyo xududlariga xam jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

IX-XII asrlar davomida xalifalik tasarrufidagi mamlakatlarda islomiy xamda dunyoviy madaniyatning yonma-yon rivojlanishiga keng yo'l ochildiki, bu xol oxir-okibatda SHark dunyosini ulkan o'zgarishlarga olib keldi.

Bu jarayonlarning kuchayishiga shu yurtlar xukmdorlarining o'z davrining donishmand, bilimdon, ilmparvar siymolari sifatidaadolat, konun ustuvorligiga amal kilib faoliyat yuritganligi xam ma'lum ma'noda turtki bergen. Buni xalifalik xukmdorlari sanalgan Xorun ar-Rashid, Ma'mun yoxud ona yurtimiz ma'rifatparvar xukmdorlari: Nasr, Ismoil Somoniylar, Maxmud Gaznaviy, Malikshox, Nizomulmulk, Jaloliddin Otsiz, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Xusayn Boykaro, Bobur Mirzo va boshkalar timsolida anik-ravshan ko'rshimiz mumkin.

SHark Uygonish davri o‘z mazmun-moxiyatiga ko‘ra kuyidagi muxim omillar va xususiyatlari bilan yakkol ajralib turadi:

1. Madaniyatda dunyoviy bilimlar, islom axkomlari, akidalarning rivojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlari nuktai nazaridan talkin etilishi;
2. Turli davlatlar, xalklarning (arab, eron, yunon, Xind, turkiy va bosh.) madaniy meroslari, kadriyatlari, yutuklari, ma’naviy boyliklaridan foydalanish zarurligi;
3. astronomiya, matematika, minerologiya, jugrofiya, kimyo va boshka tabiiy fanlar rivoji;
4. uslub (metodologiya)da ratsionalizm (okilonalik), mantikning ustuvorligi;
5. insoniy do’stlik, yuksak axlokiylik goyalarining targib etilishi, komil inson shaxsini shakllantirib voyaga etkazish;
6. falsafa va tarix fanlarining o‘sishi;
7. adabiyot, musika, badiiy madaniyat, notiklikning keng rivoj topishi;
8. bilimdonlik, donishmandlikning komusiy tarzda keng e’tirof topishi va x.k.

Uygonish davrining bu asosiy omillari va xususiyatlari dunyoviy ilm-fanning rivojlanishi-bular, shubxasiz, bashariyat ma’naviyati yuksalishining muxim o‘lchov mezonlari bo‘lib xizmat kildi.

SHark madaniy Uygonishining o‘ziga xos muxim jixatlaridan biri shundaki, bu yuksalish jarayoni bir vaktning o‘zida xam xalifalik markazida va xamda uning Magribu Mashrik tomonlarida (Ispaniya Andaluziyasi va Markaziy Osiyoda) birdek namoyon bo‘ldi. Masalan: IX asr bosqlarida xalifalik poytaxti Bagdod bir vaktning o‘zida xam islomiy madaniyat va dunyoviy madaniyat, ilmu urfonning yirik markazlaridan biriga aylangandi. Xalifa Xorun ar-Rashid (766-809) davrida Bagdodda tashkil etilgan "Bayt ul-xikmat" (Donishmandlar uyi) – olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa xalifa Ma’mun (819-833) davrida yanada rivojlandi. Unda ko‘p sonli komusiy bilim soxiblari ilmu fanning turlituman soxalari bo‘yicha yirik tadkikotlar olib borganlar. Bu allomalarning talay kismi O‘rta Osiyo namoyandalari bo‘lganliklari esa biz uchun aloxida gurur va e’tiborga arzirlidir.

Bu davr dunyoviy ilm-fanining yana bir muxim yutuki shundaki, arab va ajam olimlarining katta sa’y-xarakatlari, izlanishlari tufayli yunon, lotin, misr, Xind tillarida bitilgan son-sanoksiz noyob ilmiy asarlar, ko‘lyozmalar topilib, ular arab tiliga tarjima etildi va xayotga ijodiy tatbik etila bordi.

Arab magribi - Ispaniya Andaluziyasida xam SHark Uygonishiga xos musulmon madaniyatining yuksak rivojlanganligi ko‘zga tashlandi. Bu davr moddiy madaniyatining gultojisi - bu Grenada (Andaluziya poytaxti) tepaligida bunyod topgan Alxambra me’moriy obidalar majmuidir. Bu erda kad rostlagan arku kasrlar, masjidlar, makbaralar, inshootlar, ularning ichki va tashki

bezalishi, ularning peshtogiga yuksak maxorat bilan bitilgan kur'on surasiga oid xusnixat yozuvlari bu madaniyatning takrorlanmas namunalaridir. Amerikaning tanikli adibi Washington Irving xam bu majmuidan olgan gayratini o'z asari "Algambra"da bat afsil bayon etgani tasodifiy emasdir. Bu zamin xududlarining kulay jugrofiy mintaka, Buyuk ipak yo'lining muxim chorraxalarida joylashganligi, uning Garb bilan SHarkni boglashdagi aloxida o'rni, kolaversa, ulug ajdodlarimizning buniyodkorlik, yaratuvchilik saloxiyati - bular uning bagrida asta-sekin xayratlanarli moddiy va ma'naviy o'zgarishlarni yuzaga chixara bordi. Bu narsa dastavval, shaxarlar xayotining o'sishida, savdo-sotik, xunarmandchilik rivojida, musulmon madaniyatiga oid maxobatli inshootlar, minoralar, makbaralar, saroylar kuriishida, ipak yo'li chorraxalari bo'ylab ko'plab karvonsaroylar, rabotu sardobalar (ularning koldiklari Malik, Mirzacho'l va boshka joylarda xam uchraydi) buniyod etilishida yakkol ko'rindi. Masalan: birgina Xorazm voxasida X asrda 10 ta shaxar mavjud bo'lgan bo'lsa, XI asrga kelib ularning soni 40 taga etadi. Buxoroning "Kubbatul islom" - islom dinining gumbazi degan nomga, Samarkandning esa er yuzining saykali nomiga sazovor bo'lganligi fikrimiz dalilidir.

Tarixchi Abu Mansur As-Saolibiy (961-1038) xam Buxoro xakida mana bu so'zlarni bejiz aytmagan bo'lsa kerak: "Buxoro Somoniylar davridan boshlab, shon-shuxrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilgor kishilari jamlangan, er yuzi adiblarining yulduzlari porlagan xamda o'z davrining fozillari yikilgan joy edi".¹

X asr ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat yurita boshlagan Xorazm Ma'mun akademiyasi xam bu yurtning ilmu urfoni ravnakida aloxida o'rinn tutdi.

YUrt obodonchiligi, mamlakat ravnaki, kudratining yuksalishi davomida unda tabiiy ravishda ma'naviy madaniyat, ilm-fan rivoji xam jadal sur'atlar bilan ko'zga tashlanib bordiki, buning natijasida bu zamindan o'z elini shon-sharafga burkagan, dunyoga dovrux taratgan mashxur allomalar, ilm-fan yulduzlari etishib chikdilar.

2. Islom madaniyati.

Arab xalifaligi VII-VIII asrlar davomida Magribu Mashrikning keng xududlarini, shu jumladan Markaziy Osiyo erlarini xam o'z tasarrufiga kiritgan edi. Xalifalikka kirgan xududlarga asta-sekin arab madaniyati, uning ko'plab unsurlari kirib kela boshladi. Eng asosiysi, islomning mukaddas kitobi "Kur'oni Karim" goyalari turli xalklar orasida keng yoyila boshladi. Buning uchun bu erlarda arab tili, arab yozuvi joriy etildi. Musulmon madaniyatining ko'rki xisoblangan nakshinkor bezaklar bilan ziynatlangan salobatli masjidu madrasalar, xonakoyu makbaralar, diniy va ilmiy kitoblar, ko'lyozmalarga boy kutubxonalar va boshka inshootlar kad rostlay boshladi. Ular shu xalklarning avvalgi moddiy madaniyati xarobalari o'rnida barpo etildi.

"Kur'oni Karim" ("Kiroat" so'zidan olingan) goyalari, kadriyatlar (odamlarni to'grilik, rostgo'ylik, poklik, xalollik, ezgulik, yaxshilik, saxovat, do'stlik, birodarlik, o'zaro totuvlik, xamjixatlik, tinchligu osoyishtalikka undash va x.k.), islomiy axkomlar, jamiyatu odamlar xayotiga singdirib borilib, shu

asosda ular avvalgi ko'pxudolik, gayridiniy sarkitlardan, xurofot tushunchalaridan xalos bo'lib bordilar. Xalifa Usmon paygambarimiz o'limidan keyin ogizma-ogiz ko'chib yurgan "Kur'oni Karim" matnlarini bir joyga to'plab, yagona mukammal matnni yaratib, islom madaniyati tarixida nom koldirgan. U kotib Muxammad Zayd ibn Sobit ko'magida va payxambarimizning tirik saxobalari guvoxligida "Kur'oni Karim"ning yagona nusxasini tuzib chikadi. So'ng yagona nusxadan besh nusxa ko'chirib Makka, Madina, Damashk, Kufa va Basra shaxarlarida saklashga buyuradi.

Xalifa Usmon Kur'onini Amir Temur SHom (Suriya) yurishidan o'lja sifatida o'z poytaxtiga olib kelgan. Temuriylar tarixi Davlat muzeyida saklanayotgan mavjud "Kur'oni Karim" dastlabki tayyorlangan islomiy manba'dir. Ayni chogda islom madaniyatining gultojisi xisoblangan Xadisshunoslik ilmi rivoj topib bordiki, bunda xam peshkadamlilikni O'rta Osiyolik buyuk muxaddis olimlar egalladilar. Islom olamida Kur'oni Karimdan keyin mo"tabar manba, bu xadisi sharifdir. SHarif degan so'z arabcha bo'lib, sharaflı, aziz, kadrli degan ma'nolarni anglatadi. SHarif unvoniga sazovor bo'lgan shaxarlar,bular: SHom, Bagdod, Kuddus, Mozori SHarif va Buxoroyi SHarifdir. Muxammad salolloxo alayxi va sallamning aytgan gaplari, kilgan ishlari, shularning xammasi sunnat xisoblanadi. Bular xakidagi dalolat esa xadisdir.

Butun musulmon dunyosida birdan-bir to'gri, ishonchli deb tan olingen 6 nafar xadischilar: Imom Buxoriy, Imom Muslim al Gajjoj, Iso at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sijistoniy, Imom An-Nasafiy, Imom Abdulla ibn YAzib ibn Mojjaralar xammasi aslan Markaziy Osiyolik bo'lib, ularning "Kutubi sitta" ("Olti kitob") asari butun dunyoga mashxurdir. Ular orasida Imom Buxoriy (810-870) va ul zotga mansub "Al jome' as-saxix" ("Ishonarli to'plam") asari yagonadir. Bu asarni islomshunoslari "Kur'oni Karim"dan keyingi ulug o'ringa ko'yadilar. 4 jilddan iborat bu muborak kitobga 7275 ta eng saxix (ishonarli) xadislar kiritilgan bo'lib, ular nigoyatda kimmatli tarbiyaviy-ma'rifiy axamiyatga egadir. Allomaning "Al adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asari xam mashxurdir. Bular Mustakillik yillarda o'zbek tilida birinchi bor chop etildi. Uning bulardan tashkari yana 20 dan ziyod asarlari mavjud. Alloma tavalludining 1225 yilligi o'lkamizda 1998 yilning oktyabrida keng nishonlandi xamda uning xoki-poyi dafn etilgan Samarkand yakinidagi xartang kishlovida esa unga bagishlab yodgorlik majmui barpo etildi.

Imom Buxoriy shogirdi va izdoshi Imom at-Termiziy (824-892) xam buyuk xadisshunos allomalardan biridir. Uning mashxur asari "Al-jome'" deb ataladi. "Ash-shamoil an-nabaviyya" ("Payxambarning aloxida fazilatlari", 408 ta xadisu sharifni o'z ichiga olgan mazkur asar 1991 yilda o'zbek tilida birinchi bor chop etilgan), "Kitob az-zuxd" ("Takvo xakida") va boshka kitoblar xam bu zoti sharif kalamiga mansubdir. Islom ta'limotida shariat va uning ruknlari xam muxim o'rin tutadi. SHariat (arabchada to'gri yo'l, konunchilik ma'nosida) - islom diniy xukuki, ya'ni barcha musulmonlar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan konunlar, xukukiy-axlokiy ko'rsatmalar majmuidir.

Islomiy ilm tarakkiyotida alloma Burxoniddin Marginoniy (1123-1197) ning xizmati xam buyukdir. U 1178 yili "Xidoya" ("To'gri yo'l") noyob asarini

yaratadi. Bu kitobda o'sha zamonlarda, jumlai musulmonlar duch keladigan dolzARB masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotik, jinoiy jazo va insonning burch va mas'uliyatlariga taallukli juda ko'p murakkab muammolarni islomiy xukuk nuktai nazaridan xal etib beradi. Mazkur kitob nafakat Movarounnaxrda, balki butun islam SHarkida xam islom-xukukshunosligi bo'yicha nufuzli xukukiy manba-asosiy ko'llanma sifatida foydalanilgan. Alloma "Bidoyat al-mubtadiy" ("Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim"), "Kifoyat al-muntaxiy" ("YAkunlovchilar uchun tugal ta'lim"), "Nashr ul-mazxab" ("Mazxabning yoyilishi"), "Kitob ul-mazid" ("Ilmni ziyoda kiluvchi kitob"), "Kitob al-faroiz" ("Farzlar kitobi"), "Manosik ul-xaj" ("Xaj marosimlari"), Kitob ul-mashoyix ("SHayxlar xakida kitob") va boshka ko'plab asarlar muallifidir. Bu asarlardaadolat tuygusi, o'z davrining xukukiy mezonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, xaromdan xazar kilish, insof va diyonat, mexr-okibat kabi ezgu tushunchalarning moxiyati ochib berilgan. Allomaning ilmiy merosi jaxonning ko'plab oliy o'kuv yurtlarida musulmon xukukshunosligi yo'nalishida o'rganiladi.

YAKIN SHARK, Markaziy Osiyolik olimu fuzalolar Islom ilmi rivojiga buyuk xissalarini ko'shar ekanlar, Alloxning yakkayu yagonaligi, Alloxning bir ekanligi to'grisidagi tavkid bilan xam mashxur bo'ldilar. Fanning bu jabxasida, sirlar sirida ish ko'rgan zamon ulamolari va fuzalolari orasida buyuk kobiliyat egasi Abu Mansur Moturidiy nomi aloxida ajralib turadi. Uning mashxur asarlari jumlasiga "Tavxit" asarini nisbat berish mumkin. Ushbu asar o'sha zamon va davr extiyoji sifatida dunyoga kelgan. Sababi Moturidiy yashagan davr islam olamining "Oltin davri" xisoblangan. Ana shu davrda islam ilm markazi Bagdoddan O'rta Osiyoga ko'chgan, Samarkand "Oltin davr" markaziga aylangan.

Moturidiy islam ilmidagi yuksak ilmiy muvoffakiyatlari evaziga "Abu Mansur", ya'ni "golib ota" martabasiga musharraf bo'ldi.

Islom shariati besh diniy-xukukiy mazxabdan iborat. Sunniylikda: xanafiya, molikiya, shofi'ya, kanbaliya mazxablari, SHialikda esa ja'fariya mazxabi bor. Er yuzida jami 1,3 mlrd. musulmonlarning 47 foizi kanafiy, 27 foizi shofiyi, 17 foizi molikiy, 7,5 foizi ja'fariy (shialar), 1,5 foizi kanbaliy mazxabidadirlar. Umumiylkilib olganda sunniylar 92,5 foizni, shialar esa 7,5 foizni tashkil etadi.

Tasavvuf - bu odamlarni xalollik, poklik, tenglik, inson kadr-kimmatini uluglash, o'z mexnati bilan kun ko'rish, boshkalar kuchidan foydalanmaslik va ijtimoiyadolat koidalariga da'vat etuvchi ezgu ta'limotdir.

Xuroson va Movarounnaxr axolisi o'rtasida tasavvuf-falsafiy ilmi tarakkiyotida YUsuf xamadoni katta obro'-e'tibor va xurmat kozongan. U asosan Buxoro shaxrida yashab yoshlarga tasavvufdan saboklar bergen xamda juda ko'plab shogirdlar tarbiyalagan. YUsuf xamadoniyni pir tutgan muridlaridan 213 tasi mashxur shayxlar bo'lib etishganlar. Xoja Xasan Andoxiy, Xoja Abdullox Barrakiy, Xoja Axmad YAssaviy, Xoja Abdusolik Gijduvoniylar uning to'rt zabardast xalifasi xisoblanadi.

YUrtimizda ildiz otgan YAssaviya (Axmad YAssaviy), Kubroviya (Najmuddin Kubro), Nakshbandiya (Xoja Baxovuddin Nakshband) ta'limotlari moxiyatani shunday olajanob goyalar ruxi bilan sugarilgan. Jumladan, "YAssaviya" tarikatining bir kator asosiy koidalari (odoblari)ga nazar tashlar ekanmiz, bunda insonlarning Allox visoliga etishish yo'lida tinimsiz izlanishlari xayotning turli-tuman sinov-sinoatlariga dosh berishlari, o'z e'tikodlarida sobit, ezgulik, xak yo'lida xamisha sa'y-xarakatlarda bo'lishlari kerakligiga aloxida urgu berilganligi ayon bo'ladi. SHubois YAssaviy "Xikmat"larida poklik, xalollik, to'grilik, mexr-shafkat, o'z kuchi, peshona teri va xalol mexnati bilan kun kechirish, Allox taolo visoliga etishish yo'lida insonni botinan va zogiran xar tomonlama takomillashtirish kabi ilgor umuminsoniy kadriyatlar ifoda etilgan. Xuddi shunday yuksak goyalar Kubroviya, Nakshbandiya singari tarikatlarning mazmuni, mundarijasini tashkil etadi. Mammuniyat bilan tilga olish lozimki, Najmuddin Kubro kalamiga mansub "Favo'ix al-Jamol va fatvotix al-Jalol", "Al-Usul al-ashora", "Risolotut-turk" kabi 30 ga yakin noyob asarlar mavjud. Uning tarikatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas boglanib ketgan. Uning asarlaridagi kishilarning xalollik, odamiylik, molu-dunyoga xirs ko'ymaslik, o'z nojo'ya ishlaridan tavba kilishdek axlokiy-goyaviy, tarbiyaviy talab-koidalalar bizning kunlarimizda xam goyatda muxim axamiyatga molikdir.

O'z davrining komil insoni Baxouddin Nakshband xakida gapiradigan bo'lsak, avvalo u asos solgan Nakshbandiylikning asosiy moxiyati "ko'l ishda, Allox dilda", "Kam egil, kam uxla va kam gapir!" degan ulug nasixatlari o'ta xayotiydir. Nakshbandiya ta'limoti xalol mexnat kilishga, dexkonchilik, xunarmandchilik, savdo-sotik, ilm-ma'rifat, xattotlik, badiiy adabiyot, musika bilan shukullanish kabi foydali kasb-xunarli va xayrli ishlar sari da'vat etadi.

Zotan, Mustakillik sharofati bilan yurtimiz tarixida, uning ma'naviy sarchashmalarida sezilarli iz koldirgan, ularni o'z pok ruxoni y ta'limotlari ila boyitgan ulug salaflarimiz - Axmad YAssaviy, Baxovuddin Nakshband, Najmuddin Kubro, Abduxolik Gijduvoniy, Kaffol SHoshiy, Xoja Axrор Valiy singari bobokalonlarimiz aziz nomlari tiklanib, asarlari chop etilib, bebaxo meroslaridan baxra olayapmizki, bu biz uchun katta baxtdir.

3. SHark Uygonish davri allomalari ijodining jaxon fani ravnakidagi o'rni.

Ma'lumki, SHarkda, aynan O'rta Osiyo zaminida yuz bergan Uygonish jarayoni xususan dunyoviy fanlar rivojida aloxida yuksalish boskichi bo'ldi. Bu borada ilm-fan va madaniyat tarakkiyotida turli tarixiy davrlarda faoliyat ko'rsatgan "Ilm uylari" - Bagdoddagi (819-833) "Bayt ul-xikmat" (Bagdad akademiyasi), Xorazm poytaxti Gurganchdag "Ma'mun akademiyasi", shuningdek "Ulubek akademiyasi" va boshka ko'plab yuksak ilm dargoxlarining o'rni va axamiyati bekiyosdir. Uygonish davri o'z yuksak akl-zakovati, saloxiyati, izlanishlari bilan fanning ko'plab soxalarida muxim kashfiyotlar kilgan kanchalab buyuk daxolarni etishtirib berdi. Ular jaxon fanining tibbiyot, falakiyot, matematika, jugrofiya, tarix, geologiya, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya va boshka yo'nalishlarining tamal toshini

yaratdilar. Bu mukaddas zamindan etishib chikkan Muxammad Muso al-Xorazmiy, Axmad al-Farkoniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Muxammad Narshaxiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Maxmud az-Zamaxshariy, Burxoniddin Marginoniy, Nizomulmulk, Kaffol ash-SHoshiy, Mirzo Ulugbek, Kozizoda Rumiy, Giyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Kushchi va boshka buyuk siymolar nomini xakli ravishda extirom bilan tilga olamiz. Milliy Mustakilligimiz sharofati tufayli ularning boy ilmiy merosi sarchashmalaridan taxinda mo'l-ko'l baxramand bo'la boshladik. "Istiklol sharofati bilan, - degan edi Islom Karimov, - ma'naviyat buloklarining ko'zi ochildi, biz bu bulokning zilol suvlaridan baxramand bo'la boshladik. SHo'ro davrida unutilgan kadriyatlarimiz, nomi koralangan bobokalonlarimizning durdona so'zlarini biz obi kav sardek ko'zimizga surtmokdamiz. O'ylaymanki, biz nimaga erishgan bo'lsak, ana shu savobli ishlarimiz uchun Alloxning bizga in'om etgan marxamatidandir".² Allomalarimizning komusiy bilimdonliklari shundaki, ularning xar biri bir emas, balki ko'plab ilm-fan yo'nali shlarida ulkan kashfiyotlar kildilar. Bu jixatdan Muxammad Muso al-Xorazmiy (783-850), Axmad al-Farkoniy (797-865), Abu Nasr Forobiy (873-950) larning fandagi jasoratlari ibratlidir. Agar al-Xorazmiy matematikaga oid "xisob aljabr va al-Mukobala", "Xind xisobi xakida kitob", "Astronomik jadvallar", "kuyosh soatlari xakida risola" asarlari bilan matematika (algoritm) va astronomiya fanlarining tamal toshini ko'ygan bo'lsa, uning "Kitob surat al-arz" asari arab geografiyasi fanining tom ma'noda yaratilishiga negiz bo'lib xizmat kildi. Olimning "Kitob at-tarix"i esa Movarounnaxr, Xuroson va Kichik Osiyo xalklari tarixining VIII-IX asrlari davrini o'rganish uchun muxim manba xisoblanadi.

Ma'lumki arablar Irok, Misr va Suriyani istilo kilgunga kadar yunon alifbosiga asoslangan raxamlardan foydalanganlar. VII asrdan boshlab esa arab alifbosi xarflari bilan ifodalanuvchi raxamlar ko'llanilgan edi. Al-Xorazmiy Xindistonda kashf kilingan o'n raxamidan iborat sanok tizimini o'rgandi, soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon kildi. Al-Xorazmiy "Arifmetika"si bilan birga Xind rakamlari xam arab dunyosiga kirib keladi. XII asrda Evropaning boshka mamlakatlariga tarkaladi. Arab rakami xanuz jaxonda shunday deb yuritiladi. Uni jaxonga tanitgan Al-Xorazmiy ekani Abu Rayxon Beruniyning "Xindiston" asarida xam aytib o'tilgan. U o'z davridagi Bagdod ilmiy Akademiyasi faoliyatiga raxbarlik kilgan, bu esa uning nufuzining ko'tarilishiga katga ta'sir ko'rsatgan. Astronomiya, geografiya va boshka fan soxalarida muxim kashfiyotlar kilgan Axmad al-Farkoniy nomi xam mangulikka daxldordir. CHunonchi, olimning "Astronomiya asoslari xakida kitob", "Al-Farkoniy jadvallari", "Etti iklimni xisoblash xakida" singari asarlari allomaga astronomiya ilmida jaxoni shuxrat keltirdi. U Er sharining ilk bor xaritasini tuzgan birinchi buyuk geograf olim xamdir. U nafakat SHark dunyosida shuxrat kozonib kolmay, balki Garb olimlari e'tirofiga xam sazovor bo'lgan. SHu bois u Evropada "Alfraganus" nomi bilan mashxurdir. Bejiz yurtboshimiz Al-Farkoniyni "...kishilik tarixidagi ilk Uygonish davrining eng zabardast va yorkin namoyandalaridan biri, o'z zamonasi fundamental fan

asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho'kkilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi, butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat kildi",³ deb ta'rif etgan edi.

Tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga birdek katta xissa ko'shgan, geologiya, minerologiya, geodeziya, geografiya, farmakologiya fanlarining tamal toshini ko'yishga muvaffak bo'lgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) xam ilm-urfon osmonining porlok yulduzlari sirasiga kiradi. Uning ?alamiga mansub "Ma'sud konuni", "Saydona", "Minerologiya", "Astronomiya kaliti", "kuyosh kitobi" singari asarlari necha asrlar davomida turli yo'naliishlarda faoliyat yurituvchi dunyo olimlari uchun bitmas-tuganmas ilmiy xazina rolini o'tab keladi. Olimning chukur ilmiy yirik fundamental asari - "Xindiston" to'grisida so'z yuritgan akad. V.R.Rozen "SHark va Garbning kadimgi va O'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'k",⁴ deb baxo beradi.

Beruniy zamondoshi, Ko'xna Buxoro zaminidan etishib chikkan Abu Ali ibn Sino (980-1037) nomi tibbiyot ilmi bilan xamoxang, tibbiyotni xakikiy fan sifatida shakllanib o'z makomiga ega bo'lishiga asos solgan buyuk olimdir. Zotan, uning 5 jildli "Kitob al-konun fit-tib" ("Tib konunlari") asari aynan tibbiyotga oid benazir dasturulamal kashfiyotdir. Bu asarlar majmuini ko'zdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik saloxiyatiga, kasallikkarni aniklash, ularni davolash borasidagi yuksak maxoratiga tan beramiz. Jumladan, "Al-konun" ning ikkinchi kitobida 800ga yakin dori-darmonlarning xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste'mol kilish usullari buning isboti bo'la oladi. Olimning falsafa va tabiiy fanlarga doir 4 kismdan "Kitob ash-shifo", "Donishnama" asarlari xam mavjuddir. Ibn Sinoning tibbiyotdan tashkari ko'plab tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan faol shugullanganligi, muxim yutuklarga erishganligi xam ibrat bo'lidlidir.

O'rta Osiyo zamini juda kadim zamonlardan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoj topgan makon xisoblanadi. Ayniksa tarix, falsafa, mantik, fikx (xukukshunoslik) fanlari bunda muxim o'rin tutadi. Bu xususda gap borganda falsafa fanida nom kozongan, SHarkda "Muallimi Soniy" ("Ikkinchi muallim", Arastudan keyin) nomi bilan mashxur bo'lgan Abu Nasr Forobiy (873-950), fikx-xukukshunoslik soxasida benazir allomalar: Nizomulmulk (1017-1092), Maxmud az-Zamaxshariy (1075-1144), tarixnavis Muxammad Narshaxiy (899-959) xizmatlarini ta'kidlamok lozim bo'ladi. Bunda Forobiyning falsafada o'z ilmiy maktabini yaratib, yunon falsafasi moxiyatini ohib, tushuntirib, shu bilan birga o'zining SHarkona falsafiy ta'limotini ko'plab asarlarida, aytaylik, "Ilmlarning kelib chikishi va tasnifi", "Fozil odamlar shaxri" va boshkalarda asoslab bergan bo'lsa, Nizomulmulk "Siyosatnama" sida xukmdorlarning davlatni boshkarish, uni idora kilishga oid ko'plab kimmataxo yo'l-yo'riklar, dasturulamal ko'rsatmalar katta maxorat bilan kayd etilgan. Xatto Amir Temurdek buyuk davlat arbobi xam bu kitobga necha bor murojaat etganligi ma'lumdir.

Umuman IX-XII asrlarda yuz bergan Uygonish davrida SHarkda, xususan O'rta Osiyodan o'z yurtlari shonu sharafini yuksaklarga ko'tarib, betakror ilmiy kashfiyotlar, chinakam mo'jizalar yaratgan mashxur iste'dod soxiblari

etishib chikdiki, ular jaxon madaniyati xazinasiga munosib xissa ko'shdilar xamda keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas noyob boy meros koldirdilar.

4. Me'morchilik va tasviriy san'at yuksalishi.

Biz ko'zdan kechirayotgan asrlarda SHarkda ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada ravnak topganligi ayni chogda boshka soxalarda, xususan me'morchilik xamda tasviriy san'atda xam o'z ifodasini topdi. Bunda ko'p jixatdan bu davrdao'lka xududlarida xukm surgan tinchlik, osoyishtalikning sharofati xam katta bo'ldi. SHu davrda maxalliy xukmdorlarning sa'y-xarakatlari tufayli shaxarlarda noyob tarixiy obidalar, xashamatli binolar, ilmiy-madaniy maskanlar, kutubxonalar, masjidu-madrasalar kad ko'tardi. Ayniksa xalk ichidan chikkan maxalliy ustalar, nakkoshlar, kulollar, zargarlar tomonidan yurt dovruxini olamga tanitgan, ajoyib me'morchilik obidalari, tasviriy san'at namunalari yaratildi. Bu davr shaxarsozligida xom gishtlar va paxsalardan keng foydalilanigan. Ularni shinamligi va ko'rinishini yanada ko'rakmashadirishda oxakli korishmalar ishlatilib, gajjakdor kilib ishlov berilgan. kurilgan ayrim masjidlarning mexroblari esa silliklangan gishtlar, o'yma ganjlar va xatto tillo suvlari bilan xam bezatilgan. xar bir shaxar markazlarida kitob do'konlari, madaniy mollar bo'lishiga aloxida e'tibor berilgan.

O'rta Osiyo Uygonish davrining yirik me'moriy obidalari sirasiga Buxorodagi Ismoil Somoniy makbarasi (X asr), Samarkand yakinidagi Tim kishlokidagi Arab ota makbarasi (977-978), Uzun (Surxondaryo) tumanidagi Xo'ja Naxshron makbarasi (IX-X asr), Namozgox, Marvdagi Sulton Sanjar (XI asr), O'zgandagi Koraxoniylar makbarasi, Gazna yakinidagi marmar kotishmalardan tiklangan Gaznaviylar yozgi saroyi, Buxorodagi Minorai Kalon (1127), Vobkent minorasi (1192), Jarko'rgon minoralari va boshka ko'rakm me'morchilik inshoatlarini nisbat berish mumkin. Bu davrda me'moriy binolardan tashxari yo'nilgan gisht va suvga chidamli kurilish korishmalaridan turli-xil o'lchamli, goyat puxta ishlangan inshootlar, suv omborlari - bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar kurilgan.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchli imoratlar kurilishi keng tarkalgan. Yakkasinch va ko'shsinchli binolar asosan yogochlarni payvandlash uslubida kurilib, sinchlarning orasi xom gisht yoki guvalalar bilan urib chikilib, somon loylar yoki kumli loylar bilan suvalgan. Bunday kurilma imoratlar XII asrda xam shaxar me'morchiligida asosiyl o'rinni egallagan xamda zilzila silkinishlariga o'ta chidamli bo'lgan. Ajdodlarimizning Uygonish davri me'morchiligi soxasidagi bunyodkorliklari bugunga kadar xam saklanib kolongan. Ushbu tarixiy ma'lumotlarni olimlarimiz Afrosyob, Varaxsha, Buxoro, Poykand va boshka shaxarlar xarobalari misolida xam tadkik etadilar. SHarkiy o'lkalarda IX-XII asrlarda me'morchilik bilan birga tasviriy san'at, nakkoshlik, sopol ishslash va ganch san'ati xam ancha rivoj topib borgan. Imoratlarni o'ymakor ustun va to'sinlar bilan, devorlarni esa bo'yokli yoki ganchkorlik nakshlari bilan bezash keng tarkalgan. Bunga misol kilib, Zarafshonning yukori okimidagi Oburdom degan manzilda X asrda barpo

etilgan nakshinkor bino namunasini ko'rsatish mumkin. Inshootda o'ziga xos yangilik, go'zallik, ya'ni maxalliy an'ana, badiiy shakl ko'zga yakkol tashlanadi. SHuningdek, XI-XII asrlarga tegishli Samarkand bilan Buxoro oraligida bunyod etilgan Raboti Malik karvonsaroyi peshtogiga ishlangan ganch o'ymakorligi xam taxsinga loyikdir. Nakkoshlik san'atining tarakkiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning rivojlanishiga xam turtki bo'ldi. Samarkand, Buxoro, Toshkent va boshka shaxarlar ushbu soxalarda rivoj topgan markazga aylandi. Bu davrda ishlangan sopol buyumlar nigoyatda chidamli bo'lib, shaxar va kishlok axolisining kundalik xayotiga kirib borgan, shuningdek, bu maxsulotlar chet mamlakatlariga xam chikarilgan. Kulolchilik maxsulotlarini tayyorlash jarayoni esa butun boshli ishlab chixarish jarayonlarini o'ziga kamrab olgan. SHu bilan birga bu davrda kumush, mis, bronzadan nakshinkor badiiy san'at buyumlari, chiroli va bejirim idish-tovoklar, kadaxlar yasash xam rasm bo'lgan va ularning ko'rinishlari san'atkarona tarzda ustamonalik bilan bezatilgan. Bu soxada Samarkand, Farkona, Toshkent, Xorazm, Naxshob, Kesh shaxarlarining o'ziga xos maxsus maktablari faoliyat ko'rsatgan. Bunday jarayonlarning rivojlanishi xattotlik san'atining xam keng yoyilishiga bois bo'ldi. Xali kitob bosish kashf etilmaganligi, ko'lyozma kitoblardan nusxalar xattotlar tomonidan ko'lida ko'chirilishi sabab xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Usta xattotlar va xusnixat egalari o'z san'atlarini kitoblar bezash, masjid, madrasa xonaxolarning peshtoglari, gumbazlari, eshiklari va devor ustunlariga xar xil oyatlar yozish, saroylarda xonlar, amirlar, sultonlar va xokimlar sha'niga madxiyalar bitish kabi ishlarda namoyon etganlar, ularning mexnatlari esa juda kadrlangan.

SHu narsa dikkatga sazovorki, Uygonish davriga xos me'morchilik va unda ishlangan me'moriy naksh uslublari o'z navbatida ajdodlarimizning xayotda ijodkor va bunyodkor bo'lganligini to'la tasdik etadi. Ularning yaratgan noyob ishlari san'at asarining durdonalari sifatida xozirga kadar xam ajdodu avlodlar e'zozu xurmatiga sazovor bo'lib kelmokda. Biz avlodlar o'tmishda Vatanimiz xududida shunday ko'li gul, yuksak yaratuvchilik saloxiyatiga ega bo'lgan, xalkimiz va madaniyatimizni dunyoga tanitgan bunday ulug ajdodlarimiz bilan yakli ravishda faxrlana olamiz.

5. Amir Temur va temuriylar madaniyatining jaxon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.

Ma'lumki, Amir Temurva temuriylar davri (XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr Movarounnaxr va Xuroson o'lkalarida madaniy rivojlanishning yuksak darajaga erishuvi, ma'naviy xayotning takomillashuvi bilan izoxlanadi. Soxibkiron o'z davlatiniadolat va konun tamoyillariga asoslanib boshkarish bilan birga uni xar tomonlama obod kilish, ilm-fan va madaniyat ravnaki yo'lida doimiy sa'y-xarakatda bo'ldi. Amir Temur ilm-fan, madaniyat va san'at axliga xar taraflama ragbat ko'rsatib kulay shart-sharoitlar yaratib, ularning ijodkorlik ishlarini ro'yobga chixarishga ko'maklashdi. Amir Temur o'zining ko'p yillik faoliyati davomida jamiyatning iste'dod soxiblarini kadrlab ularni keng ko'lamli bunyodkorlik ishlariga faol jalb etib borgan. U

o‘zining xorijiy yurishlari vaktida bunga izchil amal kilgan. Jumladan, Amir Temurning amr-farmoni bilan Damashkning eng mogir to‘kuvchilari, Xalabning mashxur paxta yigiruvchi, Anxaraning movut to‘kuvchi korxonalari, Turkiya va Gurjistonning zargarlari Samarkandga olib kelindi. SHu bilan birga amir xuzurida to‘plangan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono SHamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Baxruddin Axmad, Mavlono Nizmoniddin Xorazmiy, Xo‘ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy singari ko‘plab allomalar ilm-fanni ravnak toptirish bilan birgalikda madaniy va ma’naviy masalalarni xal etishda Soxibkironga yakindan ko‘mak bergenlar.

Darxakikat, Amir Temur o‘z sultanatini boshkarish, yurt tinchligi, farovonligi va ravnakini ta’minlashda ilm-fan, ma’rifat axliga suyangan, ularning dono maslaxatlari, yo‘l-yo‘riglariga kulok solgan va kerak bo‘lganda ularni amaliyotda ko‘llagan xam. Jumladan, SH.YAzdiy "Zafarnoma"sida aytilishicha, u 806 yilda (milodiy 1404 yil) olim-fuzololar anjumanini chakirib, unda shunday degan ekan: "Fan va dinning mashxur kishilar o‘z maslaxatlari bilan podshoxlarga yordam berib kelganlar... Mening maksadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustaxkamlash, fukaroning turmushini yaxshilash yurtimizda kurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishda sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o‘z maslaxatlarining bilan ko‘maklashingiz kerak. Mamlakatning axvoli, devonning suiste’mol kilinganligi va kilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi xokimlar tomonidan xisib ko‘yilishi kabi xollar xammadan ko‘ra sizlarga ayondir. SHular xakida ma’lumot bersangizlar, bu kabiadolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi xamda shariat va konunlarga muvofik chora-tadbirlarni aytsangizlar yaxshi bo‘ldi... Mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga xaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu oljanob ishda menga yordam berishingizni iltimos kilaman".⁵

Amir Temur va uning vorislari, xususan SHoxrux Mirzo, Ulugbek Mirzo, Boysunkur Mirzo, Xusayn Boyxaro, Bobur Mirzolar tabiatan ilmparvar, ma’rifatparvar xukumdorlar bo‘lganligidan, ularning davrida ilmu urfon va ma’rifatning juda ko‘plab soxalarida dovruxi olamga mashxur alloma olimlar, mutafakkirlar, shoiru adiblar etishib chikib yurtimiz shuxratini yuksakka ko‘tardilar. Ular o‘z davrining xayotiy extiyojlaridan kelib chikib, juda ko‘plab masala va muammolarni xal etish bilangina cheklanib xolmasdan balki shu bilan birga umuminsoniy manfaatlar, kizikishlarga xam xizmat kiladigan ilmiy muammolarni echish, moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalarini ijod kilish bilan shukullandilar. SHu boisdan xam insoniyat akl-zakovatining yuksak namunalari sifatida o‘sha davrda ijod kilingan ko‘plab noyob asori atikalar, me’moriy obidalarning mana etti asrdirki, o‘z oxorini yo‘kotmay bugungi minnatdor avlod kishilarini xamon xayratlantirib kelishi bejiz bo‘lmasa kerak. O‘z zamonasida tengi yo‘k inshootlar xisoblangan Samarkanddagи mashxur Bibixonim masjidi va makbarasi, Go‘ri Amir, Ko‘ksaroy, Bo‘stonsaroy majmualari, SHaxrisabzdagi Oksaroy koshonasi, Buxoro, Gijduvon, Turkiston va boshka shaxarlardagi madrasalar xamda shu kabi maxobatli inshootlar

temuriylar sulolasini kuch-kudrati va salobatini o'zida gavdalantirib turganligi shak-shubxasizdir. YUrtboshimiz xakli ravishda ta'kidlaganidek "Bugun biz Amir Temur bobomiz buyuk bunyodkorlik rejalarini noyob obidalarda bekamu-ko'st mujassam etib, Samarkandni er yuzining mo'jizasiga aylantirgan Badriddin ibn SHamsiddin, usta Ali Nasafiy, Olim Nasafiy, Mavlono Ubaydullo, Pirmuxammad Bogishamoliy, Mavlono Junays singari yuzlab-minglab me'moru muxandis ajdodlarimizni, xunarmand ustalarimizni xam eslab, ularning san'atiga tasannolar aytamiz".⁶ Temuriylar davri ilm-fani va madaniyatining o'ziga xos muxim jixati shundaki, bu davrga kelib O'rta Osiyo zaminida yuzaga chikib, izchil rivojlanish tomon yuz tutgan, madaniy-ma'naviy Uygonish o'zining yuksak boskichiga ko'tarildi va uning samaralari yanada salmokli bo'lib bordi.

Ilmu fanning turli-tuman soxalarida faoliyat yuritgan, o'z zamonasining buyuk allomalari xisoblangan Mirzo Ulugbek, Kozizoda Rumiy, Giyosiddin Jamshid Koshiy, Aloviddin Muxammad Ali Kushchi, Muxammad Xavofiy, tarix ilmining nuktadonlari SHarofiddin Ali YAzdiy, Abdurazzok Samarkandiy, Mirxon, Xondamir singari allomayi kiromalar va ularning sermaxsul ijodi buning yakkol isbotidir.

Amir Temur vorisi sifatida Movarounnaxr yurtini kariyb 40 yil boshkargan xamda bu davlat tarakkiyotida muxim o'rin tutgan Mirzo Ulugbek ayni chogda ilm-fan rivojiga, madaniyat yuksalishiga xam bebaxo xissa ko'shgan buyuk siymodir. U tashkil etgan boy kutubxonada turli fan soxalariga oid 160 mingdan ziyod kitoblar mavjud bo'lган. Uning raxbarligida 1424-1428 yillar davomida Samarkandning CHo'ponota tepaligidagi Obiraxmat anxori bo'yida kurilgan rasadxona o'sha davr ilmiy-texnika rivojining so'nggi yutuklarini o'zida mujassam etgan edi. Ulugbekning Buxoroda kurdirgan muxtasham madrasalaridan birining peshtogiga "Ilm olmok xar bir muslim va muslima uchun xam farz va xam karzdir" degan yozuvni o'kiymizki, bu xam olim va xukmdorning ma'rifatga nechoglik e'tibor bergenligiga misol bo'la oladi. Uning raxnamoligida shakllanib yuksak dovrux kozongan ilmiy maktab o'z mazmuni, ko'لامи bilan o'sha davrning tom ma'nodagi ilmiy Akademiyasi makomida bo'lган.

Ulugbek kalamiga mansub "Ziji Ko'ragoniy" asari mashxurdir. Unda 1018 ta sobita (ko'zgalmas) yulduzlarning o'rni va xolatini aniklab berilgan. O'rta Osiyo YAkin va o'rta SHark mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarkand kengligiga nisbatan koordinatalarini belgilab chikilgan. Ulugbek rasadxonasi tadkikotlari natijalari asosida yaratilgan matematika va astronomiyaga oid kator nodir asarlar xozirgi davrda xam olimlar e'tiborini kozonib kelmokda. 1994 yil oktyabrida Mirzo Ulugbek tavalludining 600 yilligi yurtimizda va uning tashxarisida keng nishonlanganligi fakti xam ulug alloma ta'limoti bokiyligiga yakkol ishoradir. Ulugbek davri fan peshvolari Kozizoda Rumiy "xisobga doir risola", "Astronomiya asoslariga SHark", Giyosiddin Koshiy "Aylana xakida risola", "xisob kaliti" (alloma birinchilardan bo'lib o'nli kasrlar arifmetikasini yaratgan), Ali Kushchi "Arifmetika ilmi xakida risola", "Ali Muxammadiy

risolasi", "Ulugbekning yangi astronomik jadvallariga SHarklar", "Geometrik masalalarini echish risolasi" kabi noyob asarlari bilan ilm-fan va madaniyat rivojiga samarali xissa ko'shdilar. SHu davrning ijtimoiy fanlari ravnakiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan Amir Temur "Tuzuklar"i, Ulugbekning "To'rt ulus tarixi", Boburning "Boburnoma", SHarofiddin Ali YAzdiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshoxning "Amir Temur tarixi", Mirxondning "Poklik bogi", Xondamirning "YAxshi fazilatlar" va boshka asarlarni aloxida ta'kidlab o'tish o'rindidir.

Temuriylar davrida badiiy adabiyot, xattotlik, tasviriy san'at, musika, miniatyura madaniyati xam rivoj topdi. Mavlono Lutfiy (1366-1465), Xaydar Xorazmiy (XIV asr oxiri XV asr boshlari), Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiylar mumtoz adabiyotimiz ravnakiga jiddiy xissa ko'shdilar.

O'zbek adabiyotining yanada yuksak darajaga ko'tarilishi ko'p jixatdan she'riyatimiz sultoni Alisher Navoiy (1441-1501) ijodi bilan boglikdir. Alloma ijodida yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, erksevarlik goyalari mujassam aks etdi. U butun umrini ilm-fan, mamlakat obodonchiligi va madaniyati rivojiga bagishladi. Uning mashxur "Xamsa" siga kirgan "Xayratul-abror", "Layli va Majnun", "Farxod va SHirin", "Sabbai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari buning isbotidir. Uning monumental she'riy asari "Xazoyin ul maoniy" (Ma'nolar xazinasi) shoir ijodining xakikiy cho'kkisidir.

U badiiy janrning xamma soxalarida barakali ijod kildi. Navoiy siymosida komil inson timsoli xakkoniy ma'noda aks etib turadi.

SHoirning:

Odami ersang demagin odami,
Oningkim yo'k xalk xamidan xami.

SHox baytlarida bunga to'lik ishonch xosil kilish mumkin. Uning ilmu ma'rifat ravnakiga, iste'dodli yoshlar tarbiyasi va kamolotiga ko'rsatgan raxnamoligi xam xar kancha maktovga loyiukdir. Alloma ko'magida mashxur tarixchi Xondamir, musavvir Kamoliddin Bexzod, mashxur xattot Sultonali Mashxadiy va boshka o'nlab iste'dodlar tarbiya topib voyaga etganlar. Ayni zamonda bu davr fors-tojik adabiyoti ravnakida xam muxim boskich bo'ldi. Xofiz SHeroziy, Kamol Xo'jandi, Kamoliddin Binoi, Zayniddin Vosifiy singari adiblar ijodi bunga yorkin misol bo'la oladi. SHe'riyat sultoni, bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligi yurtimizda 2001 yili izzatu-ikrom bilan nishonlanib, bu an'ana xar yili yuksak darajada davom ettirilmokda.

XV asr madaniyatining tarkibiy kismlari bo'lgan xattotlik, tasviriy san'at, nakkoshlik, miniatyura san'ati, musika madaniyati boblarida xam ajoyib ijodiy yutuklarga erishildi. Xususan Boysunkur Mirzoning Nigoriston-Badiiy akademiyasi o'sha davr san'ati va adabiyotining yuksalgaganligini o'zida ifoda etadi. Bunga SHarkning benazir moykalam soxibi Kamoliddin Bexzodning rassomchilik va miniatyura matabini misol kilish mumkin. U mussavirlikda "Xirot maktabi" uslubining asoschisi bo'lib ustoz san'atkori sifatida O'rta

Osiyo, Eron, Ozarboyjon va boshka o'lkalar tasviri san'atining tarakkiyotiga munosib xissa ko'shgan.

SHu bilan birga bu davr ilm-fani, madaniyati soxiblari o'zlarining ilmiy, badiiy ijodi, ko'plab asarlari bilan yurt dovrugi, shuxratini yuksakka ko'tardilar.

SHunday kilib, IX-XII asrlar SHark olamida, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalklari xayotida ijtimoiy -madaniy xayotning turli jabxalarida tub ijobiy o'zgarishlarni amalgaga oshirib, tom ma'nodagi Uygonish jarayonini yuzaga chixargan bo'lsa, XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrlar davomida esa ilm-fan va madaniyat ravnaki yanada yuksak boskichga ko'tarildi. Bu davrlarda yashagan ko'plab komusiy bilim soxiblarining ilmu urfonning turli yo'nalishlaridagi buyuk kashfiyotlari, noyob yutuklari, adabiyot va san'at daxolarining yuksak ijodiy merosi jaxon fani va sivilizatsiyasi xazinasiga bebaxo xissa bo'lib ko'shildi.

O'z zamonasida jaxonni xayratga solgan bu noyob madaniyat va uning betakror namunalari umuminsoniy va umumbashariy mazmun, moxiyat kasb etganligidan, ular bugun xam minnatdor avlodlar tomonidan e'tirof topib, tarakkiyparvar insoniyat manfaatlari va xayotiy extiyojlariga xamon xizmat kilib kolmokda.

¹ Abdullaev I. Abu Mansur As-Saolibiy. T. O'zbekiston, 1992, 50 bet.

² Karimov. I.A. Asarlar, 5-jild. T. O'zbekiston, 1997, 147-bet.

³ Karimov. I.A. Asarlar, 7-jild. T. O'zbekiston, 1999, 189-bet.

⁴ Ma'naviyat yulduzları. T. "Meros", 2001, 105-bet.

⁵ Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T. Fan, 1993, 22-23-betlar.

⁶ Karimov. I.A. Asarlar, 5-jild. T O'zbekiston, 1997, 172-bet.

Mustakil o'rganish uchun tavsiya etiladi: SHark akademiyalari (Bagdod Ma'mun akademiyasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi. Ulugbek akademiyasi).

Tayanch so'z va iboralar:

Uygonish. komusiylik. Me'morchilik. Tasviriy san'at. Islom madaniyati. xadisshunoslik. Temuriylar sulolasi. Madaniyat ravnaki. Bagdod, Xorazm Ma'mun akademiyalari. Ulugbek akademiyasi. Alisher Navoiy. Ilmiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy meros.

Savol va topshiriklar:

1. SHark Uygonishi jarayoni kanday omillar ta'sirida yuz berdi?
2. SHark Uygonishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. "Kur'oni Karim" kitobining kimmati va benazirligi nimada?
4. Xadisshunoslik deganda nimani tushunasiz?
5. Imom Buxoriy shaxsi xakida nimalarni bilasiz?

6. Tasavvuf va tarikat ilmlari to‘grisida tushuncha bering.
7. Muxammad Muso al-Xorazmiy fanda kanday kashfiyotlar kilgan?
8. Axmad al-Farkoniy kalamiga mansub asarlarni sanab bering.
9. Abu Rayxon Beruniy ilm-fanning kaysi yo‘nalishida mashxur bo‘ldi?
10. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat ravnakini ta’minlagan asosiy omillarni so‘zlab bering.
11. Ulugbek ilmiy akademiyasi erishgan yutuklarning jaxonshumul yutuklari nimada?
12. Boysunkor Mirzo badiiy akademiyasi xakida nimalar deya olasiz?
13. XV asr o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan kimlarning ijodini aloxida ko‘rsatib bera olasiz?
14. Alisher Navoiy ijodi kaysi ma’noda o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojining yuksak cho‘kkisi xisoblanadi?

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash - davr talabi. Asarlar, 5 jild. T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Abdunabiev A. Vklad v mirovuyu sivilizatsiyu - T.: O‘zbekiston 1998.
3. Abu Rayxon Beruniy. kadimgi xalklardan kolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, I-jild. T.: 1968.
4. Axmedova E., Gabidullin R. Kulturologiya – T., 2001.
5. Silichev D. Kulturologiya. Uchebnoe posobie dlya VUZov, - M, 1998.
6. Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk Uygonish davri madaniyati - T.: Fan, 1995.

Ko‘shimcha adabiyotlar:

1. Abduraxmonov A. Ulugbek akademiyasi – T.: Komuslar Bosh taxririyati, 1993.
2. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. - T.: Movarounnaxr, 2002.
3. Jumaniyozov M. Ma’mun akademiyasi. Urganch: Xorazm, 1994.
4. Pugachenkova G.A., Rempel P. Ocherki iskusstva Sredney Azii – M, 1982.
5. Sulaymonov F. SHark va Garb - T.: O‘zbekiston, 1997.
6. xamidov Kirk besh alloma xikoyati - T.: Fan, 1995.
7. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: Meros, 2001.

Evropa Uygonish davri madaniyati.

Reja:

1. Evropada Uygonish davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari.
 2. Gumanizm, reformatsiya, yangi inson idealining shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning okibatlari.
 3. Evropa Uygonish davrining daxolari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo va boshkalar.
 4. Tabiiy bilimlar va texnik tarakkiyot. N. Kopernik, D. Bruno, G. Galiley.
1. Evropada Uygonish davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari.

"**Renessans**" so‘zining ma’nosи O‘rta asr madaniyatidan voz kechish, antik (yunon-rim) madaniyati va san’ati an’analariga kaytish, uning Uygonishi davridir. SHu bilan birga Renecsans badiiy uslub xamdir. Ikki yarim asr davomida Italiyada va so‘ngra boshka Evropa mamlakatlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda inson tafakkuri o‘zgardi: odamlar osmonga, erga, tabiatga o‘ziga boshkacha nuktai nazar bilan xaray boshladi. Oldingi maksadlardan farkli o‘larok boshkacha maksadlar paydo bo‘lib, ular san’atda xam o‘ziga xos oxangda tasvirlana boshladi. CHunki, xakikatdan xam bu davrga kelib dunyo ancha o‘zgargan edi. Ammo buni tushunish oson kechmadi. Bunda ayniksa O‘rta asr tafakkuri kishanlaridan xalos bo‘lish lozim edi. SHu boisdan xam inson endilikda antik madaniyatning boy merosiga murojaat eta boshladi. "**Uygonish**" atamasi XIX asrda ishlatila boshlangan bo‘lsa xam bu jarayonlar ancha ilgari yuz berdi. Uni kuyidagi kichik davrlarga bo‘lish mumkin:

- 1. Uygonish arafasi davri: XIII asrning ikkinchi yarmi – XV asr;**
- 2. Ilk Uygonish: XV asr;**
- 3. YUkorি Uygonish: XV asr oxiri – XVI asrning birinchi choragi;**
- 4. Kuyi Uygonish: XVI asrning so‘nggi davri.**

Uygonish Italiyada asosan XIV-XVI, boshka Evropa mamlakatlarida XV-XVI asrlarni xamrab oladi.

Uygonish madaniyatining shakllanishi, birinchi navbatda, o‘rta asr madaniyatining chukur inkiroziga javoban yuz berdi. SHu boisdan, Uygonishning asosiy xususiyati bu antifeodal yo‘nalish kasb etganlik xamda dunyoviylik va ratsionalizmning diniylikdan ustuvorligidir. Dinning inkirozi ayni chogda O‘rta asr madaniyatining goyaviy-siyosiy asosining xam inkirozini belgilab berdi.

SHimoliy va O‘rta Italiyaning togli xududlarida katta er egaligi paydo bo‘lishiga sharoit bo‘lmagani bois, X-XI asrlardayok bu erlarda shaxarlar paydo bo‘lib, rivojlana boshladi. Bu esa jamiyatda savdogarlar, xunarmandlar

katamlari, ya’ni burjuaziya vakillari mavkeining oshishiga olib keldi. Ular XIII asrdayok feodallarga xarshi kurashda Florensiya, Bolonya, Siena xududlarida siyosiy xokimiyatni ko‘lga olishga ulgurgan edilar. Bu esa o‘z navbatida, **kapitalizmning dastlabki belgilari** paydo bo‘lishiga olib keldi. **Burjua ishlab chixarish munosabatlarining shakllanishi** - bu Uygonish davri iktisodiy xayotiga xos xususiyatdir.

SHuningdek, aynan Italiyada **antik Rim madaniyati an’analari**, ayniksa, lotin tili, antik davr shaxarlari, pullari va x.k. eng ko‘p saklanib kolgan edi. O’tmish ulugvorligini tasdiklovchi **tarixiy xotiraning xam saklanib kolganligi** yangi madaniyatning shakllanishida katta axamiyat kasb etdi.

Jamiyat xayotida shaxarlar rolining kuchayishi, ya’ni shaxarning ijtimoiy ishlab chixarishdagi axamiyatining oshib borishi, savdo alokalarining avj olishi, xunarmandchilikning tarakkiy etishi bilan xisobchi, xukukshunos, muxandislar, texniklar, o’kituvchilar, shifokorlar va boshka o’kimishli odamlarga nisbatan talab kuchaya bordi. SHunday kilib, shaxarlarda akliy mexnat bilan shukullanuvchi kishilarning aloxida toifasi – intelligensiya paydo bo‘ladi.

2. Gumanizm, reformatsiya, yangi inson idealining shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning okibatlari.

Katolitsizm inkirozi shu darajada jiddiy tus olib, chukurlashib bordiki, xristian dinida paydo bo‘lgan yangi okim – protestantizm va kudratli **Reformatsiya** xarakatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Reformatsiya iborasi lotincha o‘zgarish, kayta kurish ma’nosini anglatib, u Garbiy va Markaziy Evropada XVI asrda vujudga keldi. U asosan antifeodal xarakter, mazmun kasb etib, feodal tuzumning asaosiy mafkuraviy negizi xisoblangan katolik cherkovi xukmronligiga xarshi yo‘nalgan edi. Bu xarakat daftavval Martin Lyuter boshchiligidagi Germaniyada boshlandi. Lyuter (1483-1546) o‘z davrining ilgor, o’kimishli kishisi bo‘lgan. U injilni nemis tiliga tarjima kilgan, umumnemis adabiy tili normalarining shakllanishiga katta xissa ko‘shgan. Uning safdoshi Jan Kalvin (1509-1564) reformatsiya yo‘lboshchilaridan sanalib, kalvinizm goyaviy okimining asoschisi bo‘ldi. U mashxur “Xristian e’tikodiga yo‘l-yo‘riklar” kitobining muallifi, xristian dinini burjuaziya manfaatlariga xizmat kildirishda jonbozlik ko‘rsatgan siymolardandir.

Reformatsiya mafkurachilari shunday goyalarni ilgari surdilarki, bunga ko‘ra katolik cherkovi va uning butun ierxiyasi (boshkarubi tizimi) va umuman ruxoniylit amalda inkor etildi. Ular xakikiy dinning yagona manbai deb Mukaddas yozuvni e’lon kildilar xamda katolikning rasmiy talkinini rad etdilar, cherkovni soddalashtirishni, uning er, mulk va boshka narsalarga bo‘lgan xukuklarini bekor kilishni talab kildilar.

Reformatsiya asosan byurger-burjua (Lyuter, Kalvin), xalk xarakatlari yo‘nalishi kasb etib, u feodal ekspluatatsiyani tugatish, tenglik o‘rnatish uchun katolik cherkovini bekor kilishga yo‘nalgan kurash (Tomas Myunser, antibaptistlar) goyasi ruxi bilan sugorilgan edi.

SHu bilan birlikda Reformatsiya xarakatining yana bir ko‘rinishi – bu o‘z xokimiyatini mustaxkamlash, cherkovning boy mulklariga egalik kilishga intilgan monaxlar va dunyoviy feodallar manfaatlarini ko‘zlangan kirolknyazlik xarashlari edi.

Reformatsiya bayro?i ostida 1524-1526 yillarda Germaniyada dexkonlar urushi, so‘ngrok Niderlandiya va Angliyada burjua inkiloblari yuz berdi.

Reformatsiya protestantlikka asos soldi. Bu reformatsiya ruxida diniy o‘zgarishlar o‘tkazilishining bevosita natijasi bo‘ldi. 1555 yilda Rim Papasi bilan bitim tuzildi. SHundan boshlab Reformatsyaning barcha tarafdorlari protestantlar, yangi cherkov esa protestant cherkovi nomi bilan atala boshlandi. XVI asr o‘rtalariga kelib SHveysariya, Angliya, SHvetsiya, Daniya, Norvegiya katolitsizmdan chikdi. So‘ngra protestantlik Belgiya, Gollandiya, Fransiya, CHexiya, Vengriyaga xam kirib bordi.

Tomas Myunser (1490-1525) Germaniya dexkonlar urushi (1524-1526) yo‘lboshchisi, bosh mafkurachisidir. Feodal tuzumni agdarib tashlash, xokimiyatni xalk ixtiyoriga berish, ekspluatatsiyani, xususiy mulkni barxam toptirish goyalarini diniy formada targib kilgan.

Ammo Uygonish madaniyatining asosiy va muxim xususiyati **gumanizm** edi. Bu davr madaniyatida **gumanistik** (insonparvar), insonni dikkat markaziga ko‘yuvchi goyalar birinchi o‘ringa chikadi. xayotda fakat insonning ijodiy kobiliyatlarini, akl-idrokini tan olish erdag'i baxtga intilish bilan almashinadi. Bu maksadni ruyobga chixarish o‘tmish madaniyati yutuklarini o‘zlashtirishni takozo etadi.

Gumanistik goyalar o‘rta asrning so‘nggi, yangi davrning birinchi shoiri, buyuk siymo Dante Aligeri (1265-1321)ning "Komediya", "Ziyofat", "Monarxiya" asarlarida bayon etilgan. Dante xristian akidalarini o‘zgarmas xakikat sifatida tan olgan xolda, ilo?iy va insoniy munosabatlarni yangicha talkin kiladi, ularni bir-biriga zid ko‘ymasdan, xar ikkalasining o‘zaro birlikda, deb biladi. U bu dunyoda insonni roxat-farogatga kuyidagi ikkita yo‘l olib boradi, deb xisoblaydi: falsafiy ta’lim, ya’ni inson tafakkuri, uning kobiliyatları xamda mukaddas ruxdan kelib chikuvchi "ma’naviy ta’lim". SHoir gumanizmi tarkidunyochilik (asketizm)ga xarshi xaratilgan va inson kuchiga to‘lik ishonch ruxi bilan sugorilgan. Dante fikricha, inson o‘z farovonligi uchun o‘zi kurashishi lozim. Boylik yoki merosga kolgan nufuz va obro‘ kishi takdirida xal kiluvchi omil bo‘lmaydi, aksincha inson o‘zining shaxsiy fazilatlari va sifatlariga tayanib baxt-saodatga erishmogi lozim bo‘ladi. "Monarxiya" asarida shoir o‘zining cherkovga nisbatan siyosiy nuktai nazarini bayon kiladi. Uning fikricha, cherkov odamlar turmushiga aralashmasdan, fakat "narigi dunyo" masalalari bilan shukullanishi darkor. Siyosat esa, inson tafakkuriga, uning manfaatlariga buysunishi kerak.

Atogli olim N.Komilov Dantening "iloziy komediya" asarida **Ibn Sino va Ibn Rushdlarning nomlari tilga olinishini kuyidagicha ta’riflaydi: "SHoir ulug xakimlar Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘zining birinchi darajadagi ustozlari katoriga ko‘yib, ulardan ta’lim olgan, buyuk Akl egalari ishtirokidagi tafakkur bazmi to‘ridan ular uchun joy ajratgan".¹ SHuningdek, Dante "Monarxiya"**

("Saltanat") asarida Ibn Rushd izidan borib ruxoniylar xukmronligini inkor etadi, adolatli xukmdor boshchiligidagi yagona davlat goyasini ilgari suradi. Mutafakkirning bu tarzdagi ilgor dunyokarashi cherkovni gazablantiradi. Regini, Gvido, Vernani singari Papa tarafdorlari Danteni "Gunoxga botgan, daxriy Ibn Rushd" goyalarini targib etishda ayblaydilar. Dante kachonlardir butun insoniyat boshini kovushtiradigan adolatli davlat xaror topishiga ishonadi. Bu ezgu orzusini bayon etishda shoir Ibn Rushdning kuyidagi fikrlariga asoslanadi: Inson o‘z imkoniy akli orkali atrof-muxitni bilib oladi. Birok bir odam xar kancha donishmand bo‘lmasin, mutlak bilimlar jamuljamini egallahga kodir emas, balki akliy borlikning muayyan bir kisminigina egallahsi mumkin, xolos. Binobarin, odamlar soni ko‘paygan sari bilish doiralari xam kengayadi, ammo bir davr odamlari, ular nechogli ulkan guruxni tashkil etmasinlar, xakikatni to‘la anglab etolmaydilar. Butun insoniyat bilimi esa mutlak xakikat tomon uzlucksiz tutashib boradi. Bu-kishilik nasli kabi, o‘lmas va tunganmas imkondir.

Demakki, birlashgan saltanatga insoniyatning akl-zakovati xam jamlanib, tajassum topadi; xikmat-xakikat dunyoni idora etadi. kirginbarot urushlar barxam topadi, kishilik xadik-ko‘rkuv, muxtojlik changalidan chikib, baxtiyor yashaydi, deydi Dante.²

Gumanizm va umuman Renessans madaniyati asoschilaridan yana biri italiyalik shoir **Franchesko Petrarka** (1304-1374) edi. U birinchi bo‘lib antik davr madaniyatiga, Gomer va Vergiliylar ijodiga kaytish to‘grisida fikr yuritadi. Petrarka xristianlikni rad etmaydi, ammo uning ta’limotida din o‘zgacha, insonparvar yo‘nalish kasb etgan. SHoir sxolastikaga (Kuruk safsatabozlik), uning inson muammosiga nisbatan befarkligiga karshi chikadi. Petrarka **she’riyat, notiklik, adabiyot, etika, estetikaning** inson axlokiy va ruxiy kamolotida tutgan o‘rni, axamiyatini ta’kidlab, ushbu soxalar **rivoji madaniyat yuksalishini ta’minlaydi, deb xisoblaydi**. SHoir antik davr madaniyati va ma’rifati o‘tib ketgan oltin asr, yo‘kotilgan jamiyat deb xisoblab, ushbu merosni zamondoshlariga anik va tushunarli xolda etkazishga xarakat kiladi. U avvalo, insonning ichki, axlokiy muammolariga e’tiborni xaratadi. Bu narsa Uygonish davri individualizmining o‘ziga xos muxim belgisi edi. "Mening sirim" nomli asarida Petrarka insonning eng chukur ichki ziddiyatlari va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Fransuz Uygonishining yorkin namoyandasi bu gumanist-yozuvchi, monax, botanik va shifokor **Fransa Rable** (1494-1553) dir. Uning asosiy merosi "Gorgantuya va Pantragryuel" nomli sarguzasht, fantastik romandir. Ma’lum darajada utezik goyalarni o‘zida mujassamlashtirgan bu roman tarbiya, urush va monastir xayoti mavzulariga bagishlangan bo‘lib, unda Rablening jamiyat, uni rivojlantirish, inson xukuklari, jamiyatdagi ayollarning o‘rni, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga doir karashlari aks ettirilgan.

Gumanizmning yana bir yorkin namoyandasi fransuz faylasufi **Mishel Monten** (1533-1592) edi. U o‘zining "Tajribalar" asarida sxolastikani tankid kilib, insonni eng buyuk kadriyat deb e’lon kiladi. Monten inson shaxsining Mustakilligi va erkinligi goyasini ilgari suradi. Uning ta’limoti individualizm,

riyokorlik ruxidagi karashlarga karshi yo'naltirilgan. U insonning Mustakil, erkin tafakkurini bo'guvchi lokaydlik, riyokorlik, taklid kilish xollarini kat'iyon koralaydi. Xudoga nisbatan u skeptik ya'ni shubxali munosabatda bo'ladi. SHuning uchun mutafakkir fikricha, xudoning inson faoliyatiga xech kanday alokasi yo'k, xudo bu kandaydir shaxssiz moxiyatdir. Montennining din erkinligi xakidagi fikri tarakkiy parvar axamiyatga ega. Uningcha, biron ta din boshka dinlar ustidan ustunlikka ega emasdir.

Monten gumanizmi xam naturalistik ruxi bilan ajralib turadi: inson tabiatning bir kismi, shuning uchun o'z xayotida ona-tabiat nimani o'rgatsa, shunga amal kilish kerak bo'ladi. Falsafa murabbiylik vazifasini bajaradi. U odamlarni to'g'ri, tabiiy ravishda xayotga yo'naltirishi kerakdir.

Monten goyalari falsafaning kelgusi rivojiga, xususan Bekon, Dekart, Gassendi ta'limotiga, fransuz ma'rifatparvarlari - Volter, Lanetrilar ta'limoti shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.³

Ingliz yozuvchisi va siyosatchisi Tomas Mor (1519-1577), italiyalik faylasuf va shoir Tomazo Kamponellalarning "Utopiya", "kuyosh shaxri" asarlarida xam gumanistik utopik sotsializm goya-konsepsiyalari aks ettirilgan edi.

Gumanizmdan farkli ravishda (inson ikkinchi Xudo) **reformatsiya**, insonning azaliy gunoxkorligi xakidagi goyani saklab koldi. Italiyada reformatrlik xarakati etakchisi **Djon Sovnarola** (1452-1498) edi. U cherkov tomonidan ta'kib kilinib, gulxanda yokib o'ldirilgan.

Reformatrlikning asosiy namoyandalari - nemis ruxoniysi **Martin Lyuter** (1483-1546), fransuz ruxoniysi **Djon Kalvin** (1509-1564) va **Tomas Myunser** (1490-1525) edilar.

Tomas Myunser reformatsiyaning xalkchil kanotiga boshchilik kildi. Uning xatti-xarakatlari dexkon urushiga aylandi.

Reformatsiyaning anik boshlangan sanasi Lyuter tomonidan Vittenburgdagi cherkov eshidiga indulgensiyalarni sotishga karshi karatilgan 95 ta tezis ilib ko'yilgan kun – **1517 yil 31 oktyabr** xisoblanadi. Martin Lyuter xukmdorlarga murojaat kilib, ularni zambaraklar tayyorlash, yo'llar kurish, ko'priklar bunyod etish va boshka ishlarga sarflanayotgan xarajatlarning ma'lum kismini yoshlar ta'lim-tarbiyasiga xam sarflashga chakirdi.

Uygonish davridagi madaniyat, ilm-fan, savdo-sotikning yanada yuksalishini ta'minlagan omillardan biri, bu shu davrda amalga oshirilgan buyuk geografik kashfiyotlar bo'ldi. Savdo-sotik, ishlab chikarish rivojlanib borayotgan Evropa shaxarlari bozorlariga SHark mollari betinim etkazilib, turilgan va bu munosabatlar savdo akliga katta daromadlar keltirgan. Ammo turklar Vizantiyani zabit etgach, SHark mamlakatlari bilan savdo-sotik alokalari kiyinlashdi, narx-navo ko'tarildi. Natijada Xindiston, arab mamlakatlari, Xitoy kabi mamlakatlarga olib boradigan dengiz yo'llarini kidirish avj oldi.

Olimlarning Er shar shaklida bo'lishi xakidagi taxminlari XV asrda sayyoxlarning kizikishini yanada oshirdi. Italiyalik olim, astronom **Polo Toskanelli** bu goyadan kelib chikib dunyo xaritasini tuzdi. Kartada Osiyo kit'asi Atlantika okeanining Garbiy kirgoklarida tasvirlangan bo'lib, olimning fikricha, Evropa ?ir?o?laridan doimo Garbga suzib, Xindistonga borish

mumkin bo‘lardi. Olim Er ekvatori uzunligini xato tasavvur kilib, 12 ming kilometrga yanglishgan. Keyinchalik bu xato-buyuk kashfiyotlarga olib keldi. XV asr oxirida Ispaniyada xam yangi savdo yo‘llarini kidirish kuchayadi. Ispaniya kiroli Ferdinand Xindistonga tomon Garbiy dengiz yo‘lini ochishni **Xristofor Kolumbga** (1451-1506) topshiradi. Palos portidan 1492-yili yozda Kolumb o‘zining 90 kishilik komandasini bilan uchta kemada dengizga chikadi. SHundan so‘ng xam Kolumb Garbga yana 3 marta sayoxat kiladi va Kuba, Gaitidan tashxari Karib dengizidagi ko‘plab orollarni kashf etadi. Lekin omad unga kulib bokmadi. U o‘zi izlagan Xindistonning oltin-boyliklarini topa olmadи.

Yangi kit‘a kashf kilinganini Kolumb umrining oxiriga kadar bilmagan. O‘zi kashf kilgan joylarni Xindiston, u erlarning axolisini esa "Xindular" deb ataydi. SHu sababdan Amerikaning ko‘plab tillarda so‘zlavshuvchi turli xalklari va kabilalarini adabiyotlarda "indeetslar" deb atash rasm bo‘lib ketgan. Kolumbdan keyin 1498 yili Garbiy tomonlarda sayoxatda bo‘lgan Amerigo Vispuchchi Kolumb kashf kilgan erlarning "yangi kit‘a" ekanligi xakidagi fikrlarini o‘z do‘sti, nemis kosmografi Voldemyullerga yozib yuborgan. Xuddi shu nemis olimining taklifi bilan yangi kit‘a Amerika deb atala boshlandi. Xristofor Kolumbning nomi Kolumbiya davlatiga, Amerika ko‘shma shtatlari okruglaridan biriga, ko‘plab shaxarlar, universitetlarga, shuningdek, tog, daryo va xatto fazoni tadkik etish loyixalariga xam ko‘ylgan.

Ispaniyaliklar tomonidan Amerikaning kashf kilinishi va uni Garbiy Xindiston deb atalishi ovozasi portugaliyaliklarni xam xarakatga solib ko‘yadi. Portugaliya kiroli Xindistonga boriladigan dengiz yo‘lini topish uchun **Vasko da Gama** boshchiligidida (1497-1499 yillar) ekspeditsiya jo‘natadi. Ekspeditsiya juda puxta tayyorgarlik ko‘radi. Vasko da Gama eng yaxshi kemalar, asboblar va xaritalar bilan ta’milanadi, ekspeditsiya tarkibidagi dengizchilar xam tajribali bo‘lganlar.

Safar boshlangandan to‘rt yarim oy o‘tgach, sayoxatchilar oxshi umid burnini aylanib o‘tib, Afrikaning SHarkiy soxiliga chikadilar. SHundan keyin Xind okeani bo‘ylab shimolga suzgan ekspeditsiya Mozambikning Molinda portiga keladi. Arab lotsmani Axmad ibn Majid yordamida portugaliyaliklar 1498 yilning may oyida 10 oylik sayoxatdan so‘ng Kalkutta shaxriga etib keldilar. Vasko da Gamani Xind rojasi kabul kiladi. Portugallar kemalarga ziravorlarni yuklab orkaga kaytadilar. Ikki yilga cho‘zilgan safar paytida dengizchilarning 2/3 kismi xalok bo‘ladi. Keltirilgan ziravorlardan ekspeditsiyani uyushtirishga sarflangan mablagga nisbatan xam 60 marta ortik foyda olinadi.

Amerigo Vespucchining Kolumb kashf kilgan erlarini yangi kit‘a ekanligi xakidagi taxmini **Ferdinand Magellan** 1519-1522 yillardagi dunyo bo‘ylab birinchi sayoxatida xam to‘la tasdiklandi. Yangi ochilgan erlardan mo‘ljaldagi boyliklarga erisha olmagan ispan xukmdorlari Ferdinand Magellanining Xindistonga tomon dengiz yo‘lini ochish loyixasini ko‘llab-kuvvatladilar.

Sayoxatning boshidayok juda ogir sinovlarni engib, 60 kunlik tinimsiz yomgurlardan so‘ng kemalar 1519 yil 13 dekabrda Rio de Jeneyro ko‘rfaziga

kiradi. Yana bir oylik sayoxatdan keyin xozirgi Urugvayning poytaxti Montevideo joylashgan erda to‘xtashadi. Bu joyning ikki okeanni boglovchi ko‘ltik ekanligi xakidagi faraz tasdiklanmadı.

Ko‘rfazdan bir oyga yakin suzgan kemalarning chap tomonidan doim Xindular gulxanlarining tutuni ko‘rinib turgan. Natijada dengizchilar bu erlarni "Olovli er" deb ataganlar. Okeanga chikkan kemalar shimolga karab suzishdi. To‘rt oy davomida xech kanday dovullarsiz olga yurildi. Okeanning ularga kilgan muruvvati evaziga sayoxatchilar uni "Tinch okean" deb atadilar. Nigoyat, 1521-yilning 6 martida ekspeditsiya a’zolari Marian arxipelagi orollaridan biriga tushadilar. O’n kundan so‘ng kemalar yakinlashgan arxipelag Ispaniya shaxzodasi, bo‘lajak kirol Filipp sharafiga Filippin deb ataldi. Xuddi shu orollarda ro‘y bergen bir vokea sayyoxlarning kilgan ishlari kanchalik buyuk ekanligini ko‘rsatdi. Magellaning kachonlardir Malay orollaridan olib chikib ketilgan xizmatkori Enrike maxalliy axoli bilan gaplashib, bir-birini tushunganlar. Demak, Enrike o‘z uyidan SHark tomonga chikib unga Garbdan kaytib keldi. 1521 yil 27 aprelda Magellan xalok bo‘ldi.

Magellan ekspeditsiyasidan San-luxorga kaytib kelgan "Viktoriya" kemasida 18 kishi kolgan edi. Dunyo bo‘ylab bиринчи sayoxat **Er shar shaklida ekanini uzul-kesil isbot kilib berdi**. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida erli axoli xakida ma’lumotlar ko‘paya bordi, ular jaxon savdo yo‘llarini butunlay o‘zgartirib yubordi. Er yuzi xalklari o‘rtasida iktisodiy va madaniy alokalar o‘rnatishga imkoniyat yaratildi.

Yangi kit’alarning kashf etilishi, dengiz yo‘llarining ochilishining ikkinchi tomoni xam borki, ushbu xakikatdan xam ko‘z yumib bo‘lmaydi: kashf etilgan kit’alardagi maxsulotlarni arzon narxlarda xarid kilish bilan cheklanmagan evropaliklar asta-sekin ularni tortib olishga, so‘ngra maxalliy xalklar xukuklarini cheklashga, xatto (ma’lum vakt o‘tgach) ulardan kul sifatida foydalanishga borib etdilar. SHu tarika, jaxonda irkiy kamsitish, millatchilik muammolari yangidan paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda xam dunyodagi demokratiya, tenglik, tinchlik va xamkorlik tarafdori bo‘lgan ko‘p sonli ilgor kuchlar birlashishga xamda sharmandali mustamlakachilik sistemasi tugdirgan barcha dolzarb muammolarni xamjixatlikda echish va bartaraf etishga bel boglaganlar.

3. Evropa Uygonish davrining daxolari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo va boshkalar.

Reformatsiya xristian dinidagi yangi okim – **protestantizmning** paydo bo‘lishiga olib keldi. Protestantizmning eng asosiy tamoyillaridan biri, bu xristian dinining dastlabki sofligiga erishish edi. O‘rta asrlardan buyon amal kilina boshlangan kator an’analar, urf-odatlar protestantlar tomonidan ortikcha va noto‘gri deb topildi. Ular xristian dinidan chetlanishga olib keladi, degan goya ilgari surildi. Jumladan, reformatsiya davrida aynan diniy mavzulardagi kator pesalar ta’kiklandi. Protestantizm ikonalarga siginishni xam koraladi. Ikonalarga siginish deyarli butlarga siginish bilan tenglashtirildi. Ammo protestantlar tasviriy san’atni unchalik koralamadilar. xaykaltaroshlik, tasviriy

san'at dunyoviy xarakterga ega bo'la bordi. Ularda diniy mavzular yakkaxokimligiga chek ko'yila boshlandi. SHu boisdan aynan Uygonish davrida san'at soxasida buyuk daxolar etishib chika boshladi.

Leonardo da Vinci. Florensiyalik Leonardo da Vinci (1452-1519) Italiyadagi Uygonish davri madaniyatining eng buyuk arbobi edi. U yoshligidan yaxshi bilim oldi. U buyuk olim, iste'dodli me'mor, muxandis va etuk rassom bo'lib etishdi.

San'atkoring eng unumli ijon yillari (1482-1490) Milanda kechdi. Uning loyixasi asosida Milan shaxrini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan katta kanal kurildi.

Leonardo da Vinci 1499 yilda Milandan Venetsiyaga va 1503 yilda esa Florensiyaga keladi. Bu erda u kanallar, uchar apparatlar loyixalarini chizadi. Olim, shuningdek, anotomiya, geologiya, gidroflika va mexanika soxalarida ilmiy tadkikotlar olib boradi. "**Monna Liza**" ("Djakonda") surati Leonardo da Vinchini butun dunyoga tanitdi. "Monna Liza" - yosh ayol portreti, xozirgi kunga kadar san'atning shu soxasidagi eng mashxur asaridir. Rassom bu suratda yosh ayolning tashki kiyofasinigina emas, balki uning ichki dunyosi, kechinmalari va kayfiyatini xam ajoyib, sirli tarzda aks etirgan.

Asarda ma'naviy va jismoniy go'zallik, individuallik va umuminsoniylik mutanosiblik, o'zaro muvofiklashuvlik katta maxorat bilan tasvirlangan. Bu noyob asar bundan 500 yil mukaddam yaratilganiga karamasdan, xanuzga kadar xam tasvirdagi timsol yuzasidan baxslar davom etib keladi. Ayrim mutaxassislar rassom asarda o'zini tasvirlaganini kayd etadilar. Tasviriy san'atda ma'lum soniyadagi, anik bir xolat tasvirlanadi. Ammo Leonardo da Vinci asarining o'ziga xosligi, xayratlanarli jixati shundaki, unda beixtiyor tomoshabinda ayol yuzidagi tabassum, uning nigoxi xar dakikada o'zgarib turibdi, degan fikr paydo bo'ladi.

Leonardo da Vinci ijodi shunisi bilan kimmatliki, u ijodda o'zini sinovchi, tajribachi sifatida namoyon kiladi. Ijod san'atkor uchun cheksiz izlanishlar yangidan-yangi muammolar echimini kidirishdan iborat edi. Tasvirdagi soyalar, ranglar xamoxangligi, xatto buyoklar tarkibi xam betnim kuzatishlar, tajribalar, sinovlar natijasida yuzaga kelardi. Odamlar xolatlarining, yuz ko'rinishlarining turli shakldagi chizmalari fikrimiz tasdigidir. Musavvir xar bir asarida kandaydir muammoning echimini kidirar edi. Aynan shu xususiyat Leonardo da Vinching olim va mutafakkirligi isboti bo'la oladi. Alloma o'ziga xos tafakkur tizimini ishlab chikdiki, natijada uning kator ilgor goyalari (samolyot, vertolyot va tank) keyingi davrlarda, xususan XIX-XX asrlarda ro'yobga chikdi.

Uygonish davrining buyuk arboblaridan yana biri, bu xaykaltarosh, rassom, me'mor, Garbiy muxandis va shoir **Mikelenjelo Buanarotti** (1475-1564 yillar) edi.

Mashxur rassomning Vatikandagi Sikstin kapellasidagi suratlari soni 700ga yakin bo'lib, u uzunligi 40, eni 13 va balandligi 20 metrli xonada chizilgan.

Mikelanjelo 4 yil davomida mashakkatli mexnat kilib, 1512 yil kapella, devoriy suratlarini tantanali ochishga tayyorlaydi. Uning xaykaltarosh sifatida

yaratgan eng buyuk ishlaridan biri - **David xaykali** edi. Marmartoshdan kilingan xaykalning balandligi 5,5 metr bo‘lib, zamondoshlari uni "gigant" deb atashgan. Mikelanjelo bu xaykal siy whole daxshatli maxlukni tosh bilan urib o‘ldirgan afsonaviy cho‘pon yigitni tasvirlagan. Florensiyaning markaziy maydoniga o‘rnatilgan David xaykali o‘sha vaktlardan buyon shaxarning xomiysi xisoblanib keladi.

Umrining oxirida Mikelanjelo me’morchilik bilan shugullanadi. Dastlabki loyixaga o‘zgarishlar kiritgan xolda u avliyo Petr cherkovi kurilishini nigoyasiga etkazadi.

Italiyaning buyuk rassomlaridan yana biri **Rafael Santi** (1483-1520 yillar) dir. U o‘zining kiska, lekin mazmunli umri davomida insonni, uning go‘zal kalbini, akl-zakovatini, oliyjanobligini tasvirlashga intildi.

Rafael Santi kichkina Urbino gersogligida saroy rassomi oilasida tugildi. U 1504 yili Florensiyaga keladi. SHu erda u o‘zining kator mashxur suratlari -"Madonna"larini chizadi. Oradan 4 yil o‘tib Rafael Santi Rimga boradi.

Rassom Rim papasi YULiy II ning buyurtmasiga binoan uning saroyidagi dam oladigan xonalarni bezashga kirishdi. Vatikanda ishslash bilan birga u kator tasviriy asarlar, portretlar chizadi. "**Madonna Alba**", "**Kursidagi Madonna**", "**Madonna difoli**", va nigoyat 1513-1514 yillari "**Sikstin madonnasi**"ini yaratadi. Rafael chizgan rasmlarning eng mashxuri bo‘lgan "Sikstin madonnasi" Italiyaning kichikrok shaxarlaridan biridagi Avliyo Sikstin monastiri uchun chizilgandi. Bu buyuk asar insonga goyat kuchli muxabbat ruxi bilan sugarilgan. Rassom unda odamlarning baxt saodati uchun o‘zining eng aziz va sevimli farzandini kurbon kila oladigan mard insonni-onani uluglaydi. "Injil"dan olingan bu saxna tasviri xozirgi kunda Germaniyaning Dresden shaxridagi rasmlar galereyasida saklanmokda.

Rimdagи avliyo Petr cherkovini loyixalashtirish va uning kurilishida ishtirot etishi, Santa Mariya Papasi cherkovini bezashda faollik ko‘rsatganiga xaramasdan Rafael ko‘prok tasviriy san’atda shuxrat kozondi.

Leonardodan farkli ravishda, Rafael o‘z davrining ijodkori edi. Uning asarlarida jumbokli, gayritabiyy xususiyatlар yo‘k. xamma narsa anik, yorkin, go‘zal va barkamol. U go‘zal kaxramonning ajoyib timsolini yaratadi. Rassomda shunday xayotiylik tamoyili kuchli. SHu boisdan xam uning "Madonna Konestibile" asarida iloxiylashtirilmagan, oddiy ayol go‘dak tomonidan varaklanayotgan kitobga tashlagan xolda tasvirlangan.

4. Tabiiy bilimlar va texnik tarakkiyot. N. Kopernik, D. Bruno, G. Galiley.

XVI-XVII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining tez yuksalishi pallasi boshlandi. Ishlab chixarish, jumladan, texnikaning o‘sishi ilmiy tarakkiyotga keng yo‘l ochdi. Tabiatdagi vokea-xodisalarning amaliy tomonlarini tadkik kilish tomon yo‘l tutildi.

Fizika fanining mexanika soxasi tez sur’atlar bilan rivojlandi. Buning sababi, avvalo san’atning ba’zi soxalarida oddiy mexanizmlardan foydalanila boshlaganligi, kurilish texnikasining takomillashuvi, chukur shaxtalarning paydo bo‘lishi, artilleriyaning yildan-yilga kengrok ko‘llanilishidir. XVI-XVII

asrlarda xunarmandchilik texnikasining rivojlanishi natijasida ko‘plab asbob- uskunalar ixtiro kilindi. Jumladan, mikroskop va teleskop, termometr, simobli barometr, gidrometrlar kashf kilindi.

Fandagi burilish eng avvalo, astronomiya soxasida ro‘y berdi. XVI asrga kadar Garbiy Evropada, shuningdek, SHark mamlakatlarida xam antik davrda yaratilgan **geotsentristik goya** xukmron edi (Beruniy kabi allomalar karashlari bundan mustasno). Unga ko‘ra koinot markazida doira shaklida xarakatsiz Er turadi. Erning atrofida ma’lum masofada Oy, kuyosh va boshka sayyoralar, yulduzli osmon aylanib turadi. Bu goyaning asosi Aristotel, Gipparx va Ptolemy davrlarida ishlab chikilgan edi.

Allomalar orasida koinot tuzilishi xakidagi yangi **geliotsentristik ta’limotni yaratgan ulug polyak olimi Nikolay Kopernik** faxrli, muxim o‘rin tutadi. Kopernik eng oddiy asboblar yordamida osmon jismlarini 30 yildan ko‘prok kuzatdi. Murakkab xisoblar yordamida olim Erning kuyosh atrofida xamda o‘z o‘zi atrofida aylanib turishini anikladi. YAngi ta’limot tufayli cherkov tomonidan ta’kib kilinishini oldindan sezgan Kopernik o‘z kashfiyotini uzok vakt sir tutdi. SHu sababli olimning "**Kul ustida ziyofat**", "**Koinot va dunyoning cheksizligi xakida**", "**Pegas siri**", "**Osmon jismlarining aylanishi xakida**" va boshka asarlari uning o‘limidan sal avvalrok nashr kilindi.

Kopernik kashfiyoti fanda katta o‘zgarish yasadi. Bu kashfiyot xristian cherkovining obro‘ va ta’siriga katta putur etkazdi.

Kopernik goyasining davomchilari katolik cherkovi tomonidan kuvgin kilina boshlandi. Xristian cherkovi tazyikining birinchi kurboni **Jordano Bruno** (1548-1600) bo‘ldi. U Kopernik ta’limotini rivojlantirib: "Koinotning chegarasi yo‘k. Olam bekiyos katta va cheksizdir", degan edi. Uning fikricha, Er xam koinotning markazi emas. "Olam son-sanoksiz yulduzlardan iborat bo‘lib, ularning xar biri bizdan uzokda turgan kuyoshdir. Mana shu kuyoshning xar kaysisi atrofida o‘zining aylanib turgan yo‘ldoshlari bor". Jordano Brunoning fikrlari xozirda fanda to‘lik tasdiklandi.

CHerkovning doimiy tazyiki olimning 16 yil davomida Fransiya, Germaniya, CHexiya singai mamlakatlarda safarda yurishga majbur kildi. O‘z vatanini soginib, Italiyaga ?aytgan olimni cherkov namoyandalari ushlab, o‘z goyalaridan kaytishga undadi. Birok u o‘z goya, e’tikodida sobit turdi. Sakkiz yil kamokdan so‘ng oxir-okibatda Jordano Bruno gulxanda yondirildi.

Katolik cherkovi mashxur astronom va fizik **G. Galileyni** (1564-1642 yil) xam butun xayoti davomida ta’kib kildi. Olim o‘zi kashf kilgan oddiy, 30 marta kattalashtirib ko‘rsatadigan teleskop yordamida ko‘plab yulduzlarni, oy ustidagi togga o‘xhash jismlarni, YUpiterning 4 ta yo‘ldoshini, Veneraning fazalarini, kuyosh doglarini kashf kildi.

Galileo Galiley o‘z asarlarida N.Kopernik va J.Bruno kashfiyotlarini to‘lik tasdikladi. Rim papasi 70 yoshli olimni inkvizatsiya sudiga berdi. Sud Galileyni o‘z goyalaridan voz kechishga majbur kildi. U umrining oxiriga kadar cherkov nazaratida ishladi.

Rim papasi Ioann Pavel II tomonidan 1979-1980 yillari Galileyni sud kilgan inkvizatsiya sudi xujjalari kayta ko'rib chikildi va olim gunoxsiz deb topildi. Katolik cherkovi o'zining ko'p sonli "xatolari"dan birini tan olishi uchun uch asrdan ko'prok vakt kerak bo'ldi.

SHunday kilib, XVI-XVII asrlarda ilmiy bilimlarning rivojlanishi Evropada sanoat va savdoni yuksalishiga imkon berdi.

¹N. Komilov Tafakkur karvonlari. – T., 1996. 73-bet.

²N. Komilov Tafakkur karvonlari. – T., 1996. 74-75 bet.

³kadimgi va o'rta asrlar Garbiy Evropa falsafasi. 185-bet.

Mustakil o'rganish uchun tavsiya etiladi: Reformatorlik xarakati.

Tayanch so'z va iboralar:

Uygonish davri, protestantizm, gumanistlar, reformatorlar, buyuk geografik kashfiyotlar, Petrarka, Bokachcho, Rable, T. Mor, Leonardo da Vinci, Mikelanjelo, Rafael, N. Kopernik, J. Bruno, Galiley.

Savol va topshiriklar:

1. Evropa Uygonishini yuzaga keltirgan omillar to'grisida tushunchalaringiz?
2. Italiya Uygonishining ilk namoyandalari – Dante va Petrarka ijodi xakida nimalarni bilasiz?
3. Uygonish davri madaniyatining muxim xususiyatlariga siz nimalarni nisbat berasiz?
4. Gumanist yozuvchilar ilgari surgan asosiy goyalar o'zida nimani aks ettirgan edi?
5. Evropada yuz bergan Remormatsiya xarakati va uning okibatlari kanday o'zgarishlarni yuzaga keltirdi?
6. Protestantizm okimi yuzasidan fikrlaringiz?
7. XIV-XV asrlar geografik kashfiyotlari evropaliklar uchun kanday buyuk o'zgarishlarni yuzaga chikardi?
8. Leonardo da Vinci ijodiga oid nimalarni bilasiz?
9. Mikelanjelo daxosi xususida nimalar deyaolasiz?
10. XV-XVI asrlar tabiatshunos olimlari ijodidagi muxim yutuklarni SHarklab bering.

Asosiy adabiyotlar:

1. Axmedova E., Gabidullin R. Kulturologiya – T.: Akademika xudojestv Uzbekistana, 2001.

2. Gukovskiy M. Leonardo da Vinci. Tvorcheskaya biografiya. - M.-L., 1967.
3. Iskusstva stran narodov mira. Ensiklopediya. – M., 1956-1978.
4. Kultura epoxi Vozrojdeniya. - M., 1986.
5. Rafael i ego vremya. Otv.red. L.S. Chikochini – M.: 1986.
6. Silichev D. Kulturologiya. Uchebnoe posobie dlya VUZov. – M.; Prior, 1998.
7. Rashkova R.T. Vatikan i sovremennoy kultura. – M.: Politizdat., 1998.
8. Sulaymanova F. SHark va Garb. – T.: O‘zbekiston, 1997.

Ko‘shimcha adabiyotlar:

1. Vostok i Zapad. Issledovaniya. Perevody. Publikatsii. – M.: Nauka, 1982.
2. Kniga i sotsialnyy progress. – M.: 1986.
3. Ocherki istorii iskusstva.- M.: 1987.

TEXNOGEN MADANIYAT

Reja:

1. XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik goyalari. Demokratik jamiyat ilk ustkurmalarining shakllanishi.
 2. Sanoat to'ntarilishi va ilmiy-texnikaviy yutuklar.
 3. Me'morchilik va san'atda klassitsizm, barokko va sentimentalizm uslublari.
 4. Adabiyot va tasviriy san'atda romantizm, realizm, impressionizm va postipressionizm.
 5. Ommaviy madaniyat.
1. XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik goyalari. Demokratik jamiyatning ilk ustkurmalarining shakllanishi.

Uygonish davri madaniyati yaratgan asosiy kadriyatlar keyingi asrlar Evropa madaniyati asosini belgiladi. XVIII asrdagi "ma'rifatparvarlik" goyalarining tarkalishi va sanoat inkilobining boshlanishi pirovardida madaniyatning yuksak texnikaviy yutuklariga olib keldi.

Xo'sh "ma'rifat" o'zi nima?

Ma'rifatning lugaviy ma'nosи bu - bilish, tanish, ya'ni bilim demakdir. Bu so'zning ko'plik ma'nosи maorifdir. Atama sifatida u tabiat, jamiyat va inson moxiyati xakidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuini bildiradi. Ma'rifat bilim va madaniyatning uygunlashgan mazmunidir.

SHu o'rinda "ma'rifatparvarlik" jumlasiga xam ta'rif berib o'tsak. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchisiga o'tishi avvalo ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaviy etuk, ongli, yurtim deb yashovchi, uzokni ko'zlovchi ma'naviyatli fidoyi siymolar tabiatan ma'rifatparvar bo'ladilar. Jamiyatning bugungi va kelajagi uchun muxim goyalarni ko'tarib chikadilar va ularni amalga oshirish uchun izchil kurash olib boradilar.

XVIII asrda katolik cherkovi absolyutizmni va barcha feodal tartiblarni ximoya kilar, xalk orasida bu tartiblar xudo tomonidan o'rnatilgan, degan ko'r-ko'rona ishonchni mustaxkamlashga intilar edi. Birok ilgor yozuvchilar, olimlar ilm-fan va maorifni denga karama-karshi ko'yar, o'sib kelayotgan burjuaziya bilan xalk manfaatlarini ximoya kilardilar. Ijtimoiy fikrning bu yo'nalishi "Ma'rifat" deb ataldi, uning vakillari esa tarixga XVIII asr ma'rifatparvarlari nomi bilan kirdilar. Barcha baxtsizlik va noxaklikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga, fakat ma'rifatgina xalk va uning ideali "Ozodlik, Tenglik, xardoshlik"ni o'rnatishga kodir ekanligiga ma'rifatparvarlar chukur ishonganlar. XVIII asr ma'rifatparvarlari ilgor goyalarni ilgari surib, umrini yashab bo'lgan tartiblarni bekor kilish va yangi zamonaviy tartiblarni joriy

kilish sari kurashga otlanganlar. Bu borada XVIII asr ma'rifatparvarlaridan Volter, Russo, Mele, Didrolar faoliyatları benazirdir.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida faoliyat yuritgan Simon Poyutskiy, Fedor Rtihev, Silvestr Medvedev, Saltikov kabi bir kator ma'rifatparvarlar, o'z xarashlarida dexkonlar, xunarmandlar manfaatlari va kayfiyatlarini aks ettirdilar.

Xususan ularning goyalari XVIII asr ma'rifatparvarlarining jamiyat xayotiga oid demokratik tamoyillarni ishlab chikishlarida muxim poydevor bo'lib xizmat kildi.

Ma'rifatparvarlar jamiyatdagi tartiblarni ijobiy tomonga o'zgartirishni, jumladan:

1. absolyut monarxiyaning bedodligini cheklash;
2. katolik cherkovi, ya'ni dinning jamiyat siyosiy va madaniy xayotiga ta'sirini zaiflashtirish va kerak bo'lsa butunlay yo'kotish;
3. ijtimoiy, iktisodiy, madaniy xayotning rivojlanishiga to'sik bo'lib kelayotgan feodal tartiblarni bekor kilish;
4. insonlarning barcha tabakalarining teng xukukli bo'lishini (ya'ni saylash, saylanish va shu kabilarda);
5. demokratik tamoyillarga ko'ra xalkning mamlakatni idora etilishida ishtirok etishi va shu kabi maksadlarni amalga oshirishni o'z oldilariga maksad kilib ko'ygandilar.

SHuningdek, XVIII asr ma'rifatparvarlari xalk ommasining yalpi saylov xukuki parlament boshkaruvi va respublika tuzumi uchun, demokratik xukuklar va erkinliklar uchun faol xarakatda bo'ldilar.

1751 yildan boshlab yozuvchi va faylasuf Deni Didro (1713-1784) tashabbusi bilan ko'plab marifatparvarlar ko'p tomlı "Fan, san'at va xunarmandchilik ensiklopediyasi"ni tayyorlash va nashr etish bilan shukullana boshladı. Ensiklopediya mualliflari orasida Volter, Russo singari tanikli siymolar bor edi. Ular o'z zamonining ilmiy bilimlari va ilgor goyalarini bayon etish va ularga tartib berish borasida tinimsiz izlanishlarda bo'ldilar.

Ensiklopediyadan matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geografiya va turli ishlab chixarish soxalari va texnologiyalariga oid kizikarli maxolalar o'rın olgan edi. Unda sanoat buyumlari yasash, kishlok xo'jaligini yuritishning ilgor usullari bat afsil tasvirlangan edi. Bu esa mamlakat ishlab chixaruvchi kuchlarini rivojlantirish tomon keng imkoniyatlar ochib berrdi.

Ensiklopediya mualliflari butun insoniyat faoliyatiga din emas, balki akl-idrok, ma'rifat va ilm-fan asos bo'lishi kerakligini chukur asoslاب berdilar. SHu bilan birga ensiklopedistlar xususiy mulkchilik, soxibkorlikni ximoya kildilar, kishlok xo'jaligi, sanoat va savdo-sotik yo'liga zid xamma to'ganoklarning olib tashlanishini talab kildilar. Ular millat, ya'ni butun fransuz jamiyatni tabakalarga bo'lingan "fukarolar"idan emas, balki konun oldida teng xukuklar va teng majburiyatlarga ega fukarolardan iborat bo'lishi kerak, deb ta'kidladi-

lar. Xullas mazkur ensiklopediya fransuz ma'rifatparvarlarining ilgor ilmiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkurining eng yorkin yodgorligi bo'lib koldi.

2. Sanoat to'ntarilishi va ilmiy texnikaviy yutuklar.

XVIII-XIX asrlar sanoat, fan-texnika soxasida muxim yangiliklar davri bo'ldi. Jumladan, bu davrda ilmiy bilimlar jamiyat tafakkurining butunlay yangi sifat darajasiga ko'tarildi.

Evropa va SHimoliy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida XIX asr o'rtalarida industrlashtirish yoki sanoat burilishi nigoyasiga etdi. Manfaatdorlikning madaniyatdagi belgilovchi o'rni fan va texnika tarakkiyotiga yangi turtki berdi. Bug va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, kimyo soxalarida ajoyib kashfiyotlarga boy bo'lgan bu davr, shubxasiz insoniyat madaniyatini yangi boskichga ko'tardi. P.Sorokin iborasi bilan aytganda, fakat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o'zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning xammasini jamlagandan xam ko'prok bo'ldi. Xususan, bu asrdagi 248527tadan ziyod kashfiyot makon, zamon va materiya ustidan texnika xukmronligining cheksiz o'sganligidan dalolatdir.

Tabiat, inson, madaniyat kabi tushunchalar talkini sezilarli o'zgardi. Tabiat material va energiyaning bitmas-tuganmas manbai, universal omborxonasiga aylanib koldi. XIX asr insonga koinot sardori, barcha narsalarning tojdori yorligini berdi.

XVIII asrning oxirlariga kelib Angliyada ip-yigiruv mashinalaridan, mexanik to'kuv dastgoxlaridan keng foydalanila boshlandi. SHuningdek, bug mashinalari o'rnatilgan fabrikalar kurila boshlandi. Bu jarayon fan-texnika inkilobining yuz bera boshlanganligiga muxim ishora edi.

To'kuv dastgoxining takomillashuvi sanoat to'ntarilishiga asos bo'lgan muxim ixtirolardan biri bo'ldi. 1733 yilda Jon Keynning uchar moki ixtiro kilganligi, mexnat unumdarligini ikki barobar oshirdi, 1765 yillarda Jeyms Xargrifsning "Jenni" deb atalgan charxni kashf kilishi yigiruv mexnati unumdarligining 18-20 barobar oshishiga sabab bo'ldi. 1784 yilda Ednunt Kartrayt tomonidan mexanik to'kuv dastgoxining ixtiro kilinishi mexnat unumdarligini 40 barobarga oshirish imkonini berdi. Natijada ishlab chixarilayotgan maxsulotlar sifati yaxshilandi va tannarxi arzonlashdi.

Ish mexanizmi, ya'ni mashinaning inson ko'l mexnatiga o'rin koldirmay xom ashyoni bevosita o'zi ishlashga o'tishi sanoat to'ntarishining boshlanishi bo'ldi. Ip-gazlama ishlab chixarishning tez kengayishi muxim axamiyatga ega bo'ldi. XVIII asrning oxirlarida paxta tozalash mashinasi ixtiro kilindi.

XIX asrning boshlarida Fransuz injeneri Jakkard yaratgan to'kuv dastgoxida rangli iplarni turlicha joylashtirish yo'li bilan turli guldor gazlamalar tayyorlash mumkin bo'lib koldi. So'ngra chitga gul bosish jarayoni mexanizatsiyalashtirildi. Bunda chitni silindirik vallar orasidan o'tkazish yo'li bilan bo'yash usuli topildi va bunday dastgoxlar o'rnatilgan fabrikalar ko'plab paydo bo'ldi. Natijada manufakturadan fabrika ishlab chixarishiga o'tilganligi sanoat to'ntarishining asosiy mazmuni bo'ldi.

Metall ishlab chixarish va unga ishlov berish takomillashib bordi. XVIII asrda Angliyada toshko‘mir yordamida cho‘yan, keyinrok temirni ko‘plab ishlab chixarish muammosi xal etildi. 1795 yilda Kort cho‘yan tarkibidagi uglerodni kuydirish uchun, erib turgan cho‘yanga koks aralashtirish yo‘li bilan sof temir ishlab chixarish usulini joriy kildi.

XIX asrning 60-yillarida Fransuz injeneri Martin cho‘yanni temir aralashmasida yoki po‘lat parchalari va shlak aralashmasida kayta kuyish yo‘li bilan po‘lat olinadigan pech kurdi. Undan sal oldinrok, ya’ni XIX asrning 50-yillarida Bessener cho‘yanni po‘latga yoki temirga aylantirish uchun ichida olovbardosh gisht terilgan juda katta aylanma konveyr tuzilmasini yaratdi.

Sanoat to‘ntarishi jarayonida turli asboblar va mashinalar yaratish, relsli yo‘llar, paroxodlar va shu singarilarni kurish uchun asosiy materiallar sifatida temir va po‘latdan foydalanish muxim o‘rin tutdi.

Jeyms Uatt bug mashinasini yaratdi. Bug mashinasining ixtiro kilinishi fabrika va zavodlargagina emas, balki transport uchun xam yangi dvigatel yaratilishiga olib keldi. Bug mashinasi asosiy dvigatel bo‘lib koldi. XIX asr tarixga temir va bug asri bo‘lib kirdi. O’sha vaktlarda bug mashinasidan katnov uchun foydalanish to‘grisida fikrlar paydo bo‘ldi. SHunday kilib, dastlab tosh yo‘llardan yuradigan parovozlar kurildi, ammo ular yaroksiz bo‘lib chikdi. Parovozlar XIX asrda amaliy ravishda ko‘llanila boshlandi. Endi ular temir izlardan yura boshladidi. 1814 yilda Jorj Stefanson soatiga 10 km tezlikda 8 ta vagonni tortib yuradigan birinchi parovozni yarattdi. XIX asrning 20-yillaridan e’tiboran temir yo‘llar kurila boshlandi. 1830 yilda jaxonda 332 km temir yo‘l bo‘lib ularning katta kismi Angliyaga to‘gri kelar edi. 1870 yilga kelib 200 ming km temir yo‘l kurilgan edi.

Bug mashinasini kemaga o‘rnatib va eshkakli charxlar bilan ta’minlab, undan suvda katnash uchun foydalanish mumkin edi. 1807 yilda mexanik Robert Fulton Amerikada eshkakli charxлari bo‘lgan birinchi paroxodni kurib, sinab ko‘rdi. XIX asrning 20-yillariga kelib bug mashinalari bilan xarakatga keltiradigan kildirakli daryo paroxodlaridan keng foydalanila boshlandi. XIX asrning 30-yillari oxirlaridan kildirakli parxodlar okean orkali Xindiston va Amerikaga katnay boshlagan. Keyinchalik kildiraklar o‘rnini eshkak vintlar egalladi. XIX asrning 50-60 yillarida Garb mamlakatlarida elkanli dengiz floti o‘z o‘rnini paroxodlarga bo‘shatib berdi. Parovozlar va poroxodlarning paydo bo‘lishi shubxasiz savdo-sotikning tarakkii etishiga sabab bo‘ldi.

XIX asrning 80-yillaridayok fransuz o‘kuvchilari aka-uka Mongolfe issik xavo bilan to‘ldirilgan xavo sharida parvoz kildilar. Keyinchalik Parijda vodorod bilan to‘ldirilgan aerostatlar sinovdan o‘tkazildi. SHu bilan birga aerostatdan sakrash uchun parashyut xam ixtiro kilindi. Bu xavo sharlari va aerostatlar xozirgi kundagi zamonaviy samolyotlarning dastlabki avlodini edi.

Aloka vositalari xam takomillashib bordi. Kadim zamonlardan ma’lum bo‘lgan optik topograf o‘rniga endilikda elektr simli telegraf tarkaldi. Morze alifbosi ixtiro kilindi va bosuvchi kurilma yaratildi. XIX asrning o‘rtalariga kelib kuruklikdagi telegraf liniyalaridan tashkari suv osti kabellari xam yotkizila

boshlandi. Angliyadan Amerikaga Atlantika okeani tubi orkali dastlabki telegraf kabeli XIX asrning 60-yillari oxirida o'tkazilgan edi.

Yangi texnikalarning kashf etilishi yokilgiga bo'lgan talabning oshib borishiga sabab bo'ldi. Natijada XIX asrning o'rtalarida neftdan kerosin ishlab chikarishda foydalanila boshlandi. XIX asrning 60-yillar oxirlarida dastlabki ichki yonuv dvigatellari ixtiro kilindi, ammo ulardan amalda foydalanish XIX asrning 70-yillariga to'g'ri keldi.

Manufakturalar va fabrikalarning rivojlanishi bilan mexnat kurollarini doimo takomillashtirish extiyoji ortib bordi. Tez xarakatlanadigan mashinalarning kuriishi ko'priklar, temir yo'llarning barpo etilishi murakkab va anik xisob-kitoblarni talab kilardi. Buni esa yangi matematik tenglamalarni xal etmasdan amalga oshirib bo'lmadi. Turli materiallarning puxtaligi va boshka xossalarni o'rganish, vaktni, predmetlarning xajmini, masofani anikrok o'lichash talab etilardi. Texnikani rivojlantirish uchun ilm-fan axamiyatiga talab oshib bordi.

XVI va XVIII asrlarda tegirmon va soat singari mexanizmlarni takomillashtirish vaktida matematika va mexanikaning ko'pgina vazifalari xal etildi.

Mashxur ingлиз олими I.Nyuton va nemis олими G.Leybnits XVII-XVIII asrlarda xozirgi zamon oliy matematikasiga asos soldilar. Nyuton kashf kilgan va ta'riflab bergen mexanika va optika konunlari fan va texnikaning ko'pgina vazifalarini xal etish uchun asos bo'lib xizmat kildi. Nyutonning eng asosiy xizmatlaridan biri, bu butun dunyo tortilish konunini kashf kilganligidir.

XIX asrda matematikaning ko'pgina amaliy va nazariy masalalari yangidan xal etilib, ishlab chikildi. Atogli rus олими N.I.Lobachevskiy geometriyaning "noevklid" sistemasini tuzish imkonini isbotladi va birinchi bor uning puxta variantlaridan birini yaratdi.

XVIII asrda rus олими M.V.Lomonosov tajribalar yo'li bilan yonish va boshka kimyoviy xodisalar paytida moddaning umumiy vazni o'zgarmasligi, yo'k narsadan modda vujudga kelmasligini isbotladi. U o'z amaliy tajribalari asosida materiyaning saklanish konunini kashf etdi.

D.Joul, R.Moyer, A.Levengun, E.Kenner, CH.Darvin kabi olimlar xam astronomiya, fizika, meditsina, biologiya kabi fanlarning rivojiga o'z tajribalari va kashfiyotlari bilan o'zlarining bebaxo xissalarini ko'shdilar.

XIX asrning 50-60-yillarida mashinalarning o'zini mashina yordamida ishlab chixarishning rivojlanishi, fabrikalarning ishlab chixarishi uchun mustaxkam texnik baza yaratdi. Ushbu yangiliklar sanoat to'ntarishining tugallanishi bo'ldi. Umuman texnika muvaffakiyatları XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asrda mexnat unumdorligini goyatda oshirish imkonini berdi.

3. Me'morchilik va san'atda klassitsizm, barokko, sentimentalizm uslublari.

Ma'lumki, me'morchilik jamiyat xayotida, ayniksa davlat mikyosiga molik xashamatli binolar kurilishida katta axamiyatga egadir. Kapitalizm davrida fan va texnikada ko'lga kiritgan yutuklar katta binolarni, baxaybat ko'priklarni va boshka inshootlarni tezrok kurish imkonini berdi. Me'morchilikda ayniksa klassitsizm, barokko, sentimentalizm uslublari keng ko'llanildi.

XVII–XVIII asrning birinchi yarmi me'morchiligidagi dvoryanlarning klassik va barokko uslubi xukmronlik kilgan edi. **Klassitsizm** erkinlik, ixchamlik, akllilikni talab etgan. Bu uslubda simmetriya, chiziklar barobarligi asosiy o'rinni egallaydi. Masalan Parij janubi-Garbida, undan 23 km uzoklikda joylashgan Versal kasri va uning saroylarini Xindistonning Tojmaxali kiyosan solishtirish mumkin. Garchand xar ikkala xashamatli binolar SHark va Garbning o'ziga xos sivilizatsiyasiga mansub bo'lsada, ular boburiylar va burbonlar sulolalari davrining noyob san'at va me'morchilik asarlaridir. Versal saroylarining mutanosib ustunlari, peshayvonlari o'z to'gri chiziklari bilan kadimgi Rim klassik uslubidagi binolarni eslatadi. Bu binolar me'morchilikda dvoryanlar klassitsizmiga misol bo'la oladi. Bu uslub Fransiyada ancha vaktgacha saklanib koldi. Undan Angliyada xam keng foydalanildi (masalan, Londondagi avliyo Pavel sobori).

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida Evropaning bir kator mamlakatlarida, ayniksa Gollandiya, Germaniya va Polshada boshkacha uslub tarkib topdi. U erlarda juda ko'p gumbazlari va karnizlari, ortikcha xashamlari, tokcha va buyumlari, xaykal bezaklari bilan ajralib turuvchi dabdabali memorchilik namunalari-saroylar va cherkovlar kurildi. Bu arxitektura uslubi barokko nomi bilan mashxurdir.

Barokko uslubb XVI asrning oxirida Italiyada vujudga keldi. U "Galati, garoyib, ajoyib" ma'nosini anglatadi. Bu uslub zamirida sabrlilik, dinamizm, yukori emotsiyonallik va ulugvorlik ko'rinishlari aks etadi.

Nemis knyazlarining ko'pgina saroylari va kasrlari, soborlar va monastirlar barokko uslubida kurilgan. Polsha, Ukraina va Rossiyada xam barokko me'morchiligi o'ziga xos belgilari bilan alovida nafosat va go'zallik kashf etadi. Masalan, Venadagi katta darvoza, SHenburun saroyi va boshkalar shular jumlasidandir.

Sanoat to'ntarishi san'atning barcha turlariga, shu jumladan, me'morchilikka xam o'z ta'sirini ko'rsatmay xolmadi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab fabrika ishlab chixarishi va katta shaxarlarning rivojlanishi bilan boglik xolda ularning kuriishi yangi materiallardan, ayniksa temir va po'latdan foydalanila boshlandi. Yangi tipdagi inshootlar-vokzallar, temir ko'priklar, birja va banklar, yirik magazinlar, ko'rgazma binolari, uy-joy binolari, yangi teatrlar, muzeylar, kutubxonalar paydo bo'ldi.

XIX asr o'rtalarida Fransiyada **ikkinchi imperiya uslubi**, Angliyada **Viktoriya uslubi** nomini olgan me'morchilik vujudga keldi. Bu uslub klassitsizmdan chekinish va undan ilgarigi davrlarning turli uslublarining ko'shilib ketishi natijasi edi. Unda ganchkorlik xashamadorlik keng o'rin egallagan xamda xaykallar tasvirida egri-bugri tarxlar paydo bo'lган. Angliya va boshka mamlakatlarda o'rta asrlar **gotikasi** uslubiga taklid kilish kuchayib ketdi. Bu uslub asosida Parijdagi Grant opera teatri va Londonning me'moriy kiyofasini belgilab turuvchi Parlament yangi binosi kurilgan.

XVIII asrning boshlarida o'z uslubiy shakliga ega bo'lmagan yangi **sentimentalizm** vujudga keldi. Sentimentalizm okimi insonning ichki xis tuykulari dunyosiga qaratilgan edi.

XIX asr birinchi yarmida xaykaltaroshlikda klassitsizm uslubi rivojlandi. Bu davrning mashxur xaykaltaroshlaridan—italiyalik Antonio Kanovaning (1757-1822) "Papa Kliment XIII ning kabr toshi", "Amur va Psixeya" va va daniyalik Bertel Torvaldsenning (1770-1844) "YAsan" va shu kabi asarlari mazkur uslubning go'zal namunalari bo'la oladi. Bu xaykallarda antik davr unsurlaridan ijodiy foydalilanilgan xolda inson tasvirini ideallashtirishga xarakat kilinganligi yakkol ko'zga tashlanadi.

4. Adabiyot va tasviriy san'atda romantizm, realizm, impressionizm va postimperessionizm.

Ma'lumki, badiiy adabiyot odamlarning xarashlariga va yurish-turishlariga, binobarin jamiyatning butun xayotiga xam juda katta ta'sir ko'rsatadi. Binobarin bu davrda yaratilgan badiiy obrazlar, xatto fantastik, xayoliy obrazlarda xam vokelikning biror xususiyatini bevosita va bilvosita aks etishi tabiiy xol edi.

Feodalizm va absolyut monarxiya sharoitida badiiy adabiyotda dvoryanlar va saroy zodagonlari didi va karashlari xukm surar edi.

SHu bois ko'pgina ilgor yozuvchilar o'z asarlarida absolyut monarxiya zo'ravonligini dadillik bilan fosh kildilar, jamiyatni krepostnoylik va rasmiy din zanjiridan kutkarish yo'lida kurashdilar. Ular burjua ma'rifatparvarlari izidan borib xalkni xususiy mulkka va odamlar xak-xukulkari tengligiga, savdo va sanoat erkinligiga asoslanuvchi jamiyatni yaratishga da'vat etdilar. Ulardan biri, XVII asrning oxiri va XVIII asr birinchi yarmida yashagan mashxur ingлиз yozuvchisi Daniel Defo bo'lib, u ilgor kishilarning ta'kib kilinishini koralar, ingлиз aristokratlarining takabburligi ustidan kular edi. SHu bois u ma'murlar ta'kibiga uchradi. Ular Defoni uch marta sharmandalarcha ustunga boglab ko'yishdi. Lekin bundan uning shuxrati ortdi, xolos.

Defoni butun dunyoga tanitgan asarlardan biri bu - "Robinzon Kruzo" romanidir.

Asarning asosiy mazmuni kuyidagicha: romanda bir matros kema xalokatidan keyin Janubiy Amerika soxilidagi odam oyogi etmagan orolda bir necha yil yashaydi. Romanning eng muxim jixati shundaki, unda yangi erlarni kidirish va kashf etish, inson mexnati, tabiatni o'zlashtirishdagi uning jasorati va kat'iyati, xavf-xatarlarga karshi dovyuraklik bilan kurashishi goyalari sharaflanadi. Robinzon sarguzashtlari tajriba va bilimning, tadbirkorlikning axamiyatini to'la kuch bilan namoyon etadi.

O'sha davr muammolari bilan xamnafas bo'lib yashagan va o'zining bebaxo asarlari orkali jaxon adabiyoti rivojiga katta xissa ko'shgan, XVIII asrning birinchi yarmida yashagan yana bir buyuk ingлиз adibi Jonatan Sviftdir. Uning asarlarida Irlandiyaning ezilishini koralanadi va xalkni ozodlik kurashi olib borishga da'vat etiladi. Adib Angliyada katoliklarning jabrlanish xollariga xam keskin xarshi chikadi.

YOzuvchining 1726 yilda yozilgan "Gulliverning sayoxatlari" romani unga katta shuxrat keltirdi. Bu asarda u o'z kaxramonining liliputlar xuzuriga, devsifatlar davlatiga, uchar orolga va xaroyib xayvonlar mamlakatiga

afsonaviy sayoxatlarini tasvirlash yo‘li bilan o‘z zamonidagi jamiyat illatlarini fosh kiladi. Jamiyatda xukm surgan kibru zo‘ravonlik ochko‘zlik va shubxalanish,adolatsizlik va mojarolar tasviri orkali ingliz podshoxligi saroyining jirkanch xususiyatlari aks ettiriladi. Romanda sulolaviy urushlar kulgi ostiga olinadi. Laputa uchuvchi orolidagi fanlar akademiyasi xakidagi xikoyada xayotdan ajralib kolgan fanlar ustidan kulinadi. Romanning oxirgi kismidagi ochko‘z va jirkanch, ammo odamlarga o‘xshaydigan afsonaviy maxluklar xayotda uchraydigan odamlarning aynan nusxalarini eslatadi.

Svift romanda yolgonchilik, ikkiyuzlamachilik, zulm va politsiya ta’kiblarining murosasiz dushmani sifatida maydonga chikadi. Birok u o‘z davrining tor, bigik chegaralaridan to‘la chika olmay, asarlarida jamiyatni rivojlantirishning ijobiy dasturini to‘la ko‘rsatib bera olmadi. Umuman Swift asarlari chukur mazmuni va jiddiy muammolari bilan ajralib turadi.

XIX asr boshlarida Evropada **romantizm** nomini olgan badiiy yo‘nalish paydo bo‘ldi. Bu davrda jamiyatning turli tabakalari orasida ishonchsizlik va konikmaslik xissi sezila boshlandi. Va’da kilingan "akl xukumronligi", tenglik va adolat o‘rniga, kalloblik, kapitalistlar tomonidan ishchilarni ayovsiz ekspluatatsiya kilish, kashshoklik kuchayib bormokda edi. Bunday sharoitda romantika o‘z san‘atining asosiy mazmuni kilib insonning ma’naviy ?iyofasini tanladi. SHu bois bu davr ijodkorlari shaxs erkinligi yo‘lidagi kurashni mad? etishdi. Ular e’tiborini insonlarning kuchli, bo‘ysunmaslik xarakteri o‘ziga ko‘prok jalb etgan edi. Romantiklarning tipik kaxramonlari – bu jamiyat turmush tarziga xarshi borayotgan va kuchli irodali bo‘ysunmas insonlardir. Jorj Bayron asaridagi Kain va CHayld Garold, Adam Mitsikevich asaridagi Konrad Vallenord shunday kaxramonlar sarasiga kiradi. Bu davrning yana bir xarakterli jixati shundaki, yozuvchi va rassomlar ko‘prok tarixga (avvalo o‘rtasrlarga), ertaklar, afsonalarga murojat kilishib asarlar yaratdilar. SHuningdek romantizm vakillari tarixiy drama va tarixiy romanlarni yaratdilar (Viktor Gyugo, Valter Skott, Aleksandr Dyuma va b.)

1766-1822 yillarda yashagan Ernest Teodor Amadey Gofman yozuvchi – romantiklar orasida asosiy o‘rin tutadi. Gofman o‘zi yashayotgan zamonasining ichki tuzilmasi barxaror emasligini xis kildi shu bois fakatgina fantastika xakikiy xayotni oolib berishi mumkin deb xisoblaydi. Gofman ertaklarining badiiy olami farishtalar, sexrgarlar ajdoxolar bilan boyitilgan. Ular mavjud odamlar–amaldorlar, savdogarlar, bozor ayollari, talabalar bilan birgalikda aks ettirilgan. Gorman asarlaridagi vokealar birdaniga bir necha rejadagi (yo‘nalishda)–xayotiy, xakikiy va uydirma, fantastik tarzda ro‘y berishi mumkin. Asarda fantastikaning ko‘llanishi xakikiy xayotning zerikarli va tubanligidan chekinish emas, balki, uning ichki kirralarini aks ettirishdir. Masalan mushuk Murrning xayotiy xarashlari shu ruxda tasvirlangan. Uning izdoshlari Edgar Po, Frans Kafke, Gogol va Dostoevskiy ijodlari xam bu xarashdan xarakterlidir.

XVIII asrning 70-yillaridayo? Germaniyada "**Tugyon va shiddat**" nomini olgan adabiy okim vujudga keladi. Ushbu xarakatning atogli vakillaridan biri-shoir va dramaturg Fridrix SHillerdir. Uning ko‘plab asarlari ma’lum.

SHulardan SHillerning "Vilgelm Tell" dramasida shvetsar xalk kaxramonini, uning mamlakatni Avstriya zulmidan ozod kilish va Mustakilligi yo'lidagi kurashi tarannum etiladi. Uning "Orlean kizi" dramasi fransuz xalkining jasur kizi, ozodlik kurashi kaxramoni Janna D'arkka bagishlangan. SHiller insonning shon-shavkati uchun mutassil kurashdi. "Mexr va muxabbat" dramasida buzuki, zodagon bekorchilarning fitnalari, tajovuzkorliklari yosh kiz va uning sevgan yigitini falokatga olib kelishi xollari tasvirlanadi. Uning asarlari bugunda xam jaxonning ko'plab davlatlari teatrлari saxnalarida namoyish etilib kelinmokda.

Jamiyat xayotini chukur o'rganish, undagi illatlarni fosh etish, xayotni xakkoniy tarzda tasvirlashga intilish Garbda XIX asrning 30-yillariga kelib adabiyot va san'at soxalarida "Tankidiy realizm" okimini yuzaga keltirdi.

XIX asr birinchi yarmida Fransiyadagi tankidiy realizmning yirik vakili Onore de Balzak (1799-1850) bo'ldi. Balzak minglab obrazlar yaratdi. Uning bexisob roman, povestlari umumiy "Inson komediysi" nomi bilan mashxurdir. Balzak burjuaziyaning ochko'zligiga nafrat bilan xarab, aristokratiya vakilarining pastkashligi, xudbinligi, takabburligini ayovsiz fosh etdi. U boylik ketidan kuvish insonning barcha tuykularini poymol kilishini yakkol ko'rsata bildi (Gorio ota romani va x.k). Balzak kapitalizm sharoitida pulning inson ustidan xokim ekanligini xam goyatda ustamonlik bilan tasvirlab berdi. Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida buyuk fransuz dramaturgi, ajoyib komediya teatrining asosochisi Jan Batist Moler pesalari adabiyotda ilgor burjuaziya goyalari xalkchilligining yorkin ifodasi bo'ldi.

Xalkka yakinlik Molerga kuvnok xalk komediysi an'analarini singdirib, uni rivojlantirish imkonini berdi. Uning pesalarida muallifga zamondosh va oddiy tilda gaplashuvchi turli guruxlarga mansub kishilar timsoli ifodalanadi. U dvoryanlarning bema'ni xayotini zo'r maxorat bilan fosh kildi. "Dvoryanlikdagi meshchan" pesasida kuyi tabaka vakili, xar kanday yo'l bilan bo'lsada, dvoryanga o'xshashga intiluvchi kishi ustidan kulinadi.

U "Don Juan" komediyasida biror narsani mukaddas deb bilmaydigan ashaddiy xudbin va buzuki obrazini saxnada ko'rsatadi. Bu pesa xuzur-xalovat orkasidan kuvib, xech kimning takdirini o'ylamaydigan bekorchi dvoryanlar xakida yozilgan o'tkir satira bo'ldi. "Xasis" komediyasida mol-dunyo yigish yo'lida butun insoniy tuykulardan maxrum bo'lgan nigoyatda kizganchik Garpagoning betakror obrazi tasvirlangan.

Molerning "Tartyuf" nomli mashxur komediyasi cherkov aklining riyokorligi va ikkiyuzlamachiligiga xarshi xaratilgandir. Komediya juda katta fosh kilish kuchiga ega bo'lib, bunda Tartyuf ikkiyuzlamachi kishilar timsoliga aylanib xoladi.

Evropaning shoir va yozuvchilari singari Rossiyaning barcha muammolari A.S.Pushkin M.YU.Lermontov lirkasi va nasriy asarlarida, Nekrasovning she'r va poemalarida, N.V.Gogolning saxna uchun mo'ljallangan xajviy asarlarida, I.Krilovning masallarida, I.S.Turgenevning ixcham prozasi, F.M.Dostoevskiy va L.Tolstoyning chukur falsafiy, fojiali povest va romanlarida o'z aksini topdi.

Osiyo, Afrika mamlakatlarining adabiyoti yangi tarixning birinchi davrida o‘rtalashtirishda asoslangan jamiyatning kamchiliklarini aks ettirdi. XIX asr boshlarida Xitoyda Li Fush Jen yozgan "Ko‘zgudagi gullar" romanida feodal jamiyatdagi xitoy ayollarining axvoli tasvirlangan. Taypin galayoni davrida ko‘plab galayon ishtirokchilarining she’rlari nashr kilindi. Xindistonda Mittro yozgan "Indigo ko‘zgusi" asarida ingliz mustamlakachilarining zulmlari, Xind dexkonlarining ogir kulfatlari ochib tashlangan.

Umuman XVIII–XIX asrda ijod kilgan yozuvchilar o‘z asarlari bilan jaxon adabiyoti xazinasini yanada boyitdilar.

XVII–XVIII asrlardagi jamiyat tarakkiyoti tasviriy san’atda xam o‘z aksini topdi. Unda diniy yo‘nalishlar ozrok bo‘lib, dabdabali, rasmiy va jozibali saroy san’atiga keng o‘rin berilgan. kadimgi Rim tarixi va mifologiyasidan olingan mavzular, kirollar va sarkardalarning portretlari, jang manzaralari bunda asosoy o‘rin tutadi. Fransiyada burjuaziyaning dvoryanlarga karshi jiddiy siyosiy kurashi tasviriy san’atda xam o‘z aksini topdi. SHubxasiz bu davrda Fransiya tasviriy san’ati etakchi o‘rin egallagan bo‘lib, kadimgi Gretsya va Rim davrining respublika uchun olib borgan kurash kaxramonliklari bu davr rassomlari asarlarida yangicha tus oldi. Ma’rifatparvarlik davri, buyuk fransuz inkilobi vokealari, ma’rifatparvarlar portretlari, tarixiy vokealar rassomlar tanlagan bosh mavzularni tashkil kilar edi. Ularning asarlarida dvoryanlar, xristian dini peshvolari bilan bir katorda xalk ichidan chikkan o‘rtalashtirishda mansub kishilarning xayoti, faoliyati va obrazlari ko‘prok o‘rin egallay boshladi. Rasmlar o‘sib, rivojlanib kelayotgan o‘rtalashtirishda tabaka vakillari xarashlariga mos keladigan syujetlar asosida chizilib, bu ilgor tabakaning eskilik va absolyutizmga xarshi kurashini anik bo‘yoklar asosida tasvirlagan edi. Bundan tashxari rassomlar uchinchi toifadagi real odamlarning obrazlari aks ettirilgan rasmlarni xam yarata boshladilar. Tasviriy san’atda bu yo‘nalishning atogli vakili Jak Lui David bo‘ldi. U "Goratsiylar kasami" rasmini yaratdi. Rasm o‘z farzandlariga respublika dushmanlariga karshi jangga borish oldidan ok fotixa berayotgan ota kiyofasini aks ettiradi. SHu jumladan, uning "Maratning o‘limi" asari xam mashxurdir. "Ko‘kat sotuvchi" rasmida xalk orasidan chikkan ayol tasvirlanadi. Bu rasmlar san’atda realizm sari tashlangan muxim kadam bo‘ldi.

Fransuz rassomi Ejen Delakrua tasviriy san’atda romantizmning tanikli vakili bo‘ldi. U 1830 yilgi "Iyul inkilobi" nomli mashxur rasmida barrikadada xalkni jangga ruxlantirayotgan go‘zal va dovyurak ayol timsolida inkilob obrazini yaratdi.

Realizm tomon burilish, milliy ozodlik kurashi kaxramonligini tasvirlash, cherkov xurofotini fosh kilish, XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida yashagan buyuk ispan rassomi Fransisko Goyya ijodi uchun xarakterlidir.

Goyyaning ijodiy uslubi nigoyatda o‘ziga xos edi. Masalan, u kirov buyurtmasiga binoan uning oilasining guruxiy portretini chizadi. Ularning kiyimlari, bezaklari saroy san’atiga xos tarzda tasvirlangan bo‘lsada, Goyya kirov kiyofasini undagi xunuk belgilari bilan, kirolichaning yokimsiz, takabbur va joxil basharisini dadil va realistik tarzda aks ettirdi.

Ayni vaktda Goyya Ispaniyaning oddiy kishilariga bagishlangan o‘z rasmlarida xalkning jismoniy va ma’naviy go‘zalligini zo‘r muxabbat bilan chizgan. U ispan ayollarini xuddi shu tarzda magrur, xushchakchak, nazokatli kilib yaratdi. "Ko‘zgolonchilarni otish", "Zo‘r jasorat!" va boshka rasmlar xalkparvarlik, vatanparvarlik goyalari ruxi bilan sugarilgan.

"Xios orolidagi kirkin" rasmida orol axolisining greklar ko‘zgoloni vaktida turk ko‘shinlari tomonidan kirgin kilinishi manzarasi tasvirlangan. Uning asarlaridagi erkin bo‘yoklar, yangilikka intilish, xurfikrlik xar bir rasmga o‘ziga xos joziba baxsh etadi. Delakruaning yana "Dante va Vergiliy", "Barrikadalardagi ozodlik", "Aljazoirlik ayollar" kabi asarlari xam mashxurdir.

Rakono. Bu uslub o‘zining engilligi, notejisligi, to‘gri chiziklarning simmetriyasi yo‘kligi bilan xarakterlanadi.

Bu usul rassomga bezash masalalarini xal kilishda ko‘l kelgan. Arxitekturada intererni rejalashtirishda va bezashda, tasviriy san’atda xam rakono uslubi muvaffakkiyatli ko‘llanilgan.

Tasvirda rakonoga yakin uslubda fransuz rassomlari Vatto va SHardenlar ijod kilishgan.

Impressionizm rassomchilikning ming yillik ananalariga nukta ko‘ydi. Ular birinchilardan bo‘lib abstraksionizmga kadam ko‘ydi. Rassomlar **real shakl va ranglardan voz kechib, o‘z taassurotlarini chizish bilan cheklandilar**. Impressionistlar ko‘prok o‘z dikkatini tasvirlash imkoniyatlariga xaratdilar. Bu ular yo‘nalishining dasturiy talabi emas balki, fakatgina ularning shaxsiy tushunchalari xam edi. Ular odamni yoki tabiat ko‘rinishini tasvirlashda rasmni asl nusxaga anik o‘xhashi emas, balki uning shakli va rangini saklagan xolda ko‘prok chiziklarini tasvirlashga xarakat kilganlar.

Yangi yo‘nalishning ilk vakili Eduard Mane (1832-1883) ("o‘tlok ustidagi nonushta", "Olimpiya") lekin, impressionizm o‘zining yuksak yutuklari uchun Mane bilan bir vaktda ijod kilgan Mone, Renuar, Dega, va Pissarro kabi o‘z kasbining ustalaridan minatdor bo‘lishi kerak. Birinchi impressionistik rasmning birinchi namunasi, bu Klod Mone (1840-1926)ning 1874 yilda yaratgan "Taasurot", "kuyosh chikishi" polotnosi xisoblanadi. Bu polotno nomini ("Impression"—taassurot), Kamil Pissarro (1831-1903), Alfred Sisley (1839-1899), keyinrok Ogyust Renuar (1841-1919) kabi rassomlar guruxiga nisbatan ko‘llay boshlashdi. Mone chizgan rasmida sof optik obraz nozik nur sochib suvdan ko‘kga ko‘tarilayotgan kuyosh tasvirlangan. SHubxasiz, Mone ko‘rish bobida ixtirochi, geniy bo‘lgan. U nur va rang nisbatini, boshkalar ungacha ilgamagan uygunligini ko‘ra olgan. Impressionistlar tabiatning tez o‘zgarayotgan xolatini tasvirlay olishgan. Monening "Parijdagi Kaputsinalar bulvari" va Pissarroning "Monmartr bulvari" polotnolari o‘tgan asrdagi eng yaxshi shaxar manzaralari xisoblanadi. Ogyust Renuar tasvirlagan go‘zal va maftunkor ayollar modellari, kam uchraydigan ranglar sofligi bilan odamlar ko‘zini kuvontiradi. Edgar Dega (1834-1917) odatda teatr saxnasi, poygalarni tasvirlagan. U xayotdagи ta’sirchan, dinamik laxzalarni ilgay olgan. Uning rakkosalari, jokey va otlari xarakatda bir laxzaga to‘xtaganday ko‘rinadi "YULduz", "Moviy rakkosalar" va sh.k.).

XIX asr 80 yillarga kelib impressionalizm yo‘nalish sifatida o‘zining barcha tasvirlash imkoniyatlarini namoyon kilib bo‘ldi va endilikda uning o‘rniga impressionistlarning tasodifiy va laxzalik tasvirlariga javoban **eksimpressionalizm** paydo bo‘ldi. **Postimpressionistlar** rassom tassurotlari va kechirmalariga karshi o‘larok tasvir jarayoniga falsafiy yondoshdilar. Vinsent Van Gog (1852-1890) va Pol Gogen (1848-1903) kabi yorkin rassomlar paydo bo‘ldi. V.Van Gogning "Dexkon kiz", "Edoki kartofelya" rasmlarida oddiy odamlar xissiyotlari chukur aks ettirilgan.

O‘z zamonasining burjua katlamlariga bo‘lgan nafrati natijasida Gogen Okeaniya orollarida yashab, o‘sha joydagি sivilizatsiyadan yirok, ananaviy xayot tarzini orginal tasvirlovchi rasmlar yaratgan. Bular jumlasiga "Meva ushlagan ayol" "kirol rafikasi" kabi mashxur asarlarni nisbat berish mumkin. Xuddi shu davrda Done, Mille, Brulov. A.I.Ivanov va boshka rassomlar xam barakali ijod kildilar.

5. Ommaviy madaniyat.

XIX asr o‘rtalarida fan va texnika tarakkiyoti natijasida ommaviy madaniyatning axamiyati oshib bordi. Zamonaviy madaniyatning xolisona taxlili shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy madaniyat ko‘prok ommaviylik mazmunini kasb etib boradi. Ommaviy madaniyatning manzarasi kuyidagicha:

1. U millati, yoshi, yashash joyi, ijtimoiy xususiyatlariga boglik bo‘lmagan ommaviy iste’molchilarga ega bo‘ladi;
2. Bu madaniyat namunalarini yaratish jarayonining o‘zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko‘rinishini o‘zida namoyon kiladi. Bunda yuz minglab kishilar band bo‘lib ularning "matbuot kiroli", "Buyuk shou tomoshachilar", kino, TV, estrada yulduzлari bo‘ladi. Ommaviy madaniyat umumiyligi iste’molchilik extiyoji bilan boglik. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi— matbuot, radio, kino, kitob chop etish va nusxa ko‘chirish-bularning barchasi jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish ommaviy ma’daniyatning tezlik bilan rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Ommaviy madaniyat shou, triller kabi o‘ziga xos janrlar yaratdi. Ularning umumiyligi moxiyat-individualizm, zo‘ravonlik, ayrim xollarda goyaviy yo‘nalishlarda o‘zini ko‘rsatishdan iborat. Ommaviy madaniyatning chegarasi "yulduz"larni kashf etish bilan tugaydi. Bunda sun’iy ravishda yozuvchilar, rassomlar, musikachilar, aktyorlar bir-birlari bilan o‘zaro boglanadi.

XVIII-XIX asrlar davomida ommaviy madaniyat turlari ancha rivojlandi. Teatrлar, gazeta va kitob nashrlari, musika, tasviriy san’at, kino san’atlari yangi davrga kadam ko‘ydi.

Teatrлarda o‘sha davr muammo va yutuklari, sarguzasht va ishkiy muxabbat asarlari namoyish etilib, xalk kalbiga yanada yakinrok bo‘lib bordi.

XVIII-XIX asrlarda teatr ommaning eng sevimli ko‘ngil ochar va ma’naviy xordik oladigan maskanlaridan biriga aylandi. Teatr bilan bir katorda XIX asrning ikkinchi yarmida ovozsiz kinofilmlar paydo bo‘ldi. xozirda xam mashxur bo‘lgan Charli Chaplin kabi buyuk kino aktyorlar kashf etildi va tomoshabinlar kalbidan o‘rin oldi.

O'sha davrlarda nashr etilgan gazeta-jurnallar va kitoblarda ommani kiziktiradigan siyosiy, iktisodiy, madaniy jarayonlar xakida so'z yuritildi. Ayniksa gazetalar ommani o'sha davr dunyo yangiliklari bilan tanishtiruvchi muxim vosita bo'lgan.

SHu o'rinda musika xakida xam to'xtalib o'tishi joiz bo'ladi. kadim zamonlardan beri musika jamiyat xayotida muxim o'rin egallab keladi. U mexnat maromida, xalk ko'shiklari va rakslari davomida vujudga kelgan. Musika insonning xis-tuykulari va kayfiyatini-kuvonchi va ijodiy zavkini, xursandchilik va xamginligini ifodalay oladi. San'atning boshka turlari kabi u fanlar o'rtasida xam munosabatlар vositasi bo'lib xizmat kiladi.

Kadim zamonlarda musika avloddan-avlodga xotira orkali o'tardi. o'rta asrlarda esa nota xati vujudga kelib, ko'pgina musika asrlari yozib olindi. Musika soxasining rivojlanishiga katta xissa ko'shgan buyuk san'atkorlar sirasiga Avstriya bastakori, Vena klassik maktabi asoschisi Wolfgang Motsart (1756-1791), ulug nemis bastakori Lyudvig Betxoven (1770-1827), mashxur italiyan bastakorilari Joakkino Rossini (1792-1868), Juzeppe Verdi (1813-1901), buyuk rus bastakorlari: Mixail Iv.Glinka (1804-1857), Aleksandr Borodin (1833-1887), Modest Petr.Musogorskiy (1839-1881), Petr CHaykovskiy (1840-1893) Nikolay Andr.Rimskiy Korsakov (1844-1908) va boshka shu singari buyuklar nomlarnini tilga olib o'tish joizdir.

Betxoven ijodiga mansub 3 (kaxramonlik), 5 va 9 simfoniyalar, "Egmont", "Leonora" uvertyuralari, 10 ta sonatalari 119 chi kontatasni, Motsartning "Don Juan", "Figaro to'yi", "Sexrli Fleyt", Rossining "Sevilya sartaroshi", "Vilgelm Tell", "Italiyalik ayol Jazoirda", "Otello", "Semiramida" operalari (uning ijodi cho'kkilari), Verdining "Aida", "Otello", "Rigoletta" operalari, "Trubadur", "Traviati", "Bal-makarad" asarlari-bular Evropa musika san'atining go'zal shox asarlari sirasiga kiradi. Ularda yuksak insoniylik, sevgi-muxabbat va boshka oljanob tuykular, ma'rifatparvarlik goyalari kuylanadi.

SHu o'rinda mashxur venger bastakori, pianisti, dirijori Ferens List (1811-1886) pianinochilikda yangi yo'nalishga asos soldi, fortapyanoga orkestr oxangdorligini baxsh etdi. Budapestdagagi musika akademiyasining dastlabki asoschilaridan (1875) va birinchi prezidenti bo'ldi. U 13 ta bir kismli simfonik poemalar muallifi, fortapyanano va orkestr uchun 2 ta konsert soxibi, "Sayoxatchi albomi", "Jaxongashtalik yillari" sikllari va 19 ta venger rapsodiyalari ijodkoridir.

YAna bir iste'dodli italiyan skripchisi (Gijjakchi) va bastakori Nikolo Pagonini (1782-1840) ijodi xam olamshumul axamiyatga molikdir. U xakli ravishda musikalı romantizm asoschilaridan biridir. U gijjakchilardan biri bo'lib, yakka ovoz va soz uchun yozilgan 24 ta saxna asarini yoddan saxnada ijod etgan, 32ta skripka va orkestr uchun konsert yaratgan daxo san'atkordir. Uning nomi Milan, Vena Parij va boshka shaxarlar tomoshabinlari tilidan ko'p vaktalar tushmagan "Napoleon" kaxramonlik sonatasi ijrochisi. Uni Fransuz kirollik Akademiyasi yakdillik bilan o'z a'zosi etib saylanganligi fakti xam uning shon-shuxratidan dalolatdir.

Nemis bastakori, organisti Logan Bax (1685-1750) xam musika madaniyatining turli janrlarida etuk asarlar yaratgan. Romantizmga kadar bo'lgan so'nggi davrlarning deyarli barchasi asosiy okimlari musika uslublari yutuklarni umumlashtirgan. Uning "Matfeyaga extiroslar" oratoriysi va fortapyano uchun yozilagn "Klavirdagi temp (tez sur'ati)" nomli xamgin ruxdagi shox musika asarlari bor.

Buyuk rus bastakorlaridan Mixail Glinka rus klassik musikasi asosochisi xisoblanadi. "Ivan Susanin" (1831) "Ruslan va Lyudmila" (1842) operalari, "Kamarinskaya", "Ispan uvertyuralari", ko'plab simfonik asarlar muallifi xamdir. U rus romansining birinchi klassigi xisoblanadi. Musogorskiyning "Boris Godunov" musikali dramasi, "Sarochin yarmarkasi" operasi, "kuyoshsiz", "Mangulik" ko'shiki va rakslari, "Bolalik" va boshka siklli musika asarlari-bular uning ijodining serkirraligidan dalolat beradi.

SHuningdek bastakor va ayni chogda tanikli kamyogar olim A.Borodinning "Knyaz Igor" operasi xam mashxur san'at asarlardan xisoblanadi. P.CHaykovskiy-bastakor, simfonist, dramaturg sifatida jaxonshumul shuxrat kozongan. Uning "Evgeniy Onegin" (1878), "Mazape" (1883) operalari, "Uykudagi go'zal", "Ok kush ko'li" balet-dramatik asarlari mavjud. Dunyoga mashxur oltita simfoniyasi, "Manfred" simfoniyasi, "Romeo va Julietta" asarlari bastakor nomini abadiylikka muxrlagan.

Rimskiy-Korsakovdan 15 ta opera, dramatik asarlar keyinga avlodlarga meros bo'lib kolgan. Bular - "May kechasi", "Sadko", "Mangu Kashey", "Podsho kayligi", "Oltin xo'rozcha", "SHaxrizoda" asarlari romanslari, orkestr uchun yaratgan uvertyuralari va boshkalardir. Polyak bastakori Friderek SHopen (1810-1849) ijodi xam o'zining orginalligi, fantaziya boyligi, mazmundorligi, oxangdorligi bilan ajralib turadi. Uning xalkchil, vatanparvar, romantik ijodi Polsha musikasiga jaxoni shuxrat keltirdi. U ayniksa fortapyano o'yinining tasviri texnik imkoniyatlarni kengaytirdi, xalk raksi shakllarini musikaviy oxang bilan yanada boyitdi. Uning sonatalari, balladalari, etyudlari, ashulalari o'z xayotiyligi, jozibadorligi bilan kishi xavasi, kizikishini xamisha maftun etib keladi.

Mustakil o'rghanish uchun tavsiya etiladi: XVIII-XIX asrlarda badiiy adabiyot, tasviriy san'at va musika.

Tayanch so'z va iboralar:

Ma'rifatparvarlik goyalari, demokratiya, "tugyon va shiddat" okimi, sanoat to'ntarilishi, transport soxasidagi yutuklar, realizm, romantizm, barokko, klassitsizm, sentementalizm, impressionizm, postimpressionizm, ommaviy madaniyat.

Savol va topshiriklar:

1. Ma'rifatparvarlik goyalarining maydonga kelishining asosiy omillari nimada?

2. Fransuz ma'rifatparvarlari ilgari surgan ulugvor goyalar kanday maksadlarga yo'nalgan edi?
3. Evropada sanoat to'ntarishi kanday yuz berdi?
4. Texnika soxasida muxim ixtiro, kashfiyotlar kilgan ulug kashfiyotchilar nomini sanab o'ting.
5. XVIII-XIX asrlarda ilm-fan soxasida shuxrat kozongan buyuk olimlar sirasiga kimlarni nisbat berish mumkin?
6. Evropa me'morchiligi uslublari xakida tushuncha bering.
7. XVIII asr ingiliz adabiyotining mashxur namoyandalari sirasiga kimlar nomini kiritса bo'ladi?
8. XVIII-XIX asr fransuz adibi Onore Balzak ijodi xususida nimalar deya olasiz?
9. XVII-XVIII asrlar Evropa tasviriy san'atidagi impressionizm va post impressionizm okimlari ijodini siz kanday baxolaysiz?
10. Ommaviy madaniyat tushunchasini ta'riflab bering.
11. XVIII-XIX asrlarda yashab o'tgan Evropaning buyuk bastakorlari xakida fikrlaringiz

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdunabiev A. Vklad v mirovuyu sivilizatsiyu. - T.: O'zbekiston, 1998.
2. Abduxolikov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. - T.: Fan, 1992.
3. Axmedova E., Gabidullin R. Kulturologiya. - T.: 2001.
4. Iskusstvo stran narodov mira. Ensiklopediya. - M.: 1956-1978.
5. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. Gulmetov va boshkalar - T.: DITAF, 2000.

Ko'shimcha adabiyotlar:

1. Antichnoe nasledie v kulture. Vozrojdeniya. - M.: 1994.
2. Sulaymonova F. SHark va Garb. - T.: Fan, 1991.

XX asr jaxon madaniyati.

Reja:

1. XX asrda fan va texnika soxsidagi kashfiyotlar, fan-texnika inkilobi.

XX asr madaniyati, uning rivojlanishi yo'llari xususida gap borar ekan, bunda shuni aloxida ta'kidlash joizki, bu davrda yuz bergan ko'lamli ijobiy o'zgarishlar zamirida turli mintakalar, mamlakatlar, elatlar va millatlar ijodkorligi, ularning yaratuvchan saloxiyatining o'zaro uygunlashuvi, mantikan boglanib, bir-birlarini boyitib, to'ldirib borishi yakkol ko'zga tashlanadi.

Sivilizatsion jarayonlarning bu tarzda yakinlashuvi, globallashuvi xamda jadallahuvi, tabiiyki, kishilik ma'naviyatining barcha soxalarida, xususan ilm-urfon, fan-texnika, texnologiyalar, kommunikatsiyalar tizimi soxalarining tezkor rivojlanishida sezilarli iz koldirdi, albatta. XX asr ilmiy-texnika tarakkiyotida juda ko'plab ob'ektiv omillar aloxida o'rinn tutadi. Birinchidan, bu soxaning muammolari turli mamlakatlarda faoliyat yuritgan, ilmiy maktablar yaratgan, muxim ilmiy kashfiyotlar kilgan daxo allomalar, fan fidoyilarining ijodiy xamkorligi, sa'y-xarakatlari tufayli o'z echimini topganligi shubxasiz. Ikkinchidan, ijtimoiy tarakkiyotning avval erishgan darajasi, chunonchi, XIX asr davomida yuz bergan sanoat inkilobi, ilm-fan soxasidagi muxim kashfiyotlar, ularning samaralari aloxida o'rinn tutganligi anikdir. Aytaylik, bug va yonilgi bilan xarakatlanadagan mashinalar, elektr nurlari, radio va radio alokalarning ixtiro kilinishi va boshka kashfiyotlar-bular XX asr ilmu fani, texnika va texnologiyasi oldida yangi ufklar ochib berdi. XX asr ilm-fani va texnika fikri, uning saloxiyatli, tinim bilmas fidoyilari avvalgi asrlarning mana shu tajribasiga tayanib, yangi asrning yuksak talablari, xayotiy extiyojlaridan kelib chikib, bu borada mislsiz yangiliklarni yaratib bordilar. Ayniksa fizika, matematika, kimyo, biologiya, tibbiyat, geologiya, genetika, kibernetika, texnika, elektronika, informatika, kosmogoniya, mikrobiologiya va boshka soxalarda yaratilgan kashfiyotlar, konuniyatlar-bular inson akl-zakovati, bilimi, iktidori va kobiliyatining teranligi, chegara bilmasligidan dalolat beradi.

XX asr ilm-fani to'grisida gap borganda, avvalo, jaxon fani yuksalishi, ilmiy-texnika inkilobining yuzaga kelib, chukurlashib borishiga jiddiy ulush kushgan Per Kyuri, Jolio Kyuri (Fransiya), Mariya Kyuri Skladovskaya (Polsha), A. Eynshteyn (Germaniya — AKSH). Nils Bor (Daniya), Rezerford (Angliya), A.Nobel (SHvetsiya), I.Pavlov, P.Vavilov, I.V.Kurchatov, S.Korolev, N.V.Keldish, (Rossiya) singari jaxonshumul olimlar nomini tilga olib o'tish joiz bo'ladi. Bular jumlasiga XX asr fani rivojiga benigoya katta ulush ko'shgan V.Vernadskiy (biokimyoviy radionologiya asoschisi), N.Basov, V.Proxorov (kvant elektrodinamikasi asoschilari), N.Semyonov (Kimyoviy fizika asoschisi). A.Saxarov, L.Feoktistov (atomchi olimlari), V.Leontov (iktisodchi olim) kabi Nobel sovrindorlari nomlarini xam nisbat berish mumkin.

Ularning jasoratga boy ijodiy mexnatlari, izlanishlari natijasida butun er shari kiyofasini o‘zgartirish, boyitish, odamlar turmush tarzini takomillashtirishga xizmat kiladigan ko‘plab dunyoviy kashfiyotlar yuzaga keldi. Endilikda ularning samaralarini kishilik xayotining turli-tuman soxalarida ko‘rish, yuksak kulay xizmatidan baxramand bo‘lish mumkin bo‘lib koldi.

Xozirgi zamon fanining muxim yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan ko‘plab ilmiy maktablar vujudga keldi. Ular orasida Fransiyalik Kyurilar maktabi aloxida ajralib turadi. Tanikli fizik Per Kyuri va Mariya Kyuri Skladovskayalar XX asr boshlarida radioaktivlik nazariyasiga asos soldilar. Ular xamkorlikda poloniy, radiy moddalarini ochdilar, radioaktivlik nurlarini tadkik etdilar, "radioaktivlik" atamasini fanga kiritdilar. xar ikkala olim fizika faniga ko‘sghan xissalari uchun 1903 yilda eng oliv mukofot — Nobel¹ sovrindorlari bo‘ldilar. Ularning izdoshlari Jolio Kyuri va Iren Kyurilar xamkorlikda sun’iy radioaktivlikva pozitron radioaktivlikni kashf etdilar.

Mashxur nemis olimi A.Eynshteyn (1879—1955) fanda inkilobiy o‘zgarish yasab, nisbiylik nazariyasiga asos soldi. U ayni cho?da yoruxlikning kvant nazariyasi buyicha ko‘plab, fundamental asarlar muallifi xamdir. xozirgi zamon fizikasining yirik namoyondasi Ernest Rezerford (1871-1937) radioaktivlik va atom tuzilishi to‘grisidagi ta’limot asoschilaridandir. U XX asr boshlarida mashxur alfa va beta nurlarini kashf etdi va ularning tabiatini aniklab berdi. 1911 yilda atomning planetariy modulini yaratdi. 1919 yilda birinchi sun’iy yadro reaksiyasini amalga oshirdi. U 1921 yildayok neytronning mavjudligini ilmiy bashorat eta oldi. U jaxonning juda ko‘plab fiziklari uchun ilmiy maktab sanalgan Kvandesh laboratoriyasiga asos soldi. Bu laboratoriya jaxon fiziklarini o‘ziga jalb kilgan yirik ilmiy markazdir. Undan ko‘plab mashxur fizik olimlar etishib chikkan.

Daniyalik mashxur fizik Nils Bor (1885—1962) xozirgi zamon nazariy fizikasi asoschilaridan. U atom nazariyasini yaratgan. Uning asosiy asarlari-metallar nazariyasi, atom yadrosi va yadro reaksiyasi masalalariga bagishlangan. Ingliz astronomi Artur Stenli (1882-1944) nomi xam mashxurdir. Uning fundamental asarlari yulduzlarning ichki tuzilishi va evolyusiyasi nazariyasi, nisbiylik nazariyasi masalalariga bagishlangan. Angliyalik Fizik olim Sesil Pauell (1903-1969) yadroviy fotografik emulsiyalar metodikasini yaratdi. U Evropada yadro tadkikotlari markazini tuzish tashabbuschilaridan biri bo‘ldi.

SHvetsiyalik fizik olim Wolfgang Pauli (1900—1958) kvant mexanikasi va maydonining relyativ kvant nazariyasi yaratuvchilaridan bo‘ldi. Uning asarlari ko‘prok nisbiylik nazariyasi, yadroviy kuchlarning mezon nazariyasi masalalariga bagishlangan. Italiya fizika maktabi asoschisi Enriko Fermi (1901 — 1958) yadro va neytron fizika asoschilaridan biri xisoblanadi. U kvant statistikasi, beta parchalanish nazariyasini ishlab chikkan. U birinchi bo‘lib yadro reaktorini kurdi va unda zanjirli yadro reaksiyasini amalga oshirdi.

Rus fizika maktabi va uning buyuk xizmatlari to‘grisida xam aloxida to‘xtalib o‘tmoklik joizdir. Nobel sovrindori Petr Kapitsa (1894—1986) kuyi temperaturalar va kuchli magnit maydonlari fizikasi asoschilaridan. U suyuk geliyning o‘ta tez o‘tkazuvchanligini kashf etdi. Olim o‘zi yaratgan maxsus

asbob yordamida xavoning yonish usulini kashf etdi. Yana bir atogli olim, Nobel sovrindori Lev Landau (1908—1968) nazariy fizikaning ko‘plab soxalari: magnitizm, tez okuvchan va tez o‘tkazuvchan kattik jismli fizika, atom yadrosi, plazmalarning elementar zarrachalari kvant elektron dinamikasi, astrofizika va boshkalar bo‘yicha fundamental asarlar muallifi va ko‘plab yangi goyalar ijodkoridir. Tengi yo‘k olim K.Siolkovskiy (1857—1935)ning aero va raketa dinamikasi, samolyot va dirijabl nazariyasi soxalaridagi kashfiyotlari jaxonga mashxurdir. U xakli ravishda xozirgi zamon kosmonavtikasi otasi sanaladi. Uning maktabiga mansub Sergey Korolyov (1906 — 1966)ning raketa kурilishi va kosmonavtika soxalaridagi kashfiyotlari butun dunyoda e’tirof topgan. Er farzandi Yuriy Gagarinning birinchi bo‘lib, kosmosga uchishi va boshka ko‘plab kosmonavtlarning koinotga parvozi, sobik sovet kosmonavtikasining katta yutuklari shu mashxur olim nomi bilan uzviy boglikdir. Akademik Igor Kurchatov (1903—1960) sobik SSSR davlati atom fani va texnikasining ilk asoschilaridandir. Uning bevosita raxbarligida Evropada birinchi yadro reaktori kurildi. 1954 yilda atom energiyasidan tinch maksadlarda foydalaniladigan atom elektr stansiyasi kurilib ishga tushirildi.

Mashxur fiziolog olim Ivan Pavlov (1844—1936) oliy nerv faoliyati to‘grisidagi ta’limotga asos soldi. U kon aylanishi va ovkat xazm kilish fiziologiyasi bo‘yicha klassik asar yaratdi. xozirgi zamon genetika fani asoschilaridan Nikolay Vavilov (1887 — 1943)ning madaniy o‘simgiliklar turini o‘rganish, ularning muxim konuniyatlarini kashf etishdagagi xizmatlari bekiyosdir. U xozirgi davr seleksiyasi biologik asoslari va madaniy o‘simgiliklar xosil bo‘lishi markazlari to‘grisidagi ta’limotlar aoschisidir. Olim dunyo kezib juda ko‘plab ekin uruxlari kolleksiyasini to‘pladi. Ularni rayonlashtirib ekish koidalarini asoslab berdi.

XX asr ilm-fani, texnikasining yana bir muxim yutuki shundaki, so‘nggi o‘n yillar davomida Osiyoda xususan, Xitoy, YAponiya, Xindiston singari davlatlarning ilmiy saloxiyati tez yuksalmokda. Masalan, YAponiyaning elektronika, radiotexnika, informatika, robot texnikasi, tibbiyot, seysmologiya, kibernetika va boshka soxalardagi xayratlanarli yutuklari "YAponiya mo‘jizasi"ning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Xitoyning arning sun‘iy yo‘ldoshlarini yaratish, kosmosda ilmiy tadkikotlar olib borish, murakkab mikrokompyuterlarni ishlab chikarish borasidagi yirik muvaffakiyatlari taxsinga loyikdir. Jumladan, uning "Gallaktika" nomi bilan ataluvchi super kompyuterlari sekundiga yuz millionlab xajmdagi murakkab operatsiyalarni bajara oladi. Xitoy biokimyo soxasida sintetik insulin olishga muvaffak bo‘lgan birinchi mamlakatdir. Xindistonning bugunda ilm-fan, texnika soxasida, murakkab kompyuterlarni yaratish, kosmonavtika, raketa texnikasi soxalarida erishgan jiddiy yutuklari dikkatga sazovordir.

XX asr fan-texnikasi xususida so‘z borganda asr mo‘jizasi-samolyotsozlik soxasiga xam to‘xtalib o‘tmasdan bo‘lmaydi. Uzok-olis masofalarni bir-biri bilan boglovchi, millionlab odamlarning uzokini yakin kiluvchi tovushdan tez uchar bugungi TULAR, ILLAR, Anteylar, YAKLAR, YAGUARlar, BOINGlar-bular, shubxasiz, insoniyat yuksak akl zakovati samaralaridir.

Bu o'rinda yana shu narsa muximki, fanning ishlab chixarishning asosiy kuchi, vositasiga aylanib borishi, bir tomonidan; insoniyatning ilgor tarakkiyoti uchun keng ufklar ochib berishi, odamlarning intellektual saloxiyatining yanada o'sishiga katta imkoniyatlar yaratishi barobarida, ikkinchidan, bu jarayon insoniyat oldiga ko'plab murakkab muammolarni xam ko'ndalang kilib ko'yadi. Xususan, fan yutuklaridan foydalanib ommaviy kirgin kurollari turlari, atom, va vodorod bombalarining yaratilishi, koinot sirlarini o'rganish borasidagi turli xil yondashuvlar - bular er yuzi kishilarini xamon tashvishlantirib turgan dolzarb muammolar bulib kolmokda.

YAkin paytlargacha buyuk davlat AKSH bilan sobik SSSR o'rtasida Garbiy kudratni oshirish, dunyoga xukmron bo'lish soxasida uzok davom etib kelgan o'zaro rakobat, ilm-fan yutuklarini shu soxaga xizmat kildirishga urinish va uning xukuk okibatlari bunga yorkin misoldir. Bu narsa sobik SSSR va uning tarkibiga kirgan milliy Respublikalar xalklarining fan-texnika inkilobidan etarli darajada foydalanshiga jiddiy gov bo'lganligini afsus bilan tilga olishga to'g'ri keladi. Jaxon fani va texnikasi xamon izlanishda, olga tomon xarakatda. Erning ustki va ostki katlamlarini, daryo, ko'llar, dengizlar va okeanlar ka'rini, Arktika, Antraktida muzliklarini, osmon jismlari, koinot siru asrorlarini chukur o'rganish, tadkik kilish, ulardan amaliy xulosalar, chikarish xozirgi zamon fanining dikkat markazida turibdi. SHu bilan bir katorda tilga oiganimiz ilm-fan soxasidagi mislsiz kashfiyotlar va ixtiolar davomida XX asr o'rtalariga kelib jaxonda chinakam fan-texnika inkilobi yuz berdi. Buning orkasida fan-texnika yutuklari insoniyat xayotining deyarli barcha jabxalariga izchil kirib bordi.

Xususan, dunyoning ilgor mamlakatlarida fan yutuklari va muvaffakiyatlarini ishlab chixarishga faol kullanish asosida inson mexnati talab kilinadigan ko'plab jarayonlar "aklli" mashinalar, mexanizmlar zimmasiga o'ta boshladи. Ishlab chixarish tarmoklarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish orkali murakkab vazifalarni bajarish, ularning samaradorligini keskin oshirishga erishib borildi. Ayniksa Garb, shuningdek, AKSH, Yaponiya, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ilm-fanning mo"jizakor yutuklari sifatida yaratilgan robot texnikasi, xilma-xil monipulyatorlar, kompyuterlarning xizmati bu soxada katta bo'ldi. Avvallari minglab, o'n minglab odamlarning ko'l mexnati talab kilingan ishlab chixarish jarayonlari avtomatlashtirish yuli bilan boshkarilib, yuksak sifat belgilariga ega xilma—xil maxsulotlar, pishik materialarning tayyorlanishi-bular XX asrning tom ma'noda texnika asri ekanligidan yakkol dalolatdir. SHu bilan birlikda fan-texnika inkilobi keltirib chixargan ko'plab noxush xolatlardan xam ko'z yumib bo'lmasligi anikdir.

CHunonchi, insoniyatni kirginlikka maxkum etuvchi termoyadro xavfi, tobora ifloslanib, zararlanib borayotgan atrof —muxit, kurollanish poygasi - bular ko'p jixatdan ilmiy-texnika tarakkiyotining salbiy yo'naliishlariga borib takaladi. Bu esa turli kit'alar, mamlakatlar olimlari oldiga butun insoniyatga daxldor dolzarb masalalar, muammolar echimiga birgalikda javob izlash vazifasini ko'ndalang kilib ko'yadi. Darxakikat, tobora ifloslanib borayotgan

ekologik vaziyatni soglomlashtirish, termoyadro urushi xavfidan insoniyatni saklab kolish, atmosferaning azon katلامи muvozanatini extiyotlash va shu kabi xayotiy masalalar bilan izchil shukullanish vazifalari shular jumlasidandir. O‘z yurtlari, xalklarining vijdoni bo‘lgan ilm-fan soxiblari bu ulkan masalalarni umuminsoniyat foydasiga xal etishga da’vat etilgandirlar.

2. XX asr madaniyati: adabiyot, teatr, kino, tasviriy san’at, me’morchilik va boshka soxalar rivoji.

Adabiyot xamma zamonlarda bo‘lgani kabi yangi tarixiy sharoitlarda xam murakkab davr vazifalari, muammolari bilan boglik xolda insonlar xayoti, kismatini, ularning ichki ruxiy kechinmalari, orzu-armonlari va intilishlarini yorkin badiiy buyoklarda aks ettirish, tipik kiyofalar timsolini yaratishda davom etdi. Katta ijtimoiy jarayonlar, umuminsoniy muammmolarni, kadriyatlarni kalamga olish, ularni to‘lakonli yoritishga intilish, ilgor, tarakkiyparvar so‘z san’atkorlari ijodining asosiy bosh mazmuniga aylanib bordi. Buni o‘z yorkin ijodi bilan millionlar mexrini kozongan, adabiy jarayonlarning oldingi safida borgan asrning ko‘plab tanikli adiblari misolida kuzatish mumkin. Jumladan, XX asr ijodkorlari: R.Rollan, A.Barbyus, L.Aragon, (Fransiya) A.CHexov, M.SHoloxov, A.Soljntsins (Rossiya), B.SHou (Angliya), Dj. London, E.Xeminguey (AKSH), G.Mann, T.Mann (Germaniya), N.Xikmat (Turkiya), P.Neruda (CHili), J.Amadu (Braziliya), R.Tagor (Xindiston), A.Moraviya (Italiya), Lu Sin, Mao Dun, Go Mojo (Xitoy), CH.Aytmatov (Kirkiziston), R.xamzatov (Doxiston), va boshkalar ijodi ayni mana shu rux bilan sugorilgandir.

Anri Barbyusning "Olov", "Soflik" romanlari birinchi jaxon urushiga keskin xarshi ruxda yozilgan. Romen Rollanning "Xalk teatri" drammasi buyuk fransuz inkilobini uluglashga bagishlangan. Uning "Jan Kristof" roman-epopeyasi (10 tomlig) va "Go‘zal kalb" ko‘p jildli romanlarida chin insonparvarlik, sevgi, sadokat goyalari keng tarannum etilgan.

Mashxur Amerika yozuvchisi E.Xemenguey kalamiga mansub "Ayolsiz erkaklar", "Alvido, kurol", "Bo‘rondan so‘ng", "CHol va dengiz" singari asarlar insoniy kismatlar va extiroslarni xakkoniyligi aks ettirganligi bilan umrbokiylilikka daxldordir. Yana bir Amerika realist yozuvchisi Teodor Drayzer (1971 — 1945) kalamiga mansub "Moliyachi", "Titan", "Amerika fojiyasi" singari epiк romanlar xam keng ko‘lamli xayotiy jarayonlarni chukur yoritib bergenligi bilan ajralib turadi. Rus yozuvchisi CHexovning "Kuchuk etaklagan xonim", "Oltinchi palata", "Gilof bandasi" xikoyalari, "Vanya toga", "Olchazor", pesalari o‘zining yuksak saviyasi, xakkoniyligi mazmuni bilan ajralib turadi.

CHilining otashnafas shoiri Pablo Nerudanining "Kalbda Ispaniya", "Umumiyo‘shik" epopeyasi kabi asarlari xam badiiy so‘zning yuksak kudrati ifodasidir. Italiya adibi A.Moravyanining "Lokaydlar", "Rimli ayol", "CHegara", "Ichki xayot" romanlari xam yirik rejada yozilgan ijtimoiy — psixologik asarlar turkumiga mansubdir. Yirik fransuz adibi Lui Aragon adabiy merosida xam xayot okimi ilgari surgan katta siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy masalalar o‘rin

tutishini kuzatish mumkin. Masalan, uning "Real dunyo" mashxur sikl romanlari, "Fransuzlarning maklubiyati va ulugvorligi" nomli kitoblari vokea, xodisalarning keng xamrovligi, inson xayoti, kechmishi muammolarini chukur falsafiy mushoxada etishi, teran ifodolashi bilan e'tiborni jalb etadi.

XX asr Xitoy adabiyoti xam o'zining ko'plab serkirra ijodkorlari bilan jaxon adabiy xarakatchiligidagi munosib o'rinni tutadi. Ayniksa bunda, Lui Sin (1881-1936)ning "Adashganlar", "YOvvoyi o'tlar", "Issik shamol", Mao Dun (1896-1981)ning chukur ijtimoiy moxiyat kasb etgan asarlari alovida e'tiborga loyikdir. Xindistonning mashxur gumanist adibi Robindranat Tagor asarlarida esa chin vatanparvarlik, Xind xalkining milliy ozodlik kurashi goyalari to'la ma'noda aks etgan. Uning "Tog", "Uy va dunyo", "Sivilizatsiya inkirozi" romanlari xuddi shu ruxda bitilgan. Xindistonning yana bir adibi va kino rejisyori Xo'ja Axmad Abbas yaratgan "Ertangi kun bizniki", "Janob 420", "Uch dengiz osha sayoxat" kinossenariylari va ular asosida yaratilgan filmlar o'z xakkoniyligi, xayotiyligi bilan bugungi avlod kishilarini xam o'ziga maftun etadi, kalbini zabit etadi. Xuddi mana shu umuminsoniy goyalar, xarashlar ruxi XX asrning boshka ko'plab atogli namoyondalari ijodiga xam to'la taalluklidir. Endi XX asr san'ati, uning turli-tuman janrlari, yo'nalishlari to'grisida tuxtalar ekanmiz, bunda shu davrga kelib badiiy tafakkur va san'atning rivoji uchun bexad keng imkoniyatlar ochilib borganligi ko'zga tashlanadi. Avvalo kommunikatsiya vositalarining kengayib borishi, radio va televideniening xayotga kirib kelishi, kinoning kashf etilishi xamda kinoindustriyaning muttasil tarakkiy etishi, fotografiyaning ixtiro etilishi, ovoz sozlagich va ovoz kuchaytirgich vositalarining yaratilib, mukammallahib borishi-bular pirovard okibatda san'at va uning ko'p sonli janrlari rivojiga chinakam yangi nafas bagishladi, ularning ko'rsatuv, eshittiruv va uzatuv vositalarini yanada kuchaytirib yubordi. Mazkur o'zgarishlar silsilasida teatr san'ati xam rivojlana bordi. Bu san'at turida o'ziga xos Evropa, Rossiya, Xitoy, Amerika maktablari vujudga keldi. Bu soxaning betakror ovoz soxiblari, noyob iste'dodlari etishib chikib jaxon mikyosida e'tirof topdilar. Jumladan, AKSHning "Metropoliten — opera", "Brodvey", Xitoyning Pekin va SHanxay maktablari va boshkalarning dovruxi yanada ortib bordi.

Rus teatrining faxri bo'lgan A.Stanislavskiy, Nemirovich Danchenko, Lyubov Orlova, Nona Gondureva, Lyudmila Zikina, Galina Ulanova, Maya Plesetskaya, Sofiya Rotaru, Milanning "La-Skala" teatri yulduzlari-Mariya Kolas, Monserrat Kabale, Sofiya Loren va boshkalarning ijrochilik maxorati xakli ravishda teatr san'atining buyuk yutut'lari bo'lib koldi. AKSHning teatr xayotida XX asr 40-50 yillarda fakat Nyu-Yorkning Brodveyi bu soxaning asosiy markazi bo'lgan bo'lsa, 60-70 yillarga kelib uning geografiyasini kengayib, Minnepolsda "Gatri-teatr", Xyustonda "Elley-teatri", San - Fransiskoda "Amerika konservatoriya teatri" faoliyat ko'rsata boshladи. SHuningdek, Amerika teatri janrining o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan myuzikyullar xayotga faol kirib bordi. 1959 yildan faoliyatini boshlagan Xitoy balet maktabi xam kiska muddat ichida jiddiy muvafakkiyatlarga erishdi. Unda jaxon klassikasining shox asarlari — "Ok kush ko'li", "Bogchasaroy fontani",

"Dengiz karokchisi", "Jizel" baletlari yuksak maxorat bilan o'ynalib kelinmokda. Teatr va musika san'ati ravnakiga jiddiy xissa ko'shgan mashxur bastakorlar nomini tilga olar ekanmiz, bunda Sergey Raxmaninov (1873—1943), Sergey Prokofev (1890—1953), Dmitriy SHostakevich (1906-1975), Aram Xachaturyan(1903-1978), YURIY Sviridov (1915). U.Gadjebikov (1885—1948), Kara Karaev va boshkalar ijodi aloxida o'rinn tutadi. S.Raxmaninovning uchinchi simfoniyasi, "Marxumlar oroli" musikali poemasi, S.Prokofevning "Urush va tinchlik", "Romeo va Julietta" musikali asarlari, shuningdek, SHostakevich ijodiga mansub "Katerina Izmaylova" operasi, 15—simfoniyasi, shunigdek Xachaturyanning "Spartak", "Gayane" baletlari, uchinchi simfoniyasi, YU.Sviridovning "CHakmoklar" musikali dramasi, "Sergey Esenin xotirasi" vokal simfonik poemasi, Gadjibekov yaratgan "Ko'r o'gli", "Layli va Majnun", operalari, Kara Karaevning "Vatan" operasi, "Etti go'zal" baletlari — bular moxiyatdan chukur insoniy tuykularni, xis-xayajonlarni realistik ruxda tasvirlab bergenligi bilan mangulikka daxldor asarlardir.

San'at janrlari xakida gap borganda sirk san'ati va uning o'ziga xos muxim xususiyatlariga aloxida urgu berib o'tmasdan bo'lmaydi. Ayniksa bunda Rossiya va Xitoy maktablari, ularning salmokli yutuklari to'grisida fikr yuritish lozim bo'ladi. Xususan, Rossiya sirk tarixi va uning tarakkiyotida Durovlar va Kiolar sulolasini xizmati kattadir. Anatoliy Durov (1863—1934) asos solgan sulola butun asr davomida turli—tuman jonivorlarni, shu jumladan, yirtkich xayvonlarni ko'lga o'rgatib, ular ishtirokida muttasil kizixarli mashklarni bajarib kelayotganligi taxsinga sazovordir. Emil Kio (1894—1955) asos solgan sulola esa illyuzion sirk ko'rsatuvlari bobida favkulodda topkirligi va ijodkorligi bilan dunyo mikyosida shuxrat kozongan. Xitoy sirkining muxim tarkibiy kismi — akrobatik gruppalar faoliyati ayniksa rivoj topgan. So'nggi 30 yillar davomida 100 dan ortik mamlakatlarda Xitoy akrobatlari o'z yuksak maxorati bilan millionlab tomoshabinlar mexrini kozongan.

XX asrning mashxur saxna ustalari to'grisida gap borganda o'z san'ati sexri va jozibasi bilan insonlar kalbi — dilini jo etib, ularning mexrini kozongan Galina Ulanova, Maya Plesetskaya, Malika Sobirova singari balerinalar, Mariya Kollas, Sofiya Lorren, Monsarit Kobale, Lyudmila Zikina singari iste'dod soxiblari nomlarini aloxida tilga olib o'tmoklik joiz bo'ladi. XX asrning insoniyat xayoti uchun keltirgan katta yutuklaridan biri bu kino san'atining yangidan vujudga kelib, yuksak sari parvoz etganligidir. Umuman o'tgan asrning XX yillariga kelib odamzodning afsonaviy kino olamiga ro'baru kelishi, undan baxra olib, o'z ma'naviy — ruxiy xayotini boyitib borishi tom ma'noda katta tarixiy vokea bo'lgan. Kino o'zining ustuvor mavkeini xamon saklagan xolda odamlarga olam—olam shavku — zavk baxsh etib kelmokda. Jaxon kinosi yulduzlaridan CHarli CHapli yoki Xindiston kino yulduzları: Raj Kapur, Fotima Rashid (Nargiz), Xamma Malini, Dxamendra; rus kino ustalari: L.Orlova, YU.Nikulin, O.Tabakov, V.Tixonov; Italiyalik Andreono CHalentano, Fransiyalik Jan Pol Belmondo, Per Rishar, Amerikalik Joys

Nikole, Arnold SHvarsnigger, Elizabet Taylor, Djulio Roberts, turkiyalik Turkon SHoray va shu singari kino yulduzlarini kim xam bilmaydi. Masalan, CH.CHaplining gumanizm va antifashizm yo‘nalishlarida yaratilgan kinokomediyalarida o‘ynagan betakror rollari ("Oltin vasvasasi", "YAngi zamonlar", "Katta shaxar chiroklari", "Buyuk diktator") uning nomini butun dunyoga tanitdi. Rus kino asoschilaridan S.M.Eyzenshteynning "Brononosets Potemkin" kinoepopeyasi, "Aleksandr Nevskiy", "Ivan Grozniy" filmlari o‘zining realligi, insoniy kismatlarni xakkoniy aks ettirganligi bilan jaxon kinosi oltin fondidan munosib o‘rin olgan. SHuningdek, Xind kinosi ustasi Raj Kapur ijodiga mansub "Daydi", "Janob-420", "Mening ismim masxaraboz", "Bobbi" singari kinofilmlar xam allakachon jaxon kinosi klassikasiga aylanib ketgan. Kino sanati o‘zining jozibador rangin tasviri, xayotbaxsh gumanistik goyalari tarannumi bilan bugun xam insoniyatga, uning manaviy olamini boyitishga xizmat kilmokda.

XX asr tasviriy sanati to‘grisida gap borganda mashxur fransuz rassomi Pablo Pikasso(1871 —1973), Ispan rassomi Salvador Dali (1896—1904) ijoddari xar jixatdan etiborga arzirlidir. Jumladan, Pikasso ijodida odamlar xayotining turli ko‘rinishlari xakkoniy ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Uning asarlari polotnolarining ko‘pchiligi katta ijtimoiy mano, moxiyat kasb etadi. Bunga misol tarikasida "Genetika" (1937), "Dunyo kabutari" (1947) asarlarini keltirib o‘tish mumkin. U grafik, xaykaltarosh sifatida xam mashxurdir. Xuddi shuningdek, Salvador Dali ijodida xam XX asr xayotining ko‘plab dolzarb muammolari u yoki bu darajada o‘z echimini topganday ko‘rinadi. Xususan, rassomning "Urushning kiyofasi", "YAdro kismati", "Gitlerning mo‘ljali" kabi mashxur polotnolari bu jixatdan xarakterlidir. Uning "Zirofa" surati xam realligi, goyatda ajabtovurligi bilan tomoshabin dikkatini jalb kiladi. Bu xam tasviriy sanatning katta joziba kuchidan dalolatdir.

Asr me’morchiligi namunalarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, bu soxada yuz bergen o‘ziga xos muxim ustivor jixatlarni, yangiliklarni ilgash mumkin bo‘ladi. Voke bo‘lgan ilmiy texnika inkilobi, yangidan topilgan yoxud kimyoviy sintez va reaksiyalar yuli bilan xosil kilingan tabiiy va suniy ma’danlar, moddalarning sanoat va kурilishda keng ko‘llanilishi, shubxasiz arxitektura va me’morchilikning sifat jixatdan yangi boskichlarga ko‘tarish imkonini yaratdi. Inshootlar kурilishida temir-beton konstruksiyalardan, organik va rangli yaxlit oynalardan keng foydalanish salobatli, osmono‘par binolarning ko‘plab bunyod etilishiga olib keldi. Nyu-York shaxridagi BMT binosi, Jaxon savdo markazi, Moskvadagi sobik o‘zaro iktisodiy yordam kengashi binosi va shuningdek, Bryussel, London, Pekin, SHanxay, Tokio, Singapur singari dunyoning yirik shaxarlarida salobat to‘kib turgan baland, ko‘rkam oynaband binolar, buning yorkin misolidir. YAngicha dizaynda ishlangan va barpo kilingan kancha-kanchalab zamonaviy sport inshootlari, madaniy-maishiy maskanlar, sanat koshonalari, yaxlit temir beton ko‘priklar-barchasi xozirgi zamon memorchiligining shubxasiz, ajoyib yutukidir.

Jaxon shaxarsozligining yuksak namunalarini Mustakillik yillarida kad rostlagan yurtimiz kiyofasida, go'zal Toshkentimiz timsolida xam yakkol ko'rishimiz mumkin.

3. Fovizm, kubizm, syurealizm uslublaridagi ijod.

Yangi XX asr boshlaridan e'tiboran san'at ijodkorlari orasida turli xil yangi yo'naliishlar paydo bo'ldiki, bular o'z ijodida o'ziga xos mazmun, xarashlar va goyalarni ifodalay boshladi. SHu tarika, asr boshlarida "modernizm" ya'ni "yangi san'at", "badiiy avangard" nomlari bilan atalgan badiiy yo'naliishlar yuzaga kela bordi. Amerikalik mutaxassis Orteganing fikricha, yangi san'at ijodkorlari bu san'atning noan'anaviyligi, noommaviyligini ko'prok ko'rsatishga intildilar. Bunda ifodalashning yangi shakllari, uslublarini izlash avangard ustalari ijodining ongli maksadi bo'lib koldi. Ular aslida erkin ijod tarafdori edilar. Darvoke, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yangi badiiy uslub - arxitektura, dizayn, amaliy san'at bilan boglik xolda modern (yangilik ma'nosida) okimi vujudga keldi. Avangardning dastlabki okimi fovizm² nomini oldi. U 1905 yilda Parijdagi badiiy ko'rgazmada ilk bor tilga olindi va namoyish etildi. Fovizmning asosiy xarakterli xususiyati, bular real narsalar, predmetlarning rangidan, tusidan mutlako kat'i nazar yorkin rang bo'yoklarning birikuvidan foydalanish va ayni chogda real ob'ektlar nisbati va shakllarining keskin buzilishidir. SHunday badiiy usullar vositasi bilan rasmlar yaratish orkali ularda real narsalar, ob'ektlarni tasvirlash emas, balki o'zining o'ta gayritabiyligi, yorkinligi, xashamadorligi bilan alovida xis-xayajonli kayfiyat xosil kilishdan iborat. Bu okim namoyandalaridan biri Matissning ta'kidlashicha, "San'atning maksadi — kartinada reallikni to'gri yoritishga e'tiborni xaratishdan ko'ra ko'prok yorkin buyoklarni ko'shish orkali ko'prok odamlarga kuvonch baxsh etishdir".

XX asr boshida vujudga kelgan badiiy avangardning yana bir yunalishi - Ekspressionizmdir. U ekspressiya so'zidan olingen bo'lib, ta'sirchanlik, xayajonlilik ma'nosini bildiradi. Bu yo'naliish san'atkorlarni kurshab olgan vokelik xususida o'z xissiyotlari, fikrlarini ifodalashdir. Ekspressionizmning muxim ajralib turuvchi xususiyati - badiiy usullarning muayyan tizimida faoliyat yuritish emas, balki xozirgi dunyodagi inson axvolini mumkin kadar xayojonli, dramatik ko'rinishlarda tasvirlashdan iboratdir. Ularning fikricha, xozirgi ijtimoiy tizimlar moxiyatani insonga ziddir. Ijtimoiy tizim, davlat, iktisodiyot, sotsial institutlar o'z konunlari bilan yashaydi. Ularda inson individiga xamxurlik kilishga imkoniyat yo'k. Ular ijodiyoti uchun ofat keltiruvchi ijtimoiy fojialar, falokat manbai – jaxon urushlari, totalitar rejimlar, ekologik ofatlarni xis etish ko'prok xosdir. Bu okim dastavval Germaniyada tarkaldi.

XX asrning 10-20 yillarida avagard okimlari Rossiyada xam ildiz ota bordi. S.N.Gonchareva, P.Konchalovskiy, K.Korvin va boshkalar ijodida abstraksionizm, mavxumiylilik, ya'ni real vokelik shakllarini tasvirlashdan voz kechish xarashlari ko'prok o'rin oldi. SHu okim vakili V.Kandinskiy fikricha,

abstrakt san'at - bu ruxiy san'atdir. Binobarin, u avvalo inson ruxiy olamini ifodali aks ettirishga yo'nalgan.

Avangard yo'nalishining yana bir turi bu syurrealizmlir. U fransuzcha termin bo'lib, yuksak realizm ma'nosidadir. U XX asrning 20-yillarida Fransiyada shakllandi. Bu okim rassomchilik, xaykaltaroshlik, teatr, kino soxalarida ko'prok o'rinni oldi. Ayniksa, bu o'rinda fransuz rassomi Salvador Dali (1904) va boshkalarning ijodi dikkatga sazovordir. Jumladan, Pikasso ijodida odamlar xayotining turli jixatlari xakkoniy ifodalanganligini kuzatish mumkin. Rassomning "SHark kizi" (1905) asari buning yakkol isbotidir. Syurrealizm tarafdarlari ijodida asl manzara, borli? xolatni o'ziga ko'prok mos talkinda aks ettirishga moyillik ustivordir. Syurrealizm okimi asoschilaridan A. Bretonnikning ta'kidlashicha, san'atkor uz ijodida rux erkinligini amalga oshirish sari doimiy intilishikerak bo'ladi. Negaki, san'atkor erkinligiga xar xil andozalar va badiy shart - talablar xalakit beradi. Buning ma'nosini shuki, syurrealizm tarafdarlari ijodkorning cheklanmagan erkinligini xar narsadan ustun kuyadilar.

San'atning muxim okimi sifatida XXasrning birinchi choragida vujudga kelgan yana bir yangi okim - bu kubizmdir. Bu okim realizmga karama-karshi ularok borlikni ko'prok geometrik chizikli shakllarda tasvirlashga intiladi. Bu okim yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatgan Pikasso ijodining muxim jixatlari bunga yakkol misol bo'la oladi.

XX asr 70-yillarida yana bir okim - postmodernizm vujudga keldi. U modernizmdan keyingi ma'noni bildiradi. Bunda san'atkorlar odatda ommaviy janrlarga, masalan, detektiv, komediya, melodrammalarga murojaat kilish, ular vositasida ommani kiziktirgan, ularning dikkat- e'tiborini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga xarakat etadilar. Ayniksa bu o'rinda ekran, kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alovida o'rinni tutadi. Postmodern sanatiga oid asarlarda asosiy e'tibor bevosita san'atning o'ziga xaratiladi. Xususan san'atda inson o'z erkinligi, o'z ijodiy betakrorligi, o'z ma'naviyatini to'la ma'noda namoyon eta oladigan bo'lishi kerak. SHu ma'noda san'at nafakat o'z ijodkorinigina emas, balki shu bilan birga san'atning barcha muxlislarini xam uluglaydi. Postmodernizmda, uning tarafdarlari fikricha, san'at o'ziga kaytadi. SHu ma'noda san'atning maftunkor kudrati va uning xayotbaxsh tasviri o'zini to'la namoyon etib, odamlarga kuvonch va shodlik baxsh eta oladi.

4. Sovet davrida, jumladan, O'zbekistonda madaniy xayot.

XX asr sovet davri madaniyatiga nazar tashlar ekanmiz, bunda sovetlarning sotsializm va kommunizm kurishiga mo'ljallangan, uzokka karatilgan keng xamrovli faoliyatida madaniy kурilish masalalari xam muxim o'rinni tutganligi shubxasiz. Negaki, yangi kommunistik jamiyat yaratishdek "ulugvor maksad"ga erishishda bu soxaning barcha o'tkir, dolzarb vazifalarini xal etish alovida axamiyat kasb etardi. SHu boisdan xam sotsializm ta'lim tizimini yaratish, ilm-fanni o'stirish, adabiyot va san'atni rivojlantirish, ko'p sonli ziyoli, bilimdon kadrlarni tarbiyalab, voyaga etkazish sovet mutasaddilari

oldida turgan shunday muxim vazifalar sirasiga kirardi. Ular komfirka ta'limoti va dasturulamal ko'rsatmalaridan kelib chikib, bu vazifalaru masalalarni amalga oshirishga kirishar ekanlar, bunda ijtimoiy xayotning barcha jarayonlarida kommunistik goyalar, ta'siri va bosimini butun choralar bilan kuchaytirishga asosiy etiborini xaratdilar. Bu esa oxir-okibatda sovetlar yuritgan madaniy siyosatning butun borishi, mazmun, mundarijasiga, ijodkor ziyoililar, milliy kadrlarning xayoti va kismatiga o'zining salbiy ta'siri, xunuk asoratlarini o'tkazmay xolmadi, albatta. Buning yorkin ifodasi xukmron markaz tasarrufiga butunlay tushib, unga tobe bo'lib kolgan O'zbekistan va uning jabrdiyda xalki timsolida to'la namoyon bo'ldi. YUzadan xaraganda sovetlar va ularning ko'p sonli mutasaddilari goyatda ustamonlik va riyokorlik bilan siyosat yuritib, avval boshda O'zbekistonda madaniy kuriishga aloxida urgu berib, xalk ta'limi, jumladan, oliv ta'limni rivojlantirish, ilmu urfonni ravnak toptirish, bu jabxalarga maxalliy xalk farzandlarini ko'prok jalg etish, ko'plab madaniy muasasalarini barpo kilishga raxbat ko'rsatganday bo'ldilar. Bu bilan ular maxalliy xalklar ishonchini kozonish, ularni sotsialistik kuriishga faol safarbar etishga erishmokni niyat kilgan edilar. SHu maksadlarda 20-30 yillar davomida respublika xududida ko'plab ta'lim maskanlari, oliv o'kuv yurtlari, ilm-fan o'choklari, madaniyat, san'at koshonalari bunyod topdi. Ular orkali ming-minglab yurt fukarolari, avvalo, yosh avlod namoyandalari etuk ilmli, bilimli kadrlar bo'lib etishib bordilar. Ziyoli kadrlarning yangi avlodi shakllandı. Bu esa respublikaning ilmiy, ma'naviy saloxiyatining o'sishiga muxim turtki bo'lib xizmat kildi. SHu o'rinda XX asr 30- yillardayok ilm-fan soxasida shuxrat kozongan kori-Niyoziy, A.Avloniy, A.Sa'diy, P.Soliev, YA.kulomov, K.Abdullaev yoxud adabiyotimiz va sanatimiz iftixorlari sifatida tanilgan xamza, S.Ayniy, A.Kodiriy, A.Fitrat, A.CHo'lpon, U.Nosir, Oybek, kulom, M.Uygur, E.Bobojonov, A.Xidoyatov, A.Bakirov, X.Nosirova, S.Eshonto'raeva, M.Turgunboeva, Tamaraxonim nomlarini aloxida tilga olib o'tish joizdir. Bu davrda yaratilgan "O'tgan kunlar", "Mexrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Kutlug kon", "Sarob", "kullar" romanlari, iste'dodli shoirlarimiz she'riyati durdonalari, shuningdek, "Farxod va SHirin", "Layli va Majnun", "Gulsara", "Buron" singari san'at asarlari yoki "Asal", "Kasam", "Ravot kashkirlari", "Azamat" nomli ilk kinofilmlar - bular o'zbek adabiy-madaniy xayotida muxim vokea bo'lgan edi. Birok bu jarayon uzok davom etolmadi. Tez orada sovetlar mamlakatida avj olib ketgan stalincha katagonlik mavsumi yurtning ko'plab istedod soxiblari xayoti va kismatiga o'z asoratli ta'sirini o'tkazmay xolmadi. Buning natijasida ilmiy saloxiyati, ijodi bark urgan ne-ne vatanparvar ziyoilalarimiz xukmron tuzum bosimiga uchrab, asossiz tuxmatu bo'xtolar bilan ayblanib yomon otlik kilindilar, katogonlikka duchor etildilar. Millatimiz faxri sanalgan A.Kodiriy, A.Fitrat, A.CHo'lpon, U.Nosir, Elbek, M.Botu, O.Xoshim, YUnus, Munavvar Kori, P.Soliev singari ko'plab favkulodda iste'dod soxiblari battol tuzum kurbonlari bo'ldilar.

Xar o'n-o'n besh yil ichida milliy ziyoililarni "yagonalab" turish, ular faoliyati, ijodini elak-elak kilish, kiyin-kistovga olish amaliyoti sovet mafkurachilari,

mutasaddilari uchun odatiy tusga aylanib bordi. Buni o'tgan asrning 50-yillarida bir gurux sara ijodkor ziylolar ustidan atayin uyuştirilgan mafkura bosimi va uning okibatlari misolida xam ko'rish mumkin. Stalincha katagonlikning bu yangi tulkini xam ne-ne zabardast ziylolarimiz (Oybek, SHayxzoda, M.Ismoilov, S.Axmadi, SHukrullo v.b.) sha'nini taxkirlab, ularni ne balo-kulfatlarga mubtalo etganligi anikdir.

Kezi kelganda shuni aytish joizki, ilmu ma'rifat, adabiyot va san'atga oshuftalik bizga ulug bobolarimiz kon tomirlaridan o'tib, azaliy kadriyat bo'lib kelganligidan, urushdan keyingi o'n yilliklar davomida xam respublikamizning ma'naviy-madaniy xayoti nisbatan sezilarli maromda kechdi. Jumladan, kommunistik mafkura ta'siri va tazyikiga xaramay xalk ta'limi tizimi muayyan murakkabliklar bilan boglik xolda rivojlanib bordi. 50-yillarda bu tizimda bir kator isloxiy o'zgarishlar kilindi. Umumiyo o'rtta ta'limga o'tila boshlandi. 1965-1958 yillarda xalk ta'limida 5,7 mln nafar yoshlar ta'lim oldi. SHuningdek, oliy o'kuv yurtlari soni xam o'sib bordi. 1960 yillarda ular soni 42 taga etdi va xalk xo'jaligi tarmoxari uchun ko'plab yukori malakali kadrlar tayyorlab berdi. O'rtta maxsus ta'lim muassasalari soni 1985 yilda 249 tani tashkil kildi. Ular orkali 1965-1985 yillarda 1 mln. 135 ming nafar kadrlar tayyorlandi.

Respublika ilm-fani xam asta sekin rivojlanib bordi. 1958 yilda Toshkentda birinchi atom reaktori kurilib ishga gushirildi. O'zbek olimlarining kuyosh nurlaridan foydalanish bobida yaratgan noyob kashfiyotlari jaxonda e'tirof topdi. Geolog olimlarimiz topgan neft, gaz, volfram, simob, kurgoshin kabi kimmattli ma'dan konlari - bu geologiya-mineralogiya fanining ulkan yutuklari bo'ldi.

O'zbek olimlarining kishlok xo'jaligi, kimyo, tibbiyat, mikrobiologiya, kibernetika, elektronika, seysmologiya singari fanlar rivoji borasidagi kashfiyotlari jaxon ilmiy jamoatchiligi e'tirofiga sazovor bo'ldi. Respublikada o'z ilmiy maktabini yaratgan T.N.Kori-Niyoziy, Abdullaev, O.Akramxo'jaev, I.Xamraboev, Y.O.Torakulov, V.Kobulov, Usmonov, J.Saidov, M.O'razboev, Raxmatulin, S.Miraxmedov, YA.kulomov, I.Mominov kabi mashxur olimlar etishib chikdi. O'zbek adabiyoti va san'ati xam ularning turli janrlarida faoliyat ko'rsatgan adiblar, shoirlar, san'atkorlar ijodida ancha sezilarli yutuklar, ijobiy o'zgarishlar yuz bergenligi shubxasiz. Bunda tanikli adiblar M.Oybek, kulom, A.Kaxxor, M.SHayxzoda, Uygun, P.Kodirov, E.Voxidov, A.Orarov, O.Matchon, B.Boykobilov, Xudoyberdieva, O.Xojieva va boshkalarning moxiyat xalkchil, realistik ruxda yozilgan asarlari alovida ko'zga tashlanib turadi. Bular jumlasiga Oybekning "Oltin vodiyyidan shabodalar", A.Kaxxorning "Ko'shchinor chiroklari", M.SHayxzodaning "Toshkentnoma", S.Axmadning "Ufk", R.Fayziyning "Xazrati inson", A.Muxtorning "Davr mening takdirimda", O.YOkubovning "Diyonat" singari asarlarini nisbat berish mumkin.

O'zbek tasviriy san'ati namoyandalari - U.Tansikboev, CH.Axmarov, M.Nabiev, R.Usmonov, A.Abdullaev, L.Abdullaev, V.Kaydalov va boshkalar

muy kalamiga mansub asarlar o‘zining xakkoniyligi, realistik tasviri bilan ajralib turadi.

O‘zbek sirkı dovruxini olamga taratishda Toshkenboevlar, Zaripovlar, Xo‘jaevlar sulolasi vakillarining katta xizmati va maxorati aloxidadir.

Sovetlarning xar kanday mafkuraviy tazyikiga xaramay o‘zbek musika madaniyati o‘ziga yo‘l topib, rivojlanishda davom etdi. YUrt san’atkorlari milliy mumtoz musika san’atini rivojlantirishga, ko‘shikchilik, raks va boshka janrlar faoliyatini yaxshilashga butun choralar bilan xarakat etdilar. O‘zbek teatri san’atida SH.Burxonov, O.Xo‘jaev, R.xamroev, S.Xo‘jaev, Z.Muxammadjonov, YO.Axmedov, S.Kobulova, G.Izmaylova, L.Sarimsokova, B.Korieva, bastakorlik san’atida YU.Rajabiy, T.Jalilov, M.Ashrafiy, I.Ikromov, S.Kalonov, T.Sodikov, M.Burxonov, K.Otaniyozov, Toshmatov milliy ko‘shikchilik san’atida J.Sultonov, M.Uzokov, V.Fayozov, M.Axmedov, T.Kodirov, K.Raximov, F.Umarov, O.Xotamov, B.Davidova, X.Oxunova, N.Axmedova, N.YUsupova, M.Yo‘licheva, M.Dadaboeva, M.Razzokova singarilarning betakror ijodi ayricha axamiyat kasb etadi. Ularning chinakam xalk ruxi, uning orzu, armonlari, dil extiyojlari bilan uygunlashib ketgan ijodi bilan yakindan tanishar ekanmiz, xalk daxosining kudratiga, yana bir bor tan beramiz. Bu davrda yaratilgan "Sen etim emassan", "Maxallada duv-duv gap", "Maftuningman", "O’tgan kunlar" singari kinofilmlarda katta ijtimoiy-xayotiy vokealar keng rejada, chukur realistik asosda, yorkin badiiy tasvirlarda yoritib berilganligi aloxida e’tiborga molikdir. Birok shuni taassuf bilan ta’kidlash joizki, xalkimizning sovetlar davri madaniyati, uning turli soxalari atayin doimiy ravishda xukmron tuzum bosimiga uchrab keldi. Tabiiyki, bu narsa madaniy-ma’naviy xayotga o‘z asoratini o‘tkazmasdan xolmadi. Xususan, xalk ta’limining mazmun-mundarijasini ko‘zdan kechirarkanmiz, unda kommunistik mafkura ta’siri yakkol aks etib turadi. CHunonchi, butun SSSR mamlakati o‘kuvchilari uchun zarur bo‘lgan xamma o‘kuv dasturlari, darsligu ko‘llanmalar va boshka o‘kuv jixozlarining fakat Moskvada tayyorlanib, u erdan yuborilishi faktining o‘zi xam bunga ishonchli dalildir. Bunda, ming afsuski, milliy xududlarning o‘ziga xos xususiyatlari, milliylik jixatlari, mintaliteti mutlako inobatga olinmasdi. Bu xol oliv ta’lim soxasiga xam birdek xos edi. SHu bilan birlikda kadrlar tayyorlashda son jixatdan kuvulib, uning sifatiga etarli e’tibor berilmasdi. YUrtboshimiz ta’biri bilan aytganda, ko‘pchilik xakikiy bilim olish uchun emas, balki amal-takal kilib diplomli bo‘lib olish ilinjida oliv o‘kuv yurtlariga kirardi. Buning ustiga o‘kuv rejalarini va dasturlarini bot-bot o‘zgartirilishi amaliyoti xam bu tizimning barxarorlashuvidan ko‘ra ko‘prok bekarorlashib borishiga sabab bo‘lgandi.

Sovetlar davrida kechgan respublika ilm-fani, uning ko‘p sonli xodimlari faoliyatida xam mavjud tuzum bosimi katta bo‘lgan. Buning orkasida olimlarning ko‘p yillik izlanishlari samarasi bo‘lgan kanchalab muxim kashfiyotlar, ixtiyorlar Moskva nazariga tushmay, uning ma’kullashini kutib bir chetda golib keta bergen. So‘ngra yurtimizda o‘z ilmiy maktabini yaratgan ko‘plab tanikli ilm soxiblari sobik ilm markazi – SSSR FAsi tomonidan e’tirof

topmay, uning tarkibiga olinmay kelinganligi xam sovetlar yuritgan shovinistik, mumtoz siyosatning real ifodasıdir.

Respublika ijod akli xam doimiy ravishda xukmron tuzum siyosati va mafkurasi talabi va yo‘l-yo‘riklarini bajarishga majbur etilib kelindi. Bu esa sovet davrida yaratilgan asarlarda kanday goyalar, xarashlar o‘rin olgan edi, degan savol javobini osonlashtiradi, albatta. CHunonchi, Sovetlar davrida katta mablaklar xamda ne-ne iste’dodli xaykaltaroshlar mexnati, maxorati evaziga kad rostlagan son- sanoksiz maxobatli xaykallarning mutlok ko‘pchiligi "inkilob doxiylari" — Lenin, Stalin, xolaversa ularning yakin safdoshlari siyemosini aks ettirishga bagishlanganligi butun xech kimga sir emasdir.

SHuningdek, ko‘pchilik adibu shoirlar sinfiylik, partiyaviylik nuktai nazaridan kelib chikib mavjud sovet vokeligini, uning "bekiyos afzallikkari"ni, insonlarga yaratib bergen imkoniyatlarini uluglash, maktashga majbur bulganlar. Birok, E.Voxidov, A.Oripov, P.Kodirov, S.Karomatov singari anchagina dovyurak ijodkorlar xam bo‘lganki, ular fukarolik pozitsiyalarida sobit turib, o‘z vijdoni, diyonatiga, xiyonat kilmay xakikat so‘zlarini barala ayta olganlar. Tuzum zulmkorlari o‘zbek xalkining ma’naviy xayotini kanchalik algov –dalgov kilishga urinmasin, uning ne-ne azaliy milliy-ma’naviy kadriyatlarini zavol toptirishga eng shimarmasinlar, Birok ular bu kabix maksad-muddaolariga erisha olmadilar. O‘z ulug ajdodlari sarchashmalaridan xamisha uzilmay, ulardan baxra olib, iligi to‘k xolda yashab kelgan xalkimiz o‘zligini, asl kiyofasini saklab kola oldi. SHu narsa, shu mukaddas tuygu uning yurt istiklolisi katiy xarakatlanishi uchun muxim omil bo‘lib xizmat kildi.

¹ Alfred Nobel shvetsiyalik sanoatchi, ixtirochi, kimyogar bo‘lib XIX asrning ikkinchi yarimida yashagan.

² Fransuzcha — yovvoyi ma’nosida. U san’at yo‘nalishida yangi okim bo‘lib, predmet, narsalarni ajabtovur, yorkin ko‘rinishda aks ettirishni ifodalaydi. Uning uchun shaklu mazmunning birligi, mutanosibligi kadar muxim emas.

1. XX asr fan va texnika soxasidagi kashfiyotlar, fan —texnika inkilobi.
2. XX asr madaniyati: adabiyot, teatr, kino, tasviriy san’at, me’morchilik va boshka soxalar rivoji. Fovizm, kubizm, syurrealizm uslublaridagi ijod.
3. Sovet davrida, jumladan, O‘zbekistonda madaniy xayot.

Mustakil o‘rganish uchun tavsiya etiladi: Alfred Nobel xamda Nobel mukofoti soxiblari.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ilmu urfon, fan-texnika tarakkiyoti, adabiyot, san’at: badiiy adabiyot, teatr, kino, rassomchilik, sirk, me’morchilik, xaykaltaroshlik va boshkalar.

Savol va topshiriklar:

1. XX asr ilmu fanining tezkor rivojini ta'minlagan muxim omillarga siz nimalarni nisbat berasiz?
2. XX asrning eng mashxur olimlaridan kimlarni birinchi navbatda tilga olsa bo'ladi?
3. XX asrning nomdor adiblari sirasiga kimlarning nomlarini kiritish mumkin?
4. XX asr san'atining muxim turlari va janrlarini tasvirlab bering.
5. Jaxonning mashxur teatr artistlaridan kimlarni aloxida tilga olsa bo'ladi?
6. Asrning tanikli bastakorlari xakida so'zlab bering.
7. Jaxonning mashxur kino yulduzlari xakida fikrlaringiz?
8. Fovizm va kubizm kabi okimlar urtasidagi farklar nimalardan iborat?
9. Syurrealizm okimining o'ziga xos jixatlari nimada?
10. Sovetlar davrida O'zbekistonda ta'lim tizimining shakllanish va rivojlanish jarayoni kay tarzda kechdi?
11. O'zbek ilm-fani arboblaridan kimlarning nomlarini aloxida ajratib ko'rsatsa bo'ladi?
12. O'zbekistonda kechgan adabiy — madaniy jarayon to'grisidagi fikrlaringiz?
13. Katagonlikka duchor etilgan adiblar nomini sanab o'ting.
14. O'zbek milliy ziyolilari nima uchun sovetlarning tazyiki va bosimiga duchor etilib kelindi?
15. Komfirka va Markaz xalkimiz ma'naviy xayotini nima uchun doimiy suratda taxkirlab keldi?

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiklol va ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 1994, 71-73, 95-104 betlar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiklol, siyosat, mafkura. t. 1. T.: O'zbekiston, 1996, 76-85 betlar.
3. Axmedova E., Gabidullin R. Kul'turologiya. T.: Akademiya Xudojestv Uzbekistana Akademija xudoj. Uzb., T., 2001, 246-254 betlar.
4. Boboev X., xamraev T. v. b. Madaniyatshunoslik. T.: YAngi asr avlod, 2001.
5. Gulmetov E. v. b. Madaniyatshunoslik. T.: Ditsaf, 2000, 99-106 betlar.
6. Silichev D.N. Kulturologiya. O'uv kullanma. M., 1998, str. 234-337.
7. Narodы mira., (Ensiklopediya). M., 1989, str. 16-34.
8. Neru J. Tanlangan asarlar. Uch tomlik M.: Progress, 1988. t-3, str. 377-384.

Ko'shimcha adabiyotlar:

1. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: Mavarounnaxr, 2002.
2. Aliev A. Ma'naviyat, kadriyat va badiiyat. T.: Akademiya, 2000, 29-44, 147-270 betlar.
3. Begmatov X. Kulturologiya – jaxon umuminsoniy sivilizatsiya fani. T., 1999.
4. Ma'naviyat yulduzlari. T.: Meros, 2001, 396-405 betlar.
5. Vatan tuygusi. T.: O'zbekiston, 1996, 111-116, 356-359 betlar.
6. Usmonov K., Sodikov M. O'zbekiston tarixi. Darslik. T.: SHark, 2003, 105-121, 151-164 betlar.

«Milliy istiqlol va madaniy taraqqiyot»

Reja:

1. Milliy istiklol davrida ma'naviy meros, milliy va diniy kadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi.
 2. Mustakillik yillarda ta'lim, adabiyot, me'morchilik, amaliy san'at va kino ravnaki.
 3. Teatr, sirk, musika va ko'shikchilik san'ati, muzey va sport tarakkiyoti.
1. Milliy istiklol davrida ma'naviy meros, milliy va diniy kadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi.
- Jamiyat ma'naviyati mamlakat tarakkiyotining muxim sharti va kafolatidir. SHu narsa xakikatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axlokiy kadriyatlarni rivojlantirmay, xalkning milliy ruxini uygotmay turib, yuksak tarakkiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni ruxiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasi, e'tikodini mustaxkamlaydigan, vijdonini uygotadigan kudratli kuchdir.
- Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiylar boskinchilar xujumiga duchor bo'lgan, xaramlik va zulm ostida kolgan. Buning okibatida xalkimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari kadrsizlanishga maxkum bo'lgan. Ayniksa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy kadriyatlarmiz, urf-odatlarimiz oyok osti kilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz kadrsizlantirildi, ko'plab masjidu-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, xarovsiz koldi. O'zbekiston davlat Mustakilligini ko'lga kiritgan kundan boshlabok mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy isloxoatlarning yo'naliishlari belgilab olindi.

"Moddiy isloxoatlар, iktisodiy isloxoatlар o'z yo'liga. Ularni xal kilish mumkin. Xalkning ta'minotini xam amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy isloxoatlар - kullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, kadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan ogirrok va bundan sharaflirok vazifa yo'k bu dunyoda".

I.A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. Asarlar, t. 1. 202-bet.

Mustakillikning dastlabki kunlaridanok ajdodlarimiz ma'naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketdi.

Xo'sh, ma'naviy merosning o'zi nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo'lmokda?

Ma'naviy meros kadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, xukukiy va diniy xarashlar, axlok-odob me'yordi, ilm-fan yutuklari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy kadriyatlar, boyliklar inkilobiyo yo'l bilan xosil kilinadigan xodisa emas, u jamiyat tarakkiyotining barcha boskichlarida uning extiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr xayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'kolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib xoladi. xar bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Birok uni kanday bo'lsa shundayligicha, ko'rko'rona kabul kilavermaydi, tarakkiy parvarlik, insonparvarlik, adolat nuktai nazaridan kabul kiladi va rivojlantiradi.

Istiklol tufayli milliy madaniyatimiz, jaxon sivilizatsiyasi tarakkiyotiga bebaxo xissa ko'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi kaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalkimiz ulardan baxramand bo'la boshladi.

Mustakillik yillarda xalkimiz ma'naviyati yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YUNESKO bilan xamkorlikda mamlakatimizda va xalkaro mikyosda keng nishonlandi:

1. 1991 yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
2. 1992 yil – Boboraxim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
3. 1993 yil – Zaxiriddin Muxammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
4. 1994 yil – Mirzo Ulugbek tavalludining 600 yilligi;
5. 1996 yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
6. 1997 yil – Abdulxamid Sulaymon o'gli Cholpon tavalludining 100 yilligi;
7. 1998 yil – Axmad al-Farkoniy tavalludining 1200 yilligi;
8. 1999 yil – "Alpomish" dostoni yaratilganining 1000 yilligi;
9. 2000 yil – Burxoniddin Marginoniy tavalludining 910 yilligi;
10. 2000 yil – Kamoliddin Bexzod tavalludining 545 yilligi;

11. 2001 yil – "Avesto" yaratilganligining 2700 yilligi.

Buyuk allomalarimiz yubileyari munosabati bilan ularning o‘nlab noyob asarlari turli tillarda nashr etildi, ularga atab xaykallar o‘rnatildi, ziyoratgoxlar, boglar yaratildi.

1991 yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. SHu yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. YUbiley yilida "Lison ut-tayr", "Sab’ai sayyor", "Farxod va SHirin", "Layli va Majnun", "Xayrat-ul Abror" asarlari nashr kilindi, kinofilmlar va saxna asarlari yaratildi. 1991 yil 28 sentyabr kuni Toshkent shaxrida barpo etilgan Alisher Navoiy xaykali va Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bo?ining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1994 yil oktyabr oyida Mirzo Ulugbek tavalludining 600 yillik yubileyi o‘tkazildi. Ulugbek madrasasi, Ulugbek yashagan davrdagi astronomik asboblar, Toshkentdagি Ulugbek xaykali aks etgan pochta markalari muomalaga chixarildi. O‘sha yil 24 oktyabrdan Parijda YUNESKO zalida "Ulugbek va Temuriylar davri" mavzusida Xalkaro konferensiya xamda "Ulugbek va an’anaviy san’at" ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulugbek koldirgan ilmiy merosning umuminsoniy kadriyatga molik ekanligini yana bir bor isbot etdi.

1998 yil 23 oktyabrdan Farkonada buyuk alloma Axmad al-Farkoniyning 1200 yillik yubileyi nishonlandi. Uning noyob ilmiy merosi xalkimizga kaytarildi. Fargona shaxrida al-Fargoniy bogi yaratildi va buyuk allomaga xaykal o‘rnatildi.

Tarixiy xotiraning tiklanishi. Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axlokiy kadriyat xamda an’analar va mukaddas dinimizning o‘rni va axamiyati katta. Biron-bir xalk o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydi. SHu bois mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalkimiz tarixini xolisona, xakkoniy yoritish, barcha o‘kuv maskanlarida Vatan tarixini o‘kitish borasida muxim tadbirlar amalga oshirildi. 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi davlat va jamiyat kурilishi akademiyasi koshida "O‘zbekistonning yangi tarixi markazi" tashkil etildi.

O‘zbek xalki va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshka saxifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A.Karimovning bir gurux tarixchilar bilan 1998 yil iyun oyida bo‘lgan suxbatida, Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyulda kabul kilingan "O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘grisida"gi karorida belgilab berildi.

Mustakillik yillarda Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlardan, xukmron kommunistik mafkura ta’siridan xalos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko‘rsatilgan yoki so‘z

yuritilmay kelgan tarixiy vokealarni xolislik, tarixiylik, xakkoniylilik tamoyillari asosida yoritilgan kator ilmiy asarlar, darsliklar va o'kuv adabiyotlari yaratildi. Amir Temur yubileyi munosabati bilan Samarkand va SHaxrisabzda o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, kayta tiklandi, yangi inshootlar kurildi, boglar barpo etildi. Samarkand va SHaxrisabz shaxarlari markazida ko'rkan Amir Temur maydonlari barpo etildi va ulugvor xaykallar o'rnatildi. SHuningdek, bu shaxarlarga "Amir Temur" ordeni topshirildi.

1997 yilda Buxoro va Xiva shaxarlarining 2500 yilligi, 1999 yilda buyuk vatanparvar siymo Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi. 2002 yilda Termiz shaxrining 2500 yilligi nishonlandi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shaxid ketgan Abdulla Kodiri, CHo'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshka xalk ziyolilari nomi, xurmati o'z joyiga ko'yildi, asarları nashr etildi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri kurbonlari xotirasini abadiylashtirish maksadida "SHaxidlar xotirasi" yodgorlik majmui bunyod etildi. Mazkur majmua koshida "katagon kurbonlari xotirasi" muzeyi kurilib, 2002 yil 27 avgust kuni foydalanishga topshirildi.

Bu yodgorlik majmualari jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy gururni ko'tarishga xamda xalkimiz, ayniksa, yoshlar ongida milliy istiklol goyalarini shakllantirishga xizmat kilmokda.

Milliy kadriyatlarning tiklanishi. O'zbek xalkining o'ziga xos milliy kadriyatları bor. O'zbek xalkining shakllanishi kanchalik uzok tarixiy jarayonda sodir bo'Igan bo'lsa, uning milliy kadriyatları xam shunchalik uzok tarixiy jarayon davomida shakllangan.

Kadriyatlar dastlab maxalliy mazmunda, ya'ni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarkand, Toshkent, Farkona va xokazo xududlarda yashovchi elatlarga xos urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar tarzida shakllangan. So'ngra ularning eng yaxshilari asrlar davomida saralanib umummilliy kadriyatlar darajasiga ko'tarilgan. Turli mamlakatlarga xos eng yaxshi kadriyatlar saralanib umuminsoniy kadriyatlarga aylanadi. SHu boisdan xam xar bir inson uchun o'z milliy kadriyatlarini, shuningdek umuminsoniy kadriyatlarini bilish xam farz, xam xarzdir.

Mustakillik yillarida xalkimizning milliy kadriyatlarini tiklash, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish yo'lida bir kator xayrli ishlar amalga oshirildi.

1994 yil 23 apreldagi Prezident farmoni asosida tashkil etilgan Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi o'zbek xalkining ma'naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan goyalarni yuzaga chixarish, yuksak iste'dod va tafakkur soxiblarining akliy-ijodiy saloxiyatini Vatan ravnaki sari yo'naltirishga xaratilgan muxim tadbirilar, ko'rgazmalar tashkil etishni yo'lga ko'ydi. Markaz tomonidan axoli orasida o'tkazilgan sotsiologik tadkikotlar, so'rovlar va shu asosda ishlab chikilgan tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy-axborot vositalarining ma'naviy-tarbiyaviy faoliyati saviyasini yaxshilashda muxim axamiyat kasb etdi.

1996 yil yanvarda Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi xuzurida "Oltin meros" xalkaro xayriya jamgarmasi tuzildi. 1996 yil 27 sentyabrda Respublika Vazirlar Maxkamasining ""Oltin meros" xayriya jamgarmasini ko'llab-kuvvatlash to'grisida"gi xaroriga binoan mazkur jamarma davlat tomonidan moddiy jixatdan ko'llab kuvvatlandi.

"Oltin meros" xayriya jamgarmasi "Xalk merosi durdonalari" ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan ko'lyozmalar, tarixiy xujjatlar, xalk xunarmandchiligi amaliy san'at namunalari, yodgorliklarini taxlil kilish, ko'rik tanlovlari o'tkazish bilan shugullanmokda. 1996-2002 yillarda "Oltin meros" jamgarmasi sa'y-xarakatlari natijasida buyuk allomalarimizning ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi xamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. SHuningdek, u xalkimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, tiklash, xalkimizga kaytarish, ularning ma'no-moxiyatini, xozirgi kundagi axamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta xissa ko'shmokda.

Diniy kadriyatlarining tiklanishi. Kadim zamonlardayok yurtimizda din erkinligi mayjud bo'lган. Zardushtiylar, buddiylar, moniylar, musulmonlar va boshqa diniy e'tikoddagilar inoklikda yashagan, tenglik, erkinlik goyalariga amal kilingan. Xalkimiz ma'naviy jixatdan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lган islom dinini kadrlaydi. Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Kur'oni Karimdan keyingi asosiy manba xisoblanuvchi "Al-Jomi" As-Saxik" nomli asar yaratib islom dinini boyitdi. Bobokalonlarimiz Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Burxoniddin al-Marginoniy, Baxouddin Nakshband, Imom at-Termiziyy, Xo'ja Axmad YAssaviylar insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi diniy, axlokiy va xukukiy xikmatlar ijodkoridirlar.

Karamlik davrida taxkirlangan diniy kadriyatlarimiz Mustakillik nuri bilan kayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug nomi o'z o'rniga ko'yildi.

1993 yil sentyabrda Buxoroda mashxur shayx Baxouddin Nakshband tavalludining 675 yilligi nishonlandi. YUbiley munosabati bilan Buxorodagi Nakshband nomi bilan boglik tarixiy yodgorliklar kaytadan tiklandi, uning ijodiga bagishlangan kator risolalar chop etildi.

1998 yil 23 oktyabrda Samarkandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining xijriy-kamariy tavkim bo'yicha 1225 yilligi nishonlandi. SHu kuni Xartang kishlokida Imom al-Buxoriy yodgorligi majmui ochildi. YUbiley munosabati bilan Ismoil al-Buxoriyning 4 jildlik "Al-Jomi" As-Saxik" kitobi o'zbek tilida nashr etildi.

2000 yil 16-17 noyabr kunlari Margilonda islom xukukining asoschilaridan biri Burxoniddin al-Marginoniy tavalludining 910 yilligi, Samarkandda Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bagishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burxoniddin al-Marginoniyning islom xukukiga bagishlangan "Xidoya" kitobi nashr etildi. SHuningdek, islom olamining tanikli allomalari Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Maxmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xoja Axror Valiy tavalludining 600 yilligi keng ko'lamda nishonlandi.

O'zbekiston Prezidentining 1992 yil 27 martdag'i farmoni bilan Ro'za-Ramozon xayitining bиринчи kuni dam olish kuni deb e'lon kilindi. Respublika musulmonlarining istak va xoxishlariga ko'ra kurbon xayiti xam tiklandi, dam olish, bayram kuni bo'lib koldi. O'zbekiston xalki tarixida bиринчи marta bevosita xukumat xомиyligida xar yili xaj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Mustakillik yillarda 40 ming o'zbekistonliklar Makka va Madinada xaj safarida bo'ldi. YUzlab masjidlar musulmonlarga kaytarildi, yangilari barpo etildi. xozir "Islom nuri" gazetasi chikmokda. Kur'oni Karim 8 marta 1 mln. nusxada nashr etildi. Bu tadbirlar nafakat dindorlar uchun kilingan marxamat bo'lib kolmay, ular aslida xalkimizning kadimiy rasm-rusum va udumlari, kadriyatlarning tiklanishi, ajdodlar ruxining kayta Uygonishidir.

Prezidentning 1992 yil 7 martdag'i farmoni bilan Islom dini va uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maksadida Respubika Vazirlar Maxkamasi xuzurida din ishlari bo'yicha ko'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida islom instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmokda. Ularda 1000 dan ortik talaba-yoshlar ta'lim olmokdalar. 1999 yilda tashkil etilgan Toshkent Islom universitetida 750 talaba o'kimokda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va 1998 yil 30 aprelda yangi taxrirda kabul kilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi konunda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati xukukiy jixatdan anik belgilab berildi.

Xamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Xar bir inson xoxlagan dinga e'tikod kilish yoki xech kaysi dinga e'tikod kilmaslik xukukiga ega. Diniy karashlarni majburan singdirishga yo'l ko'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda.

Muxtasar kilib aytganda, Mustakillik yillarda din, eng avvalo, islom dinining xam milliy, xam umuminsoniy kadriyat sifatidagi mavkei tiklandi, diniy ulamolarning kadr-kimmati o'z joyiga ko'yildi.

O'zbek tili mavkeining mustaxkamlanishi. Mamlakatimizda o'zbek tilining xalk va davlat turmushidagi asosiy axamiyati va o'rni kayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi 1995 yil 21 dekabrda yangi taxrirdagi "Davlat tili to'grisida"gi konunni kabul kildi. konunda o'zbek tili o'zbek xalkining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaki, ko'llanilishi va muxofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab ko'yildi. O'zbekistonda Oliy davlat xokimiyyati, maxalliy xokimiyyat va boshkaruv organlarining faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning xisob-kitobi, statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmokda. Respublikaning ma'muriy-xududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik o'rnlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib ko'yildi. Natijada o'zbek xalkining milliy kadr-kimmati, Mustakil davlatimizning mavkei kayta tiklandi va mustaxkamlandi. SHuningdek, O'zbekistonda istikomat kilayotgan barcha millatlarning tillari, kadr-kimmati o'z o'rnini topdi.

2. Mustakillik yillarda ta'lim, badiiy adabiyot, me'morchilik, amaliy san'at, kino va ravnaki.

Ta'lim ravnaki. Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muxim vositasidir. SHu boisdan xam Mustakil O'zbekistonda maorif va madaniyat ishlarini eng muxim va dolzarb soxa sifatida rivojlantirishga aloxida e'tibor berildi.

1992 yil 2 iyulda kabul kilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi konuni xamda 1991-1996 yillarda e'lon kilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Maxkamasining xarorlari asosida ta'lim soxasida kator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tizimida uylarda tashkil etiladigan bolalar bogchalari xamda "bolalar bogchasi-maktab" majmui tarmogi rivojlandi. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriyy va musika san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortik gurux tashkil etildi.

"Sogлом avlod uchun", "Iktisodiy ta'lim", "kishloq maktabi", "Rivojlanishda nuksoni bo'lgan bolalarni tiklash" va boshka tarmok dasturlari ishlab chikildi xamda ta'lim jarayoniga tadbik etila bordi.

Oliy ta'lim soxasida xam ko'plab yangi o'kuv yurtlari ochildi. 1992 yil 28 fevraldagi Prezident farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Eng zarur zamонавија mutaxassisliklar bo'yicha yangi oliy o'kuv yurtlari - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi davlat va jamiyat kурлиши akademiyasi, kуrolli kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent Moliya instituti, Navoiy konchilik instituti, Samarkand davlat chet tillari instituti, Andijon iktisodiyot va boshkaruv instituti, Jizzax politexnika instituti, xarshi agrar-iktisodiyot instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Namangan muxandislik-iktisodiyot instituti xamda viloyatlarda yirik universitetlarning filiallari tashkil etildi. 1997 yil boshlarida Respublika Oliy ta'lim tizimida 58 ta oliy o'kuv yurti, shu jumladan 16 ta universitet va 42 ta institut faoliyat ko'rsatdi. Ularda 164 ming talaba o'kidi, 18,5 ming professor-o'kituvchi faoliyat ko'rsatdi.

Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baxolashning ilgor usullari joriy etildi.

Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy ragbatlantirish, ulsharning chet elda o'kishini ko'llab-kuvvatlash maksadida "Ulugbek", "Umid", Respublika bolalar fondi, "Kamolot", "Sogлом avlod uchun", "Iste'dod" jamgarmalari tashkil etildi.

Ta'lim tizimida bir kator chora-tadbirlar amalga oshirilsada, xali bu soxada jiddiy kamchiliklar mavjud edi.

Xususan, ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor isloxitlari talablari bilan boglanmagan edi. O'kuv jarayonining moddiy texnika va axborot bazasi konixarsiz axvolda edi. Ta'lim muassasalarida zamонавија o'kuv adabiyotlari va didaktik materiallar

etishmasdi. YUkori malakali pedagoglar etishmasdi. Maktab o'kuvchilarida Mustakil fikr shakllantirilmayotgan edi.

Ta'lismizni, fan va ishlab chixarish o'rtasida xamkorlik, integratsiya o'rnatilmagandi. Kadrlar tayyorlashda marketing mavjud emasdi. Amaldagi ta'lismizni zamonaviy, tarakkiy topgan davlatlar darajasidan ancha orkada edi. SHu boisdan ta'lismizi tubdan isloq kilish masalasi ko'ndalang bo'lib koldi.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limga isloq kilish yo'llari ishlab chikildi. Islom Karimov 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida "Barkamol avlod - O'zbekiston tarakkiyotining poydevori" mavzusida ma'ruza kildi. Ma'ruzada oldimizga ko'ygan buyuk maksadlarimizni ro'yobga chikarish takdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yukori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas boglik ekanligi asoslab berildi.

1997 yil 29 avgust kuni Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismi to'grisida"gi yangi konuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabul kilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maksadi ta'lismi soxasini tubdan isloq kilish, uni o'tmishdan kolgan mafkuraviy xarashlar va sarkitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi yukori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dasturda, xayotimizning barcha soxalarida boskichma-boskich amalgalashirilayotgan isloxtolarga monand ravishda, ta'limga isloxtolarini uch boskichda amalgalashirish nazarda tutilgan.

Birinchi boskich (1997-2001 yillar)da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy saloxiyatini saklab xolish asosida ushbu tizimni isloq kilish va rivojlantirish uchun xukuki, kadrlar jixatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro'yobga chikariladi.

Ikkinci boskich (2001-2005 yillar)da Milliy dastur to'lik ro'yobga chikadi, mexnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iktisodiy sharoitlarni xisobga olgan xolda unga anikliklar kiritiladi.

Uchinchi boskich (2005 va undan keyingi yillar)da to'plangan tajribani taxlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish istikbollariga muvofik kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalk, umummillat ishiga aylandi. 2001 yilda Milliy dasturni ro'yobga chixarishning birinchi boskichi yakunlandi.

Isloxtolarga mos ravishda maktabgacha ta'limga faoliyati tubdan o'zgardi. Xususiy va xonodon bogchalar tarmogi kengaydi. Respublika bo'yicha 84 foiz maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'limga muassasalarida, xo'jalik xisobidagi kiska muddatli guruxlarda, maktablar koshidagi tayyorlov guruxlari, savodxonlik va boshka turdagagi markazlarda amalgalashirilmokda. 16 foizi esa oilalarda maktabga tayyorlanmokda. 2001-

2002 yillarda Respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyat ko'rsatdi, ularda 608500 nafar o'gil-kizlar tarbiyalandi, 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshka xodimlar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston xukumati ta'limni rivojlantirish uchun katta mablag ajratmokda. Birgina 2001 yilda ta'lim xarajatlari davlat byudjeti sarf-xarajatlarining 36 foizini tashkil etdi. Ta'lim uchun 150 mln. AKSH dollaridan ziyod chet el investitsiyasi sarflandi. Ular yangi ta'lim binolari barpo etish, ularni eng zamonaviy o'kuv-laboratoriya uskunalari va o'kuv mebellari bilan jixozlash uchun sarflandi. Mustakillik yillarda 848398 o'kuvchi o'rniga mo'ljallangan 2244 ta yangi umumta'lim maktab binolari kurilib, foydalanishga topshirildi. Respublikamizda 9661 umumta'lim maktablarida 6 millionga yakin o'kuvchi ta'lim-tarbiya olmokda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng muxim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdag'i 3 yillik o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitkadamlik bilan amalga oshirilmokda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining birinchi boskichi – 1997-2001 yillarda 216 ming o'kuvchi o'rniga ega bo'lgan 44 ta akademik litsey va 291 ta kasb-xunar kolleji barpo etildi.

Oliy ta'lim ikki boskichdan: bakalavriat va magistraturadan iborat etib kayta tashkil etildi. 1999 yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. 2001-2002 o'kuv yilida 62 ta oliy o'kuv yurtida 180 mingdan ortik bo'lajak bakalavrilar va 5 mingdan ortik magistrantlar ta'lim-tarbiya oldilar. 18486 nafar professor-o'kituvchilar mexnat kildilar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir.

Mamlakatimizda iktidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ko'llab-kuvvatlash bo'yicha davlat siyosati yuritilmokda. Bu borada xalkaro xamkorlikni yo'lga ko'yish muxim vazifalardan biridir. 1997 yilda tashkil etilgan "Umid" jamgarmasi yo'llanmasi bilan 1997-2001 yillarda 785 nafar yigit-kiz rivojlangan davlatlarning oliy o'kuv yurtlariga o'kishga yuborildi. Ulardan 519 nafari bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan Maxsus ishchi guruxi yo'llanmasi asosida vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalarda ishlamokda. 2002 yil iyulda Toshkentda Xalkaro Vestminster universiteti tashkil etildi va 160 ta dastlabki talabalar kabul kilindi.

Ta'lim muassasalarining Evropadagi ta'lim jamgarmasi, Germaniyadagi Texnikaviy xamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalkaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YUNESKO, Jaxon banki, TASIS-TEMPUS ochik jamiyat instituti, SOROS fondi, AKSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan xamkorligi kengayib bormokda. Ta'lim ravnaki uchun 150 mln. AKSH dollari xajmida chet el investitsiyalari jalb etildi. Oliy o'kuv yurtlarining yuzlab professor-o'kituvchilari "Ustoz" jamgarmasi yo'llanmasi bilan xorijiy oliy o'kuv yurtlarida malaka oshirib keldilar.

O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo mikyosida katta kizikish uygotmokda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalkaro Fanlar akademiyasi prezidenti V.SHukshunov O'zbekistonda ishlab chikilgan bu Milliy dasturni mazmun-moxiyati jixatidan

tengi yo'k xujjat, deb ta'rifladi. O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi "Ta'limning o'zbek modeli" deb e'tirof etildi.

Badiiy adabiyot. Mustakillik yillarda badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy kadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi akida xukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda Mustakillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan kurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib koldi. Badiiy adabiyot rivojiga Karomatovning "Kur'on va o'zbek adabiyoti", O.SHarofiddinovning "CHo'lponni izlab", B.Kosimovning "Maslakdoshlar" asarlari ijobiy ta'sir etdi.

Abdulla Oripov, Odil YOkubov, Primkul Kodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pesa va xissalarida ulug bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Z.M.Bobur va boshkalarning siymolari umuminsoniy va milliy kadriyatlarga mos tarzda yangicha talXinda yoritildi.

SHukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" romanida, Nazar Eshonkulovning "Kora kitob" povestida, O'tkir Xoshimovning "Tushda kechgan umrlar", Togay Murodning "Otamdan kolgan dalalar" singari asarlarda mustabid sovet davrida xalk boshiga solingan bexad kulfatlar, gam-alamlar xakkoni yasvirlangan.

Togir Malikning "SHaytanat" (4 kitob), Xojakbar SHayxovning "Tutkin odamlar" asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va kaboxat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh kilinadi, ularga nisbatan nafrat tuykulari tarannum etiladi.

Omon Muxtorning "To'rt tomon kibla" nomli trilogiyasi, Barat Boykobulovning "O'zbeknoma" tarixiy-falsafiy dostoni, Abdukaxxor Ibrokimovning "Biz kim, o'zbeklar" badiiy-tarixiy asari, Azim Suyunning "Ok va kora", A.Kutbiddinining "Izoxsiz lugat" she'riy asarlari zamонави о'zbek adabiyotining yorkin ifodasidir.

Me'morchilik va amaliy san'at. O'zbek xalki me'morchiligi moxiyat e'tibori jixatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustakillik yillarda me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormokda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri SHarkona me'moriyatning an'anaviy konun-koidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Toshkent shaxar xokimiyyati binolari timsolida o'z aksini topgandir.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jaxon xamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jaxon me'morchiligining eng yaxshi yutuklaridan foydalanishda namoyon bo'lmokda. Bunday binolar jumlasiga "Meridian", "Afrosiyob" (Samarkand), "Buxoro" "Interkontinental", "SHeraton" mexmonxonalar, "O'zekspomarkaz", Milliy bank, Markaziy bank, "Toshkentplaza" savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, O'zbekiston Davlat konservatoriysi va boshka binolarni kiritish mumkin.

Toshkent shaxri ko'rkiga ko'rk ko'shib turgan "Oloy", "CHorsu", "Otchopar", "YUnusobod", "Mirobod", "Parkent", "Ko'ylik" va boshka bozor binolari, shuningdek "YUnusobod" tennis markazi, "Jar" sport markazi singari zamonaviy inshoatlar barpo etildi.

O'zbekistonning kadimiy shaxarlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borilmokda. Bunga Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva shaxarlarida kayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'laoladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini xayotga tadbik etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun maxobatli binolar bunyod etildi.

Mustakillik yillarida xaykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. xaykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otlik xaykali, Samarkand va SHaxrisabzda Amir Temur xaykallari, Farkona va kuvada al-Farkoniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi xaykallari (1999) yaratildi. xaykaltarosh R.Mirboshiev ijodiga mansub "Z.M.Bobur" (1993, Andijon), "Abdulla ?odiriy" (1994, Toshkent), "CHo'lpon" (1997, Andijon), "Ona" (1999, Jizzax shaxri) kabi bir kator xaykal va yodgorliklar yaratildi. 1999 yilda Termizda "Alpomish" xaykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Raxmatullaev va boshkalar) bunyod etildi.

O'zbekistonda kadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustakillik yillarida badiiy kulolchilik, pichokchilik, zargarlik, ganchkorlik, yogoch o'ymakorligi, nakkoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormokda. Mustakillik sharofati bilan dizayn san'ati xam jadal rivojlanmokda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va "Tasviriy oyina" respublika ijodiy uyushmasi muxim rol o'ynadi. O'zbekiston xalk rassomlari Malik Nabiev, Baxodir Jalolov va boshkalar xalkimiz ongida milliy gurur, Vatanga sadokat tuykularini uy?otuvchi kator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. SHaxar ko'chalariga bugungi xayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga xuzur-xalovat, zavk bagishlaydigan nakshlar bilan bezatildi.

Kino san'ati. Mustakillik yillarida kino san'ati rivoj topdi. 1996 yilda "O'zbekfilm" tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30ga yakin Mustakil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996 yilda tashkil etilgan "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jixatdan ko'llab-kuvvatlanishi kino san'atining rivojida muxim axamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002 yillarda 60 ga yakin badiiy filmlar yaratildi. "Temir xotin", "Dallol", "SHarif va Ma'rif", "Tilla bola", "Buyuk Amir Temur", "YUlduzingni ber, osmon", "Kenja singil" va boshka filmlarda milliylik va zamonaviylik uy?unligi yakkol namoyon bo'ldi. 1997 yil 22-29 may kunlari XII Xalkaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalkaro tashkilotdan vakillar, kino san'ati ustalari katnashdi. "Buyuk Amir Temur"

filmi ijodkori R.Ibrokimovga festival bosh sovrini – "Neksiya" avtomobili berildi.

Mustakillik yillarida o‘nlab xujjatli filmlar yaratildi. "O‘zbekiston baxorlari", "Ulkan odim", "Ular Germaniyada o‘kigan edilar", "O‘zbekiston kaxramonlari", "Umid kaldirgochi", "Istiklol fidoyilari" va boshkalar shular jumlasidandir.

3. Teatr, sirk, musika, ko‘sikchilik san’ati, muzey va sport tarakkiyoti.

Teatr. Mustakillik yillarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy isloxoxtlar jarayonida teatr san’ati xam rivojlandi.

1993 yilda foydalanishga topshirilgan "Turkiston" saroyi Vatanimiz va xorijlik teatr arboblarining, ijodiy guruxlarning saxna asarlari namoyish etiladigan dargoxga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar teatri, Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

Respublika Prezidentining 1995 yil 20 oktyabrdagi "O‘zbekistonda teatr va musika san’atini yanada rivojlantirishni ko‘llab-kuvvatlash va ragbatlantirish chora-tadbirlari to‘grisida"gi, 1998 yil 26 martdagи "O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘grisida"gi farmonlari asosida teatrlar davlat byudjeti xisobiga ko‘llab-kuvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi koshida 1998 yilda "O‘zbekteatr" ijodiyishlab chixarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalkimizning boy ma’naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga xurmat xissini uygotuvchi spektakllar yaratishda, iste’dodli yoshlarni teatrga jalb kilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustaxkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy ximoya kilishda ko‘maklashdi. Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri YAponiya tomonidan 1995 yilda bepul ajratilgan 47 mln. ien (1500 ming AKSH dollari) kiymatiga teng yangi uskunalar bilan jixozlandi. Respublikamizda 36 ta professional teatr faoliyat ko‘rsatmokda. xar bir viloyatda ko‘girchok teatrlari bolalarga xizmat kilyapdi.

2001 yilda respublika teatr san’atida muxim tarixiy vokea sodir bo‘ldi. xamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muxtasham koshona shaklida kayta kurildi, zamonaviy teatr uskunalarini va mebellar bilan jixozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr makomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini saxna asarlari orkali yoritishga aloxida e’tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Kashkadaryo musicali drama teatri jamoalari "Soxibkiron", Xorazm viloyati musicali drama va komediya teatri "Jaloliddin Manguberdi", Abror Xidoyatov nomli o‘zbek davlat teatri "Buyuk ipak yo‘li" kabi tarixiy dramalarni saxnaga ko‘ydi.

1997 yil oktyabrdagi Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Teatr: SHark-Garb" xalkaro festivalda YAponiya, Xindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san’atkorlarining chikishlari bo‘ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bagishlangan festivalda O‘zbekiston, Kozogiston, Kirkiziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy saxna asarlari namoyish etildi. O‘zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Xindiston, AKSH,

Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida kizixarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

Muxtasar aytganda respublikamiz teatr san'ati xalkimiz, ayniksa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ular ongiga Milliy istiklol goyasini singdira borish, vatanparvarlik tuykularini kuchaytirish, axlokiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat kilmokda.

O'zbek sirk. 1992 yilda "O'zbekdavlatsirk" respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san'atining rivojlanishida muxim axamiyatga ega bo'ldi. Toshkent sirk zamona viy talablar asosida kayta ta'mirlandi, unga O'zbekiston xalk artisti Toshkenboy Egamberdiev nomi berildi. An'anaviy sirk san'atining unitilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste'dodli yoshlarga amaliy yordam berish maksadida 1996 yilda estrada-sirk kolleji ochildi.

O'zbekiston sirkchilarining chet ellarga gastrol safarları uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Xindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol safarlarida bo'lgan respublikamiz sirk ustalari o'zbek milliy sirk san'atini namoyish etdilar.

Olimjon Toshkenboev ra?barligidagi "O'zbekiston dorbozları" guruxi 1996 yildan boshlab Evropa mamlakatlarda gastrol safarida bo'lib 2000 dan ziyod tomosha ko'rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997 yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo'lgan yosh sirk artistlarining xalkaro festivalida katnashib "Plastik etyud" (besuyak uyini) janrida festivalning eng oliy mukofoti – oltin medalni ko'lga kiritdi. 1998 yilda Toshkent sirkida iste'dodli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi.

O'zbek sirkchilari 1999 yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shaxrida, 1999 yilda Saratov shaxrida bo'lib o'tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000 yilda Xitoyning Uxan shaxrida bo'lib o'tgan xalkaro sirk festivalida, 2001 yil yanvarda Belgiyaning Lej shaxrida bo'lib o'tgan Evropa sirklarining 10-festivalida muvaffakiyatli katnashib, sovrinli o'rirlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa'y-xarakatlari natijasida O'zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalkaro sirk dasturlaridan o'rinn egalladi.

Milliy musika va ko'shikchilik. Mustakillik yillarda milliy musika va ko'shikchilik san'ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992 yilda tashkil etilgan "Xalk ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlari respublika markazi", uning viloyatlardagi bo'limlari musika va ko'shikchilik san'atini, xavaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalk oxanglarini tiklash maksadida turli xil ko'rik tanlovlari, festivallar tashkil etmokdalar. 1992 yilda Toshkentda "Asrlarga tengdosh navolar" va "Bokiy ovozlar", Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, kizikchi va masxarabozlarning, ko'konda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. 1994 yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan "SHark musikasi" festivalida Munojot Yo'licheva va SHavkat Mirzaevlar ishtirok etib, o'zbek milliy ko'shikchilik san'atini jaxonga namoyish etdilar.

1996 yil aprel oyida Turkiston saroyi, "Baxor" majmuasi va boshka ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan "O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasi orkali xalk orasidan iste'dodli ko'shikchilarni izlab topish va

ko‘rik-tanlovlarga jalg etish, musika va ko‘shikchilik san’ati bo‘yicha xalkaro xamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Prezidentining 1996 yil 27 avgustdagи ""O‘zbekiston – Vatanim manim" ko‘shiklar bayrami to‘grisida"gi farmoni ko‘shikchilik san’atini rivojlantirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. 1996 yilda o‘tkazilgan barcha viloyat, shaxar va tumanlarida "O‘zbekiston - Vatanim manim" ko‘shik tanlovida 54 mingdan ziyod ko‘shikchilar ?atnashdi. Bunday ko‘rik tanlov xar yili avgust oyida o‘tkaziladigan bo‘ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni "O‘zbekiston – Vatanim manim" ko‘shik bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, Mustakillikni e’zozlovchi yuzlab yangi ko‘shiklar yaratildi. "O‘zbekiston – Vatanim manim", "Men seni sevaman, O‘zbekiston", "Vatan yagonadir", "Mustakillik gullari", "Ona yurtim", "O‘zbekiston askarlari" ko‘shiklari shular jumlasidandir.

1997 yil 11 martda kabul kilingan Respublika xukumatining ""SHark taronalari" Xalkaro musika festivalini o‘tkazish to‘grisida"gi xarori musika san’atining noyob namunalarini keng targib kilish, rivojlantirishda dasturamal bo‘lib xizmat kildi. 1997 yil 25 avgust - 2 sentyabr kunlari Samarkandda bo‘lib o‘tgan "SHark taronalari" birinchi Xalkaro festivalida dunyoning 40 dan ortik mamlakatidan ijrochilar, san’atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o‘zbek oxanglari, kuy-ko‘shiklari jaxon uzra taraldi. xar ikki yilda Samarkandda "SHark taronalari" Xalkaro festivalini o‘tkazish an’ana tusini oldi.

O‘zbekistonda musika va ko‘shikchilik san’atini rivojiga xar yili 31 avgust va 21 mart kunlari o‘tkazilayotgan Mustakillik va Navro‘z kunlariga bagishlangan bayram tantanalari jobiy ta’sir ko‘rsatmokda.

Mustakillik yillarda O‘zbekistonda yashayotgan 130 ga yakin turli millat va elat urf-odatlari va an’analari birdek rivojlanib bormokda. xozirgi paytda O‘zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmokda. Milliy madaniy markazlar o‘z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan alokani jonlantirish kabi masalalar bilan shugullanib kelmokdalar. Milliy madaniy markazlar koshida milliy musika, raks, xunar va boshka yo‘nalishlardagi to‘garaklar tashkil etilgan.

1992 yilda turli milliy madaniy markazlarga ko‘maklashuvchi Respublika Baynalmilal markazi tuzildi. Uning faoliyatida respublikamizda istikomat kiluvchi turli millat va e’latlarni jipslashtirish asosiy o‘rin tutmokda. xar bir millatga mansub rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, madaniyat va san’at arboblariga bagishlangan yigilishlar, ko‘rgazmalar tashkil etilmokda. Milliy madaniy markazlar o‘z faoliyati bilan respublikada madaniyat ravnakiga muxim xissa ko‘shmokdalar.

Muzey. Jamiyat madaniy-ma’rifiy xayotida, axolida tarixiy xotirani tiklash va mustaxkamlashda muzeylarning axamiyati katta. SHu boisdan xam Mustakillik yillarda mavjud muzeylarni ta’mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alovida e’tibor berildi.

Namanganda ulug o‘zbek shoiri Boboraxim Mashrab muzeyi, Xorazmda xofiz Xojixon Boltaboev nomli makomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy

san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarkand viloyatining Oktosh shaxrida xalk baxshisi Islom shoir Nazar o'glining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollarini orasidan chikkan birinchi xukukshunos olma Xadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek rakkosasi Mukarrama Turgunboeva muzeyi singari uy muzeylari tashkil etildi. SHuningdek oliy ta'lif muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996 yil 1 sentyabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shonshuxrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalkaro musobakalardagi muvaffakiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport xarakatini rivojlantirish markazi bo'lib koldi.

1996 yil 18 oktyabrdan Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruxini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jixozlar, kurol-aslaxalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musika asboblari, Amir Temur, Bobur ko'lyozmalari, Ulugbekning astronomik kurilmalari va boshka 2000 dan ortikrok tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jixozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlari, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. 2002 yilda Termizda Arxeologiya muzeyi bunyod etildi.

O'zbekiston Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'grisida"gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga karatilgan Respublika xukumatining 1998 yil 5 dekabrdan kabul kilingan "Muzeylar faoliyatini ko'llab-kuvvatlash masalalari to'grisida"gi karori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istikbollarini belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, "Oltin meros" jamgarmasi, Badiiy Akademija, Moliya vazirligi, Mexnat vazirligi muzeylar raxbaryati bilan xamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chikildi. Muzeylar davlat muxofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat byudjeti xisobidan moliyaviy jixatdan ko'llab-kuvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiklashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jixatdan ko'llab-kuvvatlash maksadida 1998 yilda "O'zbekmuzey" Respublika jamgarmasi tuzildi. Axolining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999 yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Fakat 1999 yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi.

O'zbekistonda umumiyligi maydoni 137150 kv.m.ni tashkil etadigan 510 ta muzey faoliyat ko'rsatmokda. Ularda 1,3 milliondan ortik ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar-eksponatlar saklanmokda va axoliga namoyish etilmokda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shaxri tarixiy shaxarlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muxofazasiga olingan. Buxoro, Samarkand va Xiva shaxarlaridagi 3 ta muzey-ko'rikxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy

obidalar, monumental san'at asarlari saklanib kolgan, davlat muxofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston muzeylari axoli orasida o'lkamiz tarixi, xalk amaliy san'ati asarlaridan iborat etnografik ko'rgazmalarni namoyish etib, jamiyatimiz ma'naviy kamolati yo'lida xizmat kilmokda. Minglab xorijiy sayyoxlar respublikamiz muzey-ko'rikxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan kolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san'at asarlari oldida ta'zim etmokdalar. Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Koreya, Xitoy va boshka mamlakatlarda O'zbekiston muzeylarining eksponatlari namoyish etildi.

Sport. Mustakillik yillarda sport O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy kismi sifatida rivojlantirildi.

1992 yil 5 fevralda kabul kilingan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'grisida"gi konuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortik sport inshootlari – sport soglomlashtirish klublari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rribosarlari bilim yurtlari, oliy sport maxorati maktablari, o'yingoxlar, sport zallari, maydonlari, xovuzlar barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shukullanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1992 yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya ko'mitasi tuzildi va 1993 yil sentyabrda xalkaro olimpiya ko'mitasining 101-sessiyasida rasmiy e'tirof etildi.

Sportning boks turi jadal o'sdi. 17 marta jaxon championi Artur Grigoryan, Sidney Olimpiadasi championi Muxammadkodir Abdullaev kabi bokschilarimiz nomi jaxonga mashxur. 1999 yil avgust oyida Amerikaning Xyoston shaxrida o'tkazilgan X jaxon championatida O'zbekiston boks komandasasi 83 mamlakat o'rtasida AKSH va Kuba komandalaridan keyin faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Vatanimizda sportning tennis turi rivojlandi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy YUnusobod tennis majmui barpo etildi. YUnusobod tennis saroyida 1994-2002 yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalkaro tennis musobakalari o'tkazildi. 1999 yilning iyul oyida Londonda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalkaro turnirida toshkentlik sportchi Iroda To'laganova Uimblodon uchrashuvida golib chikib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini ko'lga kiritdi.

1998 yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari Ximolay togining eng baland "Everest" cho'kkisiga ko'tarilib, O'zbekiston dovruxini dunyoga taratdilar.

Mustakillik sharofati bilan milliy o'zbek kurashi tiklandi. 1992 yilda Termiz va SHaxrisabz shaxarlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xalkaro musobaka o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jixatlari va koidalari ishlab chikildi va xalkaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalkaro sport turlari katoridan o'rin oldi. 1999 yil may oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortik mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jaxon championati bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini ko'lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun jaxonga taraldi. Xalkaro kurash

assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. 2000-2002 yillarda London shaxrida 3 marta Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalkaro turnir bo‘lib o‘tdi. 2002 yil oktyabrda Xalkaro kurash assotsiatsiyasi Xalkaro sport federatsiyasi a’zoligiga kabul kilindi. O‘zbek milliy kurashi xalkaro sport turi sifatida dunyoda e’tirof topdi.

Mustakillik yillarda O‘zbekiston sportchilari Olimpiadalar, Osiyo o‘yinlari, Jaxon va Osiyo championatlari va boshka musobakalarda katnashib, 3000 dan ortik oltin, kumush va bronza medallarini ko‘lga kiritdilar.

SHunday kilib, Mustakillik yillarda O‘zbekistonda sport rivojlandi, yangi ma’no-mazmun bilan boyidi, jaxon sportiga ko‘sildi va xalkaro maydonda salmokli o‘rinni egalladi.

Mustakil o‘rganish uchun tavsiya etiladi: O‘zbekiston san’ati (1991-2003 yillar).

Tayanch so‘z va iboralar:

Ma’naviy meros. Milliy kadriyatlar. Diniy kadriyatlar. Ta’lim. Badiiy adabiyot. Me’morchilik. Amaliy san’at. Kino. Teatr. Sirk. Musika. ko’shikchilik san’ati. Muzey. Sport.

Savol va topshiriklar:

1. Siz Jamiyat ma’naviyati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Ma’naviy meros nima?
3. Nima sababdan mamlakatimizda ma’naviy merosni tiklash, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish ustuvor vazifa etib belgilandi?
4. Xalkimiz ma’naviyati yulduzlaridan kimlarning tavallud sanalari nishonlandi?
5. Tarixiy xotirani tiklash deganda siz nimalarni tushunasiz?
6. Kadimi shaxarlarimiz yubileyлari xakida nimalarni bilasiz?
7. "SHaxidlar xotirasi" yodgorlik majmuining barpo etilishi xakida so‘zlab bering.
8. "Katagon kurbonlari xotirasi" muzeyida nimalar o‘z aksini topgan?
9. Milliy kadriyatlar nima? Ularning tiklanishi xakida so‘zlab bering.
10. "Oltin meros" Xalkaro xayriya jamgarmasi kachon tashkil etildi? Uning faoliyati xakida so‘zlab bering.
11. Diniy kadriyatlarni tiklash yo‘lida kanday ishlar amalga oshirildi?
12. O‘zbek tili mavkeining mustaxkamlanishi to‘grisida nimalar deya olasiz?
13. Ta’lim soxasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
14. O‘zbekistonda ta’lim kanday turlarda amalga oshirilmokda?
15. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maksadi nima?

16. Birinchi boskichda ta’lim tizimida kanday o‘zgarishlar yuz berdi?
 17. "Umid" jamgarmasi kachon va kanday maksadda tuzilgan?
 18. Ta’lim muassasalarining xalkaro xamkorligi to‘grisida nimalarni bilasiz?
 19. Teatr san’ati rivoji xakida nimalarni bilasiz?
 20. O‘zbek sirkı xakida so‘zlab bering.
 21. Milliy musika va ko‘shikchiligidan o‘sishi xakida kanday fikrdasiz?
 22. Mustakillik yillarda O‘zbekistonda kanday yangi muzeylar tashkil etildi?
 23. O‘zbekiston sportini rivojlantirish yo‘lida kanday tadbirlar amalga oshirildi?
- 24.O‘zbekiston sport yulduzlaridan kimlarning nomlarini tilga olasiz?